

**M.Xamidov, B.Suvanov, K.Isabaev.**

# **SUG‘ORISH MELIORATSIYASI**



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**XAMIDOV MUHAMMADXON XAMIDOVICH**

**SUVANOV BOYMUROD URALOVICH**

**ISABAEV KASIMBEK TAGABAYEVICH**

# **SUG‘ORISH MELIORATSIIYASI**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**5A450206– “Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari”  
mutaxassisligi uchun**

**Toshkent-2019**

## **ANNOTATSIYA**

O'quv qo'llanma global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi tobora oshib borayotgan sharoitda suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerkarni gidromodul rayonlashtirish, ekinlarning sug'orish rejimi, sug'orish usullari va texnologiyalari, sug'orish tizimlari, sug'orish tarmoqlarini loyixalash, ularni gidravlik hisoblari, kanallardagi suv isrofgarchiligi va ularga qarshi kurash, suv manbalari va suvning hisob-kitobi bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va ularni qo'llash bo'yicha malakalarni shakllantirishga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanma "5A450206 – Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari" magistratura mutaxassisligi bo'yicha "Sug'orish melioratsiyasi" fanini o'rganish uchun mo'ljallangan namunaviy dastur asosida tuzilgan bo'lib, undan oliy o'quv yurtlarining tegishli (mos va turdosh) magistratura mutaxassisliklari talabalari va o'qituvchilari hamda soha mutaxassislari foydalanishi mumkin.

## **АННОТАЦИЯ**

Учебное пособие предназначена для формирования теоретических и практических знаний, навыков их использования по гидромодульному районированию орошаемых земель, режиму орошения сельскохозяйственных культур, способам и технологиям орошения, оросительным системам, проектированию оросительных сетей, гидравлическому расчету их, потерям из каналов и борьбы с ними, источникам воды и учету водных ресурсов в условиях глобального изменения климата и повышения дефицита водных ресурсов.

Учебное пособие подготовлено согласно типовой программы дисциплины «Оросительные мелиорации» по специальности магистратуры «5A450206-Водосберегающие технологии орошения» и предназначена для студентов, преподавателей, специалистов водного хозяйства и фермерам.

## **ABSTRACT**

This manual is intended for the formation of theoretical and practical knowledge, skills for their usage in hydromodul zoning of irrigated lands, irrigation regime of agricultural crops, irrigation methods and technologies, irrigation systems, design of irrigation networks, their hydraulic calculation, water wasting from channels and their control, water sources and integrating water resources in the face of global climate change and increasing water scarcity.

The manual prepared according to the standard program of discipline "Irrigation Reclamation" on the specialty of the master degree "5A450206-Watersaving irrigation technologies" and is intended for students, teachers, water culture specialists and farmers.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 27.12.2019 yildagi № 1186 sonli buyrug'iga asosan cho'p etishga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Yakubov M.A. - ISMITI etakchi mutaxassis, t.f.d., professor.

Norkulov U. - ToshDAU, "Dehqonchilik va melioratsiya" kafedrasи professori, q.x.f.d., professor.

**Xamidov M.X., Suvanov B.U., Isabaev K.T.**

Sug'orish melioratsiyasi, Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: TIQXMMI, 2019: -292 b.

© Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, 2019 yil.

## **Kirish**

Global iqlim o‘zgarishi muammosi insoniyat kun tartibida dolzarb bo‘lib, bu sayyoramizda faqat haroratning o‘rtacha yillik ko‘tarilishi emas, balki barcha geotizimning o‘zgarishi, jahon okeanining ko‘tarilishining yuzaga kelishi, muz va doimiy muzliklarning yerishi, yog‘ingarchilikning bir tekisda yog‘masligining ortishi, daryolar oqimi rejimining o‘zgarishi va iqlimning beqarorligi bilan bog‘liq boshqa o‘zgarishlar ham demakdir.

Global isish tufayli tog‘li hududlarda muzliklarning yerishi, ular hajmining kamayishi yaqin 20 yilda daryolar oqimi, hususan, Amudaryo hamda qisman Sirdaryo va Zarafshonga quyiladigan suvlarning 25-30% ga qisqarishi mumkin bo‘lib, mintaqaga jiddiy muammolar tug‘dirishi, qurg‘oqchil yillarda Amudaryoning quyi qismida suv minyeralizatsiyasining o‘rtacha yillik miqdori 1,5 martaga ortishi mumkin.

So‘nggi 50 yil davomida O‘zbekistonda harorat dinamikasi rejimining kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki, maksimal haroratning o‘sish sur’ati yiliga 0,22 darajaga, minimal esa -0,36 darajani tashkil qildi. SHunga asoslangan holda, 20 yildan keyin respublikaning shimoliy qismida o‘rtacha yillik harorat 2-3 darajaga, janubiy qismda esa 1 darajaga ortadi.

Iqlim o‘zgarishi suv yuzalaridan suvning bug‘lanishini 10-15% ga, o‘simliklar transpiratsiyasi va sug‘orish me’yorlarining ortishi tufayli suvning 10-20% ko‘proq sarflanishiga olib keladi. Bu esa suvning tiklanmay iste’mol qilinishini o‘rta hisobda 18% ga ortishiga olib keladi. Bu, shubhasiz, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining keyingi o‘sishini qiyinlashtiradi. .

Bugungi kunda XXI asrning o‘nta global chaqiriq-muammolaridan biri – suv resurslarining o‘ta tanqisligidir. So‘nggi 60 yilda ichimlik suvi iste’moli planetamizda 8 marta oshdi. YUz yillikning o‘rtalariga kelib, ko‘p davlatlar suvni import qilishga majbur bo‘lishadi. Suv – o‘ta cheklangan resurs bo‘lib, uning manbalarini egallash hozirdanoq geo -siyosatning zaruriy omillaridan bo‘lib, planetadagi keskinliklar va mojarolik (konflikt) vaziyatlarning sabablaridan biriga

aylanmokda.

Xalqaro Irrigatsiya va Drenaj komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra jahon qishloq xo'jaligi yiliga 2,8 ming km<sup>3</sup> chuchuk suv ishlatadi. Bu jaxon bo'yicha chuchuk suv iste'molining 70% ini, yoki jahon sanoati ishlatadigan suvdan 7 marta ko'pdır. Bu suvning deyarli hammasi ekinlarni sug'orishga ishlataladi.

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlarining 40% i va boshoqli donning 60% i sug'oriladigan yerlardan olinadi. Sug'oriladigan yerkarning samaradorligining yuqoriligi, butun jahonda ularning maydonlarini oshirish stimulini byeradi. So'nggi 20 yilda ekinlarning hosildorligi 40% ga oshgan bo'lsada, bir hektar maydonga sarflanadigan suv miqdori so'nggi 100 yilda deyarli katta o'zgarmay kelmoqda.

Xalqaro Irrigatsiya va Drenaj komissiyasining ma'lumotlari bo'yicha jahonda sug'oriladigan yerlar 299,488 mln. ga ni tashkil etadi

Hozirgi kunga kelib, suv resurslaridan oqilona foydalanish mintaqada, jumladan respublikamizning barqaror iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi masalalardan biriga aylandi. Mazkur masala suv resurslarining tanqisligi, ularning sifatini yomonlashish jarayonlari hamda mintaqada shakllangan yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik voqelik sharoitlarida muhimroq va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sug'orma dehqonchilikda suv resurslarini iqtisod qilish muammosini xal qilishning yo'llaridan biri – tejamkor sug'orish texnologiyalarini joriy qilishdir.

Bugungi kun sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta'minlashda o'ta muhim ahamiyat kasb etayotgan suv resurslarining tanqisligi yildan-yilga ortib bormoqda. Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, zamonaviy suv tejamkor texnologiyalardan foydalangan holda suvdan samarali foydalanish ustivor masalalardan biridir. Biz yashayotgan mintaqqa ya'ni Orol dengizi havzasidagi asosiy suv resurslari Amudaryo va Sirdaryo daryolari havzalari suvlaridan tashkil topib, ularning o'rtacha ko'p yillik miqdori 114,4 km<sup>3</sup> tashkil qiladi va biz ularni qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda boshqaramiz va iste'mol qilamiz. Jumladan mamlakatimizda foydalaniladigan suvning 20 foizi respublikamiz hududida shakllanib, qolgan 80 % dan ortig'i qo'shni davlatlar, ya'ni Tojikiston va Qirg'iziston

hududidagi qorliklar va muzliklar hisobiga shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi foydalanishi uchun SXEMAlar asosida kelishib, tasdiqlangan suv resurslarining umumiy miqdori  $63,0 \text{ km}^3/\text{yilni}$  tashkil qiladi. Iqtisodiyot sohalari suvni turli miqdorlarda ishlatalishadi. Bugungi kunda asosiy suv iste’molchisi qishloq xo‘jaligi sanalib, jami ishlatalayotgan suvning 88 % i qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. SHuningdek, kommunal xo‘jaligi - 5,4%, enyergetika – 0,5%, sanoat – 1,7%, baliqchilik-1,2% va boshqalar 2,2% ni tashkil qiladi.

Respublikamizda sug‘oriladigan maydonlar 4,3 mln. gettarni tashkil etib, suv ta’mintonini ta’minlash maqsadida 180 ming km sug‘orish tarmoqlari, 800 dan ortiq yirik gidrotexnik inshootlar, 20 ming donaga yaqin gidropost va suv taqsimlash inshootlari, umumiy hajmi  $19,2 \text{ mlrd.m}^3$  bo‘lgan 55 ta suv omborlari, yillik elektr enyergiyasining umumiy sarfi  $8,2 \text{ mlrd.kVt}$  soat bo‘lgan 1620 ta nasos stansiyalari, 4124 ta tik sug‘orish quduqlari xizmat qilmoqda.

Yerlarning meliorativ holatini barqarorligini ta’minlash maqsadida 102,8 ming.km ochiq zovur tarmoqlari, 38,3 ming. km yopiq drenaj tarmoqlari, 3451 ta tik drenaj quduqlari, 153 ta meliorativ nasos stansiyalari va 24 ming 839 dona kuzatuv quduqlari ishlatib kelinmoqda.

Mana shu ulkan suv xo‘jaligi tizimini barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minlash xamda yangi sug‘orish tizimlarni barpo qilish masalalarini o‘rganish “Sug‘orish melioratsiya” fanining predmeti bo‘lib hisoblanadi.

## **1. SUG‘ORISH MELIORATSIYASI” FANINING MAQSADI, VAZIFALARI VA YO‘NALISHLARI**

### **1.1. Melioratsiya, uning maqsadi va vazifalari**

*Melioratsiya* lotincha so‘z bo‘lib, “melioratio”- *yaxshilash* degan ma’noni bildiradi.

*Melioratsiya* - qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va barqaror xosil olish uchun noqulay tabiiy sharoitlarni tubdan yaxshilashga qaratilgan texnik va tashkiliy-xo‘jalik tadbirlar majmuidir.

## Melioratsiyaning:

- **maqsadi:** Qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olish uchun noqulay tabiiy sharoitlarni: iqlim, tuproq, gidrogeologik va b. ni tubdan yaxshilash
- **vazifalari:** Tuproqdagi etishmaydigan namlikni ta’minlash orqali uning ozuqa, havo va issiqlik rejimini yaxshilash;
- Tuproqdagi ortiqcha namlikni kamaytirish orqali uning ayeratsiyasini kuchaytirish, ozuqa, issiqlik rejimini yaxshilash;
- Tuproqdagi ortiqcha tuzlarni kamaytirish orqali uning hosildorligini va b. rejimlarini yaxshilash;
- Suv va shamolning zararli mexanik ta’sirlarini bartaraf etish.

**Melioratsiyaning asosiy vazifasi:** Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash orqali o‘simlik uchun zarur bo‘lgan suv, havo, issiqlik, yorug‘lik va oziqlanish rejimini ta’minlash va boshqarishdir.

**Yerlar melioratsiyasi** – tuproq unumidorligini saqlash va oshirish, ekinlar hosildorligini va dehqonchilikning barqaror-ligini oshirish hamda iqlim o‘zgarishlarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta’sirini yumshatishga xizmat qiladi.

### 1.2. Melioratsiyaning vazifalarini belgilashdagi iqlim koeffitsienti

Tuproqning tabiiy namlanganligi iqlim va landshaftga, relyef, tuproq, geologik va gidrogeologik shart-sharoitlarga ham uzviy bog‘liqdir.

Maydonlarning tabiiy namlanganligi bir qator olimlar-akademik A.N.Kostyakov, N.N.Ivanov, G.T.Selyanikov, D.I.Shashko va boshqalarning ko‘rsatmalariga asosan, tabiiy yog‘ingarchilik va umumiyl suv iste’moli yoki shartli bug‘lanish nisbatlari bilan aniqlanadi. Jumladan, akademik A.N.Kostyakov tavsiyasi bo‘yicha tabiiy namlanish mintaqalari suv muvozanat koeffitsienti ( $\alpha$ ) bo‘yicha farqlanadi:

$$\alpha = \frac{\mu \cdot P}{E}, \quad E = 100 \cdot t \cdot \left( 1 - \frac{a}{100} \right),$$

bu yyerda  $P$ -yillik yog‘in miqdori, mm;  $\mu$ -yog‘indan foydalanish koeffitsienti;  $E$ -umumiyl bug‘lanish, mm;  $t$ -o‘rtacha yillik harorat,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $a$ -havoning o‘rtacha yillik nisbiy namligi, %.

$\alpha > 1,2$  bo‘lgan maydonlar ortiqcha namiqqan maydonlar (gumid zona),

$\alpha = 0,8 - 1,2$  bo‘lgan maydonlar o‘zgaruvchan, turg‘un bo‘lmaidan maydonlar (subarid zona),  $\alpha < 0,8$  bo‘lgan maydonlar qurg‘oqchil maydonlar (arid zona) deb yuritiladi.

D.I.Shashko tavsiyasi bo‘yicha esa, tabiiy namlanish ko‘rsatkichi ( $\alpha$ ) quyidagicha:

$$\alpha = \frac{P}{E_I}, \quad E_I = 0,45 \cdot \sum d$$

bu yerda  $P$  -yillik yog‘in miqdori, mm;  $E_I$  -shartli bug‘lanish, mm;  $\sum d$  -kunlik havo namligining taqchilligi, mb.

$\alpha > 0,6$  - ortiqcha namiqqan,  $\alpha = 0,45 - 0,6$  - namiqqan,  $\alpha = 0,25 - 0,45$  - kam qurg‘oqchil,  $\alpha = 0,15 - 0,25$  - qurg‘oqchil,  $\alpha < 0,15$  - quruq maydonlarga farqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan barcha holatlarda ham Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi maydonlari qurg‘oqchil (arid) yoki tabiiy quruq maydonlar turkumiga mansubdir. Shu o‘rinda O‘zbekiston iqlimi to‘g‘risidagi qisqa ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tamiz.

### 1.3. Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasining vazifalari bo‘yicha turlari

Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi bajaradigan vazifalariga ko‘ra to‘rtta turga bo‘linadi. Bular: *sug‘orish melioratsiyasi*, *zax qochirish melioratsiyasi*, *chuchuklashtirish melioratsiyasi va yeroziyaga qarshi melioratsiya*.

- *Sug‘orish melioratsiyasi*- tuproq unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olish uchun tuproqda namlik etishmaydigan hududlarda kerakli suv va u bilan bog‘liq ozuqa, issiqlik va boshqa rejimlarni ta’minalash va boshqarishdir.





1-rasm. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish

- **Zax qochirish melioratsiyasi** - ortikcha namiqqan yerlarda tuproqning kerakli suv, havo, ozuqa va boshqa rejimlarini ta’minlash uchun ortiqcha suvlarni maydondan olib chikish tadbirlaridir.



2-rasm. Ortikcha namiqqan yerlarda zax qochirish.

- **Chuchuklashtirish melioratsiyasi** - Ekinlardan yuqori hosil olish uchun tuprokdagi ortiqcha tuzlarni chiqarib tashlab, kerakli suv, tuz, ozuqa va boshqa rejimlarni ta’minlash va boshqarishdir.



3-rasm. Ortiqcha tuzlarni chiqarib tashlash uchun sho‘r yuvish

- **Yeroziyaga qarshi melioratsiya** - Suv xo‘jalik, agrotexnik va o‘rmonchilik kompleks tadbirlari asosida suv va shamolning tuproqqa zararli mexanik ta’sirlarini bartaraf etishdir.



4-rasm. Suv va shamolning tuproqqa zararli mexanik ta'sirini oldini olish

#### **1.4. Melioratsyaning amalga oshirish bo'yicha turlari**

Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni qanday amalga oshirishi bo'yicha *gidrotexnik, agrotexnik, o'rmon-texnik, kimyoviy va madaniy-texnik melioratsiya* turlariga ajratiladi.

**Gidrotexnik melioratsiya.** Maxsus qurilgan gidrotexnik inshootlar (to'g'on, kanal, suv olgich, kollektor-zovur va boshqalar) yordamida tuproqqa o'simlik uchun kerak bo'lgan suvni etkazib berish, tuproqni sug'orish, zahini qochirish, tuz rejimini yaxshilash va har qanday emirilish va yuvilishlarning oldini olish jarayonidir.



5-rasm. Gidrotexnik inshootlar

**Agrotexnik melioratsiya.** Agrotexnik tadbirlar yordamida o'simliklarning o'sib rivojlanishi va yuqori hosil berishi uchun maqbul sharoitlar yaratishdir. Bularga: maxsus meliorativ yer haydashlar, yer tekislash, unumdon qatlam hosil qilish uchun katta mikdorda bir marotaba o'g'it berish, tuproq qatlamini chuqur yumshatish, tuyruklar (krotovanie) va boshka agrotexnik tadbirlar kiradi.

Agrotexnik melioratsyaning agrotexnik tadbirlardan asosiy farqi - agrotexnik melioratsiya tadbirlari ko'p yillar davomida o'zining samaradorligini yo'qotmaydi.



6-rasm. Agrotexnik tadbirlar

**O‘rmon-texnik melioratsiya** - tuproqni suv va shamol eroziyasidan saqlash uchun daraxtzorlar - o‘rmonzorlar barpo qilishdir. Bularga: shamol tezligini kamaytirish, cho‘l o‘simliklarini ko‘paytirib qum ko‘chishini oldini olish va to‘xtatish, daraxtlar ildizi yordamida tuproqlarni mustahkamlash va boshqa tadbirlar kiradi.



7-rasm. Tuproqni suv va shamol eroziyasidan saqlash uchun daraxtzorlar

**Kimyoviy melioratsiya** - tuprok tarkibiga maxsus kimyoviy moddalar kiritib, uning kimyoviy xossalari o‘zgartirish bilan shug‘ullanadi. Bularga: sho‘rtob yerlarni melioratsiya qilish, ya’ni tuproqqa undagi natriy ionini chiqarib tashlash qobiliyatiga ega bo‘lgan moddalar, misol uchun gips kiritish; tuproknинг kislotalilagini pasaytirish maqsadida oxak qo‘shish va b.

Bunday moddalar - gips, oxak va boshqalar - kimyoviy meliorantlar deb ataladi.



8-rasm. Tuproqning sho‘rlanishini pasaytirish maqsadida gips, oxak va boshqalar - kimyoviy meliorantlar kiritish.

**Madaniy-texnik melioratsiya** - ekin ekiladigan tuproqning haydalma qatlamidagi noqulay sharoitlarni bartarf qilishdir. Bularga: tuproq ustki katlamini shoh-shabbalardan tozalash, daladagi mayda tepalik va chuqurliklarni tekislash, haydaladigan katlamdagi tosh va boshka predmetlarni yig‘ib olish, loyli tuproqlarga qum qo‘shish (qumlash) va qumli tuproqlarga og‘ir tarkibli tuproqlar qo‘shish (loylash) va boshqalar kiradi.



9-rasm. Ekin ekiladigan maydonni shoh-shabbalardan tozalash, daladagi mayda tepalik va chuqurliklarni tekislash, haydaladigan katlamdagi tosh va boshka predmetlarni yig‘ib olish.

### **Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasiga qo‘yiladigan talablar.**

Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- sug‘oriladigan yerlardan to‘liq va samarali foydalanish;
- tuproq unumdorligini, ish unumini va qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini muntazam ravishda oshirib borish;
- zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash;
- melioratsiyani yuqori unumli agrotexnik tadbirlar bilan bog‘liq ravishda olib

borish;

- meliorativ maydonlarda ishlarni to‘liq mexanizatsiyalash va melioratsiyani industrlashtirish;
- suv resurslarni oqilona boshqarish va ulardan samarali foydalanish;
- meliorativ jarayonlarni va suv resurslarni boshqarish hamda foydalanishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.


### **Nazorat savollari**

1. Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasining maqsadi nimalarni o‘z ichiga oladi?
2. Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasini vazifalarini keltirib o‘ting?
3. Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasini amalga oshirish bo‘yicha turlari nimalardan iborat?
4. Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasiga qo‘yiladigan talablar.
5. Gidrotexnik melioratsiyaning vazifalari nima?
6. Agrotexnik melioratsiyaning vazifalari nima?
7. Madaniy-texnik melioratsiyaning vazifalari nima?
8. O‘rmon melioratsiyasining vazifalari nima?
9. Kimyoviy melioratsiyasning vazifalari nima?

## **2. SUG‘ORISH TO‘G‘RISIDA ASOSIY MA’LUMOTLAR**

### **2.1. Sug‘orish. Sug‘orishning mohiyati, ko‘rinishlari va turlari**

- **Sug‘orish** – suvning oqim holatidan tuproq namligi holatiga o‘tishidir.



10-rasm. Sug‘orish jarayoni va suvni oqim holatidan tuproq namligi holatiga o‘tishi

**Sug‘orishning asosiy mohiyati** - bu qishloq xo‘jalik ekinlari uchun kerakli

namlikni etkazib byerib, ekinlar uchun zarur bo‘lgan tuproqning suv, ozuqa, havo va issiqqliq rejimlarini hamda sug‘oriladigan maydonda maqbul mikroiqlim sharoitini ta’minlash va boshqarishdan iboratdir.

Sug‘orish amalga oshirilishi bo‘yicha ***muntazam*** va ***bir marotabalik*** sug‘orishlarga bo‘linadi.

***Muntazam sug‘orish*** da hududning tabiiy-iqlim sharoitidan va o‘simglikning suvga bo‘lgan talabidan kelib chiqib, vegetatsiya (o‘suv) davrida tuproq muntazam namlantirib - sug‘orilib boriladi.

***Bir marotabalik sug‘orish*** da tuproq bir yilda bir marotaba: bahor yoki kuzda nam to‘plovchi sug‘orishlar limanlar yordamida amalga oshiriladi.

***Yoppasiga sug‘orish*** - qurg‘oqchil mintaqalarda qo‘llaniladigan barcha ekinlarni sug‘orishdir.

***Tanlab sug‘orish*** – namiqqan va turg‘un bo‘lmagan mintaqalarda ayrim suvga talabchan va iqtisod uchun muhim bo‘lgan ekinlarni (mas almashlab ekish tizimidagi sabzavot ekinlari) sug‘orishdir.

***Katta sug‘orish*** - davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladigan yirik sug‘orish tizimlaridir.

***Kichik sug‘orishda*** suv ist’molchilari hisobiga amalga oshiriladigan kichik (cheklangan) suv manbalari yordamida sug‘oriladigan maydonlar tushuniladi.

Sug‘orishni amalga oshirish muddatlariga qarab, ***vegetatsiya*** va ***novegetatsiya*** sug‘orishlarga bo‘linadi.

***Vegetatsiya sug‘orishlari*** – ekinlarning o‘suv davridagi suvga talablarini ta’minlashdir. Ular vazifasiga ko‘ra: namlantiruvchi, oziqlantiruvchi, ayerozol va isituvchi bo‘ladi.

***Novegetatsiya sug‘orishlari*** - nam to‘plovchi, haydov va ekin ekish oldi, sho‘r yuvish va provokatsiya - yovvoyi o‘tlarni ko‘kartiruvchi sug‘orishlardir.

Sug‘orish suvi o‘simglikning o‘sishi davrida uning quruq massasini hosil qilish uchun ishlatiladi. Qolgani o‘simglikning barglari va tanasi orqali bug‘lanishiga – ***transpiratsiya***ga sarflanadi.

***Transpiratsiya*** – o‘simgliklarning barglaridan suvning bug‘lanishidir.

**Transpiratsiya koeffitsienti** - o'simlikning bir birlik quruq massasini hosil qilish uchun sarflangan suv miqdoridir.

Noto'g'ri sug'orish tuproq strukturasini buzadi, havo va ozuqa rejimi buziladi, ildiz joylashgan faol qatlamdan ozuqa elementlarini pastga yuvib ketadi, sizot suvlari sathi ko'tariladi, botqoqlanish va sho'rlanish yuzaga keladi, o'simliklar hosildorligi pasayadi, tuproqning yuvilishi va atrof muhit ifloslanishiga olib keladi.

**Sug'orish** ta'sirida tuproqning agronomik hususiyatlari, suv-havo, issiqlik, ozuqa rejimlarida, tuproqning mikrobiologik faolligi, sug'oriladigan maydonning mikroiqlim sharoitida katta o'zgarishlar bo'ladi.

**Sug'orish** tuproq zarralarini bir-birlariga yopishib turish kuchlarini o'zgartiradi.

**Sug'orish** - hududlarning mikroiqlim sharoitiga katta ta'sir etadi – atmosfyeraning yer yuza qismi va tuproqning yuqori qatlamlarining tempyeraturasi, namligi o'zgaradi, suv o'simliklarning tanasi va bargida saqlanib, uning tempyerurasini pasaytiradi, yaxshi rivojlanib, soyasi kengayib, tuproqning issiqlik rejimini yaxshilaydi.

**Sug'orish** - tuproq hosil bo'lish jarayoniga ta'sir etib, uning tuz va havo rejimi, kimyoviy va mikrobiologik jarayonlarga, organik moddalarni to'planishi va chirish muddatlariga ta'sir etadi

**Sug'orish** bilan tuproqqa il zarrachalari kiradi, ularning cho'kishi natijasida unumdor qatlam yuzaga keladi. Suv tuproqdagagi ozuqa elementlarini yeritib, o'simliklarning oziqlanish rejimini yaxshilaydi.

**Sug'orish** natijasida tuproqda mikrobiologik jarayonlar faollashadi: ammonifikatsiya i nitrofifikatsiya (azot hosil qiluvchi baktyeriylar faolligi) nitijasida o'simliklarning azot bilan oziqlanishi yaxshilanadi.

**Sug'orish** natijasida o'simlikning ildiz qismi kuchli rivojlanishi natijasida tuproq ko'p miqdorda uning qoldiqlari - organik moddalar bilan boyiydi.

**Sug'orish** o'simliklarda katta barg yuzasi, kuchli ildiz tizimi, katta vegetativ massani ta'minlab, uning hosildorligi va hosili sifatini oshishiga olib keladi.

## **2.2. Sug‘orish suvining sifati**

Sug‘orish suvi sifatiga undagi *oqiziqlar kattaligi, minyeralizatsiyasi* va *harorati* bo‘yicha talablar qo‘yiladi.

**Oqiziqlar kattaligi** 0,1- 0,15 mm dan katta bo‘lsa, sug‘orish tarmog‘ini loy bosishi, 0,1-0,005 mm oraliqdagi oqiziqlar dalaga tushib, og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarning suv-fizik xossalari va suv o‘tkazuvchanligini oshiradi. 0,005 mm dan kichik oqiziqlartarkibida ozuqa moddalari bo‘lib, tuproq unumdorligini oshiradi, ammo tuproqning fizik xossalari, suv o‘tkazuvchanligini kamaytirib, tuproq ayeratsiyasini yomonlashtiradi.

**Sug‘orish suvining minyeralizatsiyasi** 1,0 g/l gacha bo‘lsa maqbul bo‘ladi. Bunda har 1000 m<sup>2</sup> suv bilan dalalarga 1,0 kg tuzlar kiradi. Tuproqning mexanik tarkibiga qarab, suvdagi tuz miqdori o‘zgarishi, engil tuproqlarda ular 2,0-3,0 g/l bo‘lishi mumkin. Bunda natriyning tuzlari ko‘p bo‘lsa, sug‘orish suvining minyeralizatsiyasini oshirib bo‘lmaydi.


O‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga **sug‘orish suvining harorati** katta ta’sir qiladi. Issiq suv (20° S dan issiq) bilan ekinlar sug‘orilsa, uning ildiz tizimi yaxshi rivojlanadi, o‘simlik tez rivojlanadi, hosilining sifati oshadi, bir birlik hosilga sarflanadigan suv 6-20% ga kamayadi, hosildorligi 14-20% ga oshadi.

Sovuq suvlarni isitib, so‘ng foydalanish tavsiya etiladi.

## **2.3. Sug‘orma dehqonchilik tarixi**

Insoniyat jamiyatining dastlabki taraqqiyoti yer yuzida oqar suvlarning geografik joylashuvi va undan xo‘jalikda foydalanilishi bilan bog‘liq. Eng qadimgi madaniyat beshiklari bo‘lgan qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy davlatlari ham daryo bo‘ylari sivilizatsiyasining markazlari bo‘lgani hech kimga sir emas. Bundan tashqari, ko‘pchilik mamlakatlarning poytaxtlari va yirik shaharlar ham daryo bo‘ylarida joylashganligini ko‘rish mumkin. Daryo bo‘ylarida ko‘proq sug‘orma dehqonchilik rivojlangan bo‘lib, bu esa albatta qaysi geografik kenglikda joylashganliga ham bog‘liq. Issiq mintaqalarda tabiiy namlik etishmasligi, o‘simliklar vegetatsiya davrining uzoq davom etishi, quyoshli kunlarning ko‘p bo‘lishi sun’iy sug‘orishni talab qilgan. Sun’iy sug‘orishda sug‘oruv inshootlarini

bunyod etishni taqozo qilgan va buning uchun esa matematik, astronomik, muhandislik, geodezik, geologik, geografik bilimlar va tadqiqotlarni talab qilgan.



11-rasm. Chig‘ir


Bu sohada Ahmad al-Farg‘oniy (797-861), Muhammad al-Xorazmiy (783-850), Abu Nasr Forobi (873-950), Abu Rayhon Byeruniy (973-1048) kabi buyuk vatandoshlarimiz ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borishib, sug‘orish inshootlari bunyod etish bo‘yicha qimmatli ishlanmalar yaratishgan.

Sharqning ulug‘ allomasi Ahmad al-Farg‘oniy Nil daryosining suvini o‘lchaydigan astronomik asbob @Miqyosi jadid»ni yaratdi. Hozirda Qohiradagi muzeyda saqlanmoqda. 861 yili al-Farg‘oniy Nil daryosining Sayyolat ul-Rod degan irmog‘ida Misrning Al-Manyal tumani Ar-Rod mavzeyida suv sathini o‘lchaydigan gidrotexnika inshootini qurban va hozirga qadar ishchi holatda saqlanib keladi.

Xitoy sayyohi va elchisi CHjan Syan Xitoy impyeratoriga yozgan xatida- yangi yeradan 138 yil oldin O‘rtta Osiyoning Farg‘ona vodiysida 70 ta shahar (shahar-qal‘a) mavjud bo‘lib, aholisi 300 mingdan ortiq, ular uzum, bug‘doy, sholi, beda va boshqa ekinlar etishtirishini aytib o‘tgan. Bu Farg‘ona vodiysida o‘sha vaqtdayoq sug‘orish ishlari rivojlanganligini ko‘rsatadi. Xorazmda ham sug‘orish madaniyati yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Bejizga uni Xitoyliklar «**Kanguy**»-kanallar mamlakati deb yuritishmagan.

Shoir va davlat arbobi, shoh Bobur ham Hindistonda hukmronligi davrida 1387 yilda mashhur “Qizil qal’ा” da suv qudug‘i qurdirgan bo‘lib, uning chuqurligi 145 m dan ortiq bo‘lib, hozirgi kungacha ham saqlanganligi ma’lum. XVIII-XIX asrlarda esa Samarqand shahri hududidan oqib o‘tuvchi Obirahmat arig‘i, Zarafshon daryosidan Ming dona arig‘ini Muhammad Latif o‘g‘li Hasan tomonidan qazdirilgan va 445 ga yerga suv chiqarilgan. G‘uzordagi lalmi yerkirga koriz qazdirilib, 800 tanob yerni o‘zlashtirgan. Bu qadimiy ishlarda quyidagi suv inshootlari yaratilgan va ishlatilgan:

**Koriz** – yer osti suvlarini yig‘ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti bo‘lib, aholini suv bilan ta’minalash va sug‘orish maqsadlarida qo‘llaniladi. Korizlar Yaqin Sharq, Janubi-G‘arbiy Osiyoda tarqalgan. O‘rta Osiyoning tog‘li va tog‘ oldi zonalarida uchraydi. Turkmaniston, O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyatlarida 200 yaqin korizlar qazilgan. XX asrning 20-yillariga qadar O‘rta Osiyoda koriz suvlaridan ekinlarni sug‘orishda foydalanilgan. Korizlar kavlash yer osti suvlarini sathida ro‘y byeradigan o‘zgarishlar va joy relefidagi nishablikni aniq belgilashni talab etgan. Koriz trassasi belgilab chiqilgach, shu trassa bo‘ylab har 5-40 m da quduqlar kavlangan. Quduqlarning chuqurligi 14-15 m dan ba’zan 80 m gacha borgan. Quduqlar suvli qatlamga tutashadigan lahim (tunnel) orqali bir-biriga birlashtirilgan. Lahimning balandligi 1,5 m, eni 1 m bo‘lib, devorlari yog‘och yoki toshlar bilan mustahkamlangan, uzunligi joy nishabligiga qarab bir necha km gacha cho‘zilgan. Nurotadagi Maston nomli korizning 280 ta qudug‘i bo‘lib, bosh qudug‘ining chuqurligi 14 m va lahimning uzunligi 3 km bo‘lgan. Koriz qurilishi davrida bu quduqlar tuproq-shag‘alni chiqarib tashlashga, korizni ishlatish davrida esa kuzatish (nazorat), tiklash, tuzatish va havo almashtirish uchun xizmat qilgan.



12-rasm. Koriz


**Sardoba** (fors-tojik, *sard* – sovuq va *ob* - suv) – suv tanqis hududlarda uni to‘plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. O‘rta Osiyo va boshqa ko‘pgina Sharq mamlakatlarida qurilgan. Sardobaning devori silindr shaklida, diametri 12-13 m, chuqurligi 10-15 m, hovuz yuzasi yer sathi bilan bir tekis bo‘lgan. Sardoba gumbazi sifatli g‘isht va ganchdan ishlangan, tepasi tuynukli, atroflarida hovuzga tushadigan teshiklar qilingan. Kirish uchun sardobaga eshik ham o‘rnatilgan, uning oldi suvni toza saqlash maqsadida devor bilan o‘ralgan. Sardoba yoniga mollarni sug‘oradigan ohur qilinib, unga hovuzdan maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Ba’zi sardobalarda ularni nazorat va tozalab turuvchi miroblar uchun xonalar ham bo‘lgan. Sardobalar geografik joylashuvi, joyning tabiatи, relefiga ko‘ra, bir necha xil (qor-yomg‘ir, anhor-ariq, yer osti suvlari (korizlar)dan yig‘iladigan sardobalar) bo‘lgan. Tarixiy ma’lumotlar ko‘ra, Movarounnahrda 44 ta sardoba bo‘lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho‘lida, 3 tasi Mirzacho‘lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg‘ona o‘rtasidagi qadimgi savdo yo‘lida, 1 tasi Karmana yaqinida – Cho‘li Malikda qurilgan.



13-rasm. Sardoba

**Chig‘ir** – suv sathi sug‘oriladigan yer sathidan pastda bo‘lgan joylarda suvni

yuqoriga ko‘tarib beradigan qadimgi eng oddiy gidravlik moslama bo‘lib, uy hayvonlari, odam yoki oqar suv kuchi bilan harakatga keltirilgan. Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, O‘rta Osiyo va boshqa o‘lkalarning sug‘orish tizimlarida qo‘llangan. Oqar suv kuchi bilan harakatlantiriladigan chig‘irlar O‘rta Osiyoda, ayniqsa, Xorazmda IX–XI asrlarda keng tarqalgan. SHuningdek, ayrim yer osti suvi chiqaradigan chig‘irlar yog‘ochdan qurilgan bo‘lib, uni ishlatish uchun uy hayvonidan foydalanilgan. Har bir chig‘irning ishlayotganini uning egasi g‘ichirlagan ovozidan uzoqda bo‘lsada ajrata olganligi manbalardan ma’lum.




14-rasm. Chig‘ir

**Qulfakli hovuzlar.** Chashmalarda to‘plangan suv butun yoz bo‘yi soylarda oqib daralardan chiqar-chiqmas toshloq o‘zanlarga singib ketadi. Tog‘ oldi tumanlarda yashagan dehqonlar ana shu buloq suvlarini bir joyga to‘plash va ulardan kerakli vaqtida foydalanish maqsadida juda qadim zamonlardayoq daralar ichida va tog‘ etaklarda kichik-kichik hovuzlar -*kulfakli xovuzlar* qurbanlar.



15-rasm. Qulfakli hovuzlar

**Akveduklar.** Relef sharoitining turli-tumanli (vodiyan tog‘li qismgacha) ekanligi, kanal va ariqlar qurilishida soylar, jarliklar, yo‘llar va kanallarni kesib o‘tishda *akveduklar*, *akveduk - ko‘priklar*, *quvurlar* qurishni talab qilgan.



16-rasm. Akveduklar.

### **Nazorat savollari**

1. Sug‘orish deganda nima tushuniladi.
2. Sug‘orishning asosiy mohiyati nimada?
3. Sug‘orishning qanday turlari bor.
4. Transpiratsiya va transpiratsiya koeffitsienti nima?
5. Sug‘orishning tashqi muhitga ta’siri.
6. Sug‘orishning tuproqqa ta’siri.
7. Sug‘orishning o‘simlik rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri.
8. Qadimgi gidrotexnik inshootlar va ularning vazifalari to‘g‘risida ma’lumot byering.
9. Akvedukning vazifasi
10. Suv ko‘tarish moslamalarini nomi va ishlashini tushuntiring.
11. Sug‘orish suvining sifatiga qo‘yiladigan talablar.
12. Sug‘orish suvining minyeralizatsiyasi/

### **3. CUG‘ORISH TIZIMLARI, ULARNING ELEMENTLARI VA VAZIFALARI. SHOLI SUG‘ORISH TIZIMLARI**


#### **3.1. Sug‘orish tizimining tarkibi**

**Sug‘orish tizimi** - noqulay tabiiy sharoitlarni tubdan yaxshilash, atrof muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ekinlardan yuqori hosil olish maqsadida tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladigan, sug‘orish manbasi, sug‘oriladigan yerlar va ulardagi turli inshootlar majmuasidir.

Sug‘orish tizimining ***texnik vazifasi*** - sug‘orish manbasidan suvni olib, sug‘oriladigan maydonlarga kerakli muddatlarda va kerakli miqdorda etkazib berish hamda uni alohida suv iste’molchilarga va dalalarga taqsimlab, o’simliklar uchun zarur bo‘lgan tuproq namligini ta’minlashdan iboratdir.

### **Sug‘orish tizimining asosiy elementlari:**

1. Sug‘orish manbasi
2. Bosh suv olish inshooti
3. Sug‘orish tarmoqlari
4. Suv yig‘uvchi – tashlama va kollektor-zovur tarmoqlari
5. Tarmoqlardagi gidrotexnik inshootlar
6. Himoya daraxtzorlar va yo’llar
7. Sug‘oriladigan yerlar



17-rasm. Sug‘orish tizimining shartli sxemasi:

**1**-suv manbai; **2**-suv qabul qiluvchi bosh inshoot; **3**-bosh kanal; **4**-xo‘jaliklararo tarmoqlar; **5**-xo‘jalik tarmoqlari; **6**-xo‘jalik ichki tarmoqlari; **7**-shohariqlar; **8**-muvaqqat ariqlar; **9**-o‘qariqlar; **10**-sug‘orish egatlari; **11**-tashlama (zovur)lar; **12**-sug‘orish tizimidagi inshootlar; **13**-yo’llar; **14**-himoya daraxtlari; **15**-yaroqsiz yyerlar

**Sug‘orish manbalari** bo‘lib, daryolar, ko‘llar, suv omborlari, hovuzlarga yig‘ilgan maxalliy yer usti oqimlari, yer osti suvlari, qayta foydalilanadigan tashlama (zovurlar, sanoat va kommunal xo‘jalik) suvlari xizmat qiladi.

**Sug‘orish manbalariga qo‘yidagi asosiy talablar qo‘yiladi:**

- kerakli miqdorda va sifatda suv bilan ta'minlash. Kerakli suv miqdori gidrologik va suv xo'jalik hisoblari bilan aniqlanadi. Suv manbasi sug'oriladigan massivlarga yaqin va iloji boricha o'zi oqar tizim bo'lishi uchun massivdan yuqorida joylashgan bo'lishi kerak;

- suv manbasi ekinlarni sug'orish davrida to'liq suv bilan ta'minlashi kerak. Suv manbasining rejimi bilan ekinlarni sug'orish rejimi o'zaro muvofiqlashtirilishi lozim.

Sug'orish manbasining suvini sifatiga agronomik, texnik va ekologik talablar qo'yiladi.

**Bosh suv olish inshooti** – manbadan suvni olib, sug'orish tarmog'iga berish uchun xizmat qiladi. Bosh suv olish inshootlarining turlari: *to'g'onsiz, to'g'onli va mexanik suv ko'tarishli*. Suvni manbadan olish usuliga muvofiq *o'zi oqar* va *mexanik suv ko'tarib* sug'oriladigan sug'orish tizimlariga ajratiladi.

**Bosh kanal (Magistral kanal).** Magistral kanal – suv manbasidan suvni sug'oriladigan massivga suvni etkazib, sug'orish tarmoqlariga taqsimlab byeradi. U *ishchi* va *faolsiz (salt)* qismlarga bo'linadi. *Faolsiz qismi* magistral kanalning boshidan birinchi taqsimlovchi kanalgacha, *ishchi qismi* esa birinchi taqsimlovchi kanaldan oxirigacha bo'lgan qismidir.

Bosh suv olish inshooti majmuasida suvning sifatiga – loyqaligiga qarab, *tindirgichlar* (mexanik va gidravlik tozalanadigan) bo'lishi mumkin.

**Sug'orish tizimining o'tkazuvchi doimiy kanallari:** a) xo'jaliklararo (magistral kanaldan suv olib, xo'jaliklarga taqsimlab byeradi. b) xo'jalik kanali (suvni har bir xo'jalikga etkazib byeradi), v) xo'jalik ichki kanali (fermyer dalalariga etkazib byeradi); g) shoh ariq (fermyerning ekin dalasiga etkazib beradi).

**Boshqaruvchi muvaqqat sug'orish tarmoqlari:** bular muvaqqat ariqlar, o'q ariqlar va egatlardir. Muvaqqat ariqlar har yili vegetatsiya davri uchun quriladi, o'q ariqlar va egatlar agrotexnik ishlar vaqtida buzilib, ulardan so'ng qayta quriladi.


### **Suv yig'uvchi – tashlama va kollektor-zovur tarmoqlari:**

a) suv tashlagich kanallar - ortiqcha yer usti suvlarini sug'oriladigan maydonlardan olib chiqib ketish uchun xizmat qiladi;

b) kollektor-zovur tarmoqlari – minyeralizatsiyasi yuqori bo‘lgan va yer yuziga yaqin joylashgan grunt suvlarini bor joylarda quriladi.

**Doimiy sug‘orish tarmoqlarining vazifasi:** suvni sug‘orish manbasidan olib, suv isrofgarchiligiga yo‘l qo‘ymasdan, kerakli muddatlarda va kerakli hajmda sug‘orish dalasigacha etkazib berishdir.

**Muvaqqat sug‘orish tarmoqlarining vazifasi:** sug‘orish suvini oqova holatidan tuproq namligiga aylantirib berishdir.



18-chizma. Sug‘orish tizimi kanallarining nomlanishi

#### 1-jadval. Sug‘orish tizimi kanallarining nomlanishi

Magistral kanal va uning tarmoqlari	Taqsimlovchi kanallar		Sug‘oruvchi kanallar	
	birinchi darajali	ikkinchi darajali	birinchi darajali	ikkinchi darajali

**Ekin maydonlari:** ekiladigan asosiy ekin turiga qarab *paxtachilik, g‘allachilik, ozuqa ekinlari, sabzavotchilik* va boshqalarga farqlanadi.

Ekin maydonlari dalalarga bo‘linadi. Bir ekin maydonlaridagi dalalar soni **5-10** ta gacha va ularning maydon ko‘lami **5-10 ga** dan **30 ga** gacha bo‘lishi mumkin. Dalalar soni va ularning o‘lchami xo‘jalikda etishtirilayotgan *ekin turlari, xo‘jalik talablari* va xo‘jalikning *texnik imkoniyatlaridan* kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mehnat ko‘p talab qilinadigan ekin dalalarining maydon ko‘lami *kichik*, kam talab qilinadigan maydon ko‘lami esa *katta* bo‘ladi.

Ekin maydonlariga qo‘yiladigan talablar:

- ularning maydoni o‘zaro bir-biriga teng (5-10% farqi bilan), qishloq xo‘jaligi mexanizmlari ishlashi uchun o‘lchami va shakli qulay bo‘lishi;
- relef, tuproq, gidrogeologik va agromeliorativ shart-sharoitlari bo‘yicha bir xil bo‘lishi;
- ular doimiy sug‘orish tarmoqlari, yo‘llar va tashlama yoki zax qochirish tarmoqlari bilan chegaralangan bo‘lishi talab qilinadi.

Sug‘orish tizimida suvni boshqarish uchun zarur bo‘lgan gidrotexnik inshootlar majmui **sug‘orish tizimi armaturasi** hisoblanadi. Bularga *suv olish inshootlari, tezoqarlar, suv o‘lchash inshootlari, ko‘priklar, quvurli suv o‘tkazgichlar, dyukyerlar* va b. kiradi.


### Sug‘orish tizimi armaturasi




19-rasm. Suv to‘suvchi va oluvchi inshootlar



20-rasm. Suv oluvchi va o‘lchovchi inshootlar




21-rasm. Dyukyer va akveduklar




22-rasm. Akveduk

## Sug‘orish tizimlaridagi yo‘llar va himoya daraxtlari



23-rasm. Dala (a, b) va xo‘jalik ichki (v) yo‘l tarmoqlarining ko‘ndalang qirqimlari.

1-sug‘orish tarmog‘i; 2-to‘kma; 3-kyuvet; 4-kollektor.



24-rasm. Sug‘orish tarmoqlari bo‘yidagi himoya daraxtlari.

a-bir qatorli; b-ikki qatorli; v-to‘rt qatorli (o‘lchamlar metrda)

### 3.2. Sug‘orish tizimida yer resurslaridan foydalanish

Sug‘orish massivi chegarasi ichidagi maydon – uning **yalpi maydoni** deb ataladi.

Sug‘orishda ishlatalishi mumkin bo‘lgan maydon uning **umumiyl (brutto) maydonidir**. Bu yalpi maydon hamda o‘zlashtirilmagan jarliklar, tepaliklar, qumliklar va b. maydonlarning farqidir.

$$\omega_{br} = \omega_{yalpi} - (\omega_j + \omega_t + \omega_k + \dots), \text{ ga}$$

Sug‘orish massivining ekin ekiladigan va sug‘oriladigan maydoni uning **sof (netto) maydonidir**. Bu umumiyl (brutto) maydon bilan sug‘orish tarmoqlari, yo‘llar, tashlama va kollektor-zovur tarmoqlari va b. ostidagi maydonlarning farqidir.

$$\omega_{netto} = \omega_{brutto} - (\omega_{tr} + \omega_y + \omega_{tsh} + \dots), \text{ ga}$$

**Yerni o‘zlashtirish koeffitsienti (EO‘K)** - sug‘orishda ishlatalishi mumkin bo‘lgan umumiyl (brutto) maydonni sug‘orish massivi chegarasi ichidagi yalpi maydonga nisbati orqali aniqlanadi:

$$EO^K = \frac{\omega_{br}}{\omega_{yalpi}},$$

**Yerdan foydalanish koeffitsienti (EFK)** - sug‘orish massivining ekin ekiladigan va sug‘oriladigan sof (netto) maydonini sug‘orishda ishlatalishi mumkin bo‘lgan umumiyl (brutto) maydoniga nisbati orqali aniqlanadi:

$$EFK = \frac{\omega_{netto}}{\omega_{brutto}},$$

Loyihaviy sug‘orish tizimlarining yerdan foydalanish koeffitsienti -0,92-0,95 qabul qilinadi.

### 3.3. Sholi sug‘orish tizimlari

**Zamonaviy sholi sug‘orish tizimlari** sug‘orish, zax qochirish, tashlama kanallar, marzalar bilan ajratilgan cheklardan iborat sug‘orish kartalari, inshootlar, yo‘llar, aloqa vositalari, himoya daraxtlari, tizimdan foydalanuvchilar uchun xizmat binolaridan tashkil topadi.

**Sholi kartasi** sholi sug‘orish tizimidagi asosiy element hisoblanib, u asosan, doimiy sug‘orish va zax qochirish tashlama kanallar bilan chegaralanadi.

Hozirda asosan, quyidagi: **Krasnodar, Kuban, Uzoq SHarq** va **Keng qamrovli karta-check** sholi kartalari mavjuddir.



25-rasm. Sholi sug‘orish tizimlari.

**Sholi sug‘orish tizimlarining tiplari.** O‘zbekistonda qadimdan va yangi sug‘oriladigan maydonlarda ***noinjenyerlik***, ***yarim injenyerlik*** va ***injenyerlik*** tipidagi sholi sug‘orish tizimlari mavjud.

***Noinjenyerlik*** tizimlarda yerlar notekis bo‘lganligidan sug‘orish tarmoqlari va kichik-kichik cheklar qing‘ir-qiyshiq shaklga ega bo‘lib, sug‘orish suvi biridan biriga o‘tib boradi, mexanizatsiya ishlarining imkonи yo‘q, EFK 0,65-0,70 dan oshmaydi, mehnat unumдорligi past va mavsumiy sug‘orish me’yorlari 50-60 ming m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etadi. Bu tipdagi tizimlar sholichilikka ixtisoslashmagan xo‘jaliklarda mavjud bo‘ladi.



26-rasm. Noinjenyerlik tipidagi sug‘orish tizimlari

***Yarim injenyerlik*** tizimlarda karta va cheklar yiriklashgan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, maydonlari 0,01-0,10 ga, EFK 0,80 gacha, bo‘ylama marzalar doimiy bo‘lib, sholi ekishni mexanizatsiyalash imkonи mavjud va mavsumiy sug‘orish me’yorlari 30-50 ming m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etadi.




27-rasm. Yarim injenyerlik tipidagi sug‘orish tizimlari

**Injenyerlik** tizimlarda sug‘orish va tashlama tarmoqlari hamda sholi kartalariga to‘g‘ri shakl byerilgan, sholi etishtirish to‘liq mexanizatsiyalashtirilgan, suv cheklarga mustaqil ravishda taqsimlanadi, EFK 0,90-0,95 gacha etadi va mavsumiy sug‘orish me’yorlari 25-30 ming m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etadi.




28-rasm. Injenyerlik tipidagi sug‘orish tizimlari

Krasnodar, Kuban, Uzoq SHarq va Keng qamrovli karta-cheq sholi kartalarining sxematik ko‘rinishlari.




29-rasm. Krasnodar tipidagi sholi kartasi


a- bir tomonlama suv berish b- ikki tomonlama suv berish



30-rasm. Uzoq Sharq tipidagi sholi kartasi



31-rasm. Kuban tipidagi sholi kartasi



32-rasm. Keng qamrovli karta-chek sholi kartasi

## 2-jadval. Turli tipdagi sholi sug‘orish tizimlarining ko‘rsatgichlari.

Ko‘rsatkichlar	SHoli kartasining tipi				YOpiq tizimli
	Krasnodar	Kuban	Keng qamrovli	Uzoq SHarq	
Ekin maydonining EFK	0,87	0,9	0,9	0,89	0,95
Sug‘orish tarmoqlarini FIK	0,86	0,91	-	-	0,95
Kartaning bo‘yi, m	400-1200	600	400-600	600-1200	120
Kartaning eni, m	150-250	400	120-200	100-120	300-400
Karta maydoni, ga	6-30	24	5-12	6-15	3,6-4,8
Kartadagi cheklar soni, dona	4-5	4	1	1-3	

### Nazorat savollari

1. Sug‘orish tizimining tarkibiga nimalar kiradi?
2. Sug‘orish tizimi va uning elementlarini tushuntiring.
3. Sug‘orish tizimining doimiy tarmoqlarini vazifalari nimadan iborat?
4. Sug‘orish tizimining muvaqqat tarmoqlarini vazifalari nimadan iborat?
5. Ekin dalalari va ularga qanday talablar qo‘yiladi?
6. Suv yig‘uvchi – tashlama va kollektor-zovur tarmoqlarining vazifalari.
7. Sug‘orish tizimining armaturasi. Akveduk va dyukyerlar vazifalari nima?
8. Yerlarni o‘zlashtirish va yerdan foydalanish koeffitsientlariga tushuncha byering.
9. Qanday tipdagi sholi sug‘orish tizimlari mavjud?
10. Noinjenyerlik, yarim injenyerlik va injenyerlik tipidagi sholi sug‘orish tizimlariga ta’rif byering.

## 4. QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARINING SUG‘ORISH REJIMI.

### TUPROQNING NAM SIG‘IMI. YALPI SUV ISTE’MOLI. MAVSUMIY VA SUG‘ORISH ME’YORLARI

#### 4.1. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv iste’moli

*Suv iste’moli* (*evopotranspiratsiya, umumiy bug‘lanish*) – rejalarshirayotgan hosilni olish uchun qishloq xo‘jalik ekini iste’mol qiladigan suv miqdoridir.

Qishloq xo‘jalik ekini etishtirayotgan dalaning suv iste’moli (E) ekinlarning bargidan, tanasidan (transpiratsiya, Etr) va tuproq yuzasidan (Et) bug‘lantirilgan suvlarning miqdoriga tengdir:

$$E = E_{mp} + E_m \text{ mm, m}^3/\text{ga}$$

Tuproq yuzasidan bug‘lanishga asosan tashqi muxit ta’sir etsa, transpiratsiyaga tashqi muxit bilan mujassamlashgan o‘simglikning ichki omillari ta’sir etadi. SHuning uchun ularni ajratib olish murakkabligidan,  $E_{mp}$  va  $E_m$  birgalikda, bir butun qilib aniqlanadi.

*Suv iste’moli* - iqlim, gidrogeologik va xo‘jalik sharoitlari, o‘simglikning biologik xususiyatlari, hosildorligi va sug‘orish usullariga bog‘liqdir.

**Suv iste’molini aniqlashning usullari:** *to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalada o‘lchash, analog (o‘xhash)* va *empirik-hisobiy*.

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri dalada aniqlash:** tajriba dalasining yoki tuproq monolitining suv (muvozanati) balansi elementlarini o‘lchash orqali ularning umumiy suv iste’molini aniqlashdan iboratdir.

$$E = \mu \cdot P + \Delta W + M + W_{gr} - W_f, \text{ m}^3/\text{ga},$$

bu yerda  $\mu$ -yog‘indan foydalanish koefitsienti;  $P$ -vegetatsiya davridagi yog‘in miqdori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;  $\Delta W$ -o‘simglikning ildiz qatlam tuprog‘idan foydalanadigan nam miqdori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;  $M$ -mavsumiy sug‘orish me’yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;  $W_{gr}$ -ildiz qatlam tuprog‘iga sizot suvlaridan kapillar kuchlar ta’sirida kelib qo‘shiladigan suvlar miqdori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;  $W_f$ -sug‘orish suvining yer usti va faol qatlam ostiga bo‘lgan tashlama isrofi,  $\text{m}^3/\text{ga}$ .

**Analog (o'xhash)**: ilgari yaxshi o'rghanilgan tabiiy sharoitlari o'xhash bo'lgan ob'ektlar orqali umumiy suv iste'molini aniqlashdan iboratdir.

**Empirik-hisobiy** usul suv iste'moli bilan iqlim omillari orasidagi korrelyasiya bog'liqliklariga asoslangandir.

Empirik-hisobiy usulda empirik koeffitsientlar bevosita kuzatuvar natijasida aniqlanganligi uchun bu usul aniqroq usul hisoblanadi.

Shunday aniqlash formulalaridan biri **A.N.Kostyakov formulasidir**:

$$E = K \cdot Y, \text{ m}^3/\text{ga},$$

**bu yerda**  $E$  – suv iste'moli,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

$K$  – suv iste'moli koeffitsienti,  $\text{m}^3/\text{t}$ ;

$Y$  – loyihaviy hosildorlik,  $\text{t}/\text{ga}$ .

### Bioiqlimiy hisoblar.

**A. M. va S. M. Alpatevlar formulasi:**

$$E = K_6 \cdot \sum d, \text{ m}^3/\text{ga},$$

bu yerda:  $K$  – biologik koeffitsient (hisobiy davrdagi umumiy bug'lanishning havo namligi tanqisligi yig'indisiga nisbati bo'lib, tajribalar orqali aniqlanadi),  $\text{mm}/\text{mb}$

$\sum d$  – havoning o'rtacha ko'p yillik namlik tanqisligi yig'indisi,  $\text{mb}$ .

**N.N.Ivanovning formulasi:**

$$E_0 = 0,0018 \cdot (25 + t) \cdot (100 - a) \cdot 0,8, \text{ mm},$$

bu yerda  $E_0$ -oylik bug'lanish,  $\text{mm}$ ;  $t$ -havoning o'rtacha oylik harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $a$  - havoning o'rtacha oylik nisbiy namligi.

**F.Bleyni va V.D.Kriddl (AQSH) formulasi:**

$$ET_0 = n \cdot (0,46 \cdot t + 8,13) \cdot k \sigma, \text{ mm},$$

bu yerda:  $ET_0$  - potensial evapotranspiratsiya,  $\text{mm}/\text{sut}$ ;

$n$  - sutkadagi yorug' vaqtning o'rtacha davomiyligi, yillikdan % hisobida;

$t$  - havoning tempyeraturasi,  $^{\circ}\text{S}$ ;

kσ - havoning namligi, quyosh yorug‘ligining davomiyligi va shamol tezligini inobatga oluvchi koeffitsient.

**Qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv istemoli.** Tajriba dalasining yoki tuproq monolitining suv (muvozanati) balansi elementlarini o‘lchash **usulining** ko‘rinishlari: *bug‘latgich* va *lizimetrlardir*.

*Bug‘latgichlar* - yuzasi  $0,05\text{--}0,30 \text{ m}^2$ , balandligi 1-1,5 m bo‘lgan, osti va yon devorlari suv o‘tkazmaydigan silindr simon idish ko‘rinishida bo‘lib, idishga tuproq monoliti o‘rnataladi. Ular sug‘orish maydonida sizot suvlar chuqurligi 5-10 m da bo‘lganda, ya’ni suvlarning tik yo‘nalish bo‘yicha almashinushi bo‘lmaganda qo‘llaniladi.

*Lizimetrlar* - tuproq monolitida tik suv alamashinuvini hisobga olishga asoslangan bo‘lib, bu idishlarning yuzasi  $0,10\text{--}0,20 \text{ m}^2$  dan (don ekinlari uchun)  $1,0 \text{ m}^2$  gacha (*g‘o‘zada*), balandigi 1-2,5 m gacha bo‘ladi. Lizimetrlarda sizot suvlar sathi doimiy ravishda ushlab turiladi.



33-rasm. Lizimetrlar

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha suv istemoli:

don ekinlarida -  $3000\text{--}4000 \text{ m}^3/\text{ga}$ ,

SHolida -  $12000 \text{ m}^3/\text{ga}$ ,

poliz ekinlarida -  $3000\text{--}10000 \text{ m}^3/\text{ga}$ ,

ko‘p yillik o‘tlarda -  $8000\text{--}12000 \text{ m}^3/\text{ga}$ ,


*g‘o‘zada* -  $6000\text{--}9000 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

#### **4.2. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi**

**Sug‘orish rejimi** – sug‘oriladigan maydonlarning tabiiy va xo‘jalik sharoitlarini hamda o‘simgilikning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda

belgilanadigan sug‘orish me’yorlari, muddatlari va sonlarining jamlanmasidir.

### *O‘simlik rivojlanishining maqbul sharoitlari:*



34-rasm. O‘simlikning maqbul rivojlanish shart-sharoitlari:  
havo namligi 40-50%, harorat 14-22°S,  
tuproq ildiz qatlamdagi namlik (0,6-0,8)TNS ni tashkil etib turishi,  
xlor tuzlarining bo‘lmasligi

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimiga iqlim, tuproq, gidrogeologik, iqtisodiy-xo‘jalik sharoitlar, qishloq xo‘jaligi ekinlarining turi, qishloq xo‘jaligi ekinlarining biologik xususiyatlari, sug‘orish usuli va texnikasi ta’sir etuvchi omillar bo‘lib hisoblanadi.

1. **Iqlim sharoiti:** havo harorati, yog‘in miqdori va uning yil oylari bo‘yicha taqsimlanishi; havo namligi va bug‘lanishi; shamolning kuchi, yo‘nalishi va takroriyligidir.
2. **Tuproq sharoiti:** tuproqning mexanik tarkibi, suv-fizik xossalari, sho‘rlanish darajasi va turidir.
3. **Gidrogeologik sharoitlar:** yer osti suvlarining sathi, minyerallahganligi va ularning o‘zgarishidir.
4. **Iqtisodiy-xo‘jalik sharoitlari:** tuproq unumдорligi, agrotexnika, ekinning hosildorligi bo‘lib hisoblanadi.
5. **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining turi:** g‘o‘za, kuzgi bug‘doy, sabzavot ekinlari, bog‘, uzumzorlar va b.
6. **Qishloq xo‘jaligi ekinlarining biologik xususiyatlari:** o‘simliklarning navlari, suvga, tuzga va issiqqlikka munosabatidir.

7. **Sug‘orish usuli va texnikasi:** yer ustidan, tomchilatib, yomg‘irlatib va b. usullar va texnikalaridir.

**Mavsumiy sug‘orish me’yori** - Tuproqning hisobiy qatlamiqda namlikni boshqarish uchun vegetatsiya davrida 1 ga sug‘orish maydoniga byeriladigan suv hajmidir ( $m^3/ga$ ) .

**Tuproqning hisobiy qatlami** o‘simlik ildizlarining asosiy qismi (90% gacha) joylashgan qatlami bo‘lib, o‘simliklar turiga qarab, 0,4-1,0 m. ga teng bo‘ladi.

Mavsumiy sug‘orish me’yori akad. A.N.Kostyakov tavsiya etgan suv muvozanati tenglamasi yordamida aniqlanadi:

Ba’zida tuproq faol qatlami namining taqchilligi deb ataladigan mavsumiy sug‘orish me’yorini akad. A.N.Kostyakov tavsiya etgan suv muvozanat tenglamasidan aniqlash mumkin:

$$M = E - (10 \cdot \mu \cdot P \pm \Delta W + W_{gr} - W_f), \text{ m}^3/\text{ga},$$

bu yerda  $E$  -suv iste’moli,  $m^3/ga$ ;  $\mu$  -yog‘indan foydalanish koeffitsienti (0,3-0,6);  $P$  -vegetatsiya davridagi yog‘in miqdori,  $m^3/ga$ ;  $\Delta W$  -o‘simlik ildiz qatlami namidan foydalanadigan suv hajmi,  $m^3/ga$ ;  $W_{gr}$  -faol qatlama sizot suvlaridan kirim suv hajmi,  $m^3/ga$ ;  $W_f$  -sug‘orish suvining yyer usti va faol qatlama bo‘lgan tashlama-isrofi,  $m^3/ga$ ;

**Sug‘orish me’yori** deb, qishloq xo‘jaligi ekinlarini bir marotaba sug‘orish uchun 1 ga sug‘orish maydoniga beriladigan suv hajmi ( $m^3/ga$ ) ga aytildi.

$$m = H_{his} \cdot \beta \cdot (W_{max} - W_{min}), \text{ m}^3/\text{ga}$$

Bu yerda:  $H_{his}$ . - tuproqning hisobiy qatlami, sm.

$\beta$  - tuproqning hisobiy qatlamin xajmiy og‘irligi,  $t/m^3$

$W_{max}$  - sug‘orishdan keyingi tuproq namligi, %

$W_{min}$  - sug‘orishdan oldingi tuproq namligi, %

**Mavsumiy sug‘orish me’yorining qiymatlari:**

g‘o‘za ekini - 5000-9000 $m^3/ga$ ;	g‘alla - 1000-5000 $m^3/ga$ ;
ko‘p yillik o‘tlar - 2000-10000 $m^3/ga$ ;	poliz - 2000-8000 $m^3/ga$ ;
makkajo‘xori - 2000-5000 $m^3/ga$ ;	bog‘ va uzum - 1500-7000 $m^3/ga$ .

**Sug‘orish me’yorining qiymatlari:**

tomchilatib sug‘orishda  $m = (100-300) \text{ m}^3/\text{ga}$ .

yomg‘irlatib sug‘orishda  $m \leq 600 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

yer ustidan sug‘orishda  $m = (600-1500) \text{ m}^3/\text{ga}$ .

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi bir nechta uslublarda aniqlanadi.

**1. Ekspluatatsion sug‘orish rejimi** - ilmiy-tadqiqot muassasalari tavsiyasiga binoan (PSUEAITI), ilg‘or xo‘jaliklar tajribalari va dala kuzatuvlari asosida aniqlanadi.


**2. Loyixaviy sug‘orish rejimi** - A.N.Kostyakovning grafoanalitik uslubida hisoblashlar asosida aniqlanadi.

**Grafoanalitik uslubning moxiyati** - hisobiy davr (dekadalar, oylar)da hisobiy qatlamdagi namlik balansini taxliliga asoslanadi. Balansdan hisobiy davr ohiridagi hisobiy qatlamdagi namlik zahirasi aniqlanib, yo‘l qo‘yiladigan chegara bilan solishtiriladi.

$$W_{ohir} = W_{bosh} + \mu P - E \pm W_{ss} ,$$

Namlik zahirasi  $W_{min}$  gacha kamaysa, sug‘orish belgilanadi. Sug‘orish kuni va me’ yori grafik usulda aniqlanadi.

Namlikni % dan  $\text{m}^3/\text{ga}$  o‘tkazish:  $W(\text{m}^3/\text{ga}) = W(\%) \cdot H_{his} \cdot \beta$



35-rasm. A. N. Kostyakovning sug‘orish rejimini hisoblashdagi grafoanalitik uslubi:  $W_{max}$ ,  $W_{opt}$ ,  $W_{min}$ -tuproq hisobiy qatlami  $h_w$  (m) dagi maksimal, maqbul va minimal nam zaxiralari ( $m^3/ga$ ) egri chiziqlari

#### 4.3. Tuproqning nam sig‘imi

**Tuproqning nam sig‘imi** - tuproqning suvni ushlab turish qobiliyatidir. Tuproqning suv bilan to‘yinish darajasiga va suvning o‘simlik faoliyati uchun etarliligiga qarab quyidagi **nam sig‘imlariga** farqlanadi:

- a) **to‘la** nam sig‘imi (TNS);
- a) **kapillyar** nam sig‘imi (KNS);
- b) **chegaraviy dala** nam sig‘imi (CHDNS);
- g) **maksimal molekulyar** nam sig‘imi(MMNS).

Tuproqning **to‘la nam sig‘imi** – tuproqning barcha g‘ovakliklari (bo‘shliqlari) suv bilan to‘lgan xolatidagi suv miqdoridir.

Tuproqning **kapillyar nam sig‘imi** – tuproq bilan sizot suvlari o‘rtasida kapillyar aloqa bo‘lgan xolatda, tuproq ushlab tura oladigan suv miqdoridir.

Tuproqning ***cheгаравиј дала нам сиг‘ими*** – tuproqning gravitatsiya suvlari oqib tushgan va sizot suvlaridan kapillyar to‘yinish yo‘q holatdagi eng ko‘p ushlab turiladigan suv miqdoridir.

Tuproqning ***maksimal - moleklyar нам сиг‘ими*** – o‘simlik so‘lishi boshlanadigan eng kam chegaraviy kritik namligidir.

***Gravitationsuv*** – TNS va CHDNS orasidagi farqga teng bo‘lib, tuproq qatlamida harakatlanadi va sizot suvlarini suv bilan ta’minlaydi.

### **3-jadval. Tuproq namligining yo‘l ko‘yiladigan minimal kiymatlari**

Ekin turlari	SHo‘rlanmagan tuproqlar		Kam sho‘rlangan tuproqlar	
	og‘ir	engil	og‘ir	engil
G‘o‘za va ko‘p yillik o‘tlar	70-75	65-70	75-80	70-75
Don ekinlari	65-70	60-65	70-75	65-70
Makkajo‘xori	65-70	60-65	75-80	70-75
Meva va rezavor ekinlar	70-80	60-70	75-85	70-75

### **4-jadval. O‘simlikning sizot suvlaridan iste’moli suv mikdori**

Sizot suvlarining sathi	Foydalilaniladigan sizot suvlar, m <sup>3</sup> /ga hisobida	
	chuchuk	kam sho‘rlangan
1,0	3000	1200
1,5	1500	800
2,0	900	400
2,5	500	100

### 5-jadval. Hisobiy qatlam ( N<sub>xis</sub>) ning taxminiy qiymatlari, m

Ekin turlari	Rivojlanish davri	Hisobiy katlam, m
	shonalash	0,5-0,6
	gullah	0,75-0,85
	etilish	0,5-0,6
	tuplanish	0,45-0,55
	shonalash yoki gullah oldidan:	
	birinchi yilda	0,5-0,6
	keyingi yillarda	0,75-0,85
	o‘rilgach	0,75-0,85
	tuplanish	0,3-0,5
	naychalash	0,6-0,7
	ildiz otish	0,2-0,3
	barg yozishi	0,4-0,5
	ildiz meva hosil qilishi	0,6-0,7
	Ildiz otish	0,2-0,3
	Barg yozish	0,4-0,6
Bog‘ va tokzorlar		0,75-1,0

**Sug‘orish muddatlarini aniqlash.** G‘o‘zaning sug‘orish muddatlarini belgilashda bir qator usullar ishlab chiqilgan: tuproq namligiga, fiziologik ko‘rsatkichlarga, o‘simliklarning tashqi belgilariga va gullah bo‘g‘inlariga qarab sug‘orish shular jumlasidandir.

Sug‘orish muddatlarini tuproq namiga qarab belgilash eng ob’ektiv usul hisoblanadi. Buning uchun tuproq parmasi yordamida 10 sm oralatib muayyan hisobiy qavat chuqurligidan tuproq namunalari olinadi va ular namligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish sharoitlarida sug‘orish muddati quyidagicha begilanadi: 30-40 sm chuqurlikdan olingan tuproqni qo‘lda siqqanda mushtlanmay yerga sekin

tashlaganda sochilib ketsa, demak sug‘orish kerak.

Sug‘orish muddatlarga, ya’ni barglar rangi o‘zgarib to‘q yashil tusga kirganiga, barglardagi turgor holati susayishiga, kunduzi soat 14-15 larda bargning asosiy tomiri kirsillab sinmasligiga qarab ham aniqlash mumkin. Buning uchun dalaning diagonali bo‘ylab har 1 gektardan kamida 30-40 ta o‘simglik olinadi.

G‘o‘za gulining boshpoya o‘suv nuqtasiga nisbatan joylanishi ham (gullash - ko‘rak tugish davrida) navbatdagi sug‘orish uchun ancha ishonchli ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu usul boshpoyaning o‘sish sur’atlaridagi qonuniyatlarni hamda unda yangi hosil shohlari paydo bo‘lishini va gullashning (tikkasiga qarab) qisqa navbatlarining o‘tish sur’atlarini hisobga olishga asoslangan. Sug‘orishni shunday o‘tkazish kerakki, toki yuqorigi gulning o‘suv nuqtasiga nisbatan joy almashinuvi asta-sekin o‘tsin va bo‘g‘in oraliqlari aynan 4-5 sm masofada bo‘lsin.

### **Nazorat savollari**


1. Suv iste’moli nima?
2. Suv iste’moli nimalariga bog‘liq?
3. Suv iste’moli qanday usullar yordamida aniqlanadi?
4. Suv muvozanati balansini aniqlashning qanday ko‘rinishlari mavjud?
5. Sug‘orish rejimi nima?
6. Sug‘orish rejimi qanday omillar asosida belgilab olinadi?
7. Sug‘orish me’yori nima?
8. Mavsumiy sug‘orish me’yori nima?
9. Sug‘orish rejimini aniqlash uslublarini tushuntiring?
10. Tuproqning nam sig‘imi nima?
11. Tuproqning to‘la nam sig‘imi nima?
12. Tuproqning kapillyar nam sig‘imi nima?
13. Tuproqning chegaraviy dala nam nima?
14. Tuproqning maksimal molekulyar sig‘imi nima?
15. Sug‘orish muddatlari qanday aniqlanadi?

## **5. QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARINI SUG‘ORISH MUDDATLARI VA ME’YORLARINI TENZIOMETR YORDAMIDA ANIQLASH USULLARI**

Dala tenziometrlarining asosan ikki turi ishlab chiqarilgan: membrana turdag'i prujinali vakuumetr (AM-20-11); bosim ko'rsatkichli vakuumetr (IVD «Irrometr», Hydratal-1000). Mazkur tenziometrlar bir joyda ish bajaruvchi qurilmalar bo'lib, faqat-LOCTRONIK turdag'i (Isroilning AM firmasi) tenziometrlar ko'chma ish bajaruvchi qurilmalar hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida bosim ko'rsatkichli vakuumetrlar IVD-1, IVD-2 UkrGMITI, Isroilning AMJ va AQSH ning «Irrometr» firmasi loyihasi bo'yicha ishlab chiqarilgan tenziometrlar keng tarqalgan.

«Irrometr» rusumli tenziometrlarning tuzilishi **36-rasmda** tasvirlangan. Ushbu tenziometrlar majmuida 4 xili mavjud, tuproqqa o'matilish chuqurligiga qarab 30,50,70,100 sm o'lchamli bo'lib, havosiz nasos ichiga zararsizlantirilgan suv yashil rangli aralashma bilan to'ldiriladi. Vakuumetr ko'rsatkichi santibar birligida o'lchanadi, tuproq so'rish bosim oralig'i 0-85 ga teng 90 santibar yoki 0-8,5(9,0)metr suv hajmida yoki 0,85 (90)kPa).



36-Rasm. «Irrometr» rusumli tenziometrni tuzilishi

1-qopqoq yopqich; 2- havoni ushlagich; 3-vakuumetr; 4-ko‘rinuvchi organik oynadan qilingan himoyalovchi qism; 5-ximik toza suv bilan to‘ldirilgan uzatkich; 6-uchki kyeramik qismi (filtr).

### **5.1. Irrometrlarni dalada o‘rnatish**

Avvalo, irrometrlarni o‘rnatish joyi aniqlanadi. Bu ishlar PSUEAITI (G.A.Bezborodov) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomaga ko‘ra, quyidagicha amalga oshiriladi:

- sug‘oriladigan maydonning nishabligi inobatga olinadi. Agar sug‘oriladigan dalaning nishabligi uncha katta bo‘lmasa, ( $i < 0,005$ ) egatning boshidan boshlab, uning uzunligining 2/3 qismiga o‘rnatiladi. Qolgan holatlarda esa ( $i > 0,005$ ), irrometrlar egat uzunligining taxminan o‘rtasiga o‘rnatiladi;

- bir vaqtida sug‘oriladigan egatlar soni va sug‘oriladigan maydonning eni hisobga olinadi. Agar maydon bir vaqtning o‘zida hamma egatlardan sug‘orilsa, irrometrlar maydonning o‘rta qismiga joylashgan egatlardan biriga o‘rnatiladi. Agar maydon bir necha qismga bo‘lib alohida-alohida sug‘orilsa, maydonning birinchi navbatda, suv taraladigan qismining o‘rta qismida joylashgan egatlarning biriga o‘rnatiladi;

- irrometrlar g‘o‘za qatori (egatning pushti)ga o‘rnatiladi. O‘rnatilgan irrometrlardan hisob olish vaqtida adashib ketmaslik uchun, egat yo‘nalishi bo‘yicha avval 30 sm, keyin 70 sm uzunlikdagi irrometrlar ketma-ket, bir-biridan 20-30 sm oraliqda o‘rnatish tavsiya etiladi;

- irrometrlarni o‘rnatish jarayoni ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Diametri, irrometr diametriga yaqin (sal katta) bo‘lgan 1 metrlik quvur yoki shunga o‘xhash moslamani yerga qoqish yo‘li bilan, avval 30-40 sm, keyin 70-80 sm lik quvur tayyorlanadi. Irrometr uchligi bilan tuproq o‘rtasida jips bog‘liqlik yuzaga kelishi uchun, quvurning ichiga suvda yeritilgan tuproq massasi (taxminan 200-300g) quyiladi. Irrometrning uchligi selofan qopchadan bo‘shatiladi, uning tepa qismida joylashgan qopqog‘i echiladi va irrometr quvurga tushuriladi. Quvur tuproq bilan to‘ldiriladi va oyoq bilan yaxshilab presslanadi. Vegetatsiya davrida, mexanizmlar bilan tuproqqa ishlov berish jarayonida, o‘lchov olish qismi bo‘lmish vakuumetrning

tuproq ostida qolib ketishining oldini olish maqsadida, tuproqqa vyertikal holatda o‘rnatilgan irrometr vakuumetrning pastki qismi bilan yerning yuzasi o‘rtasida, taxminan 10-12 sm masofa qolishi kerak.

Tuproqqa o‘rnatilgan irrometr ichiga distillangan yoki oldindan qaynatib sovitilgan toza suv quyiladi. Irrometr naychasi suvga to‘ldirilish vaqtida, naychaning ichida qolib ketgan havo, naychaning suvga to‘lishiga halaqit berishi mumkin. Bunday hollarda irrometrning og‘zi (irrometr qopqog‘i echilgan qismi)ga maxsus nasos qo‘yib, bu havo tortib olinadi. Naycha ichidagi suvning aynib qolishi oldini olish maqsadida, naycha ichidagi suvga 3-4 tomchi “Toluol” moddasi tomchilanadi.

Irrometr naychasi suvga to‘ldirilgandan so‘ng, maxsus nasos bilan vakuumetr 70-80 santibar ko‘rsatkichiga ko‘tarilgunga qadar tortiladi va nasos kamyerasiga yig‘ilgan havo klapan orqali tashqariga chiqarib tashlanadi. Bu jarayon 2-3 marotaba takrorlanadi. So‘ngra irrometr qopqog‘i mahkam byerktiladi va iloji boricha gazlamadan tikilgan qopcha bilan byerkitib quyiladi.

## **5.2. Tenziometrning ishlash jarayoni**

Tuproq namligining turli chegarasi va tenziometr ichki qismidagi suv almashinuviga asoslangan. Agar tuproq namligi chegarasi noldan past ko‘rsatkichni tashkil etsa, tenziometr ichki qismidagi suv uning uchki kyeramik qismi orqali tuproq namligi maqbul chegaraga keltirilguncha oqib tushadi. Bu jarayon sug‘orishlar oralig‘ida, tuproq qurigan holatda sodir bo‘ladi. Sug‘orishlar natijasida, tuproq bir tekis namlanganda, qurg‘oqchilik mintaqalarda tuproqning qurishi va namlanishi ko‘p qaytariqli tarzda takrorlanadi (2-rasm). Tenziometrning amal davri davomida, nuqson siz bir xil ishlashini ta‘minlash uchun uning ichki kyeramik qismiga 0,7-1 mkm ga teng bo‘lgan teshikchasi orqali mikroorganizmlar va tuproq loyqasi qo‘shilmagan ishchi aralashma quyiladi va tez-tez almashtirilib turiladi.



37-rasm. Tenziometrlar yordamida tuprokning namligini aniklab qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orish muddatlarini aniklash



38-rasm. Tenziometrlarni ko‘llaganda sug‘orish suvi 5-15% iktisod kilinadi va qishloq xo‘jalik ekinlarini xosildorligi

8-10% oshadi

### 5.3. Tuproq namligi so‘rish bosimining maqbul oralig‘i

Tuproqning so‘rish bosimi oralig‘i tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imi (CHDNS)ning pastki chegarasidan va yuqori chegarasiga qarab harakatlanadi.

Bunda, qumoq tuproqlar uchun tuproq namligi so‘rish bosimi birligi CHDNS ga nisbatan 5 santibar, og‘ir qumoqli tuproqlarda esa 10 santibarni tashkil etadi. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik ekinlarining pastki namlik chegarasi ko‘rsatkichlari **6-jadvalda** keltirilgan.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish muddatlari, tuproqlarning mexanik tarkibi, sho‘rlanish darajasi va ekinlarning o‘suv davriga qarab, quyidagi jadvaldan foydalanib aniqlanadi:

**6-jadval. Qishloq xo‘jalik ekinlarining pastki namlik chegarasi ko‘rsatkichlari**


Ekin turi va tuproq sharoiti	Sug‘orishdan oldingi maqbul namlik, %		Tuproqning so‘rish bosimining zaruriy chegarasi (santibar);	
	CHDNS dan	hajmdan	sug‘orishni boshlash	sug‘orishni tugatish
<u>G‘o‘za – o‘rta va og‘ir</u> sho‘rlanmagan tuproqlarda: a) unib chiqish va pishish davrida; b) ko‘saklarning ochilish davrida	70  60-65	18-21  15-20	51-53  52-56	10  10
<u>G‘o‘za – engil va</u> sho‘rlangan tuproqlarda: a) unib chiqish va pishish davrida; b) ko‘saklarning ochilish davrida	75-80  Ko‘rsatgichlari	17-18  .....	40  .....	10  .....
<u>Beda, makkajo‘xori</u> - o‘rta va og‘ir				

sho'rlanmagan tuproqlarda; - engil va sho'rlangan tuproqlarda:	75  80-85	19-22  18-20	48-50  20-30	10  10
<u>Kuzgi bug'doy</u>  - o'rta va og'ir sho'rlanmagan tuproqlarda; - engil va sho'rlangan tuproqlarda:	70-75  75-80	18-22  17-18	48-53  30-40	10  10

Egatlarga suv taralgandan so'ng, irrometr o'rnatilgan yerga borish va undagi ko'rsatkichlarni olish ancha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida, irrometrlar o'rnatilgan egatlarga qo'shni bo'lgan egatlardan biriga suv qo'yilmaydi. Natijada, irrometr o'rnatilgan yerga bemalol borib-qaytish imkoniyati yaratiladi.

#### 5.4. Sug'orish muddati va me'yorini aniqlash

Ekinlarning sug'orish muddatlari va me'yorlarini aniqlash uchun, tenziometr ko'rsatkichlarini o'zgarishini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Sug'orish muddatlarini belgilash bo'yicha tenziometr ko'rsatkichlari ma'lumotlari **6-jadvalda** keltirilgan. Ishlab chiqarish sharoitida tenziometrlar ko'proq 30 sm tuproq qatlamiga o'rnatiladi, bunda tenziometrlarning ishlashi vaqtincha to'xtab qolish holatlari ro'y byeradi. CHunki, tuproqning yuqori haydov qatlami pastki qatlamlarga nisbatan tez qurib qoladi, natijada ishchi aralashma qurilmaning uchki kyeramik qismi orqali tuproqqa so'riladi va tenziometrda gyermetik xolatni buzilishi (razgyermitizatsiya) jarayoni sodir bo'ladi. Bunday sabablar natijasida ekinlarni sug'orish kechiktiriladi. Ushbu holatda tenziometr ishchi aralashmasini darhol almashtirish befoyda hisoblanadi negaki, bunda tuproq so'rish bosimi kuchli bo'ladi va qurilmaning ishlab ketishi qiyinlashadi. Ishchi aralashmani almashtirish, faqat sug'orishdan keyingina amalga oshiriladi.



39-rasm. So‘ruvchi bosimni ( $P$ ) tuproqni xajmiy namligiga bog‘liqligi ( $W$ )

1-og‘ir qumoq; 2-o‘rta qumoq; 3-engil qumoq ( $V_{70}$ ,  $V_{100}$  – 70, 85 va 100 sm qatlamdagи tuproq zaxirasi).

Shuning uchun tuproq namligini tenziometr orqali nazorat qilish, uni 70 sm qatlamga o‘rnatish yuqori samara byeradi. Tuproq namligini qatlamlar bo‘yicha o‘zgarishini statistik usullar yordamida tahlil qilish natijalariga ko‘ra, 1 m tuproq qatlamidagi tuproq namligini 70 sm o‘lchamli tenziometr ko‘rsatkichi yordamida aniqlash mumkin, bunda ishonchlilik 87,9% va o‘rtacha kvadratik xatolik 1,65% ga teng bo‘ldi. Buning uchun 60-80 sm dagi tuproqni namlik xajmini 3 foizga kamaytiramiz va olingan ma’lumotlardan chizma yoki jadvaldan foydalanib, tuproqni so‘ruvchi bosimi ko‘rsatkichi aniqlanadi. Agarda, shunda pastki sug‘orish oldi namligiga to‘g‘ri kelsa, sug‘orishni boshlash kerak.

Sug‘orish me’yorlarini o‘lchashni bilish uchun, so‘ruvchi bosimni tuproq namligiga bog‘liqligi  $P_s = f(w)$  chizmasini bilish kerak. Bunday chizmani qurish uchun tuproq namligini dalalarda o‘lchash gravimetrik usulda va tuproqni so‘ruvchi bosimini tenziometrlarda o‘lchab aniqlanadi.

$$M = (W_{HB} - W_\phi) \cdot 10000 \cdot h \cdot k, \quad \text{m}^3/\text{ga}$$

Sug‘orish me’yorini  $m^3/ga$  da olish qulay, tuproq namligini  $P_s = f(w)$  chizma hajm foizlarida ta’svirlash tavsiya etiladi. Bunda o‘z navbatda, tuproqni xajm massasi nazarga olinadi. 2 chizmada  $P_s = f(w)$  bog‘liqligi mexanik tarkibi engil, o‘rtacha va og‘ir bo‘z tuproqlarda ko‘plab o‘tkazilgan o‘lchovlar asosida taqdim etilgan.

**39-rasm** asosida so‘ruvchi bosimni aniqlash, xaqiqiy namlik zahirasi, tuproqni hisob qatlami ( $W_\phi$ ) ni me’yorgacha sug‘orishlar bilan to‘ldirish uchun sug‘orish me’yorini hisoblash mumkin. Uni farqi teng ( $W_{HB} - W_\phi$ ), tuproqni hisob qatlamida yoki sug‘orish me’yori nettoni olingan koeffitsientiga ko‘paytirib aniqlanadi  $k = 1,10 - 1,20$ , sug‘orish vaqtidagi yo‘qotilgan suv, bug‘lanishga ketgan suv, filtratsiya va oqova yig‘indisi natijasida sug‘orish me’yori brutto kelib chiqadi.

Tenziometrlar dalaga doyimiyligi o‘rnataladi, tenziometrlar yordamida nafaqat sug‘orish vaqtini va me’yori, balki sug‘orishni tugatish vaqtini ham aniqlanadi. Bunda, vaakummetr ko‘rsatkichi 10-15 santibarga yaqinlashganda, dalaga suv berish to‘htatiladi.

Sug‘orish uchun belgilangan suv me’yori, fyermeyer va suv xo‘jaligi tashkilotlari uchun byeriladigan suv uni to‘lash me’yorlarini hisoblashga yordam byeradi.

### **Nazorat savollari.**

1. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi nima?
2. Tenziometr yordamida kanday ekinlarning sug‘orish muddatlari va me’yorlari aniqlanadi.
3. Tenziometrning ishslash jarayoni tushuntiring.
4. Sug‘orish yordamida etishtiriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha suv iste’moli qiymatlari kanchaga teng.

## **6. GIDROMODUL VA UNING TURLARI. SUG‘ORISH MAYDONLARINI GIDROMODUL RAYONLASHTIRISH**

### **6.1. Gidromodul va uning turlari**

*Gidromodul tushunchasi.* Odatda suvdan foydalanish hisoblari butun maydon

bo‘yicha emas, balki bir gektar bo‘yicha olinadi, ya’ni nisbiy suv berish bilan aniqlanadi. Bu esa, byeriladigan suv hajmining maydonga bo‘lgan nisbati bilan aniqlanadi va sug‘orishning davom etish **gidromoduli** deb ataladi.

**Gidromodul** – grekcha so‘z bo‘lib hudro - suv, modulus - o‘lchov, ya’ni, **suv o‘lchovi** demakdir

*Sug‘orish gidromoduli* - birlik maydonga vaqt birligi ichida bir marotaba sug‘orishi uchun byerilgan solishtirma suv sarfidir:

$$q_s = \frac{m \cdot 1000}{t \cdot 86,4} = \frac{m}{t \cdot 86,4}; \text{ l/s ga}$$

bu yerda:  $m$  - qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orish me’yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

$t$  - sug‘orish davrining davomiyligi, kun.

*Suv berish gidromoduli* - biror ekinning bir gektariga butun vegetatsiya davomida nisbiy suv berishdir:

$$q_s = \frac{M}{86,4 \cdot T}$$

bu yerda:  $M$  - mavsumiy sug‘orish me’yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$

$T$  - vegetatsiya davri, sutka

*Keltirilgan gidromodul* - har bir qishloq xo‘jaligi ekini uchun 1 ga maydonga 1 sekundda litr hisobida byerilgan suv miqdoridir:

Keltirilgan gidromodul qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\overline{q_\kappa} = \frac{q_c}{100} \cdot \alpha; \text{ l/s ga}$$

bu yerda:  $\alpha$  - qishloq xo‘jalik ekinlari maydonining % hisobidagi ulushi.

*Salmoqlashtirilgan gidromodul* - sug‘orish tizimi bir necha gidromodul rayonlardan o‘tganda qo‘llaniladi:

$$q_{sal} = \frac{q_1 \cdot \omega_1 + q_2 \cdot \omega_2 + \dots + q_n \cdot \omega_n}{\sum \omega}, \text{ l/s ga}$$

Bu yerda:  $q_i \cdot \omega_i$  - har bir ekin turining gidromoduli va maydoni.

## 6.2. Sug‘orish maydonlarini gidromodul rayonlashtirish

*Gidromodul rayonlashtirish* - hududni taksonomik birlik maydonlarga bo‘lish bo‘lib, uning maqsadi yer va suv resurslaridan unumli foydalanish va u yerlarda

ilmiy-asoslangan sug‘orish tartiblarini qo‘llash, hamda ekinlardan yuqori hosil olishdir.

Gidromodul rayonlashtirishning asosiy prinsiplari O‘rta Osiyo uchun 1932-1951 yillarda V.M.Legostaev, B.S.Konkov va G.P.Gelsyerlar tomonidan ishlab chikilgan bo‘lib, uning asosida tuproqning mexanik tarkibi va yer osti sizot suvlarining joylashishi yotadi.

1948-1957 yillarda S.N.Rijov, B.V.Fedorov va V.E.Yeremenkolar rayonlashtirishning asosiy prinsiplarini takomillashtirishdi va O‘rta Osiyo yerlarini 10 ta gidromodul rayonga bo‘lishdi (6-jadval)


### **7-jadval. Sug‘oriladigan yerkarni gidromodul rayonlashtirish**

(S.N.Ryjov, B.V.Fedorov va V.E.Yermenko).

Gidromodul rayonlar	Tuproqning mexanik tarkibi	Sizot suvlar satxi,m
1	engil	3-4 dan chuqur
2	o‘rta	-»-
3	og‘ir	-»-
4	engil	2 dan 3 gacha
5	o‘rta	-»-
6	og‘ir	-»-
7	engil	1 dan 2 gacha
8	o‘rta	-»-
9	og‘ir	-»-
10	turlicha	0 dan 1 gacha

Keyingi takomillashtirish sobiq «Sredazgiprovodxlopo» (O‘zGIP MCHJ) instituti tomonidan (Shredyer va b.) 1968 yilda olib borildi. Ular yuqoridagidan tashqari kenglik mintaqalari va gidrogeologik-meliorativ oblastlarni ajratdilar.

**Kenglik mintaqalari:** Shimoliy I va II, Markaziy I va II hamda Janubiy I va II dan iborat bo‘lib, iqlim va geografik joylashishlari bilan farqlanadilar (36-rasm).



40-rasm. Kenglik mintaqalari

### **Gidrogeologik-meliorativ oblastlar.**

- a.** Chuqur joylashgan grunt suvlari yaxshi oqimga ega va ular tuproq hosil bo‘lish jarayonida ishtirok etishmaydi (grunt suvlarini yer ostiga singish oblasti).
- b.** Yer yuziga yaqin joylashgan grunt suvlari. Tashqaridan oqib kelishi yaxshi, lekin oqib chiqib ketishi qiyinlashgan hudud. Tuproq hosil bo‘lish jarayonida ishtirok etadi (grunt suvlarining yer yuziga qalqib chiqish oblasti).
- v.** Grunt suvlarining doimiy sathi bo‘lmay, ma’lum joydagi tabiiy sharoitga qarab o‘zgaradigan, tashqaridan oqib kelishi va ketishi qiyinlashgan hududlar (grunt suvlarini yoyilishi oblasti).

Yuqoridagidan shu ma’lumki: yer osti suvlar sathi va tuproqning mexanik tarkibi bir xil bo‘lsa ham, hidrogeologik-meliorativ oblasti har xil bo‘lsa, sug‘orish tartibi ham turlicha bo‘ladi.

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tuproq mintaqasi (poyas) larning belgilanishi quyidagi jadvalda keltirilgan bo‘lib, ekinlarni sug‘orish tartiblarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

### 8-jadval. Mintaqalarining belgilanishi

Mintaqa, poyas		Tuproq hosil bo‘lishi (avtomorf qator)
nomi	belgilanishi	
Cho‘l	A A <sup>1</sup>	Cho‘lli O‘tuvchi (qo‘ng‘ir tuproq poyasi)
Efemer dasht	B V	Qo‘ng‘ir tuproqli – oq qo‘ng‘ir tuproqlar Qo‘ng‘ir tuproqli – tipik qo‘ng‘ir tuproqlar
Har xil o‘tli dasht	G	Qo‘ng‘ir tuproqli – to‘q qo‘ng‘ir tuproqlar

Sug‘oriladigan yerkarni gidromodul rayonlashtirish prinsiplarini S.N.Rijov va N.F.Bespalovlar yanada takomillashtirib, ekinlarni suv bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ayeratsiya zonasida tuproq qatlamlarining joylashuvini ham inobatga olgan yangi gidromodul rayonlashtirish jadvalini ishlab chiqdilar va bu jadval bugungi kunda ishlab chiqarishda qo‘llanilmoqda (9-jadval).


## 9-jadval. Sug‘oriladigan yerlarni gidromodul rayonlashtirish

(S.N.Rijov va N.F.Bespalov).

Gidromodul rayon nomyeri	Tuproq holati	Sizot suvlari sathi, m
<b>Avtomorf tuproqlar</b>		
I	Qum-shag‘al ustida joylashgan kam qatlamlı qumoq va qalin qatlamlı qumli.	
II	Qum-shag‘al ustida joylashgan o‘rtalik qatlamlini qumoq va qalin qumoq va engil qumoq	
III	Qalin o‘rtalik va og‘ir qumoq va loyli	
<b>Yarim avtomorf tuproqlar.</b>		
IV	Qumoq, o‘rtalik va kam qalinlikdagi qatlamlı qumoq va loyli.	
V	Engil va o‘rtalik qumoq, pastga engillashuvchi bir qatlamlı og‘ir qumoq.	
VI	Og‘ir qumoq, loyli, bir xil qatlamlı va turli mexanik tarkibli, qatlamlı.	
<b>Gidromorf tuproqlar.</b>		
VII	Qumli va qumoq, kam va o‘rtalik qalinlikdagi qatlamlı qumoq va loyli.	
VIII	Engil va o‘rtalik qumoq, bir qatlamlı, pastga engillashuvchi og‘ir qumoq.	
IX	Og‘ir qumoq va loyli, bir xil qatlamlı, turli mexanik tarkibli, qatlamlı.	

**10-jadval. M-II-A-v-VII gidromodul rayon uchun qishloq xo‘jaligi ekinlariga sug‘orish rejimi jadvali**

№	Q/x ekini nomi va %	Mavsumiy sug‘orish me’yori, $m^3/ga$	Sug‘orish davri	O‘lchov birliklar	Sug‘orish me’yorining oylar bo‘yicha taqsimoti						
					III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
			1.06- 10.09	%				24	39	34	3
				kun				30	31	31	10
				$m^3/ga$				1200	1950	1700	150
				l/s·ga				0,46	0,73	0,63	0,17
				l/s·ga				0,32	0,51	0,44	0,12
			21.04- 20.09	%		2	13	23	29	25	8
				kun		10	31	30	31	31	20
				$m^3/ga$		138	897	1587	2001	1725	552
				l/s·ga		0,16	0,33	0,61	0,75	0,64	0,32
				l/s·ga		0,11	0,23	0,43	0,52	0,45	0,10



41-rasm. Keltirilgan gidromodul grafigi

**Keltirilgan gidromodul grafigining vazifasi.** Keltirilgan gidromodul grafigidan istalgan vaqt uchun xo‘jalikka suv berish miqdori aniqlaniladi va sug‘orish tarmoqlarini loyihalashda, ulardagi normal, minimal suv sarf qiymatlari aniqlaniladi:

$$Q^{nor} = \omega_{net} \cdot q_{max}, \text{ l/s}$$

$$Q^{\min} = \omega_{net} \cdot q_{\min}, \text{ l/s}$$

$$q_{\min} = 0,4 \cdot q_{max} \text{ l/s}$$

### Nazorat savollari

1. Gidromodul nima?
2. Sug‘orish gidromoduli nima?
3. Suv berish gidromoduli nima?
4. Keltirilgan gidromodul nima?
5. Salmoqlashtirilgan gidromodul nima?

6. Gidromodul rayonlashtirish degandi nimani tushinasiz?
7. Gidromodul rayonlashtirishning asosiy prinsiplari kimlar tomonidan ishlab chiqilgan?
8. Gidromodul qanday ko‘rsatkichlarga asosan aniqlanadi?
9. Gidromodul rayonlashtirishning kenglik mintaqalarini tushuntiring?
10. Mintaqalar nimaga asosan belgilanadi?
11. Qanday gidrogeologik-meliorativ oblastlarni bilasiz?
12. Keltirilgan gidromodul grafigini tuzishdan asosiy maqsad nimada?

## **7. SUG‘ORISHNING TUPROQQA VA TASHQI MUHITGA TA’SIRI**

Maksimal hosil suv, ozuqa, issiqlik, havo va yorug‘lik miqdorlarini maqbul darajasida bo‘lganda yerishiladi. Tuproqda namlikning kyeragidan ortiq yoki kam bo‘lishi hosildorlikni pasaytiradi. Birinchi holatda, tuproqda havo miqdori etishmasligidan, ikkinchi holatda esa, ozuqa va namlik miqdorlarini etishmasligidan o‘simlik qiynaladi.

Sug‘orish tuproqning tabiiy namligini oshirishi bilan birga uning suv–fizik, kimyoviy xossalari va mikrobiologik jarayoniga ham ta’sir etadi.

Tuproqda namlikning normal holda saqlanishi undagi mikroorganizmlarning ko‘payishiga, organik qoldiqlarning chirib tuproq unumdorligi (unda nitratlarning paydo bo‘lishi, nitrifikatsiya) va ekin hosildorligining oshishiga olib keladi.

Tuproqdagi namlikning o‘zgarishi bilan birga undagi harorat va havo rejimi ham o‘zgarib boradi. Tuproq namligining oshishi, uning sovishiga, undagi havoni siqib chiqarishga va tuproq kolloidlarini shishishi natijasida tuproqda ayeratsiyaning yomonlashuviga, tuproqda oldin hosil bo‘lgan nitratlarning pastki qatlamga yuvilishiga olib kelishi mumkin.

Tuproqda namlikning kamayishi undagi azotning bug‘lanishiga va tuproqdagi miqdorining kamayishiga olib keladi.

Sug‘orish suvi sunda yeriydigan tuzlar va minyeral moddalar uchun yerituvchi hisoblanib, tuproqning ustki qatlamidagi tuzlar yeritiladi, tuproq yeritmasi

konsentratsiyasini pasaytiradi va tuproqdagi kimyoviy jarayonga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Sug‘orish natijasida tuproqning ishqoriyligi ortadi. Agarda, tuproqda yeruvchi xlorid va sulfat bo‘lsa, ularning miqdori ko‘payishi bilan tuproqning ishqoriyligi kamayadi.

Sug‘orish natijasida o‘simlik tuproqdan o‘ziga zarur bo‘lgan moddalarni (kaliy, azot, fosfor va h.k.) olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sug‘orish tuproqning fizikaviy xossalari va strukturasiga tasir etadi:

- suv tuproq strukturasini buzishi mumkin (ayniqsa, bostirib sug‘orishda) o‘lchami 2,5 mm gacha bo‘lgan tuproq zarrachalariga suv tegishi bilan ular o‘lchami 1 mm dan kichik zarralarga bo‘linib ketadi. Tuproq kolloidlarining bo‘kishi zarralardagi yopishqoqligining bo‘shashi natijasida tuproqning oraliq kovakchalari kamayib, tuproqning qotqaloqlashiga olib keladi;

- sug‘orish natijasida tuproqni zichlanishi kuzatiladi (ayniqsa, 0,5- 2,0 m gacha bo‘lgan tuproq qatlamida).

- sug‘orish tuproq zarralarining yopishqoqligini o‘zgartiradi (namlikni ko‘paytirish tuproqni yumshatadi).

Sug‘orish o‘simlik va tuproqdagi issiqlik sharoitiga ham ta’sir etadi, o‘simlikning issiqligini pasaytiradi. (ayniqsa, yomg‘irlatib va purkab sug‘orishda) tuproqning issiqlik sig‘imini oshiradi, ya’ni uning haroratini pasaytiradi. CHunki, namga to‘yingan tuproqni isitish uchun ko‘proq issiqlik talab qilinadi. SHuning uchun yilning issiq fasllarida nam tuproq quruq tuproqqa nisbatan sovuqroq, sovuq fasllarda esa issiqroq bo‘ladi. Nam tuproqning issiqlik o‘tkazuvchanligi quruq tuproqnikiga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Qurg‘okchil maydonlarda o‘simlik etishtirilayotgan tuproq haroratining pasayishi bilan unda modda almashinuv jarayonining yangilanishi kuzatiladi.

Tuproqda haroratning oshishi o‘simlik uchun zarur bo‘lgan suv miqdorini oshiradi, transpiratsiya koeffitsentini ko‘paytiradi va undagi oziq moddalardan foydalanishni yomonlashtiradi.

Sug‘orish natijasida sug‘oriladigan maydonning mikroiqlimi o‘zgaradi, chunki

kuyosh enyergiyasining aksariyat qismi tuproq va o'simliklardagi namni bug'latishga sarflanadi. Natijada yer yuzasidagi havo qatlamining harorati pasayib, uning nisbiy namligi ortadi, transpiratsiya koeffitsienti kamayadi.

Bu holat o'simlikda zarur moddalarning to'planishini tezlashtiradi va hosilni oshiradi. Sug'oriladigan maydonlarning atrofiga ekilgan himoya daraxtlari ham shamol va garmsel yo'lini to'sib, sug'orish maydonining mikroiqlimini o'zgartirishga, havoning nisbiy namligini yaxshilashga olib keladi.

Sug'orish hosilning miqdorini oshiribgina qolmay, balki uning sifatini ham yaxshilaydi, chunki sug'orish ta'sirida o'simlik tarkibida kul, oqsil moddalar, yog', uglevodlar va kraxmal miqdori ham o'zgaradi.

Sug'orish suvidan rejasiz foydalanish, dalaga ortiqcha suv berish, sug'orish maydonidan suvni tashlamaga tashlash tuproqdagi ozuqa elementlarning quyi qatlamlarga yuvilishiga, suvning ortiqcha sarfiga, sizot suvlari sathining ko'tarilishiga, ba'zida bu orqali sug'orish maydonlarining sho'rplashiga sabab bo'ladi. Bu holat ortiqcha xarajatlarga, hosildorlikni pasayishiga va mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi.

Sug'orish ta'sirida nafaqat sug'orish massivining, balki atrof maydonlarning ham tabiiy sharoiti o'zgarishi mumkin. Massivning umumiy suv muvozanatida sug'orish tarmoqlari va sug'orish dalalaridan sizilishga isrof bo'lgan suv ko'rinishidagi kirim miqdori keskin ortib, sug'orish massivi va atrof maydonlarning sizot suvlari rejimga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun sug'orish ishlari loyihalanganda massivda sizot suvlarining kelajak rejimi tahlil qilinishi, mabodo ular yer sathiga 3 m dan yaqin kelsa, sug'orish massivi tuprog'ini himoyalash bo'yicha tadbirlar loyihalanib, sug'orish loyihasi bilan birga amalga oshirilishi shart.

### **Nazorat savollari**

1. Sug'orishning tuproq suv-fizik, kimyoviy xossalari va strukturasiga ta'siri.
2. Sug'orishning tuproqdagi mikrobiologik jarayonlarga, issiqlik va havo rejimiga ta'siri
3. Sug'orishning tashqi muhitga ta'siri

## **8. SUVNING TUPROQQA SHIMILISH QONUNIYATI**

Yer ustidan va yomg‘irlatib sug‘orishda suv tuproq bilan o‘zaro tutashadi, suv tuproqqa yutiladi va tuproq bo‘shliqlarida to‘planadi. Bu jarayonni uch bosqichga bo‘lish mumkin: shimalish, to‘yinish va sizilish.

Shimalish tuproq suvgaga tuyinishing birinchi bosqichi hisoblanib, bunda sug‘orish suvi sekin-asta tuproqdagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi. Yer ustidan taxtalab, bostirib va yomg‘irlatib sug‘orishlarda suv pastga qarab shimalib borsa, yer ustidan egatlab sug‘orishda suv birato‘lasiga ham pastga va kapillyarlar yordamida yon tomonlarga va yuqoriga qarab shimalib boradi.

Shimalish tezligi tuproqning yuza holatiga, mexanik tarkibiga va uning namligiga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchandir. Shimalish tezligi ma’lum vaqt mobaynida suvning shimalgan chuqurlik o‘lchami bilan belgilanadi. (sm/soat; m/kun va h.k.). Shimalish tezligi bo‘yicha tuproqlar 5 turga farqlanadi:

- cust suv o‘tkazuvchan tuproqlar (1soatda 20 mm dan kam);
- susaygan suv o‘tkazuvchan tuproqlar (1soatda 20 mm dan 50 mm gacha);
- o‘rtacha suv o‘tkazuvchan tuproqlar (1soatda 50 mmdan 150 mm gacha);
- kuchaygan suv o‘tkazuvchan tuproqlar (1soatda 150 mm dan 250 mm gacha);
- yuqori darajada suv o‘tkazuvchan tuproqlar (1soatda 250 mm dan ko‘p).

Shimalish jarayoni sekin-asta to‘yinish jarayoniga o‘tadi, ya’ni tuproqdagagi barcha bo‘shliqlar va zarrachalar tuproq namiga to‘yinadi, so‘ngra uchinchi sizilish bosqichi boshlanadi. Shu davrdan boshlab sug‘orish to‘xtatilishi kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Suvning tuproqqa shimalish jarayonini o‘rganishning sug‘orish ishlaridagi ahamiyati.
2. Suvning tuproqqa singishidagi kuzatiladigan bosqichlar.

## **9. SUG‘ORISH USULLARI VA SUG‘ORISH TEXNIKASI**

### **9.1. Sug‘orish usullari va texnikasi**


**Sug‘orish usuli** – sug‘orish suvini sug‘oriladigan maydonlarga taqsimlash va suvni oqim shaklidan tuproq va atmosfyera namligiga o‘tkazish uchun

qo'llaniladigan usullar va tadbirlar majmuasidir.

**Sug'orish texnikasi** - suvni oqim shaklidan tuproq va atmosfyera namligiga o'tkazish texnologiyasi va texnik vositalardir.

Sug'orma dehqonchilikda quyidagi sug'orish usullaridan foydalaniladi:

- yer ustidan;
- yomg'irlatib;
- tuproq ichidan;
- tomchilatib;
- subirrigatsiya;
- ayerozol (tuman hosil qilib, mayda dispyersli).



42-rasm. Sug'orish usullarining sxematik ko'rinishlari

## 9.2. Sug'orish usuli va sug'orish texnikasiga qo'yiladigan talablar

Sug'orish usuli va sug'orish texnikasini turlaridan qat'iy nazar ularga quyidagi talablar qo'yildi:

- sug'orish suvining sug'orish dalasi uzunligi va tuproq faol qatlama chuqurligi bo'ylab bir tekis taqsimlanishi;
- sug'orish suvining tuproq faol qatlami ostiga sizilishiga, havoga bug'lanishiga va tashlamalarga yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik;
- tuproq donadorligini saqlash, tuproqning botqoqlanishiga yo'l qo'ymaslik, sug'orishni to'liq mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, sug'orishda yuqori ish unumi va sifatiga yerishish;
- qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va muntazam hosil olishga yerishish.

Sug‘orish usullari va sug‘orish texnikasini mukamallashtirish asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi kerak:

- sug‘orishda yuqori ish unumdorliliga yerishish uchun sug‘orish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- sug‘orish suvidan nafaqat tuproqni namlantirish, balki undan o‘simlik o‘sadigan yer usti havo qatlamini namlatib, o‘simlik uchun mikroiqlim hosil qilish, suv bilan ozuqa, gyerbitsid va pestitsidlar kiritish, havoni keskin o‘zgarishi (garmsel, muzlash)ga qarshi kurashish;
- o‘simlik ildizi ozuqa oladigan tuproq faol qatlaming suv, havo, issiqlik, tuz va ozuqa rejimlarini boshqarish, sug‘orishni suv himoya tadbirdi sifatida qo‘llash;
- bir sug‘orish maydonida ikki-uch xil sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasini mujassamlash, sug‘orish maydonini oqilona tashkil etish, sug‘orishda ishtirok etadigan xodimlarning qo‘nimsizligini yo‘qotish.


### **9.3. Sug‘orish usullari va ularning avzalliklari**

#### **Yer ustidan sug‘orish**


Yer ustidan sug‘orish usulida suv dalaga tuproq ustidan taqsimlanadi. Bunda suv gorizontal harakat qilish jarayonida tuproqqa vyertikal va yon tomonlarga yo‘nalgan holda shimaladi.

Yer ustidan sug‘orish usulining texnologiyalari:

- egatlab sug‘orish;
- yo‘laklab (pol olib) sug‘orish;
- bostirib (chek olib) sug‘orish.




43-rasm. Egatlab sug‘orish



webferma.com

44-rasm. Yo'laklab (pol olib) sug'orish



webferma.com

45-rasm. Bostirib (chek olib) sug'orish.

Yer ustidan sug'orish usuli quyidagi afzalliklarga ega:

- katta sug'orish me'yorini berish mumkin;
- tuproq strukturasi yaxshi saqlanadi;
- sho'rangan va sho'rlanishga moyil yerkarni sug'orishda yuvilish rejimi yaxshi ta'minlanadi;
- qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalashga to'sqinlik qilmaydi;
- chuqur hisobiy qatlamni namlantirish mumkin;
- suv sifatiga talab darajasi past;
- oddiy, xarajatlar kam.

### **Yomg'irlatib sug'orish**

**Yomg'irlatib sug'orish** – suvni tuproq sathi va o'simlikka maxsus mashina, qurilma va agregatlar yordamida sun'iy yomg'ir shaklida etkazib berishdir.

#### ***Yomg'irlatib sug'orishning avzalliklari:***

- sug'orish me'yorini kamaytirish yoki ko'paytirish orqali tuproqning namiqish chuqurligini o'zgartirish;

havoning yer usti qatlamining nisbiy namligini oshirish va haroratini pasaytirish, ekinlarni sovuq urmasligini ta'minlashi;

suvni dala bo'ylab tekis taqsimlanishi va uning relefiga talab qo'yilmasligi;

sug'orish egatlari va o'q ariqlarni qurishga xojat yo'qligi;

sug'orish suvi bilan minyeral o'g'itlarni berish mumkinligi;

suv tejamkor usulligi;  
EFK ning yuqori bo‘lishi.




46-rasm. Yomg‘irlatib sug‘orish

### **Tuproq ichidan sug‘orish**

Tuproq ichidan sug‘orishda suv 40-60 sm chuqurlikda joylashtirilgan namiqtiruvchi quvurlar tizimi orqali o‘simlik ildizi joylashgan qatlamga etkaziladi va tuproq kapillyarlari hisobiga namlantiriladi.

#### ***Tuproq ichidan sug‘orishning avzalliklari:***

sug‘orish me’yorining 15-40% ga kamligi;  
svjni bug‘lanishga isrof bo‘lishini keskin pasayishi (0,98-0,99);  
begona o‘tlarning chiqmasligi;  
ochiq sug‘orish tarmoqlarining yo‘qligi, EFK ning yuqoriligi;  
sug‘orish suvi bilan minyeral o‘g‘itlarni berish mumkinligi;  
tuproqning zichlashmasligi, qator orasiga ishlov berilmasligi;  
hosildorlikning 20-40% gacha oshishi va b.



47-rasm. Tuproq ichidan sug‘orish

### ***Tomchilatib sug‘orish***

**Tomchilatib sug‘orish** – maxsus filtrlar yordamida tozalangan suv tomchilatgichlar orqali tomchi shaklida tuproqqa berilib, o‘simlikning ildiz tizimi joylashgan qatlamini o‘zini (lokal) namiqtirishdir.

#### ***Tomchilatib sug‘orishning avzalliklari:***

suv tejamkorligi (40-50%);

svjni filtratsiyasi va bug‘lanishi kamligi, oqava chiqarmasligi;

qator oralarining zichlanmasligi, irrigatsiya eroziyasining yo‘qligi;

o‘g‘itlarni tuproqqa suv bilan lokal kiritilishi;

murakkab relefarda qo‘llash mumkinligi;

hosildorlikning 50% gacha oshishi va b.



48-rasm. Tomchilatib sug‘orish

#### ***Tuproq ostidan sug‘orish (subirrigatsiya)***

**Tuproq ostidan sug‘orish (subirrigatsiya)** – sizot suvlari sathini ko‘tarish orqali sug‘orish bo‘lib, tuproqning o‘simlik ildizi joylashgan qatlamiga sizot suvlari tuproq kapillyarlari orqali ko‘tariladi.


Kollektor-zovur tarmoqlariga to‘silalar qo‘yib, minyeralizatsiyasi 1-3 g/l bo‘lgan sizot suvlari sathi ko‘tariladi hamda o‘simlik turi va tuproq sharoitidan kelib chiqib, 0,7-1,5 m chuqurlikda ushlab turiladi.

#### ***Tuproq ostidan sug‘orish (subirrigatsiya) ning avzalliklari:***

daryo svini iqtisod qilish;


qo'shimcha suv manbasi sifatida sizot suvlaridan foydalanish imkonini yaratilishi;

qator oralarining zichlanmasligi, irrigatsiya eroziyasining yo'qligi; tuproqning xavo va ozuqa tartibining yaxshilanishi; atrof-muhitning ifloslanmasligi;



49-rasm. SSS ni boshqarishda tuproqning namlanish taqsimoti:

KUN-kapillar uzilish namligi; ChDNS-chegaraviy dala nam sig'imi; TNS-to'la nam sig'im



50-rasm. Sug'orish tarmog'i va quvur namlatgichlar yordamida SSS ni ko'tarib sug'orish:

1-sug'orish tarmog'i; 2, 3, 4-sizot suvlar sathi; 5-quvur namlatgich

### **Ayerozol (tuman hosil qilib, mayda dispyers) sug'orish**

**Ayerozol (tuman hosil qilib, mayda dispyers) sug'orish** usulida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qulay mikroiqlim sharoiti yaratiladi. Havoning yer ustidagi qatlaming nisbiy namligi oshiriladi, o'simlik yer ustki organlarining xarorati 6-12 °S ga pasaytiriladi.

Bu usulda sug'orish me'yori  $0,8-1,0 \text{ m}^3/\text{ga}$  bo'lib, kunning issiq paytida har ikki soatda amalga oshiriladi va suv maxsus moslamalar yordamida diametri 400-600 mmk bo'lgan mayda tomchilarga aylantirib byeriladi.

Bu usuldan havosi quruq va issiq shamollar (garmsel) bo'lib turadigan hududlarda bog', sabzavot, em-xashak texnik ekinlarni sug'orishda foydalaniladi.

#### **Ayerozol sug'orish usulining avzalliklari:**

- o'simliklar fotosintezini yaxshilaydi;
- ekinlar hosildorligi oshadi;

- etishtililayotgan maxsulot sifati yaxshilanadi;
- suv sarfi 40-50% ga kamaytiriladi.



51-rasm. Purkab sug‘orish

Yuqorida qayd etilgan biror bir sug‘orish usulini mukammal deb bo‘lmaydi. U yoki bu sug‘orish usulini qabul qilish ma’lum bir tabiiy-xo‘jalik shart-sharoitlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda tabiiy shart-sharoitlar, almashlab ekish maydonidagi qishloq xo‘jalik ekinlarining tarkibi, sug‘orish maydonlarining suv bilan ta’minlanganligi va meliorativ holati - elektr quvvati va kuchi bilan ta’minlanganligi; tuproqlarning suv-fizik xususiyatlari va relef shart-sharoitlari hisobga olinadi. Faqat turli yondoshishlar orqaligina sug‘orish tizim konstruksiyasini aniqlovchi sug‘orish usulini qabul qilish mumkin.


Ma’lum bir sug‘orish maydonida sug‘orish usulini tanlashda iqlim, tuproq, yer relefi, gidrologik, gidrogeologik, biologik, xo‘jalik, suv-xo‘jalik, iqtisodiy va boshqa omillar hisobga olinadi. Buning uchun quyidagi **52-rasm va 11-jadvaldan** foydalanish mumkin.

Qishloq xo‘jalik ekinlari yoppasiga eqiladigan ekinlarga va qatorlab eqiladigan ekinlarga, bir yillik va ko‘p yillik ekinlarga farqlanib, ularni har qaysi o‘ziga mos sug‘orish usullarini talab qiladi:

- ko‘p yillik ekinlar uchun asosan tomchilatib, yer ustidan egatlاب sug‘orish;
- yoppasiga eqiladigan ekinlar uchun esa yer ustidan yo‘laklab, bostirib (sholi), yomg‘irlatib, sizot suvlar sathini ko‘tarib (beda) sug‘orish;

- qatorlab eqiladigan ekinlar uchun yer ustidan egat olib, tuproq ichidan namlatib, ba'zan yomg'irlatib yoki purkab sug'orish usullarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug'orish usuli va texnikasini tanlash uchun yuqoridaagi tavsiyalar chuqr o'r ganilib, 10, 11 va 12-jadvallarga rioya etgan holda hamda egat yo'nalishi bo'y lab nishablik qiymati va egatning har 100 m ga nisbiy suv shimalish miqdori (100 m ga l/s) qiymati bo'yicha (52-rasm) sug'orish usuli va sug'orish texnikasi hamda sug'orish texnikasi elementlarini 13, 14, 15, 16-jadvallardan qabul qilish mumkin.



52-rasm. Sug'orish usullari va sug'orish jihozlari bo'yicha rayonlashtirish

**11-jadval. Sug‘orish usuli, sug‘orish texnikasi va sug‘orish jihozini tanlash  
bo‘yicha tavsiyanoma**

Sug‘orish usuli va suv berish jihozи					
1		2	Umumiy bug‘lanish, m <sup>3</sup> /ga		
A. Yer ustidan					
A) Ochiq sug‘orish tarmoqlaridan suv berish					
A.1. O‘zi ishlaydigan naychasifonlar					
A.2. Nishabsiz cheklarda egat olib suv berish					
A.3. PPA-165					
A.4. Egiluvchan qattiq quvurlar					
A.5. APSH-1					
A.6. Avtomatlash-tirilgan novlar					
A.7. Liman olib sug‘orish					
A.8. Bostirib suv berish					
3-6	5-10	5-10	5-10	5-10	Umumiy bug‘lanish, m <sup>3</sup> /ga
Ta’sir etmaydi	Bunda ham	Bunda ham	Bunda ham	Ta’sir etmaydi	SHamol tezligi, m/s
1-5	15 gacha	15 gacha	15 gacha	15 gacha	SHimilish tezligi, m/soat
1,0-1,5	0,8-1,5	1,0	0,8-1,5	0,8-1,5	Tuproq qatlamining qalinligi, m
0,00	0,0005-0,003	0-0,03	0,003-0,005	0,002-0,006	Qo‘lay bo‘lgan nishablik qiymati
0-1200	-	0-700	0-700	0-200	SHartli yer tekislash ishlaringin hajmi, m <sup>3</sup> /ga
3/5	1,5/3	3/5	3/5	3/5	Sizot suvlarinining yo‘l ko‘yligan chuqurigi, chuchuk, (surat), sho‘r (maxraj)
3-5 gacha	3	3-5 gacha	3-5 gacha	3-5 gacha	Sizot suvlarinining sho‘rlanganlik darajasi, g/l
-	-	-	-	-	O‘simplikni yo‘l qo‘yligan balandligi, m
30-40	60-120	60-120	60-120	60-120	Suv berish miqdori, mm
2-5	0,5-0,7	0,7-1,0	0,6-1,0	0,8-1,0	Gidromodul qiymati, l/s*ga

	B). YOpiq sug‘oruvchi tarmoqdan suv berish					
	B.1. Egiluvchan qattiq quvurlar					
	B.2. Teshikli, ko‘zgalmas quvurlar					
	G. Ko‘zg‘almas avtomatlashtirilgan tarmoq					
	D. Qo‘zg‘almas ayrim sug‘oradigan tarmoq					
	Tuproq ichidan sug‘orish					
	Tomchilatib sug‘orish					
	Tuman hosil qilib sug‘orish					
2-5	5-10	2-10	2-5	2-5	5-10	5-10
6 gacha			5 gacha	4 gacha	Ta sir etmaydi	Ta sir etmaydi
1-30	5-20	10-30	30 gacha	15-30	5 gacha	10 gacha
0,3	1-1,5	1-1,5	0,3	0,5	0,8-1,5	0,8-1,5
0,003	0-0,3	0,002-0,015	0-0,5	0,015-0,05	0,002-0,01	0,01-0,03
			0-200		0-200	0-300
1,53	1,53	1,53	1,53	1,53	3,5	3,5
1,5-3,0	1	1	1,5-3,0	1,5-3,0	3-5	3-5
2	5	4	4	5		
0,4-0,6	2-8	20-60	1-60	20-60	60-120	60-120
0,5-0,9	0,5-1,0	0,5-1,0	0,2-0,9	0,2-0,7	0,7-1,0	0,7-1,0

## **12-jadval. Sug‘orish maqsadi bo‘yicha sug‘orish usullarini tanlash tavsiyanomasi**

Sug‘orish usullari	Tuproqni namlantirish	Havoni namlantirish	Tuproqda nam yig‘ish	SHo‘r yuvish	Tuproq emirilishining oldini olish	O‘g‘it kiritish	CHiqindi suv bilan sug‘orish	O‘simlik namlanishi boshqarish	Begona o‘tarming oldini olish
Yer ustidan	+	-	+	+	-	x	x	-	+
YOmgi‘rlatib	+	+	x	-	x	x	x	+	+
Tuproq ichidan	+	-	+	-	+	+	+	-	-
Tomchilatib	+	-	x	-	+	+	-	-	-

Subirrigatsiya	+	-	+	-	+	-	-	-	-
Tuman hosil qilib	x	+	-	-	+	-	-	+	+

Eslatma: «+» - maqsadni amalga oshiradi; «-» - maqsadni amalga oshira olmaydi; «x» - maqsadni qisman amalga oshiradi.

### **13-jadval. Sug‘oriladigan tuproqlarning sharoitlari bo‘yicha sug‘orish usullarini tanlash tavsiyanomasi**

Sug‘orish usullari	SHo‘r tuproqlarda	Engil qumoq tuproqlarda	Og‘ir tuproqlarda	Murakkab yer tuzilishiда	Katta nishablikda	SHO‘r sizot suvi yaqin joylashganda	Suv zaxiralari etishmaganda	SHO‘r suv bilan sug‘orishda	Kuchi shamolda
Yer ustidan	+	x	+	x	x	x	x	x	+
YOmgi‘rlatib	-	+	x	+	+	+	+	-	+
Tuproq ichidan	-	x	x	x	+	-	+	-	+
Tomchilatib	x	x	+	+	+	-	+	-	+
Subirrigatsiya	-	x	+	-	-	-	-	-	+
Tuman hosil qilib	+	+	+	+	+	+	+	-	+

Eslatma: «+» - maqsad amalga oshadi; «-» - maqsad amalga oshmaydi;

«x» - maqsad kisman amalga oshadi.

### **14-jadval. Tuproqlarning suv o‘tkazuvchanlik darajalari**

Sinflar	Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi	Tuproqning mexanik tarkibi	100 m egatda o‘rtacha nisbiy suv shimalish sarfi, l/s
A	YUqori darajada	Qumli	0,4 dan yuqori
B	Kuchaygan	Qumoq	0,2
V	O‘rtacha	Engil soz tuproq	0,1
G	Susaygan	O‘rta soz tuproq	0,05
D	Sust	Og‘ir soz tuproq va gil	0,03 dan kichik

### **15-jadval. Sug‘orish dalasining yer nishabligi guruhlari**

Guruhlar	Sug‘orish dalasining yer nishabligi	O‘rtacha nishablik	Nishablikning chegaralari
I	Juda yuqori	0,04	0,03-0,05
II	Yuqori	0,02	0,015-0,03

III	O'rtadan yuqori	0,01	0,007-0,015
IV	O'rta	0,005	0,003-0,007
V	Kichik	0,002	0,001-0,003
VI	Nishabsiz yerlar	0,0005	0,001 dan kichik

### **16-jadval. Yer ustida egatlab sug'orishda tavsiya qilingan**

#### **sug'orish texnikasi elementlari**

Tuproqning suv o'tkazuvchanligi	Sinf	Egatning ko'rsatgichi	Dalaning nishabligi					
			0,05-0,03	0,03-0,015	0,015-0,007	0,007-0,003	0,003-0,001	0,001 dan kichik
		uzunligi, m	50	80	110	180	200	150
		suv sarfi, l/s	0,22	0,35	0,5	0,8	0,9	0,7
		uzunligi, m	80	110	140	220	250	200
		suv sarfi, l/s	0,18	0,34	0,3	0,48	0,55	0,45
		uzunligi, m	110	135	160	260	300	250
		suv sarfi, l/s	0,13	0,15	0,18	0,3	0,35	0,3
		uzunligi, m	135	160	185	300	350	300
		suv sarfi, l/s	0,8	0,09	0,11	0,18	0,2	0,18
		uzunligi, m	150	180	210	350	400	350
		suv sarfi, l/s	0,05	0,06	0,08	0,12	0,15	0,12

*Eslatma: egatlar orasidagi masofani quyidagicha olish tavsiya etiladi:*

$i > 0,005$  bo'lganda  $a=0,6\text{ m}$ ;       $i < 0,005$  bo'lganda  $a=0,9\text{ m}$

### **17-jadval. Qisqa yo'laklarga bo'lib suv berish**

#### **elementlarining qiymatlari**

Sinf-lar	Tuproqning suv o'tkazuvchanligi	Sug'orish maydonining nishabligi	Nishab-lik guruhi	Yo'lak /pol/ning uzunligi, m	Har 1 m ga to'g'ri keladigan nisbiy suv sarfi, l/s
A,B	Yuqori darajada va kuchaygan (qum va qumoq)	0,002-0,005	V	60	3-4
		0,005-0,007	IV	70	2,5-3,5
		0,007-0,01	III	80	2,5-3,5
V	O'rtacha (engil soz tuproq)	0,002-0,005	V	70	2,5-3,5
		0,005-0,007	IV	90	2-3
		0,007-0,01	III	120	1,8-2,8
G	Susaygan (o'rtacha soz tuproq)	0,002-0,005	V	80	2-2,5
		0,005-0,007	IV	100	2-2,5

		0,007-0,01	III	150	1,5-2,0
D	Sust (og‘ir soz va gil tuproq)	0,002-0,005	V	90	2-2,5
		0,005-0,007	IV	120	2-2,5
		0,007-0,01	III	200	1,5-2

### **Nazorat savollari**

1. Sug‘orish usuli nima?
2. Qanday sug‘orish usullari mavjud?
3. Sug‘orish usulini qabul qilishda qanday talablar qo‘yiladi?
4. Sug‘orish texnikasiga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Yer ustidan sug‘orish usuliga tushuncha byering?
6. Yer ustidan sug‘orishning qanday turlari bor tushuntiring?
7. Yomg‘irlatib sug‘orish nima?
8. Yomg‘irlatib sug‘orishning avzalliklari nimada?
9. Tuproq ichidan sug‘orish nima?
10. Tuproq ichidan sug‘orishning avzalliklarini tushuntiring?
11. Tomchilatib sug‘orish nima?
12. Tomchilatib sug‘orishning avzalliklarini tushuntiring?
13. Tuproq ostidan sug‘orish (subirrigatsiya) nima?
14. Tuproq ostidan sug‘orishning avzalliklarini tushuntiring?
15. Aerozol (tuman hosil qilib, mayda dispers) sug‘orish nima?
16. Ayerozol sug‘orishning avzalliklarini tushuntiring?

## **10. YER USTIDAN SUG‘ORISH USULI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.**

### **YER USTIDAN SUG‘ORISH JIHOZLARI**

#### **10.1. Yer ustidan sug‘orish usuli va texnologiyalari**

Yer ustidan sug‘orish usulida suv dalaga tuproq ustidan taqsimlanadi. Bunda suv gorizontal harakat qilish jarayonida tuproqqa gravitatsiya kuchi ta’sirida vertikal va kapillyarlar bo‘yicha yon tomonlarga yo‘nalgan holda shimiladi. Yer ustidan sug‘orish usulida suv ekin maydonlarida uch xil texnologiyada oqim holatidan tuproq namligi holatiga o‘tadi. Bular: egatlab sug‘orish; yo‘laklab (pol olib) sug‘orish va

bostirib (chek olib) sug‘orish.



53-rasm. Yer ustidan sug‘orish usuli

Sug‘orish texnologiyasi ekinlarning turiga qarab tanlanadi:

- g‘o‘za, lavlagi, makkajo‘xori va boshqa ko‘p ekinlar egat olib sug‘oriladi;
- beda va donli ekinlarni yo‘laklab (pol olib) sug‘oriladi;
- sholini sug‘orishda va yerlarning sho‘rini yuvishda bostirib sug‘orish usulidan foydalaniladi;
- poliz ekinlari jo‘yaklab sug‘oriladi.

Yer ustidan sug‘orish usuli quyidagi afzalliklarga ega:

katta sug‘orish me’yori bilan sug‘orish mumkin;  
to‘g‘ri sug‘orilganda tuproq srukturasi yaxshi saqlanadi;  
sho‘rlangan va sho‘rlanishga moyil yerlarda yuvilish sug‘orish rejimini yaxshi ta’minlaydi;  
qishloq xo‘jalik ishlarini mexanizatsiyalashga to‘sinqinlik qilmaydi;  
chuqur hisobiy qatlamni namlantirish mumkin;  
suv sifatiga: loyqaligiga, minyeralizatsiyasiga, haroratiga va b. talabi past;  
sug‘orish jarayoni oddiy, moliyaviy va boshqa harajatlar kam.

Yer ustidan sug‘orish usulining kamchiliklari:

- bug‘lanishga suv isrofi yuqori;
- tuproqning chuqur qatlamiga filtratsiyaga isrof bo‘lishi;
- mehnat unumdarligi darajasi past, qo‘l kuchini ko‘p talab kilishi;
- yerdan foydalanish koeffitsientining pastligi;
- sug‘orishning FIK ni pastligi.

## **10.2. Egatlab sug‘orish texnologiyasi. Sug‘orish texnikasi elementlari**

Egatlab sug‘orish – yer ustidan sug‘orishning mukammallashgan turi hisoblanib, chopiq qilinadigan ekinlar (g‘o‘za, makkajo‘xori, poliz va h.k.) ni sug‘orishda yer nishabligi 0,03 gacha bo‘lganda qo‘llaniladi. Yer nishabligining katta qiymatlarida suv sug‘orish egati tubini yuvib ketishi mumkin.

Egatlarning chuqurligi va ustining kengligi bo‘yicha egatlar *sayoz*, *o‘rta*, *chukur* hamda *tor*, *o‘rta* va *keng* egatlarga bo‘linadi (**18-jadval**).

### **18-jadval. Egatlarning chuqurligi va ustining kengligi bo‘yicha turlari**

Egat turi	CHuqurligi, sm	Egat turi	Usti kengligi, sm
sayoz	9-12	tor	20-25
o‘rta	13-18	o‘rta	25-40
chukur	18-25	keng	40-50

#### **Egatlar:**

- suv oquvchanligi bo‘yicha tashlamali va ohiri berk egatlarga;
- ko‘ndalang kesimi bo‘yicha: parabola, trapetsiya va konusli egatlarga;
- uzunligi bo‘yicha: qisqa (50-150 m) va uzun (350-400 m) egatlarga;
- qishloq xo‘jaligida foydalanish bo‘yicha: ekiladigan va ekilmaydigan egatlarga bo‘linadi.

Aksariyat holatlarda egatlarning ko‘ndalang kesim yuzasi parabola ko‘rinishida bo‘lib, egat tubining eni 8-10 sm, chuqurigi 9-25 sm, yon devor qiyaligi 1:1 ni tashkil etadi.


**Egatlab sug‘orishda** sug‘orish texnikasining elementlari bo‘lib, egatga beriladigan suv sarfi, egat uzunligi va egatlar orasidagi masofalar hisoblanadi.

Yo‘laklab sug‘orishda esa, sug‘orish texnikasining elementlari bo‘lib, yo‘lak uzunligi va eni, yo‘lakka beriladigan solishtirma suv sarfi qiymatlari, yo‘lak chetidagi marzalarning balandliklari hisoblanadi.

Sug‘orish texnikasining elementlari tuproqlarning suv o‘tkazuvchanlik va

sug‘orish dalasining yer nishabligi qiymatlariga asosan qabul qilinadi.

Egatlar orasidagi masofa egat olingan tuproqning suv-fizik xossasiga bog‘liq ravishda qabul qilinishi kerak. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda egatlar oralig‘i mexanik tarkibi engil tuproqlarda (a) 50-65 sm, o‘rta tuproqlarda 65-80 sm, og‘ir tuproqlarda(b) 80-100 sm bo‘ladi.



54-rasm. a) engil va b) og‘ir qumoq tuproqlarda suvning shamilishi

### 19-jadval. Egatlab sug‘orish texnikasi elementlari

Tuproq-ning suv o‘tkazuv- chanligi	S i n f	Egatning ko‘rsatgichi	Dalaning nishabligi					
			0,05- 0,03	0,03- 0,015	0,015- 0,007	0,007- 0,003	0,003- 0,001	0,001 dan kichik
		uzunligi, m	50	80	110	180	200	150
		suv sarfi, l/s	0,22	0,35	0,5	0,8	0,9	0,7
		uzunligi, m	80	110	140	220	250	200
		suv sarfi, l/s	0,18	0,34	0,3	0,48	0,55	0,45
		uzunligi, m	110	135	160	260	300	250
		suv sarfi, l/s	0,13	0,15	0,18	0,3	0,35	0,3
		uzunligi, m	135	160	185	300	350	300
		suv sarfi, l/s	0,8	0,09	0,11	0,18	0,2	0,18
		uzunligi, m	150	180	210	350	400	350
		suv sarfi, l/s	0,05	0,06	0,08	0,12	0,15	0,12

Sug‘orishni sifatli bo‘lishi va bunda suvni tejash uchun o‘q ariqlar orasidagi masofa, egatlarning uzunligi va egatdagi suvning sarfiga ham alohida e’tibor berish lozim.

Egat uzunligini dala nishabligi va tuproqning suv shimish xususiyatiga qarab to‘g‘ri tanlash lozim. Agar egat uzun olinsa, suv uning ohiriga etib borgunicha, suvning ko‘p qismi egatning bosh qismida tuproqqa behudaga singib isrof bo‘ladi. Shuning uchun dalaning sharoitidan kelib chiqib, qumloq tuproqlarda 60-70 metr, engil va o‘rta qumoq tuproqlarda 80-100 metr, og‘ir qumoq va gilli tuproqlar sharoitida 100-120 metrgacha bo‘lgan masofalarda o‘qariqlar olinsa, sug‘orish vaqtida suvning yerga behudaga singishi kamayadi va egatning boshidan to ohirigacha bir tekis namlanishiga yerishiladi.

Dalaning bir tekis namlanishi hosildorlikni yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Egatning butun uzunligi bo‘yicha tuproqning bir tekis namlanishi uchun egatga berilayotgan suv sarfi qumloq tuproqlarda 0,7-0,8 l/s, engil va o‘rta qumoq tuproqlarda 0,3-0,4 l/s va og‘ir qumoq va gilli tuproqlarda 0,1-0,2 l/s bo‘lishi lozim.

*Jo‘yak olib sug‘orish texnologiyasi.* Nishabi katta yerlarda sug‘oriladigan yerlar jo‘yaklar olib sug‘oriladi. Jo‘yaklar ikki xil: taroq shaklida va aylanma (ilon izi) qilib olinadi.

Nishabi juda katta yerlarda aylanma jo‘yak olinib, ekin ekiladi. Aylanma jo‘yak olib sug‘orishda suv yo‘li uzayib, yerning nishabi sun‘iy ravishda kamayadi va suv sekinroq oqadi. Bunda suv unumdon tuproqni yuvib ketmaydi. Jo‘yaklarning uzunligi 10-30 m, chuqurligi 0,30–0,45 m va oqayotgan suvning ko‘ndalang kesimi 0,06–0,12 m<sup>2</sup>, pushtalarning eni 0,90-1,40 m qilib belgilanadi.

Jo‘yak olib sug‘orishning kamchiliklari: dehqonchilik ishlarini mexanizatsiyalashtirib bo‘lmaydi, jo‘yak uchun kup mexnat sarflanadi, yerdan foydalanish koeffitsienti kichik bo‘ladi.

Jo‘yak olib sug‘orishning avzalliklari: yerlarda jo‘yak olishda, suv yerni yuvib ketmaydi, suv tuproqqa yon tomonidan shimalishi sababli, haydalma qatlama bosilib, zichlanmaydi. Poliz ekinlarining hosili jo‘yak pushtalarida etishtiriladi.

### **10.3. Yo‘laklab va bostirib sug‘orish texnologiyalari**

Yo‘laklab sug‘orish asosan qatorlab va tor qatorlab ekiladigan ekinlar (donli ekinlar, beda, o‘t ekinlari va b.) ni sug‘orishda qo‘llaniladi.

Yo‘laklarga (taxta, pollarga) bo‘lib sug‘orishda suv asta-sekin oqib, shu

polning ohirigacha etguncha tuproqqa shimilib boradi. Pollarga bo‘lib sug‘orishda har qaysi pol o‘q arikdan yoki bevosita muvaqqat ariqdan suv ichadi. Bu texnologiyada sug‘oriladigan yerkarning nishabligi 0,002-0,01 dan oshmasligi kerak. Polning ikki chetidan dalaning nishab tomoniga qaratib uvot (chek, chel) lar olinadi. Bu uvotlar qishloq xo‘jalik mashinalari o‘ta oladigan balandlikda olinadi. Yerning nishabiga va pollarga byeriladigan suvning miqdoriga qarab, uvotlar 10-30 sm balandlikda to‘kma tuproqdan ishlanadi. Pollarning bo‘yi, odatda 60-200 m bo‘ladi. Eni esa texnika ishlashi uchun kerakli kenglikka teng bo‘lishi kerak. Pollarga bo‘lib sug‘orishda suv polarining butun eni bo‘ylab bir xil qalinlikda oqishi uchun ularning ko‘ndalang nishabliklari 0,002-0,003 dan oshmasligiga va tuproq yuvilib ketmasligiga e’tibor berish kerak.

Yo‘laklab sug‘orishda tuproq strukturasining buzilmasligi uchun pol o‘lchamini hamda byeriladigan suv sarfini to‘g‘ri belgilash zarur. Sug‘oriladigan har bir pol enining bir metri uchun sarf bo‘ladigan suv 1,5-4,0 l/s qilib belgilanadi. Bu holda polga taxminan  $Q=b*q$  l/s yoki 10-25 l/s suv byeriladi. Polda oqayotgan suvning tezligi 0,10-0,20 m/s bo‘lsa, tuproq yuvilmaydi.

Yo‘laklab sug‘orishdagi pollarning turlari:

- boshidan va yonidan suv beriladigan;
- eni bo‘yicha tor (1,8-3,6m) va keng (30-40m);
- bo‘yi bo‘yicha qisqa (60m gacha) va uzun (200m gacha).

Yo‘laklab sug‘orishning asosiy kamchiliklari:

sug‘orishdan keyin tuproq strukturasi buziladi va tuproq zichlashadi;  
tuproqda qatqaloq paydo bo‘ladi va katta bug‘lanish yuzaga keladi;  
suv katta me’yor bilan byerilganda tuproqni yuvib ketishi mumkin;  
polning bir tekis namlanishini ta’minlamaydi;  
olingoan uvotlarni hosil yig‘ishtirishda qaytadan buzish kerak bo‘ladi.



55-rasm. Yo'laklab sug'orish

**20-jadval. Yo'laklab sug'orish texnikasi elementlari**

Sinflar	Tuproqning suv o'tkazuvchanligi	Sug'orish maydonining nishabligi	Nishablik guruxi	Yo'lak (pol) ning uzunligi, m	Har 1 m ga to'g'ri keladigan nisbiy suv sarfi, l/s
A, B	YUqori darajada va kuchaygan (qum va qumoq)	0,002-0,005	V	60	3-4
		0,005-0,007	IV	70	2,5-3,5
		0,007-0,01	III	80	2,5-3,5
V	O'rtacha (engil soz tuproq)	0,002-0,005	V	70	2,5-3,5
		0,005-0,007	IV	90	2-3
		0,007-0,01	III	120	1,8-2,8
G	Susaygan (o'rtacha soz tuproq)	0,002-0,005	V	80	2-2,5
		0,005-0,007	IV	100	2-2,5
		0,007-0,01	III	150	1,5-2,0
D	Sust (og'ir soz va gil tuproq)	0,002-0,005	V	90	2-2,5
		0,005-0,007	IV	120	2-2,5
		0,007-0,01	III	200	1,5-2

**Bostirib sug'orish texnologiyasi.** Bostirib sug'orishdan oldin sug'oriladigan maydonda tayyorgarlik ishlari qilinadi: sug'oriladigan maydonlar oldin 0,2-0,5 ga kattalikdagи pollarga bo'linadi, pollarning to'rt tomoniga uvot olinadi. Pollar eni, sug'orish maydonining ko'ndalang nishabiga qarab 40 m dan 80 m gacha olinadi, bo'yи esa maydonning uzunasiga bo'lgan nishabiga va polga qancha qalinlikda suv bostirilishiga qarab belgilanadi.

Katta nishabli yerlarda ikkala yondosh polning balandligi ayirma 20 sm dan, kichik nishabli yerlarda esa 10 sm dan, shuningdek, pol ichidagi nishablik 0,002 dan oshmasligi kerak. Pollarga 10-15 sm gacha chuqurlikda suv byeriladi. Bostirib sug‘orishda pollarga quyiladigan suv sarfi 35-50 l/s bo‘ladi. Tuproqning sho‘rini yuvib bo‘lgandan keyin uvotlar tekislab yuboriladi.

Pollar to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qilinadi. Polning uzun tomoni maydonning kichik nishabli tomoniga, kalta tomoni esa katta nishabli tomoniga to‘g‘ri qilib olinadi. Pollarning katta-kichikligi tuproqning suv sig‘imi, yer yuzasining nishabligi va tekislanganligiga qarab 0,2 dan 0,5 gektargacha qilib olinadi.



56-rasm. Bostirib sug‘orish

#### **10.4. Takomillashgan yer ustidan sug‘orish texnologiyalari**

Sug‘orishda suvning samaradorligini oshirish va egatning butun uzunligi bo‘yicha tuproqning bir tekis namlanishi uchun quyidagi texnologiyalardan foydalilanildi:

**Diskret sug‘orish texnologiyasi** – egatga suv impulslar syeriysi va impulslar orasidagi tanaffus (pauza) lar bilan suv egat oxiriga chiqquncha byeriladi va so‘ng suv sarfi 2 marta kamaytiriladi. Bu oqova suvlar miqdorini 15-20 % gacha kamaytirish imkonini hamda egatni uzunligi bo‘yicha tuproqning bir tekis namlanishini ta’minlaydi. Bu texnologiya uzun (300-400 m) va chuqur (0,18-0,25 m) egatlarda hamda o‘rta suv o‘tkazuvchan tuproqlar va nishablik 0,001-0,007 bo‘lganda qo‘llaniladi.

**Egat oralatib sug‘orish texnologiyasi.** Bu usul tuproqdan suv bug‘lanishini kamayishi hisobiga umumiy suv berish miqdorini 20-25 % gacha kamaytiradi.

Kalta egatlar bilan sug‘orilganda oqova suvlar miqdori 15-20 % ga kamayadi, egatlar butun uzunligi bo‘yicha bir tekis namlanishiga yerishiladi.





57-rasm. Egat oralatib sug‘orish

**Suvni egatga o‘zgaruvchan oqimda yuborish texnologiyasi.** Ushbu texnologiyada dastlab egatga suv ekin maydonining tuproq sharoiti va nishabligiga mos suv sarfi (18-jadval tavsiyasiga binoan) bilan sug‘oriladi. Egatdagi suv oqimi egat ohiriga etib borgandan so‘ng uning suv sarfi 2 martta kamaytirilib, egat uzunligi bo‘yicha tuproqning tekis, faol qatlamdan pastga suv yo‘qotilishiga yo‘l qo‘ymasdan namlanishi ta’milanadi. Bunda ekin maydonida hosil bo‘ladigan oqova suvlar kamayishi hisobiga dalaga byerilayotgan suv 15-20 % ga kamayadi.

**Egatlarga qora pylonka to‘shab sug‘orishda** suv samaradorligi 40-50% ga oshadi, yoqilg‘i-moylash matyeriallari iqtisod bo‘ladi, tuproq strukturasini buzilmaydi, ekinlarning hosildorligi oshadi.

**Egatlarni qarama-qarshi tomonidan sug‘orish.** Nishabligi kichik bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarda egatlarni qarama-qarshi tomonidan sug‘orish egatni uzunligi bo‘yicha bir tekis namlanishini ta’minlaydi, daryo suvini 20-25% ga iqtisod qiladi, ekinlarning hosildorligini 20% gacha oshishini ta’minlaydi.





**58-rasm.** Egatlarni qarama-qarshi tomonidan sug'organda namlanish epyuralari  
**Egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish** daryo suvini 10-15% ga iqtisod qiladi, EFK ni va mehnat samaradorligini oshiradi



**59-rasm.** Egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish

### 10.5. Yer ustidan sug'orishni tashkillashtirish

Yer ustidan sug'orishni sifatli o'tkazish, ekin dalalari tuprog'ining faol qatlamlarini bir tekis namlanishini ta'minlash uchun:

- dalaga suv keladigan tarmoqlarni tozalash;
- sug'orish anjomlari (ko'chma to'siqlar, qog'ozqoplar, sifonlar, chim, plyonkalar, fonus va boshqalar)ni tayyorlash;
- mas'ul suvchilar biriktirilib, sug'orishni kechayu-kunduz olib borishni tashkil etish zarur.

*Sug'orishni tunda o'tkazish suvni 10 % ga tejash imkonini byeradi hamda g'o'zani rivojlanishi uchun mo'tadil mikroiqlim sharoiti yaratiladi.*

*Sug'orishda sharbat usuli qo'llanilganda chirigan go'ng g'o'zaga ozuqa berish*

bilan birga mulcha vazifasini o'taydi, suvning bug'lanishini kamaytiradi, tuproqqa singishini yaxshilaydi va g'o'za hosildorligini oshiradi.

*Har bir sug'orish davomiyligi* tuproqning mexanik tarkibi, maydonning nishabligi va sug'orish me'yoriga qarab 8-12 soatni tashkil etadi. Maydonning nishabligi katta bo'lgan ayrim hududlarda egatlarga suv juda oz miqdorlarda taralib, sug'orish davomiyligi 24 soatdan oshmasligi kerak.

*Dalada kultivatsiyani o'z vaqtida o'tkazish* suv bug'lanishini kamaytirib, tuproq namini saqlab qolish imkonini yaratadi. Tuproqning yumshatilgan qatlamiga mayda, donador qilib ishlov berish sug'orishlar orasidagi muddatni 4-5 kunga uzaytiradi, g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosil to'plashi va tez pishishiga yordam byeradi.

## **10.6. Sug'orish jihozlari**

Sug'orish jihozlari–ekinlarning ilmiy asoslangan sug'orish me'yorlari sug'oriladigan maydonlarda tekis taqsimlanishini va tuproqning faol qatlamini suv resurslarini isrof qilmasdan to'liq namlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan jihozlardir. Bu vazifalarni bajaruvchi ayrim jihozlarni ko'rib chiqamiz.

### ***Ko'chma egiluvcha quvurlar komplektining tarkibi.***

*1. Suv olish qismi* - sifonli yoki quvurli suv chiqargichdan iborat .

*Sifon* - polimyer yoki plastmassadan tayyorlangan diametri 160-200 mm, uzunligi 6 metr bo'lgan qabirg'ali (gofrali) egiluvchan quvurdan iborat.

Diametri 160 mm bo'lgan sifon, suv etkazuvchi egiluvchan quvur diametri 200 mm bo'lgan holatda, diametri 200 mm bo'lgan sifon esa suv etkazuvchi egiluvchan quvur diametri 315 mm bo'lgan holatda ishlataladi.

*Quvurli suv chiqargich* - diametri 200-300 mm, uzunligi 1,0 m bo'lgan polietilen yoki platmassadan tayyorlangan qabirg'ali (gofrali) quvurdan iborat.

Agar fyermeyer xo'jaligining suv olish qulog'i quvurli suvni rostlash vositasi bilan jihozlangan bo'lsa, bunday holatda suv egiluvchan quvurni to'g'ridan-to'g'ri unga ulangan holda olinadi.

Quvurli suv chiqargichning kirish qismi barcha holatda quvur tarmog'iga o't, hashak va boshqa yirik jinslar kirmasligi uchun kataklari 5-8 mm atrofida bo'lgan

metall yoki polietilen setka bilan jihozlanadi.

Polietilen yoki metall setka tashqi o‘lchami 500x500 mm lik metal simli romga tortiladi yoki bog‘lanadi.

Sug‘orish jarayonida vaqtি-vaqtি bilan setkaning oldida to‘planib qolgan o‘t, hashak va boshqa yirik jinslardan qo‘l bilan tozalab turiladi.

2. *Suv etkazuvchi qism* – suvni sifon yoki quvurli suv chiqargichdan suv taqsimlovchi quvurlarga etkazuvchi, diametri 200 yoki 315 mm bo‘lgan egiluvchan polietilen quvurlardan iborat.

Suv etkazuvchi quvur diametri sug‘oriladigan ekin maydoni uzunligiga, nishabligiga, bir paytda suv taraladigan egatlar soniga hamda suv manbaidan suv olish miqdoriga bog‘liq.

Egat uzunligi 200 m va undan kichik hamda suv manbaidan zarur miqdordagi suvni olish imkonini bo‘lganda, suv etkazuvchi quvur diametri 200 mm bo‘lishi mumkin. Qolgan barcha hollarlarda esa suv etkazuvchi quvur diametri sug‘orish ishlarini tez amalga oshirish uchun 315 mm bo‘lgani maqsadga muvofiq.

Suv etkazuvchi quvurlar foydalanish qulay bo‘lishi uchun, uzunligi 100 metr bo‘lib, diametri 90 mm bo‘lgan polietilen o‘zakka o‘ralgan o‘ram holda bo‘ladi. Polietilen o‘zak uzunligi 315 mm lik quvur uchun 620 mm, 200 mm lik quvur uchun 420 mm bo‘ladi. Suv etkazuvchi quvur uzunligi yoki o‘ramlar soni egat uzunligidan 100 m kam yoki shox ariqlar sonidan bitta kam bo‘ladi. Masalan, egat uzunligi 400 m bo‘lsa, uzunligi 100 metrdan 3 ta suv etkazuvchi quvur o‘rami kerak bo‘ladi.

Agar ekin maydoniga, suv bitta suv olish qulog‘idan olinsa, unda sug‘oriladigan maydon enidan 100 metrdan kam bo‘lgan qo‘shimcha suv etkazuvchi quvur talab etiladi.

3. *Suv taqsimlovchi qism* – suvni egatlarga taqsimlovchi diametri 200 mm, uzunligi 100 metr bo‘lgan egiluvchan polietilen quvurlardan iborat.

Suv taqsimlovchi quvurlar foydalanish qulay bo‘lishi uchun uzunligi 100 metr bo‘lib, diametri 90 mm bo‘lgan polietilen o‘zakka o‘ralgan o‘ram holda bo‘ladi. Polietilen o‘zak uzunligi 420 mm bo‘ladi.

Suv etkazuvchi quvur o‘ramlar soni shox ariqlar soniga teng bo‘ladi. Masalan,

egat uzunligi 400 m bo'lsa, ekin maydoni 100 metrdan 4 ta shox ariqqa taqsimlanadi va 4 ta suv etkazuvchi quvur o'rami kerak bo'ladi.

Suv taqsimlovchi egiluvchan quvurlar qishloq xo'jaligi ekinlarining qator oralig'iga va suv tarash tartibiga qarab, diametri 10-20 mm qilib teshiladi. Agar suv har egatdan taralsa, taqsimlovchi quvur har egat tengidan teshiladi. G'o'za va kuzgi boshoqli don ekin maydonlari 60 santimetrdan (qator orasi 60 sm bo'lsa) yoki 90 santimetrdan (qator orasi 90 sm bo'lsa), sabzavot ekinlari esa 70 santimetrdan (qator orasi 70 sm bo'lsa), teshiladi.

Agar ekin qator oralatib sug'orilsa, quvur mos ravishda har 1,2 metr, 1,8 metr yoki 1,4 metrdan teshiladi.

Taqsimlovchi quvur qo'lda maxsus teshgich bilan teshiladi. Teshik diametri egatga byeriladigan suv miqdoriga bog'liq bo'lib, 10-20 mm bo'ladi. Qumoq va toshloq yerlarda, egat nishabligi kichik yerlarda teshik diametri 20 mm, qolgan hollarda 15 mm bo'lishi mumkin. Agar tuproq suvga yuviluvchan va yer uchastkasi katta nishablikka ega bo'lsa, teshik diametri 10 mm bo'lishi mumkin.

Teshik diametri suvchi tomonidan suvni egatda yurishini va tuproqni namlanishini hamda suvni miqdorini e'tiborga olib, ekinni sug'orish jarayonida tanlab olinishi mumkin. Teshik dastlab kichik teshilgan bo'lsa, undan chiqadigan suv miqdorini ko'paytirish uchun maxsus teshgich bilan tezda qaytadan teshish mumkin.

Taqsimlovchi egiluvchan quvur teshigidan chiqadigan suv miqdorini kamaytirish yoki butunlay yopish uchun teshiklar maxsus klapan bilan jihozlanadi.

Klapan - qalinligi 0,5-1,0 mm bo'lgan - ichki va 4-5 mm bo'lgan – tashqi diafragmadan iborat. Diaframlar foydalanishda bo'lgan velosiped va avtomobil shinalaridan tayyorlanishi mumkin.


Suv chiqadigan teshik diametri 10 mm bo'lganda - diafragma diametri – 20-25 mm, 15 mm bo'lganda – 30-35 mm, 20 mm bo'lganda esa -40-45 mm atrofida bo'ladi.

4. *Tirsaklar* - suv etkazuvchi quvurlar bilan suv taqsimlovchi quvurlarni bog'lovchi polietilen yoki platmassa quvurlar konstruksiyalaridan iborat. Tirsak konstruksiysi suv etkazuvchi va suv taqsimlovchi quvur diametriga hamda

taqsimlovchi quvurning holatiga bog‘liq.

Agar suv etkazuvchi va suv taqsimlovchi quvur 200 mm bo‘lsa, tirsaklarning barcha teshiklari diamyerti 200 mm, agar suv etkazuvchi quvur 315 mm bo‘lsa, tirsakning 2 ta teshigi 300 mm, qolgan 2 tasi 200 mm bo‘ladi. Tirsaklarga egiluvcha quvurlar kiydirilib, yo‘g‘on ip yoki rezina bilan bog‘lanadi, diametri 25, 36 va 42 mm dan 50 donadan bo‘ladi.

5. *G‘ildiraklar* – diametri 550 mm dan 2 donadan bo‘ladi. G‘ildiraklar polietilen o‘zakka ikki tomondan qotiriladi va sug‘orish ishlari yakunlangandan so‘ng, egiluvchan quvurlarni yirtilmasdan, ixcham qilib o‘rab olishda ishlatiladi.



### Ko‘chma sug‘orish quvurlari yordamida sug‘orish:

- 1–shox ariq (nov);
- 2–ko‘chma sug‘orish quvuri;
- 3–suv chiqarish moslamasi;
- 4–sug‘orish egati;
- 5–sug‘orish dalasi chegarasi



60-rasm. Sug‘orish jihozlari

### Egiluvchan quvurlarga suv olish usullari.

Suv manbaining turiga qarab, egiluvchan quvurlarga suv olish bir-biridan farq qiladi.

1. *Suvni sifon yordamida olish.* Suv manbaidagi suv sathi ekin maydoni yuzasidan etarlicha (50 sm va undan baland) bo'lsa, suvni sug'orish tarmog'ini teshmasdan sifon yordamida olsa bo'ladi. Aksariyat, temir-beton lotok tarmog'ida bunday imkoniyat mavjud.

2. *Suvni quvurli suv chiqargichdan olish.* Agar temir-beton lotok tarmog'i oldindan teshilgan bo'lsa, ushbu teshik qopog'li suv chiqargich quvur bilan jihozlanib, suv etkazuvchi egiluvchan quvur unga bog'lanadi.

Agar fyermeyer xo'jaligining suv olish qulog'i quvurli suv chiqargich bilan jihozlangan bo'lsa, suv etkazuvchi egiluvchan quvur to'g'ridan-to'g'ri shu quvurga bog'lanadi.

Yer ariq faqat bitta fyermeyerga xizmat ko'rsatsa, ariqning suv olish joyi o'yiladi va quvurli suv chiqargich ko'miladi. Suv egiluvchan quvurga ushbu quvurli suv chiqargich orqali olinadi.

3. *Suvni tik sug'orish va drenaj quduqdan olish.* Tik sug'orish va drenaj quduqdan suv olish uchun, avvalam bor, quduq suvni rostlash vositasi (zadvijka) bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Aks holda, katta bosim bilan chiqayotgan suv egiluvchan quvurni yorib yuborishi mumkin.

Quduqning suv chiqarish qismi yerdan 0,5 metrgacha bo'lsa, suv egiluvchan quvurga to'g'ridan-to'g'ri olinishi mumkin.

Quduqning suv chiqarish qismi yerdan 0,5 metrdan baland bo'lsa, metal quvur qo'shimcha ravishda uzaytirilib, yerga 30-50 sm gacha yaqinlashtiriladi va egiluvchan quvur drenaj qudug'ining ushbu metall quvuriga ulanadi.

Tik sug'orish va drenaj quduqning suvi temir-beton lotok tarmog'i, kanal yoki hovuzga tushsa, suv ushbu tarmoqdan quvur o'rnatib olinadi.

Egiluvchan quvur yirtilib ketmasligi uchun, sifon quvurining bosh qismi drenaj quduq quvuriga kiydirilishi, ikkinchi tomoniga esa egiluvchan quvur ulanishi mumkin. Fyermeyer suvchisi har bir holatni ichki imkoniyatni o'zi baholab, tegishli tavsiyadan foydalanadi.

## **Ko‘chma egiluvchan quvurlar yordamida sug‘orish usullari va tartibi.**

Ko‘chma egiluvchan quvurlar yordamida sug‘orish usuli ekin maydonining o‘lchamlariga, nishabligiga, tekislanganligiga, tuproq tarkibiga va ekin turiga bog‘liq.

Sug‘organdan keyin, qator orasiga ishlov byeriladigan g‘o‘za va boshqa ekinlarni sug‘orishda, suvni tejash hamda kultivatsiya ishlarini sifatli amalga oshirish maqsadida, ekin maydoni uchastkalarga bo‘linib, navbatlab uzunasiga bir vaqtda sug‘oriladi.

Sug‘organdan keyin, qator orasiga ishlov byerilmaydigan kuzgi boshqoli don va boshqa ekinlarni sug‘orish ekin maydonining pastki qismdan yuqoriga qarab yoki bir vaqtning o‘zida uzunasiga amalga oshirilishi mumkin.

Sug‘orish usuli ekin maydoni o‘lchami, nishabligi va ekin turiga hamda suvni miqdoriga qarab, fyermeyer va uning suvchisi tomonidan suv iste’molchilar uyushmasi hamda suv xo‘jaligi xodimlari bilan maslahatlashgan holda to‘g‘ri tanlab olinadi.

Agar fyermyerga uyushma tomonidan fyermyerlararo sug‘orish tarmog‘i (beton kanal yoki yer ariq)dan bitta qulot qaratilgan bo‘lsa, suv ushbu qulotdan etkazuvchi quvur yordamida olinadi va sug‘orish navbati belgilangan uchastkaga etkaziladi.

Bunda, quvurlar bir biriga uzunligi 30 sm, diametri 300 mm bo‘lgan qabirg‘ali quvurcha bo‘lagi (mufta) bilan ip yordamida ulanib, tegishli miqdorgacha uzaytiriladi.

Agar suv temir beton lotok yoki kanal tarmog‘idan sifon yordamida olinsa, fyermyerlar suv manbaidan har bir suv navbati belgilangan uchastkaga ekin maydoni uchastkalarga bo‘linib, ko‘chma egiluvchan quvur komplekti bilan navbatlab sug‘oriladi.

Sug‘orish navbati ekin maydonining suv oqimi oxiridan yuqoriga qarab belgilanganligi ma’qul. Bunda, suvchilar yuradigan joy doim quruq bo‘lib, ularning ekin maydoni bo‘yicha harakatlanishi va sug‘orish ishlarini tashkil qilishga qulay bo‘ladi.

Agar ekin maydoni konturi kichik bo‘lsa, u bitta navbat bilan sug‘orib olinishi

mumkin.

### **Ko‘chma egiluvcha quvurlardan foydalanishning boshqa yo‘nalishlari.**

Ko‘chma egiluvcha quvurlar qishloq xo‘jaligi ekinlarini nafaqat sug‘orish, balki suvdan foydalanish va suv iste’molida quyidagi maqsadlar uchun ham ishlatilsa bo‘ladi:

1. Suv tanqis, qumloq va toshloq hamda hududlarda suvni bir kanal yoki ariqdan ikkinchi kanal, yoki ariqqa isrofgarchiliksiz va tez etkazish.
2. Qumloq va toshloq hamda nishablik katta va notekis yerlarda o‘qariq o‘rniga ishlatib, suvni iqtisod qilish, tuproq yerroziyasi oldini olish hamda suvni ekin maydoni uchastkasiga tez etkazish.
3. Temir beton lotok tarmog‘i yoki baland kanaldan suvni ekin maydonining baland uchastkalariga - teskari nishablik yerlarga olib borish.
4. Ko‘chma kichik nasoslar yordamida chiqarilayotgan suvni ekin maydonining istalgan uchastkasiga, ayniqsa, ekin maydoni quyi qismidagi kollektor-drenaj suvni yuqoriga - ekin maydoni bosh qismiga, isrofgarchiliksiz va tez etkazish.
5. Kapital ta’mir-talab temir-beton lotok tarmoqlari ichiga quvurni joylashtirib, suvni isrofgarchiliksiz va tez etkazishda.

Egiluvchan quvurlar suv oqimining sarfiga va suv bosimiga qarab, uning diametri 200 mm dan 500 mm va undan katta, devor qalinligi 250 mikrondan 500 mikrongacha qilib ishlab chiqilishi mumkin.


### **10.7. Yer ustidan sug‘orishda sug‘orish tarmoqlari**

Yer ustidan sug‘orish jarayonida, har qanday sug‘orish maydonida, faqat muvaqqat sug‘orish tarmoqlari faoliyat ko‘rsatib, aksariyat hollarda ularning tarkibi muvaqqat ariq, o‘q ariq, sug‘orish egati va yo‘laklardan tarkib topadi. Yer relefi va nishabligiga qarab, sug‘orish suvi doimiy sug‘orish tarmog‘idan sug‘orish dalasiga bo‘ylama yoki ko‘ndalang joylashgan muvaqqat ariqlar orqali taralishi mumkin (**61-rasm**).

Bo‘ylama joylashgan muvaqqat ariqlarda suv doimiy tarmoq shohariqdan muvaqqat ariqqa, so‘ngra o‘q ariqqa, undan so‘ng esa yo‘lak yoki sug‘orish egatlariga taraladi.

Ko'ndalang joylashgan muvaqqat ariqlarda esa suv doimiy tarmoqdan muvaqqat ariqqa, muvaqqat ariqdan esa yo'lak yoki sug'orish egatlari taraladi.

Muvaqqat ariqlarni ko'ndalang yoki bo'ylama sug'orish sxemasini tanlash quyidagi 13-jadvalga asosan tavsiya etiladi.



61-rasm. Muvaqqat ariqlarning sug'orish maydonida joylashish (a-bo'ylama, b-ko'ndalang) sxemasi:

1-xo'jalik ichki tarmog'i; 2-shohariq; 3-muvaqqat ariq; 4-o'qariq;  
5-sug'orish egati; 6-gorizontal; 7-tashlama

Har qanday sug'orish dalasida muvaqqat ariqlar quyidagi tartibda hosil qilinadi. Asosan, urug' ekish jarayonida, sug'orish dalasining katta nishablik yo'nalishi yoki yer gorizontallariga ma'lum bir burchak ostida sug'orish egatlari yoki yo'laklar hosil qilinadi. So'ngra, bo'ylama sxemada o'q ariqlar va undan keyin muvaqqat ariqlar hosil qilinadi. Har ikki holatda ham muvaqqat ariqlarni uzunligi 1200 m dan, o'q ariqlarni uzunligi 200 m dan ortmasligi tavsiya etiladi.

### **21-jadval. Muvaqqat ariqlarini ko'ndalang yoki bo'ylama sug'orish sxemasini qo'llash bo'yicha tavsiyanoma**

Tuproqning suv o'tkazuvchanlik darajasi	Muvaqqat ariqlarning joylashish sxemasi	Yer nishablik qiymati va tavsiya				
		0,05- 0,025 0,04	0,025- 0,0075 0,01	0,0075- 0,0025 0,005	0,0025- 0,001 0,00175	0,001- 0,0005
	bo'ylama	+	+	+	+	+

o'tkazuvchanlik	ko'ndalang	-	-	-	-	-
	bo'ylama	+	+	+	-	+
	ko'ndalang	-	-	-	+	-
	bo'ylama	+	+	+	-	-
	ko'ndalang	-	-	+	+	+
	bo'ylama	+	+	+	-	-
	ko'ndalang	-	-	+	+	+

Eslatma: Muvaqqat ariqlarning joylashish sxemasi sharoitiga mos bo'lsa "+" belgisi , mos bo'lmasa "-" belgisi qo'yilgan.

Muvaqqat ariqlardan sug'orish egatlariga va yo'laklarga sug'orish suvini tarash juda katta jismoniy mehnat va o'quvni talab qiladi, shuning uchun ham bu yerda ish unumi bir ish kuniga 0,5-1,0 ga dan oshmaydi, ya'ni pastdir.

Yer ustidan sug'orishda, ish unumi sug'orish maydonlarini tekislash, sug'orish egat va yo'laklarining uzunligini oshirish hisobiga amalga oshiriladi.

Yer ustidan sug'orishda, ish unumini va ish sifatini sug'orish suvini egat va yo'laklarga taqsimlash texnikasini mukamallashtirish hisobiga ham oshirish mumkin. SHuning uchun ham muvaqqat tarmoqlarda *sifonlar, qisqa quvurchalar, bir dambali o'q ariqlar* o'rnatish yoki tuproq o'zanli muvaqqat ariqlarni *yumshoq* yoki *qattiq sug'orish quvurlari*, sug'orish mashinalari, avtomat novlar bilan almashtirish oxirgi vaqtarda sug'orish amaliyotida qo'llanilmoqda.

*Sifonlarning* eng qulay qo'llanish chegaralari o'rta, past va kuchsiz suv o'tkazuvchan tuproqlarda, sug'orish egatlarining nishablik qiymati 0,007 gacha bo'lgan tuproqlar hisoblanadi.

Ularning hisobi, qisqa sifon quvurning ko'ndalang kesim o'lchamini aniqlashdan va hozirda chiqarilayotgan standartlarga moslashdan iboratdir.

Hozirda, TSN-25, ( $d=25$  mm)  $SN_k$ -0,000 ( $d=25$  mm)  $SN_p$ -0,000 ( $d=35,4$  mm) li o'zi ishlaydigan sifonlar ishlab chiqarishda mavjud bo'lib, ular polietilen aralash plastmassa matyeriallardan 1 l/s gacha suv sarfli qilib chiqarilmoqda.

Bu ko'chma sug'orish armaturalaridan foydalanilganda, 100 l/s gacha bo'lgan

svjni bir suvchi boshqara olishi mumkin. Suvchining kunlik ish unumi 3-4 ga gacha boradi. Bir suvchiga bo‘lgan mavsumiy yuklama 5 ga ni tashkil etadi.

*Bir dambali o‘q ariqlar.* Nishabsiz qilib tekislangan sug‘orish maydonchasining qarama-qarshi tomonlaridan bir uvotli o‘q ariqlar hosil qilinadi. Bu o‘q ariqlar, odatdagi o‘q ariqlardan, sug‘orish etagi tomoni dambasining yo‘qligi bilan farq qiladi. Bunda, o‘q ariqdan suv to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘orish egatlariga taraladi.

Uvotsiz o‘q ariqlar bir-biriga chuqur egatlar bilan tutashtiriladi. Bu turdagil suv berish usuli, tuproqning suv o‘tkazuvchanlik darajasidan kat’iy nazar, kichik ( $i=0,0075$ ) nishablik sug‘orish maydonlarida qo‘llaniladi. Bu holatda, 1 suvchi, bir vaktda 100 va undan ortiq egatlarga suvni avtomatik ravishda taraydi va 100 l/s gacha bo‘lgan suv sarfini boshqarishi mumkin. Ish yaxshi tashkil etilganda, suvchining kunlik ish unumi 3-4 ga gacha etishi mumkin. Bunda, 1 suvchiga bo‘lgan mavsumiy yuklama 10 ga ni tashkil etadi.

*Ko‘chma egiluvchan* (62-rasm) va *qattiq sug‘orish quvurlari* meliorativ mato, egiluvchan polietilen, qattiq polimyer, qattiq alyuminlardan tayyorlanib, TP-120, KOP-200, TAP-150(200); TPR-150(200); TOG-125 (160, 200) markalarga farqlanadi, ularda suv sarf 10-110 l/s; bosim 0,5-3,0 m; uzunligi 100, 118,8–200 m; suv chiqargich teshiklari orasidagi masofa 0,6-0,9 m; xizmat qilish muddati 1 yildan 10 yilgachadir. Bunday suv berish qurilmalari suvni, asosan ochiq (nov) va yopiq (quvur) sug‘orish tarmoqlaridan olishga moslangandir.

Bu ko‘rinishdagi sug‘orish moslamalari tuproqning suv o‘tkazuvchanlik darjasini turlicha bo‘lib, ammo sug‘orish egatlarining nishablik qiymati 0,001-0,0075 bo‘lganda, amalga oshirish maqsadga muvofiqli.

Bunda, 1 suvchini ish unumi 4,5-5 ga gacha etadi. Mavsumiy yuklama 1 suvchiga 8-10 ga ni tashkil qiladi. Bu



62-rasm. Ko‘chma egiluvchan sug‘orish quvuri


sug‘orish quvurlarida hosil bo‘ladigan muammo, ularda loyqa cho‘kish va ularni har bir sug‘orishdan so‘ng ko‘chirishdir.

*Qattiq qo‘zg‘almas sug‘orish quvurlari* tuproq haydov qatlaming 0,35-0,45 m chuqurligida joylashtirilib, ulardan suv yer yuzasiga buloq ko‘rinishida har bir egat, yo‘lak yoki jo‘yak to‘g‘risidan chiqariladi. Suv chiqarish uchun belgilangan masofada, ko‘ndalang kesim o‘lchami 3-8 mm li bo‘lgan teshik yoki tirqishlar sun’iy usullarda (asosan joyida parmalab) hosil qilinadi. Teshiklar orasidagi masofa har yoki bir ikki sug‘orish egati, yo‘lagi yoki jo‘yak orasidagi masofaga teng qilib olinadi. Quvurlar orasidagi masofa asosan egat, yo‘lak yoki jo‘yak uzunligiga teng qilib olinib, 150-200 m dan oshmasligi, maqsadga muvofiqliр.

Avtomatlashtirilgan novlar ko‘rinishdagi qurilma sug‘orish dalalarini egat yo‘nalashi bo‘yicha, egat yoki yo‘lak uzunligi 1=300-350 m bo‘lgan holda, sug‘orish egati yoki yo‘lagiga ko‘ndalang ko‘rinishda qo‘llanish tavsiya etiladi. Bu holatda suv sug‘orish egatiga yoki yo‘lagiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri avtomatik ravishda doimiy tarmoqdan (nov yoki qoplamlari shoxariqdan) taraladi.

Ushbu sug‘orish tizimida, suvchini ish unumi 10-12 ga/kun ni tashkil etib, bir suvchiga bo‘lgan mavsumiy yuklama 35 gani tashkil etadi.

*Ko‘chma sug‘orish armaturasi* (63-rasm). Bunday sug‘orish moslamalarining eng qulay qo‘llanish chegaralari o‘rta, past va kuchsiz suv o‘tkazuvchan tuproqlarda sug‘orish egatlarining nishablik qiymati 0,007 gacha bo‘lgan sharoit hisoblanadi.



**63-rasm. Ko‘chma sug‘orish armaturalari:**

**a**-sug‘orish qalqonchalari; **b**-sifonlar; **d**-o‘zi ishlaydigan sifonlar; **e**-qisqa quvurchalar

Ularning hisobi qisqa sifon quvurning ko‘ndalang kesim diametrini aniqlashdan va hozirda chiqarilayotgan standartlarga moslashdan iboratdir.

### Nazorat savollari

1. Yer ustidan sug‘orish usuli va texnologiyalari.
2. Egatlab sug‘orish texnologiyasi.
3. Sug‘orish texnikasi elementlari.
4. Yo‘laklab va bostirib sug‘orish texnologiyalari.
5. Takomillashgan yer ustidan sug‘orish texnologiyalari.
6. Yer ustidan sug‘orishni tashkillashtirish
7. Sug‘orish jihozlari.
8. Muvaqqat sug‘orish tarmoqlarini joylashtirishning bo‘ylama va ko‘ndalang tuzilmalari.
9. Yer ustidan sug‘orishda ish unumi va sifatini oshirish yo‘llari.
10. Sug‘orishda bir dambali o‘q ariqlardan foydalanish.
11. Ko‘chma egiluvchan va qattiq quvurlar bilan sug‘orish.
12. Sug‘orish agregatlari va avtomatlashgan novlar bilan sug‘orish.
13. *Ko‘chma sug‘orish armaturasi.*

## **11. YOMG‘IRLATIB VA PURKAB SUG‘ORISH USULLARI**

### **11.1. Yomg‘irlatib sug‘orish usuli, uning avzallliklari va kamchiliklari.**

***YOmgiirlatib sug‘orish*** – suvni tuproq satxi va o‘simlikka maxsus mashina, qurilma va agregatlar yordamida sun’iy yomg‘ir shaklida etkazib berishdir.

#### ***YOmg‘irlatib sug‘orish usulining avzallliklari:***

-sug‘orish me’yori orqali tuproqning namiqish chuqurligini o‘zgartirish mumkinligi;

-havoni yer usti qatlaming nisbiy namligini oshirish va haroratini pasaytirish, ekinlarni sovuq urmasligini ta’minlashi;

-suvni dala bo‘ylab tekis taqsimlanishi va uning relefiga talab qo‘yilmasligi;

-sug‘orish egatlari va o‘q ariqlarni qurishga xojat yo‘qligi;

-sug‘orish suvi bilan minyeral o‘g‘itlarni berish mumkinligi;

- egatlab sug‘orishga moslashtirish mumkinligi;

- suv tejamkor usulligi, suvdan foydalanish koeffitsienti (SFK)ning yuqoriligi;

- yerdan foydalanish koefitsienti (EFK) ning yuqori bo‘lishi.

### ***Yomg‘irlatib sug‘orish usulining kamchiliklari:***

mashina va qurilmalar uchun metallning ko‘p talab qilinishi;

sug‘orish jarayonida ko‘p energiya sarflanishi ( $m = 300 \text{ m}^3/\text{ga}$  ni amalga oshirish uchun 40-100 KVt soat elektr energiyasi sarflanadi);

katta sug‘orish me’yorlarida ish unumining pastligi;

kuchli shamolda suv tekis taqsimlanmasligi, bug‘lanishning oshishi;

sug‘orish texnologiyasining murakkabligi;

sho‘rlangan yerlarda foydalanishning cheklanganligi;

tuproq yuza qatlaming strukturasini buzilishi, qatqaloq paydo bo‘lishi.



64-rasm. YOmg‘irlatib sug‘orish

### **11.2. Yomg‘irlatib sug‘orish texnikasi elementlari**

Yomg‘irlatib sug‘orish texnikasi elementlari bo‘lib, *yomg‘irlatish jadalligi*, *yomg‘ir tomchisining o‘lchami* va *yomg‘irni maydon bo‘yicha tekis taqsimlanishi* hisoblanadi.

Yomg‘irlatib sug‘orish texnikasi elementlarining to‘g‘riliqi - tuproqning qulay suv tartibini ta’milnishi, tuproq strukturasining buzilmasligi, o‘simlikning shikastlanmasligi, tuproq ustida suvning to‘planmasligi va suv oqimini yuzaga kelmasligi bilan belgilanadi.

*Yomg‘irlatish jadalligi* deb, bir minutda sug‘oriladigan yuzaga tushayotgan yomg‘ir miqdori (mm/min), yoki vaqt birligi ichida sun’iy yomg‘irdan hosil qilingan suv qatlaming qalinligi tushuniladi.

Yomg‘irlatish jadalligi orqali tuproqning suv o‘tkazish qobiliyatiga ko‘ra

yomg‘irlatish mashina yoki agregati tanlanadi.

*Yo'l qo'yiladigan yomg‘irlatish jadalligi* tuproq ustida suv to‘planmasdan, suv oqimi yuzaga kelmasdan, belgilangan sug‘orish me’yori ta’minlanadigan jadallik bo‘lib, uning qiymati sug‘oriladigan yerlarning tuproq sharoiti va nishabligiga bog‘liq bo‘ladi.

## 22-jadval. Ekinlarni yomg‘irlatib sug‘orishning yo‘l qo'yiladigan jadalligi, mm/min

Tuproqlar	Nishablik			
	0,0-0,05	0,05-0,08	0,08-0,12	> 0,12
qumloq	0,85	0,85	0,64	0,42
engil qumoq	0,74	0,53	0,42	0,32
o‘rtacha qumoq	0,42	0,34	0,25	0,17
og‘ir qumoq	0,09	0,07	0,05	0,04

*Yomg‘ir tomchisining o‘lchami* - yo‘l qo'yiladigan yomg‘irlatish jadalligi, suvning bug‘lanishga isrof bo‘lishi, tuproqning zichlanishi, sug‘orish me’yorining tuproq ustida suv oqimi paydo bo‘lguncha yo‘l qo'yiladigan miqdoriga ta’sir etuvchi ko‘rsatgichdir. Masalan: yomg‘ir tomchisining diametri 1,0-1,5 mm va yomg‘irlatish jadalligi 0,5 mm/min bo‘lganda, sug‘orish me’yorining tuproq ustida suv oqimi paydo bo‘lguncha yo‘l qo'yiladigan miqdori  $130-700 \text{ m}^3/\text{ga}$ , 2,0 mm/min bo‘lganda esa,  $50-190 \text{ m}^3/\text{ga}$  ga teng bo‘ladi. O‘simplik va tuproqqa qulay bo‘lgan suv tomchisining diametri 0,4-0,9 mm ni tashkil etadi.

Yomg‘irni maydon bo‘yicha tekis taqsimlanishi samarali sug‘orish va etarlicha sug‘orilmaganlik koeffitsientlari orqali aniqlanadi.

Samarali sug‘orish koeffitsienti sug‘orilgan maydonning qancha qismi yo‘l qo'yiladigan yomg‘irlatish jadalligida sug‘orilganligini ko‘rsatadi. Yomg‘irlatish mashina yoki agregatlariga qo'yiladigan agrotexnik talablarga ko‘ra bu koeffitsient 0,7 dan kam bo‘lmasligi lozim. Etarlicha sug‘orilmaganlik koeffitsienti dalaning qancha qismi yo‘l qo'yiladigan yomg‘irlatish jadalligida kam miqdorda sug‘orilganligini ko‘rsatadi va u 0,15 dan katta bo‘lmasligi kerak.


### 11.3. Yomg‘irlatib sug‘orish turlari va tizimlari

**Yomg‘irlatib sug‘orish turlari.** Yomg‘irlatish muddati va tavsifiga hamda tuproq va o‘simpliklarga ta’siriga ko‘ra: *odatiy* va *impulslı* yomg‘irlatib sug‘orish turlariga bo‘linadi.

*Odatiy yomg‘irlatib sug‘orishda* tuproqning 0,5-0,6 m li qatlamida qulay suv tartibini ta’minalash va yer usti havo qatlami mikroiqlimini yaxshilash maqsadida ekinlar 6-12 kun oralatib sug‘orib turiladi.

*Impulslı yomg‘irlatib sug‘orishda* havo namligi taqchilligini kamaytirish maqsadida ekinlar har kuni harorat eng yuqori bo‘lgan vaqtda (soat 12-15 larda) sug‘orib turiladi.

**Yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari.** Tabiiy va tashkiliy-xo‘jalik sharoitlarga bog‘liq xolda: *ko‘chmas*, *yarim ko‘chma* va *ko‘chma* yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari mavjud.



65-rasm. Yomg‘irlatib sug‘orish tizimi:

1-manba; 2-sun’iy bosim hosil qilish qurilmasi;  
3-xo‘jalik tarmog‘i; 4-shohariq; 5-muvaqqat (suv berish) tarmog‘i; 6-yomg‘irlatib sug‘orish qurilmasi.

*Ko‘chmas yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari-* magistral, taqsimlash va sug‘orish quvurlari, suv taqsimlash quduqlari, nasos stansiyalari va yomg‘irlatish texnikasi o‘rnatiladigan gidrantlardan iboratdir.

*Yarim ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari-ko‘chmas sug‘orish tarmoqlari* va nasos stansiyalaridan va *ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish* texnikalaridan iboratdir.

*Ko‘chma yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarida* tizim elementlarining barchasi bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilib yuriladi.

### 11.4. Yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari, qurilmalari va mashinalari

Yomg‘ir tomchilarinig etib borish uzoqliligiga qarab, yomg‘irlatib sug‘orish

apparatlari: *yaqinda otar*, *o'rtacha otar* va *uzoqqa otar* turlariga bo'linadi.

*Yaqinda otar* turlariga 0,05-0,2 mPa bosimda ishlaydigan va suvni 4-8 metrga otadigan uchlik-nasadkalar kiradi.

*O'rtacha otar* turlariga 0,1-0,4 mPa bosimda ishlaydigan, suv sarfi 5 l/s va faoliyat radiusi 15-35 metr bo'lgan apparatlar kiradi.

*Uzoqqa otar* apparatlar esa, 0,4 mPa dan ortiq bosimda ishlaydi, suv sarfi 5 l/s dan ko'p, suvni otish masofasi 35-100 m va undan ortiq bo'ladi.

*Yomg'irlatib sug'orish qurilmasi* – engil yig'iladigan, ko'chirib yuriladigan quvurlar va yomg'irlatgich uchlik (nasadka) laridan iborat qurilmadir.

*Yomg'irlatib sug'orish mashinasi*, bu mexanik harakatlanadigan yomg'irlatib sug'orish agregatlari bo'lib, ular traktorlarga o'rnatiladi yoki sug'orish dalasi bo'ylab o'zlariga o'rnatilgan dvigatellar yordamida harakatlanadi.

*Yomg'irlatib sug'orish qurilmalari* statsionar va mobil-ko'chirib o'tkaziladigan bo'ladi.

*Yaqinda otar yomg'irlatib sug'orish* apparatlari o'rnatilgan mashinalar:

DDA-100M va DDA-100MA ikki konsollik yomg'irlatish agregatlari-nishabligi 0.003 dan katta bo'lmagan yerlarda texnik, sabzavot, donli va em-xashak ekinlarini sug'orishda qo'llaniladi. Suv sarfi 100 (130) l/s, suvni ochiq manbadan nasos yordamida oladi. Ochiq tarmoqlar orasi – 120 m. Xizmat ko'rsatuvchilar soni: 1-2 kishi.

*O'rtacha otar yomg'irlatib sug'orish* apparatlari o'rnatilgan mashinalar:

DKSH-64, "Voljanka", DMU "Fregat", DF-120 "Dnepr", KI-50 "Raduga", DSH-25/300 va boshqalar. DKSH-64, "Voljanka"- yomg'irlatish quvurlarining uzunligi 395,6 m., diametri 130 mm., mustaqil ishlovchi ikkita qanotdan iborat bo'lib, suv sarfi 0,9-1,0 l/s bo'lgan 32 ta o'rtacha otar (17-18 m) apparatlardan iborat. O'rtasidagi "Drujba-96" dvigatelidan harakatlanadi.

*Uzoqqa otar yomg'irlatib sug'orish* apparatlari o'rnatilgan mashinalar: DDN-70 va DDN-100 mashinalari nishabligi 0,02 dan katta bo'lmagan yerlarda texnik, sabzavot, donli va em-hashak ekinlarini sug'orishda qo'llaniladi. DDN-70 va DDN-100 traktorlarga o'rnatilgan holda ishlatiladi. Suv bosimi 52 va 65 metr, suv sarfi 65

va 100 l/s. Suvni mos ravishda 70 va 80-85 metrga otadilar. Suvni ochiq manbadan nasos yordamida oladi. Ochiq tarmoqlar orasi – 120 m Ularga bir ishchi xizmat ko‘rsatadi.



66-rasm. DDN-100  
yomg‘irlatish mashinasi



DMU “Fregat” yomg‘irlatish mashinasi





67-rasm. DSH-10 yomg‘irlatish shleyfi



DDA-100M yomg‘irlatish mashinasi

**Yomg‘irlatib sug‘orish uchliklari va apparatlari.** Uchliklar (nasadki) yaqinga otar yomg‘irlatib sug‘orish mashinalari va agregatlarida qo‘llaniladi (yomg‘ir tomchilarini 4-8 metrgacha otadi).

Yomg‘irlatgich apparatlari o‘rtacha va uzoqqa otar yomg‘irlatib sug‘orish mashinalari va agregatlarida qo‘llaniladi (yomg‘ir tomchilarini 15-35 va 35-100 metrgacha otadi).



68-rasm. Yomg‘irlatish uchliklari: O‘rtacha otar yomg‘irlatgich apparati  
a-to‘siqli; b,v-oqimli



69-rasm. Uzoqqa otar yomg‘irlatgich apparati

### 11.5. Aerozol (purkab, mayda dispyersli) sug‘orish usuli

Aerozol (tuman hosil qilib, mayda dispyers) sug‘orish usulida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun qulay mikroiqlim sharoiti yaratiladi. Havoning yer ustti qatlaming nisbiy namligi oshiriladi, o‘simlik yer ustki organlarining harorati pasaytiriladi.

Bu usulda sug‘orish me’yori  $0,8\text{-}1,0 \text{ m}^3/\text{ga}$  bo‘lib, kunning issiq paytida har ikki soatda amalga oshiriladi va suv maxsus moslamalar yordamida diametri 400-600 mmk bo‘lgan mayda tomchilarga aylantirib byeriladi.

Bunda hosil bo‘lgan suvning zarrachalari o‘simlik bargini qoplaydi va bargdan pastga oqib ketmaydi va to‘liq bug‘languncha barg ustida qoladi. Ushbu jarayon havoda nisbiy namlikning keskin ortishi va barg yuzasi haroratini  $6\text{-}12 {}^\circ\text{S}$  ga pasayishiga olib kelib, o‘simlikni havo quruqligidan himoya qiladi, umumiy bug‘lanishni kamaytiradi, fotosintez jarayonini faollashtiradi va qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshiradi.

Bu usuldan havosi quruq va issiq shamollar (garmsel) bo‘lib turadigan hududlarda bog‘, sabzavot, em-xashak va texnik ekinlarni sug‘orishda foydalaniladi.

**Tuman hosil qiluvchi qurilmalar.** Sug‘orish suvini suv tumani holatiga keltirish, tuman hosil qiluvchi qurilmalar TOU-6, TOU-7, DDA-100MA yomg‘irlatib sug‘orish agregatining maxsus qayta jihozlangan turlari, ON-400-3, OVT-1A, OVS-A, OP-450 va boshqa turkumdagи begona o‘tlarga va qishloq xo‘jalik ekinlarining zararkunandalariga qarshi turli kimyoviy dorilarni sepishda ishlatiladigan traktor-purkagichlar yordamida amalga oshiriladi



70-rasm. Tuman hosil qilib sug‘orish

### Nazorat savollari

1. Yomg‘irlatib sug‘orish usuli, uning avzallliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
2. Yomg‘irlatib sug‘orish texnikasi elementlariga nimalar kiradi?
3. Yomg‘irlatish jadalligi, yomg‘ir tomchisining o‘lchami va yomg‘irni maydon bo‘yicha tekis taqsimlanishini tushuntiring.
4. Yomg‘irlatib sug‘orishning qanday turlari mavjud?
5. Qanday yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari mavjud?
6. Yomg‘ir tomchilarinig etib borish uzoqliligiga qarab, yomg‘irlatib sug‘orish apparatlarining turlari qanday?
7. O‘rtacha otar yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari o‘rnatilgan qanday mashinalar bor?
8. Yaqinga otar yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari o‘rnatilgan qanday mashinalar bor?
9. Uzoqqa otar yomg‘irlatib sug‘orish apparatlari o‘rnatilgan qanday

mashinalar bor?


10. Aerozol (purkab, mayda dispyersli) sug‘orish usuli va uning axamiyati nimalardan iborat?

## 12. TUPROQ ICHIDAN VA SUBIRRIGATSIYA SUG‘ORISH USULLARI

### 12.1. Tuproq ichidan sug‘orish

*Tuproq ichidan sug‘orishda* suv 40-60 sm chuqurlikda joylashtirilgan namiqtiruvchi quvurlar tizimi orqali o‘simlik ildizi joylashgan qatlamga etkaziladi va tuproq kapillyarlari hisobiga namlanriladi.

Bu usulda suv tuprokka yer ustidan emas, balki ichidan- haydaladigan qavatdan pastda joylashgan suv o‘tkazadigan quvurlar yoki maxsus o‘rnatilgan yer osti yo‘llari (krotlar) orqali beriladi. Quvurlar maxsus bo‘shliqli matyeriallardan yoki ularagi namiqtiruvchi teshiklar (*teshikli*) hamda quvurlarning bir-biri bilan ulangan joylaridan (*tirqishli*) chikkan suv hisobiga tuproq namlanadi. Suv tuproq ichidagi quvurlarga ochiq kanallardan yoki yopiq quvurlardan beriladi.



71-rasm. Tuproq ichidan sug‘orish

Namlanish sifatiga tuproqning so‘rish kuchi ta’sir qiladi. Tuproqning kapillyar o‘tkazuvchanligi qancha katta bo‘lsa, uning so‘rish kuchi shuncha yuqori bo‘ladi. Tuproqning so‘rish kuchi uning quruq yoki xo‘lligiga bog‘liq bo‘lib, qancha quruq bo‘lsa, shuncha so‘rish kuchi katta bo‘ladi. Bulardan tashqari tuproqning namlanishi uning zarrachalarini kattaligi, uning zichligi va kapillyarligiga bog‘likdir.

Tuproqning so‘rish kuchi quruqligida maksimal bo‘lib, namlangan sari kamayib boradi va CHDNSga etganda nolga teng bo‘ladi.

Berilayotgan suv:


- ancha katta bo‘lgan gidravlik bosim bilan;
- kichik bosim bilan;
- bosimsiz yoki xatto vaakuum ostida bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun bu tizimlar: *bosimli*, *kichik yoki bosimsiz* va *vakuumli* tizimlarga bo‘linadi.


## 12.2. Tuproq ichidan sug‘orish tizimi

Namiqtiruvchi quvurlardan suvni tuproqqa o‘tishiga ko‘ra bosimli, kichik yoki bosimsiz va vakuumli tizimlarga farqlanadi. Birinchi holatda namiqtiruvchi quvurlarga suv ulardan yuqori: 0,6-2,0 m va kichik yoki bosimsiz tizimlarda esa, 0,1-0,5 m baland joylashgan taqsimlovchi tarmoqlardan uzatiladi. Vakuumli tizimlarda suv tuproqning so‘rish kuchi ta’sirida tuproqqa o‘tadi.

Tuproq ichidan sug‘orish tizimining turlari



72-rasm. Tuproq ichidan sug‘orish tizimining ko‘rinishlari




73-rasm. Tuproq ichidan sug‘orish tizimining sxematik ko‘rinishi

- |                            |                                     |
|----------------------------|-------------------------------------|
| 1 - nasos stansiyasi;      | 5 - suv bo‘luvchi quduq;            |
| 2 - suv tozalash inshooti; | 6 - shamollatuvchi tashlama tarmoq; |
| 3 - tarqatuvchi quvur;     | 7 - suv yig‘uvchi quduq;            |
| 4 - sug‘oruvchi quvur;     | 8- namlatgich.                      |

### 12.3. Tuproq ichidan sug‘orish texnikasi elementlari

Tuproq ichidan sug‘orish texnikasi elementlari ga *namlatgichlarning joylashish chuqurligi* (0,4-0,6 m), *bosimi* (0,1-2,0 m), *solishtirma suv sarfi* (0,05-0,25 l/s har 100 m namlatgich uzunligiga), *namlatgich uzunligi* (60-250 m), *namlatgichlar orasidagi masofa* (1,0-3,5 m), *sug‘orish davomiyligi* kiradi.



74-chizma. Tuproq ichidan sug‘orish texnikasi elementlari

Suv tarqatuvchi quvurlar asbotsementdan tayyorlanib, tuproq sathidan 0,5-6 metr chuqurlikda o‘rnataladi, polietilen yoki polivinilxloriddan tayyorlangan namiqtiruvchi (sug‘orish) quvurlar tuproqning mexanik tarkibi va suv o‘tkazuvchanligiga bog‘liq holda 45-50 sm chuqurlikda bir-biridan 1,25-2,0 m masofada (engil tuproqlarda – 1,0-1,25 m, o‘rtalama tuproqlarda – 1,25-1,50 m va og‘ir tuproqlarda – 1,50-2,00 m) yotqiziladi. Suv o‘tkazuvchanligi kuchli bo‘lgan tuproqlarda namiqtiruvchi quvurlar ostiga plyonka to‘sab, ular orasini 2,0 m qilish mumkin.

Namiqtiruvchi quvurlar diametri 20-50 mm bo‘lib, ularda har 20 sm da 1-2 mm diametrli suv chiqarish teshikchalari spiral holida joylashtiriladi. Quvurlarning uzunligi 60-250 m oralig‘ida bo‘ladi.

### 23-jadval. Tuproq ichidan sug‘orish texnikasi elementlari

Nishablik	Quvurning uzunligi, m	Quvurning suv sarfi, l/s
0,001	200-250	0,20-0,25
0,002	200-250	0,20-0,25
0,004	200-250	0,20
0,006	120-160	0,10-0,15
0,008	80-161	0,06-0,10
0,010	60-90	0,05-0,07

Bosim qiymati 0,4-0,5 atm. bo‘lganda namlatgichning solishtirma suv sarfi qiymati: og‘ir tuproqlarda 0,003-0,004 l/s·m, o‘rta tuproqlarda 0,005-0,007 l/s·m, engil tuproqlarda 0,008-0,01 l/s·m. ga teng qilib olinadi.

Namlatgichdan suvni tuproqqa berish davomiyligi:

$$t_o = \frac{m \cdot F}{q_c \cdot N}, \quad \text{soat}$$



bu yerda:  $m$  - sug‘orish me’yori, m<sup>3</sup>/ga;  $F$  - sug‘orish maydoni, ga;  
 $q_c$  - har bir namlatgichning suv sarfi qiymati,  $N$  - m<sup>3</sup>/soat; - namlatgichlarning soni, dona.

#### ***Tuproq ichidan sug‘orishning afzalliklari:***

- sug‘orish me’yorining 15-40% ga kamligi;
- suvni bug‘lanishga isrof bo‘lishini keskin pasayishi (0,98-0,99);
- begona o‘tlarning chiqmasligi;
- ochiq sug‘orish tarmoqlarining yo‘qligi, EFK ning yuqoriligi;
- sug‘orish suvi bilan minyeral o‘g‘itlarni berish mumkinligi;
- tuproqning zichlashmasligi, qator orasiga ishlov byerilmasligi;
- hosildorlikning 20-40% gacha oshishi va b.

#### ***Tuproq ichidan sug‘orishning kamchiliklari:***

- sug‘orish tizimini qurishning qimmatliligi;
- tuproqning ustki 0-10 sm qatlagini etarlicha namiqmasligi;
- mikroiqlimni boshqarish imkoni yo‘qligi;
- namiqtiruvchi quvurlarning loyqa bosishi;
- quvur ichiga suv chiqargich teshikchalardan o‘simplik ildizlarining o‘sib kirishi;
- quvurlarning suv o‘tkazmaydigan xolda byerkilib qolishi.



75-rasm. Namiqtiruvchi quvurlarni o‘rnatish

#### **12.4. Subirrigatsiya sug‘orish usuli**

Sizot suvlari sathini sun’iy ko‘tarib sug‘orish – subirrigatsiya: minyeralizatsiyasi past bo‘lgan yer osti sizot suvlari sathini ma’lum chuqurlikda ushlab turib, tuproqning faol qatlamini sizot suvlarining tuproq kapillyarlari orqali ko‘tarilish hisobiga namlantirib sug‘orishdir.


Subirrigatsiya – sizot suvlari sathini ko‘tarish orqali sug‘orish bo‘lib, tuproqning o‘simlik ildizi joylashgan qatlamiga sizot suvlari tuproq kapillyarlari orqali ko‘tariladi.

Kollektor-zovur tarmoqlariga to‘silalar qo‘yib, mineralizatsiyasi 1-3 g/l bo‘lgan sizot suvlari sathi ko‘tariladi hamda o‘simlik turi va tuproq sharoitidan kelib chiqib, 0,7-1,5 m chuqurlikda ushlab turiladi.

*Subirrigatsiya* Xorazm vohasida may oyining o‘rtalarida, ya’ni ekinning dastlabki rivojlanish fazasida- sug‘orish egatlarini olish qiyin bo‘lgan davrda, Farg‘ona vodiysida sug‘orish tarmoqlarining quyi qismida joylashgan hududlarda avgust oyining ohirida suv tanqisligi kuchaygan davrda yer ustidan sug‘orishlar sonini kamaytirish maqsadida qo‘llaniladi.



76-rasm. Subirrigatsiya sug‘orish usulida zovurdagi suv to‘sish inshooti



77-rasm. Sizot suvlari sathi ko‘tarilishi

Subirrigatsiya sug‘orish usulining *afzalliklari* quyidagilardan iborat:

- daryo suvini iqtisod qilishi;
- qo‘sishimcha suv manbasi sifatida sizot suvlardan foydalanish imkonini yaratilishi;


-qator oralarining zichlanmasligi, irrigatsiya eroziyasining yo‘qligi;

-tuproqning havo va ozuqa tartibining yaxshilanishi;


-atrof-muhitning ifloslanmasligi;

Subirrigatsiya sug‘orish usulining *kamchiliklari* quyidagilardan iborat:

- sho‘rlanishga moyil tuprqlarda qo‘llash cheklanganligi;
- sizot suvlari mineralizatsiyasi yuqori hududlarda qo‘llab bo‘lmasligi;
- zovurlarni to‘sish natijasida ularning ishchi holatini buzilishi;
- sug‘orish jarayonining murakkabligi.



78-rasm. SSS ni boshqarishda tuproqning namlanish taqsimoti: KUN-kapillar uzelish namligi; ChDNS-chejaraviy dala nam sig‘imi; TNS-to‘la nam sig‘im



79-rasm. Sug‘orish tarmog‘i va quvur namlatgichlar yordamida SSS ni ko‘tarib sug‘orish:  
1-sug‘orish tarmog‘i; 2, 3, 4-sizot suvlari sathi; 5-quvur namlatgich

### Nazorat savollari

1. Tuproq ichidan sug‘orish usulining mohiyati nima?
2. Tuproq ichidan sug‘orish usulining qanday turlari mavjud?
3. Bosimli, kichik yoki bosimsiz va vakuumli tizimlar.
4. Tuproq ichidan sug‘orish tizimining sxemasi va elementlari.
5. Tuproq ichidan sug‘orish texnikasi elementlari nimalardan iborat?
6. Tuproq ichidan sug‘orish texnikasi elementlarining qiymatlari nimaga bog‘liq?
7. Namlatgichdan suvni tuproqqa berish davomiyligi qanday aniqlanadi?
8. Tuproq ichidan sug‘orish usulining afzalliliklari.
9. Tuproq ichidan sug‘orish usulining kamchiliklari.
10. Tuproq ostidan sug‘orish – subirrigatsiya sug‘orish usulining moxiyati nima?
11. Sizot suvlari sathi qanday boshqariladi?

12. Subirrigatsiya sug‘orish usulining afzalliklari.
13. Subirrigatsiya sug‘orish usulining kamchiliklari.

## **13. TOMCHILATIB SUG‘ORISH USULI. TOMCHILATIB SUG‘ORISH USULINING RIVOJLANISH TARIXI. TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMNI LOYIHALASH, QURISH VA ISHLATISH**

### **13.1. Tomchilatib sug‘orish usuli va uning rivojlanish tarixi**

Uzoq qadimdan Sharq mamlakatlarida daraxtlarni sug‘orishda dehqonlar turli suv tejovchi usullarni qo‘llab kelishgan. Ularning orasida suvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri daraxtning ildiz qismiga etkazib berish doimo ahamiyatli bo‘lib kelgan. Buning uchun, asosan daraxtning ildizi yaqinida tuproqqa ko‘milgan sopol xumchalardan foydalanilgan. Sopol xumchaga qo‘yib qo‘yilgan suv sekin sizib, tuproqni namlashi natijasida daraxt ildiziga kerakli miqdorda suv etkazib byerilgan. Xumchadagi suv sathi pasayishi tezligini hisobga olgan holda, ma’lum muddatdan so‘ng unga yana suv quyib turiqgan. Mazkur amal vegetatsiya davrida izchil amalga oshirilgan. Bunday hech qanday ariqqa hojat bo‘lmagan, daraxtlar esa gurkirab rivojlangan.


Bungi kundagi tomchilatib sug‘orish tizimlarini yaratishning asosi 1886 yilda hozirgi Afg‘oniston hududida, suvni sopol quvurlar yordamida har bir daraxtning ildiz qismiga etkazib berishni tadqiq qilishdan boshlangan. 1913 yilga kelib, AQSHning Kolorado univyersiteti tadqiqotchisi B. Xauz tomonidan o‘simlikning faqatgina ildiz qatlagini namlash asosida sug‘orishga ishlatilayotgan suv miqdorini kamaytirish tizimi ommaga namoyish qilingan. O‘tgan asrning 20- yillari davomida Gyermaniya olimlari sug‘orish uchun suvni teshikli quvurlar asosida berish vositasida boshqariluvchi sug‘orish tizimini ishlab chiqdilar. Lekin ushbu sug‘orish usullarining samaradorligi zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlari samaradarligidan ancha past edi.

1950 yillarga kelib, plastik matyerialdan turli buyumlar yasash va polietilenden arzon quvurlar ishlab chiqarish texnologiyalari yaratilgandan keyingina, tomchilatib sug‘orish tizimlarini keskin rivojlantirish imkoniyatlari yuzaga keldi.

Buyuk Britaniya va Fransiyada boshqariluvchi sug‘orish tizimlarini tadqiq qilish ishlari kuchaytirildi. Eng katta yutuqqa Britaniya suv agentligi xodimi Simxa Blass tomonidan yerishildi. U 1950 yillarda yangi tuzilgan Isroil davlatiga ko‘chib o‘tganidan so‘ng, u yerda vodoprovod quvuri yaqinidagi daraxtning gurkirab rivojlanganligidan qattiq ta’sirlanadi va o‘z tadqiqotlarini tomchilatib sug‘orishni rivojlantirish yo‘nalishida olib boradi. U dunyoda birinchi bo‘lib, labirintli tomizgichni yaratadi va ushbu ixtirosini 1959 yilda patentlashtiradi. Mazkur texnologiyaga ko‘ra, katta bosim bilan o‘simplik yoniga etib kelgan suv, labirintli yo‘lakchalardan siqilib o‘tishi natijasida, quvur tashqarisiga faqatgina tomchi sifatida chiqo oladi. Suv daladagi barcha daraxtlar ostida bir xilda tomadi va natijada oz miqdordagi suv bilan ko‘p daraxtlarni sug‘orish imkoniyati yaratiladi (80-rasm).

Simxa Blassning yaratgan tomizgichi hozirgi kundagi samarali tomchilatib sug‘orish tizimlarining asosiy elementi va ajralmas qismi hisoblnadi.

1980 yillarga kelib, Janubiy va SHimoliy Amyerika mamlakatlari va Avstraliyada tomchilatib sug‘orish usulining texnologiyalari rivojlantirildi. Mazkur texnologiyalarda svuni tejash, odatdagi 30 % dan 50 % ga qadar ko‘tarildi.



**80-rasm.** AQSHda 1950 yillarda ro‘yhatga olingan dastlabki tomizgichlar namunalari.

a) patent 2.752.201 Yerni sug‘orish usul va vositalari. S.Blass.

b) patent 3.420.064 Sug‘orish uchun tomizgich va quvur tizimi. S.Blass.

Huddi shu yillarda, tomchilatib sug‘orish usuli tijoriy maqsadlar uchun xizmat

qila boshladi, ya’ni sug‘orish paytida ishchi kuchiga sarflanadigan harajatlarni tejash imkoniyatlari yuqoriligi xususiyati, tomchilatib sug‘orishning sun’iy landshaftlarni yaratishda qo‘llanishiga yo‘l ochib byerdi.

Amyerika Qo‘shma SHtatlarida, o‘tgan asrning 60-yillari boshida Richard Xapin tomonidan “*SHudringli shlang*” nomi (boshqa nomi “*spageti quvuri*”) bilan tomizgichli lenta ishlab chiqildi va uning birinchi namunasi 1964 yilda amaliyotga joriy qilindi. Bunday shlanglar asosan, daraxtlarni va issiqxonalarda etishtiriladigan gullarni sug‘orish uchun keng joriy qilindi.

Tomchilatib sug‘orish usulidan foydalanish 1980 yildan keyin ayniqsa, kuchaydi va 2000 yilga kelib, dunyo miqyosida tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy qilingan ekin maydonlari 3,2 mln. gektardan ortib ketdi (24-jadval).

Tomchilatib sug‘orish usulini qo‘llashda Isroil, Kipr, AQSH, Italiya, Avstraliya va Iordaniya kabi mamlakatlarda juda katta yutuqlarga yerishildi.

**24-jadval. Dunyo mamlakatlarida tomchilatib sug‘orish usuli joriy qilingan ekin maydonlarining o‘zgarishi (1981-2000 yillar oralig‘ida, ming ga) (Xalqaro irrigatsiya va drenaj komissiyasi ma’lumoti)**


№	Mamlakatlar	yillar			
		1981	1986	1991	2000
1.	AQSH	185,3	392	606	1050
2.	Hindiston	0	0	55	260
3.	Avstraliya	20,1	58,8	147	258
4.	Ispaniya	0	112,5	160	230
5.	Janubiy Afrika	44,0	102,3	144	220
6.	Isroil	81,7	126,8	104	161
7.	Fransiya	22,0	0	51	140
8.	Meksika	2,0	12,7	60	105
9.	Misr	0	68,5	68,5	104
10.	Yaponiya	0	1,4	57,1	100
11.	Italiya	10,3	21,7	78,6	80

12.	Tailand	0	3,7	45,2	72
13.	Kolumbiya	0	0	29,5	52
14.	Iordaniya	1	12	12	38
15.	Braziliya	2,0	20,2	20,2	35
16.	Xitoy	8	10	19	34
17.	Kipr	6	10	25	25
18.	Portugaliya	0	23,6	23,6	25
19.	Xitoy Taypeyi	0	10	10	18
20.	Marokash	3,6	5,8	9,8	17
21.	Boshqalar	50,6	38,8	100,7	177
<b>JAMI</b>		<b>436,6</b>	<b>1030,6</b>	<b>1826,3</b>	<b>3201</b>



81-rasm. Isroil texnologiyasi asosida tomchilatib sug‘orilayotgan olma bog‘i

AQSHning Xavay orollarida qiyalik maydonlarda shakarqamish etishtirishda, egatdan sug‘orish usulini qo‘llash mumkin bo‘lmaganligi bois, fyermeyerlar yomg‘irlatib sug‘orishdan foydalanishgan va katta qiyinchiliklarga duch kelishgan. Tomchilatib sug‘orish yaxshi samara berishi aniqlangandan so‘ng esa, Xavaydagi 11 ta shakarqamish plantatsiyasi 1986 yilda to‘laligicha tomchilatib sug‘orishga o‘tkazilgan.



82-rasm. Tomchilatib sug‘orish usulida sug‘orilayotgan uzumzor  
(AQSHning Nyu-Meksiko shtati)



83-rasm. Tomchilatib sug‘orish usuli asosida sug‘orilayotgan bananzor  
(Hindiston)


AQSH, Avstraliya, Isroil va boshqa bir qator mamlakatlarda yer ostidan tomchilatib sug‘orish tizimlari ham keng tarqaldi. Ushbu tizimlar suvni o‘simlikning ildiz qatlami ostidan etkazib berishga moslashtirilganligi bilan boshqa tomchilatib sug‘orish tizimlaridan keskin farq qiladi.



84-rasm. Yer ostidan sug‘orish tizimi qo‘llanilgan uzumzor (Avstraliya)

*O‘zbekiston sharoitida tomchilatib sug‘orish tizimlarini qo‘llashning rivojlanishi.* O‘zbekiston sharoitida tomchilatib sug‘orish tizimlari, asosan 1975 yildan boshlab, tajriba tariqasida bog‘ va uzumzorlarda tatbiq qilina boshlangan.

1975 yilda ISMITI (sobiq SANIIRI) ning Jizzax viloyati Zomin tumanidagi tajriba xo‘jaligida avval 10 ga, keyinchalik 200 ga maydondagi uzumzorni, 1977 yilda Xorazm viloyatining Xiva tumanida 1,5 ga maydondagi bog‘ni, SHredyer nomidagi bog‘dorchilik va uzumchilik ilmiy tadqiqot institutining 2,0 ga maydondagi bog‘ini sug‘orish uchun maxalliy sharoitlarda yaratilgan tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy qilingan.



85-rasm. Xorazm viloyati Xiva tumanida tomchilatib sug‘orish usuli  
tadbiq qilingan bog‘ (1977 y)

Tomchilatib sug‘orish usulini qo‘llash o‘tgan asrning 90- yillari boshida ancha kengaytirildi va ularning maydoni 1993 yilga kelib, 1134 hektarga etkazildi. Shu jumladan, 1991-1992 yillarda Isroil texnologiyasi asosida Andijon viloyatining Qurg‘ontepa tumanidagi “Savay” xo‘jaligida 1,0 ming ga paxta maydonida 6,6 mln. AQSH dollari qiymatiga ega bo‘lgan tomchilatib sug‘orish tizimi joriy qilish ishlari olib borildi va uning 500 hektarli qismi ishga tushirildi.

Xuddi shu yillarda, tomchilatib sug‘orish usulini paxta etishtirishda qo‘llash mumkinligi o‘rganildi. ISMITI da olib borilgan tadqiqotlar natijalari, paxta etishtirishda tomchilatib sug‘orishni qo‘llash, egatlab sug‘orishga nisbatan suvni 1,5-3,0 martagacha tejash, paxtadan hektariga 35-43 sentnyer miqdorida hosil olish mumkinligini tasdiqladi.

O‘tgan asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida O‘zbekistonda yana 600 ga maydonda tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy qilindi. SHu jumladan, 1999-2001 yillarda Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida uchta 100 hektarli maydonda Isroil davlati “Netafim” firmasining har biri 2,1 mln. AQSH dollari turadigan tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy qilindi. Qurilgan ushbu sug‘orish tizimlari turli sabablarga ko‘ra, ko‘ngildagiday faoliyat yuritmadi.

O‘zbekistonda 1975-2000 yillar oraliq‘ida, qurilgan tomchilatib sug‘orish

tizimlaridan biri – Qashqadaryo viloyati “Varganza” xo‘jaligidagi anorzorni tomchilatib sug‘orish tizim (1990 yilda qurilgan) hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda.

Tadqiqotlar asosida, mazkur tomchilatib sug‘orish tizimlarini odatdagি, egatlab sug‘orishga nisbatan suvni bir necha martagacha kam sarflashi aniqlangan. Jumladan, bog‘ va uzumzorlarda sug‘orishga byerilgan suv, odatdagiga nisbatan 60 % gacha, paxta etishtirishda esa 40 % gacha kam sarflangan (24-jadval).

### **25-jadval. O‘zbekistonda 2000 yilgacha qurilgan tomchilatib sug‘orish tizimlari (ISMITU ma’lumotlari)**

t/r	Joylashgan manzili	Maydon, ga	Ekin turi	Qurilgan yili	Suvni tejash qobiliyati, %
1	Jizzax viloyati SANIIRI Zomin TICHX	200,0	uzumzor va bog‘	1975, 1983	40
2	Xorazm viloyati Xiva tumani	1,5	bog‘	1977	60
3	Toshkent viloyati SHredyer nomli B va UI	2	bog‘	1978	60
4	Toshkent viloyati “NISTO”	5	paxta	1990	30
5	Qashqadaryo viloyati “Xushvaqtov” d/x	64	paxta	1990	35
6	Qashqadaryo viloyati “Varganza” d/x	134	bog‘ (anorzor)	1990	60
7	Qashqadaryo viloyati “Ko‘kdala” d/x	156	bog‘	1990	50
8	Andijon viloyati “Savay” d/x	500	paxta	1991	25
9	Buxoro viloyati “Jilvon-P” d/x	30	uzumzor	1992	45
10	Qashqadaryo viloyati KEU PREP	26	paxta, bog‘	1992	40
11	Qashqadaryo viloyati “Zarafshon” d/x	5	paxta	1992	35
12	Farg‘ona viloyati “YOsh leninchi” d/x	5	paxta	1992	40
13	Surxondaryo viloyati “Ilich” d/x	5	paxta	1992	35
14	Toshkent viloyati O‘zPITIMEB	5	paxta	1995	15
15	Buxoro viloyati O‘zPITIVEB	5	paxta	1995	30
16	Toshkent viloyati “O‘zbekiston 5 yilligi” d/x	200	paxta	1994	35
17	Jizzax viloyati SANIIRI TICHX	100	paxta	1998	35
18	Jizzax viloyati “Samarqand Quduq”d/x	100	paxta	1999	27
19	Sirdaryo viloyati “Siddiqov” d/x	100	paxta	1999	25
20	Toshkent viloyati “T. Yernazarov”d/x	100	paxta	1999	25
21	Toshkent viloyati SANIIRI tajriba	2	uzumzor	2001	60

	maydoni				
--	---------	--	--	--	--

Tomchilatib sug‘orish usulidan foydalanuvchilarining etarli malakaga ega bo‘limganliklari va etishtirilayotgan ekinlar agrotexnologiyalarining tomchilatib sug‘orishga mos bo‘limganligi, 1975-2000 yillarda joriy qilingan tomchilatib sug‘orish tizimlarining kutilganidek, yaxshi natija byermaganligining asosiy sabablari sifatida ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, alohida joylarga tatbiq qilingan tomchilatib sug‘orish usullarini suv ta’minotining mavjud tizimiga mos tushmaganligi (tizimga suv doimiy ravishda bir tekis emas, balki dalalarga kabi navbat kelganda byerilgan) ham joriy qilingan tizimlarni bir-ikki, uzog‘i bilan uch-to‘rt yilda ishdan chiqishiga va qarovsiz qolishiga sabab bo‘lgan.

Shuning uchun, hozirda tatbiq qilinayotgan tomchilatib sug‘orish tizimlarida, avvalo fyermoerlarning malakasini oshirish va tomchilatib sug‘orishga mos agrotexnologiyalarni qo‘llashga katta e’tibor qaratilmoqda.

**26-jadval. 2019-2022 yillar davomida qishloq xo‘jaligi yerlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy qilishning prognoz ko‘rsatkichlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742 farmoni 4-ilova)**

Hududlar nomi	2019-2022 yillar davomida tomchilatib sug‘orish prognozi	shu jumladan, yillar bo‘yicha															
		2019 yil				2020				2021				2022 yil			
		paxta	bog‘	tok	boshqa-lar	paxta	bog‘	tok	boshqa-lar	paxta	bog‘	tok	boshqa-lar	paxta	bog‘	tok	boshqa-lar
QQR	7030	399	107	400	25	700	128	480	30	995	161	600	38	1891	217	810	51
Andijon	16454	361	255	166	266	1810	306	199	319	3570	383	249	398	6783	516	336	538
Buxoro	19687	1452	375	500	55	2500	450	600	66	3590	563	750	83	6821	759	1013	111
Jizzax	11052	479	389	367	80	958	467	440	96	1665	584	551	120	3164	788	743	162
Qashqadaryo	24479	346	700	487	127	2459	840	584	152	4880	1050	731	191	9272	1418	986	257
Navoiy	10374	251	500	140	194	650	600	168	233	1620	750	210	291	3078	1013	284	393
Namangan	17840	310	587	348	180	1200	704	418	216	3430	881	522	270	6517	1189	705	365
Samarqand	39588	4630	477	410	750	5968	572	492	900	6765	716	615	1125	12854	966	830	1519
Surxondaryo	32272	2075	1292	578	150	3190	1550	694	180	5325	1938	867	225	10118	2616	1170	304
Sirdaryo	13144	918	471	240	12	1530	565	288	14	2261	707	360	18	4296	954	486	24
Toshkent	27604	345	1343	142	207	2130	1612	170	248	5325	2015	213	311	10118	2720	288	419
Farg‘ona	23814	331	2182	194	12	1204	2618	233	14	2968	3273	291	18	5639	4419	393	24
Xorazm	10043	224	904	184	10	560	1085	221	12	1025	1356	276	15	1948	1831	373	20
<b>Jami</b>	<b>253381</b>	<b>12121</b>	<b>9582</b>	<b>4156</b>	<b>2068</b>	<b>24859</b>	<b>11498</b>	<b>4987</b>	<b>2481</b>	<b>43419</b>	<b>14373</b>	<b>6234</b>	<b>3101</b>	<b>82496</b>	<b>19404</b>	<b>8416</b>	<b>4187</b>

### **13.2. Tomchilatib sug‘orish usulining xususiyatlari va afzalliklari**

Tomchilatib sug‘orish usuli ekinlarni sug‘orish usullari orasida nisbatan yangi sanaladi va uning o‘ziga hosligi suvni bosim ostida o‘simlikkacha etkazib berishi bilan belgilanadi.

Tomchilatib sug‘orish usuli o‘simlikning suvgaga bo‘lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga etkazib berishga mo‘ljallangan suv taqsimlovchi doimiy tarmoqdan iborat.

Tomchilatib sug‘orish usulining boshqa sug‘orish usullaridan farqli jihatni shundan iboratki, mazkur sug‘orish usulida tuproqning namligi va uni yaratish uchun byerilayotgan suv boshqariladi.


Odatdagi egatlab sug‘orish usulida, suv egatga oqizilgandan so‘ng, dalaning bir qismida tuproqning namligi haddan ortib ketsa, boshqa qismida suv yaxshi oqmaganligi tufayli tuproq yaxshi namlanmaydi. Egatlab sug‘orilganda sug‘orishdan keyin, tuproqda namlikni haddan ziyod ortishi ekinni suvga bo‘ktirsa, sug‘orishlar orasidagi vaqtning uzoqligi oqibatida, tuproq qurib ketib, o‘simlikni suvsiz qoldiradi.

Navbatdagi sug‘orishda ekin yana suvga bo‘kadi, undan keyin esa yana suvsiz qoladi, ya’ni stress holatga tushadi. Natijada, o‘simlik o‘z enyergiyasini shu stress holatlarni engish uchun sarflashga majbur bo‘ladi va bir tekis rivojlana olmaydi.

Tomchilatib sug‘orish usulida esa, suv har bir ekining ma’lum davrdagi ehtiyojiga mos ravishda dala bo‘ylab bir tekisda byeriladi. SHunday qilib, dalaning ekin joylashgan yerlari bir xilda namlanadi. Tuproqda ortiqcha namlikning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘yilmaydi.


tomchilatib sug‘orish usulida:

- ildizlar to‘ppak bo‘lib o‘sadi;
- o‘simlik ildizini chuqurga yubormaydi;
- suv va o‘g‘itlarni etkazib berish osonlashadi.



86-rasm. Tomchilatib sug‘orish usuli

Tomchilatib sug‘orish usulida ekining ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida o‘simlik uchun optimal bo‘lgan tuproqning suv-fizik rejimi yaratiladi.



87-rasm. Tomchilatib sug‘orishda tuproq namligining o‘zgarish

- oddiy (egatlab) sug‘orishda tuproq namligining o‘zgarishi;
- tomchilatib sug‘orishda tuproq namligining o‘zgarishi

*Tomchilatib sug‘orish usulini qo‘llash sharoitlari.* Tomchilatib sug‘orish usulini hamma joyda, hatto boshqa sug‘orish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lmagan va sug‘orish yaxshi samara byermaydigan sharoitlarda ham qo‘llash mumkin. Buning uchun, tomchilatib sug‘orishning muayyan hududning o‘ziga xos sharoitlari va etishtiriladigan ekin turiga mos keladigan turi to‘g‘ri tanlansa bo‘ldi.

Tomchilatib sug‘orish usuli ayniqsa, murakkab relefli va nishabligi katta uchastkalarda, o‘ta qurg‘oqchil va shamoli kuchli bo‘lgan hududlarda, tuproq qatlami yupqa va suv shimalishi yuqori bo‘lgan joylarda, sug‘orish suvini etkazib berish qimmatga tushadigan (nasoslar yordamida suv byeriladigan) hududlarda, sug‘orishga tozalangan chiqit suvlar ishlatiladigan holatlarda qo‘llash juda yuqori samara byeradi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini etishtirishning intensiv texnologiyalarida, ya’ni hosilning kattaligi va sifati namlik va oziqlanish rejimini aniqligiga bog‘liq bo‘lgan sharoitlarda, tomchilatib sug‘orish usulini qo‘llash juda yaxshi samara byeradi

*Tomchilatib sug‘orishning afzallikkari.* Tomchilatib sug‘orish usuli boshqa sug‘orish usullariga nisbatan bir qator afzalliklariga ega bo‘lib, ularning asosiyлари sifatida ekin hosildorligining ortishi va hosil sifatining yaxshilanishi, suv

*resurslarining tejalishi, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish uchun sarflanadigan moddiy va mehnat resurslarining kamayishi, ekinni oziqlantirish uchun sarflanadigan o'g'itlar miqdorining kamayishi, tuproq yuvilishining butkul bartaraf qilinishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.*

1-afzallik: *ekin hosildorligining ortishi va hosil sifatining yaxshilanishi.* Boshqa sug'orish usullaridan farqli o'laroq, tomchilatib sug'orishda ekinning ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida o'simlik uchun optimal bo'lgan suv-fizik muhit yaratiladi.

Ekinga suv va oziq moddalar uning ehtiyojiga mos ravishda kichik miqdorlarda tez-tez byeriladi. O'simlik ildiz qatlamida optimal namlik yaratiladi. Bunda tuproqning haddan tashqari, suvgaga bo'kib ketishi yoki qurib ketishi kabi holatlar to'liq bartaraf qilinadi. O'simlik o'ziga zarur bo'lgan vaqtida suv va oziq moddalarni oladi. Turli stress holatlarga tushmagan o'simlik o'z enyergiyasini faqat rivojlanish va hosil toplashga sarflaydi. Natijada, optimal sug'orish va oziqlanish hisobiga bog' va tokzorlarda hosildorlik 40-60 % gacha ortsa, paxta va sabzavotlar kabi bir yillik ekinlarda 80 % gacha ortadi. Paxta hosilining pishib etilishi esa 10-15 kunga yerta va birvarakayiga bo'ladi.

Sabzavot dalalari tomchilatib sug'orilganda, hosilning suv ostida qolib nobud bo'lishi hodisasi butkul bartaraf qilinadi.



88-rasm. Tomchilatib sug'orish usulida parvarishlangan olma bog'larida etishtirilgan hosil namunalari

2-afzallik: *ekinni sug'orish uchun byerilayotgan suv resurslarining tejalishi.* Tomchilatib sug'orishda: sug'orish rejimi o'simlikning suvgaga bo'lgan talabiga

mosligi, suvning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘simlik ildiz qatlamiga byerilishi, tuproqdan bug‘lanadigan suvning kamligi, begona o‘tlar bo‘lmasligi bois, barcha suv faqat ekinga tegishli bo‘lishi, suvning dala bo‘ylab tarqalmasligi va tuproqqa singib ketmasligi, tashlamaga suv tashlanmasligi hisobiga suv tejalishiga yerishiladi.

Tomchilatib sug‘orish natijasida, boshqa sug‘orish usullariga nisbatan, 20 % dan 80 % gacha suv tejaladi.



89-rasm. Tomchilatib sug‘orishda dala emas, etishtirilayotgan ekin sug‘oriladi.

3-afzallik: *mehnat va moddiy resurslar sarfi kamayadi*. Tomchilatib sug‘orishda, suv o‘simlikka shlanglar vositasida etkazib byerganligi uchun, dalaning faqat ekinlar joylashgan qismigina namlanadi. Bunda dala tuprog‘i qotmaydi, natijada tuproqni yumshatish (kultivatsiya) va ariq olishga hojat qolmaydi. Tuprog‘i qotmagan maydon esa, mavsum oxirida oson haydaladi.

O‘g‘it suv bilan birga byerilganligi bois, o‘g‘itlash uchun texnika ishlatalishning zaruriyati yo‘qoladi. Natijada, mehnat va yonilg‘i moylash matyeriallari tejaladi.

Dalada suvchilarining ketmon ko‘tarib, ariq to‘g‘irlab yurishiga hojat qolmaydi, ya’ni sug‘orishdagi qo‘l mehnati keskin kamayadi.

Tomchilatib sug‘orishda, faqat o‘simlikning ildizi atrofi namlanganligi tufayli, sug‘orishning foydali ish koeffitsienti 90-95% ga teng bo‘ladi. Boshqa sug‘orish usullarida (shu jumladan, egatlab va yomg‘irlatib sug‘orish usullarida ham), bu ko‘rsatkich 70-75 % dan ortmaydi.

Qayd etilgan uchta asosiy afzallik (hosil miqdori va sifatining yaxshilanishi, suv tejalishi va resurslar sarfining kamayishi) dan tashqari, tomchilatib sug‘orish

usulining yana bir qancha ijobiy tomonlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tomchilatib sug‘orish ozuqani (o‘g‘itni) o‘simglik ehtiyojiga mos ravishda sug‘orish suvga qo‘shib berish imkoniyatini yaratadi. Bunda o‘g‘itlash uchun sarflanadigan texnika harajatlari, ishchi kuchi sarfi hamda byeriladigan o‘g‘itning 50 % gacha miqdori tejaladi;
- tomchilatib sug‘orish tizimida suv va ozuqa ekin maydoni bo‘yicha bir tekis taqsimlanadi. Natijada, daladagi ekinning barchasi bir xilda rivojlanadi va hosili ham bir vaqtda pishib etiladi. Bir tekis pishib etilgan hosilni yig‘ishtirib olish ham osonlashadi;
- ekin dalasining bir qismi namlanishi dalaga mexanizmlar kirishiga imkoniyat qoldiradi. Natijada, dala tuprog‘i qurishini kutmasdan, agrotexnik tadbirlarni sug‘orish bilan bir vaqtda olib borish mumkin, ya’ni mehnatni to‘g‘ri tashkil etishga imkoniyat yaratiladi;
- sug‘orish vaqtida daladan oqava chiqmaganligi bois, tuproq yeroziyasi to‘liq bartaraf etiladi. Ushbu jihatdan qaraganda, tomchilatib sug‘orishni katta nishabli va tekislanmagan maydonlarda qo‘llash, ayniqsa, katta samara byeradi;
- tomchilatib sug‘orilganda, suvning tuproqqa behuda shimalishi bartaraf qilinadi. Natijada, yer osti suvlarining sathi ko‘tarilmaydi va dalaning botqoqlanishi hamda sho‘rlanishining oldi olinadi;
- dala sektorlarga bo‘lib sug‘orilganligi uchun bir vaqtda sug‘orishga byeriladigan suvning sarfi katta bo‘lmaydi. Natijada, kam suv bilan katta maydonlar sug‘oriladi hamda debeti kam bo‘lgan suv manbalaridan (quduqlardan) foydalanishga imkoniyat yaratiladi;
- tomchilatib sug‘orilganda egatlar oralig‘idagi tuproq doimo quruq bo‘ladi. Natijada, begona o‘tlarni chopib yo‘qotish osonlashadi hamda ularga qarshi gyerbitsidlarni suv bilan birga berish ikoniyati ham yaratiladi;
- o‘simglik ildiz qatlami atrofi doimo nam bo‘lganligi bois, u yerda tuz yig‘ilmaydi;
- sabzavotlar va poliz ekinlar tomchilatib sug‘orilganda, ular hosilining suv

ichida qolib ketishi havfi yo‘qoladi, ya’ni hosil sifatining buzilishi yuz byermaydi;

- tomchilatib sug‘orishda, dalaning bo‘laklarga (sektorlarga) bo‘lib sug‘orilishi quvurlar diametrini va nasos bosimini kichikroq qilib belgilash imkoniyatini yaratadi. Natijada, kam quvvatli nasosni ishlatish harajatlari ham kamroq bo‘ladi.

Tomchilatib sug‘orishning afzalliklarini ISMITI instituti tomonidan, tomchilatib sug‘orishni qo‘llash samarasini o‘rganish bo‘yicha 2009-2011 yillarda olib borilgan tadqiqotlar doirasida olingan natijalar ham tasdiqlagan. Ushbu tadqiqotlar natijalaridan namunalar **27-jadvalda** keltirilgan.

### **27-jadval. Tomchilatib sug‘orishni qo‘llashning samarasi misollari**

*(ISMITI ning 2009-2011 yillardagi tadqiqotlari natijalari)*

Tadqiqot o‘tkazilgan joy	Ekin turi	Suv tejalishi, %	Resurs (yoqilg‘i, mehnat sarfining kamayishi, %)	Hosildorlik-ning oshishi, %
	bog‘	60	25	-
	paxta	65	60	90-156
Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani	bog‘ (shaftoli)	32	25	108
	uzumzor	30	30	25
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	paxta	35	50	59
	pomidor	54	60	65

**Tomchilatib sug‘orish** – maxsus filtrlar yordamida tozalangan suv tomchilatgichlar orqali tomchi shaklida tuproqqa byerilib, o‘simglikning ildiz tizimi joylashgan qatlamini o‘zini (lokal) namiqtiradi, shuning uchun sug‘orish suvi bosim ostida quvurlar orqali har bir o‘simglikka yoki o‘simgliklar qatoriga etkazilib, vegetatsiya davrida o‘simglikning suvga bo‘lgan talabini ta’minlab turadi. Bu usulda suv bilan birgalikda minyeral o‘g‘itlar yeritilgan holda tuproqqa berish mumkin.

Minyeral o‘g‘itlarni sug‘orish suvi bilan yerigan holda qo‘llash, azotli o‘g‘itlarni 44-57 foizga tejash imkoniyatini byerilishi aniqlangan.

Tomchi holatida o‘simglik ildiz qatlamiga byerilgan suv kapillyarlar bo‘yicha

tuproq qatlamiga singib boradi. Bunda gravitatsiya kuchining ta'siri juda kam bo'ladi. Namlanish ko'proq kapillyar kuchlar ta'sirida amalga oshadi.

Tomchilatib sug'orishdagi tarmoqlar *tomchilatish* (*sug'orish*) *quvurlari* va *lentalariga* bo'linadi. Quvurlar diametri 16 yoki 20 mm, qalinligi 0,6-2,0 mm bo'lgan yaxlit polietilen trubka (quvur) dan iborat bo'lib, ular tomchilatgichlar ichiga o'rnatilgan (*integrallashgan*) va o'rnatilmagan (*ko'r*) bo'lishlari mumkin. Tomchilatgichlar o'rnatilmagan – *ko'r* quvurlarga tashqarisidan maxsus tomchilatgichlar o'rnatiladi.


Integrallashgan quvurlarga ishlab chiqaruvchi tomonidan ma'lum masofalarda tomchilatgichlar o'rnatilgan bo'ladi. Odatda ular orasidagi masofa: 25, 30, 50 va 100 sm bo'ladi.




a

b

90-rasm. Integrallashgan (a) va ko'r (b) quvurlar





**91-rasm.** Integrallashgan tomchilatgichlarning ishlash sxemasi

**Tomchilatuvchi lentalar** polietilen plyonkalardan yasalgan quvurlar bo‘lib, kleylangan choklarini ichidagi mikrobo‘shliqlar o‘z navbatida tomchilatgichlarning komponentlari – filtrlovchi teshiklar, laminar oqimni turbulent oqimga aylantiruvchi labirintlar va suvni tomchi xolida tashqariga chiqaruvchi “emittyer” larni yaratadi. Bunday lentalarning devorlarini qalinligi 100 dan 300 mikrongacha bo‘ladi.

*Tomchilatuvchi lentalarning turlari:*

-*tirqishli* – butun uzunligi bo‘yicha labirint kanal o‘rnatilib, ularda har ma’lum masofalarda suv chiqishi uchun nozik, tirqish shaklidagi teshiklar qirqilgan bo‘ladi. Bularni mexanizatsiyalashgan xolda dalaga o‘rnatish mumkin bo‘lib, ularda suv tekis bir xil taqsimlanadi.

-*emittyerli* – tomchilatuvchi lenta ichiga ma’lum masofalarda (qadamlarda) yassi, qattiq labirintli tomchilatgichlar o‘rnatilgan bo‘ladi. Bunday lentalarda turbulent oqim yuzaga kelishi natijasida, sug‘orish vaqtida ular o‘z-o‘zlarini tozalaydilar.

O‘rnatilgan tomchilatgichlar *kompensatsiyalashgan* va *kompensatsiyalashmagan* bo‘ladi. Kompensatsiyalashganda sug‘oriladigan dalaning nishabligi, sug‘orish quvurining uzunligi va tizimdagi bosimdan qat’iy nazar tomchilatgichlarning barchasidan bir xil suv chiqadi.

Kompensatsiyalashmagan tomchilatgichlarning suv sarfi sug‘oriladigan dalaning nishabligi, sug‘orish quvurining uzunligi va tizimdagi bosimga bog‘liq bo‘ladi.

*Tomchilatuvchi lentalarning asosiy parametrlari:*

- diametri: keng tarqalgan standart diametr-16 mm., 20 va 22 mm li lentalar

kam ishlatiladi. Ular asosan katta xo‘jaliklarda, katta maydonlarni sug‘orishda ishlatiladi;

- devorlarining qalinligi: ular mil da o‘lchanadi ( $1\text{ mil} = 0,025\text{ mm}$ ) va lentalarning mexanik mustaxkamligini va qancha muddat ishlashini belgilaydi. Eng yupqalari 5-6 mil bo‘lib, bir sezon ishlatiladi. 7-8 mil liklarini qayta ishlatish mumkin. 10-15 mil lik lentalar qalin devorli bo‘lib, ko‘p yillar foydalanish mumkin;

- tomchilatgichlari (emittyerlari) tirkishli va integrallashgan xamda kompensatsiyalashgan va kompensatsiyalashmagan bo‘ladi;

*Tomchilatuvchi lentalarning asosiy parametrlari:*

-tomchilatgichlarning suv sarfi: kompensatsiyalashmaganlariniki odatda kam bo‘lib,  $1,0-1,6\text{ l/soat}$  ga teng (ko‘p o‘simliklar uchun optimal, lekin teshiklari kichikligi uchun suvning sifatiga bo‘lgan talabi yuqori), kompensatsiyalashganlariniki  $2,0-3,8\text{ l/soat}$  bo‘lib, ko‘pincha suv o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan engil tuproqlarda qo‘llaniladi;

-tomchilatgichlar (emittyerlar) orasidagi masofa sug‘oriladigan ekin turiga bog‘liq xolda 10 sm dan 40 sm gacha bo‘lishi mumkin. Bog‘ va uzumzorlarda ekish sxemasiga bog‘liq holda qabul qilinadi;

- ishchi bosim - devorlarini qalinligi va suv sarflari o‘rtacha bo‘lgan lentalarda  $0,2-0,3$  va  $0,8-1,1\text{ atm}$ , qalin va katta suv sarflilarda  $0,4-0,8\text{ atm}$ , maksimali esa,  $1,8-2,0\text{ atm}$  bo‘ladi;

-ultrabinafsha nurlar va kimyoviy birikmalarga chidamliligi. Agar fyertigatsiya – suv bilan o‘g‘itlar berish ko‘zda tutilsa, lentaning tuzlarga, makro- va mikroelementlarga chidamliligi yuqori bo‘lishi kerak.

*Tomchilatib sug‘orish usulining sug‘orish texnikasi elementlari.* Tomchilatib sug‘orish usulining sug‘orish texnikasi elementlari: bitta tomchilatgich namlantiradigan maydon,  $\text{m}^2$  va tomchilatib sug‘orish jadalligi,  $\text{l/soat}\cdot\text{m}^2$  dir.

## 28-jadval. Bitta tomchilatgich namlantiradigan maydon, m<sup>2</sup>

Tuproqning mexanik tarkibi	Tomchilatgichni suv sarfi, l/soat				
	2	4	6	8	10
Qumli	0,2	0,4	0,6	0,8	1,2
Qumloq	0,6	0,8	1,0	1,4	1,9
Engil changsimon o'rta qumoq	0,8	1,2	1,6	2,0	2,4
O'rta va og'ir qumoq	1,0	1,5	2,0	2,4	3,2
Gil	1,2	1,8	2,4	3,2	4,0

*Tomchilatib sug'orish jadalligi-* birlik maydonga vaqt birligida byeriladigan suv miqdori bo'lib, l/soat\*m<sup>2</sup> da o'lchanadi:

$$P_T = \frac{q_T}{B_T \cdot A_D}$$

bu yerda  $V_T$  –tomchilatgichlar orasidagi masofa, m;

$A_D$  –sug'oruvchi quvurlar orasidagi masofa, m;

$q_T$  – tomchilatgichning suv sarfi, l/soat.

## 29-jadval. V<sub>T</sub> va A<sub>D</sub> uchun tavsiyaviy qiymatlar

Tuproqning mexanik tarkibi	$A_D$ ning qiymati, m					Belgilanish
	0,5/1	1/2	2/4	4/6	6/8	
	0,5	1	1,25	1,25	1	$V_T$ , m
	2	4	4	4	4/8	$q_T$ , l/soat
	0,4	1	1	1	1	$V_T$ , m
	2	2	4	4	4/8	$q_T$ , l/soat
	0,3	0,6	0,8	1	1	$V_T$ , m
	2	2	2	4	4	$q_T$ , l/soat
Tavsiya qilingan ekinlar: g'o'za, bog', uzum.						

### **13.3. Tomchilatib sug‘orish tizimi va uning tarkibiy qismlari**

Tomchilatib sug‘orish tizimlari *suv saqlovchi*, *suv tozalovchi*, *suv etkazib byeruvchi*, *suv taqsimlovchi* va *sug‘oruvchi qismlardan* iboratdir.

Tizimning qismlari joylashgan o‘rni, ishlatajigan suvi sifatiga ko‘ra, tizim tarkibiga kiruvchi elementlar turi va soni har xil bo‘lishi mumkin.


Tizimning *suv saqlovchi qismi* – hovuz, tindirgich yoki sisternalardan, *suv tozalovchi qismi* – qumli, diskli yoki to‘qli filtrlardan, *suv etkazib byeruvchi qismi* – nasos qurilmalari, bosh va tarqatuvchi quvurlardan, *suv rostlovchi qismi* – turli zadvijkalar, ventillar va fittinglardan, *sug‘oruvchi qismi* – tomizgichli shlanglar yoki lentalardan iborat bo‘ladi.

Bundan tashqari, tomchilatib sug‘orish tizimlari tarkibiga *o‘g‘itlovchi moslamalar* hamda *avtomatik boshqaruv uskunalarini* ham kiritilishi mumkin.

*O‘g‘itlovchi moslamalar* – o‘g‘it yeritmalarini tayyorlash va suvga qo‘shish qurilmalaridan, *avtomatik boshqaruv uskunalarini* esa – boshqaruv kompyutyeri va turli datchiklardan iborat bo‘ladi.


Odatda, tomchilatib sug‘orish tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- suv manbai (tindirgich, hovuz);
- nasos qurilmasi;
- o‘g‘it yeritmalarini tayyorlash va suvga qo‘shish moslamasi;
- suvni filtrlash uskunasi;
- magistral quvur;
- tarqatuvchi quvurlar;
- tizim qismlarini o‘zaro ulovchi moslamalar;
- bosim rostlagichlar;
- tomizgichli shlanglar;
- nazorat-o‘lchash uskunalarini



**92-rasm.** Tomchilatib sug‘orish tizimi

Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlarida odatdagи an’anaviy elementlar bilan bir qatorda suv sarfini hisobga oluvchi suv o‘lchagichlar, tuproq namligini nazorat qiluvchi datchiklar va tizimni avtomatik ravishda boshqaruvchi kompyutyer vositalari ham ko‘zda tutiladi. (93-rasm):



**93-rasm.** Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimi sxemasi

1-nasos qurilmasi;

2-o‘g‘it yeritmasi tayyorlash va suvgaga qo‘shish moslamasi;

3-qumli filtr; 4-disk yoki to‘rli filtr;

5-magistral (bosh) quvur;

- 6-bosim ko‘rsatuvchisi (manometr);
- 7-suv sarfini ko‘rsatuvchisi (suv o‘lchagich-schyotchik);
- 8-teskari klapan; 9-tarqatuvchi quvur;
- 10-sug‘orish uchastkalari klapanlar;
- 11-tomchilatib sug‘orish uchastkalari;
- 12-tuproq namligi datchiklari;
- 13-boshqaruvchi kompyutyer;
- 14-pyersonal kompyutyer.

### **13.4. Nasos qurilmasi. Filtrlovchi stansiya (qurilma)**

Tomchilatib sug‘orish tizimi tarkibida, nasos qurilmasi tizimda kerakli bosimni hosil qilish va tizimning har bir nuqtasigacha zarur miqdordagi suvni etkazib berish uchun qo‘llaniladi.

Suv manbai ekin dalasidan ancha balandda joylashgan hollarda, nasos qurilmasi ishlatilmasligi ham mumkin. Bunda, nasos hosil qiladigan bosim o‘rniga, suv manbai va ekin dalasi yer belgilari o‘rtasidagi tabiiy farq hisobiga yuzaga keladigan tabiiy bosimdan foydalilanadi.

Tomchilatib sug‘orish tizimi qo‘llaniladigan ekin maydonining joylashishi, kattaligi va ekin turiga qarab, turli quvvatdagi nasos qurilmalari ishlatiladi.

Elektr tarmoqlaridan uzoqda joylashgan ekin dalalarida, benzin yoki dizel yonilg‘isida ishlovchi motopompalarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lsa, elektr tarmog‘i yaqin bo‘lgan ekin dalalarini tomchilatib sug‘orish uchun elektr nasoslar keng qo‘llaniladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimida qo‘llaniladigan nasosning turi nasosning quvvati (*suv sarfi*) ( $m^3/soat$ ), bosimi (*m yoki atm.*) va enyergiya sarfi (*yonilg‘i* ( $l/soat$ ) *yoki elektr sarfi* ( $kVt/soat$ )) kabi ko‘rsatkichlar asosida tanlanadi.

Tanlangan nasosning quvvati ( $m^3/soat$ ) sug‘oriladigan maydonning (odatda uning bo‘lagining) suvgaga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondira olishi va tomchilatib sug‘orish tizimining ishlashi uchun zarur bosimni (*m*) yaratib byera olishi lozim.

Sug‘oriladigan maydonning suvgaga bo‘lgan talabi etishtirilayotgan ekin turi, uni tashkil qiluvchi tuproqning tipi va joyning iqlim sharoitlari kabi ko‘rsatkichlar

asosida aniqlanadi.

Tomchilatib sug‘orish tizimida (nasos yoki nasossiz) hosil qilinadigan bosim tizimda qo‘llanilgan tomizgichning ishchi bosimi va tizim quvurlari hamda inshootlarida (filtr, zadvijkalar) yo‘qotiladigan bosim isroflarining yig‘indisiga teng qilib belgilanadi. Topilgan yig‘indi bosim nasos markasini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tanlangan nasos qurilmasi sug‘orish tizimining eng uzoqda joylashgan tomizgichida zarur bosimni hosil qila olishi lozim. Odatdagi

tomchilatib sug‘orish tizimlarida suv nasos qurilmasidan o‘tib, filtrga kiradigan nuqtada bosim 2-3 atmosfyera (20-30 m) oralig‘ida belgilanadi. Nasosning markasi mazkur bostimga 10 % li zahira qo‘shish bilan tanlanadi.

Tomchilatib sug‘orish tizimida eng kamida 2 nasos agregati (biri asosiy, ikkinchisi – zahira) ko‘zda tutilishi lozim.

Mazkur nasoslarning asosiysi sifatida elektr tokida ishlaydigan nasos, zahiradagi nasos uchun esa, suyuq yonilg‘ida ishlaydigan nasos (markasi) tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimida, odatda, “*konsol*” tipidagi elektr nasoslar ikki xil bo‘ladi: 1) K tipidagi nasoslarda nasos qurilmasi dvigatel bilan val yordamida biriktirilgan bo‘lsa; 2) KM tipidagi nasoslarda nasos qurilmasi dvigatel bilan bir blokda bo‘ladi.

K va KM tipidagi nasoslar harorati +85° S gacha bo‘lgan, agressivligi rN 6-9, tarkibidagi qattiq zarrachalar kattaligi 0,1-0,2 mm dan va miqdori 0,1-1% dan oshmagan suvlarni haydash uchun qo‘llaniladi.

### **30-jadval. “Konsol” tipidagi elektr nasoslarning markalanishi**

Nasos turi	Xaraktyeristikasi	Tashqi ko‘rinishi
	Markalanishi – K80-50-200-S-UXL4 K - “Konsol” tipidagi 80 – suv kiruvchi teshigi diametri, mm 50 – suv chiquvchi teshigi diametri, mm 200 – ishchi g‘ildiragi diametri, mm	

	S – nasos vali bir salnik bilan zichlangan		
	SD – nasos vali qo'sh salnik bilan zichlangan		
	UXL – iqlimga moslashtirilgan		
	4 – foydalanish vaqtida agregatni joylashtirish kategoriysi		
Markalanishi – KM80-50-200-S-UXL4			
K - "Konsol" tipidagi monoblokli			
80 – suv kiruvchi teshigi diametri, mm			
50 – suv chiquvchi teshigi diametri, mm			
200 – ishchi g'ildiragi diametri, mm			
S – nasos vali bir salnik bilan zichlangan			
SD – nasos vali qo'sh salnik bilan zichlangan			
UXL – iqlimga moslashtirilgan			
4 – foydalanish vaqtida agregatni joylashtirish kategoriysi			

**31- jadval. Tomchilatib sug'orish tizimi tarkibida qo'llanilishi mumkin bo'lган  
konsol tipidagi elektr nasoslar xaraktyeristikaları**

Nasos turi	Suv sarfi, m <sup>3</sup> /soat	Bosimi, m	Valning aylanishi soni (aylanish/min)	Ruhsat etilgan kavitsiya zahirasi, m	Dvigatel quvvati, kVt	Nasos og'irligi (massasi) kg	Agregat og'irligi (massasi) kg
K 50-32-125	12,5	20	48(2900)	3,5	2,2	32	85
K 65-50-125	25	20	48(2900)	3,8	3	37	100
K 65-50-160	25	32	48(2900)	3,8	5,5	46	110
K 80-65-160	50	32	48(2900)	4	7,5	50	154
K 80-50-200	50	50	48(2900)	3,5	15	56	235
K 100-80-160	100	32	48(2900)	4,5	15	78	265
K 100-65-200	100	50	48(2900)	4,5	30	78	340
K 100-65-250	100	80	48(2900)	4,5	45	95	460
KM 50-32-125	12,5	20	48(2900)	3,5	2,2	-	47
KM 65-50-125	25	20	48(2900)	3,8	4	-	59
KM 65-50-160	25	32	48(2900)	3,8	5,5	--	75


KM 80-65-160	50	32	48(2900)	4	7,5	-	93
KM 80-50-200	50	50	48(2900)	3,5	15	-	185
KM 100-80-160	100	32	48(2900)	4,5	15	-	185
KM 100-65-200	100	50	48(2900)	4,5	30	-	260

Tomchilatib sug‘orish tizimida elektr nasoslarni qo‘llash imkoniyati bo‘lmagan yoki ulardan foydalanish iqtisodiy jiqatdan samarasiz bo‘lgan hollarda, motopompalardan foydalaniladi.

Hozirgi kunda jahonda juda ko‘plab kompaniyalar tomonidan motopompalar ishlab chiqariladi va ularning aksariyati suyuq yonilg‘i (benzin yoki dizel) da ishlaydi.

Tomchilatib sug‘orish tizimlarida “Kema” (Xitoy), “Honda” (Yaponiya), “Sadko”, “Proton” (Rossiya) kabi firmalar motopompalarini qo‘llash mumkin.

### **32-jadval. Tomchilatib sug‘orish tizimlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan motopompalarning ayrim turlari**

Markasi	Tashqi ko‘rinishi	Ishlab chiqaruvchisi
“Kema” KM30S		“Kema” (Xitoy)
“Honda” WB30X		“Honda” (Yaponiya)
“Sadko” WP-100		“Sadko”

“Proton” BVN-40		“Proton” (Rossiya)
-----------------	---	--------------------

Tomchilatib sug‘orish tizimining zahira nasosi sifatida ham motopompalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

**33-jadval. Tomchilatib sug‘orish tizimi tarkibida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan “Kema” (Xitoy) firmasining motopompalari tavsiflari**

Ko‘rsatkichlar	Motopompa modeli			
	KM-GY20	KM20CX	KM30CX	KM40CX
Dvigatel turi	1-silindr, havosovutgichli dvigatel			
Ishchi sig‘imi	163 sm <sup>3</sup>	163 sm <sup>3</sup>	196 sm <sup>3</sup>	242 sm <sup>3</sup>
Eng yuqori ish quvvati	5,5 ot kuchi	5,5 ot kuchi	6,5 ot kuchi	8,0 ot kuchi
Ishga tushirish tizimi	Kontaktsiz tranzistor			
Enyergiya manbai	Suyuq yoqilg‘i/elektr enyergiya			
YOqilg‘i bakining sig‘imi	3,6	3,6	3,6	3,6
Ishlash vaqt davomiyligi	5 soat	5 soat	4 soat	5 soat
Dvigatel yoqilg‘i tizimining sig‘imi	0,6 l	0,6 l	0,6	1,1
Nasos				
CHiqish quvurining diametri	1,5 dyuym, 2 dyuymdan 2 ta	2 dyuym	3 dyuym	4 dyuym
Eng yuqori ko‘tarish baland-ligi (bosimi)	42 m	23 m	31 m	31 m
So‘rish chiqurligi	10 m	8 m	8 m	8 m
Eng baland suv sarfi	10 m <sup>3</sup> /soat	30 m <sup>3</sup> /soat	60 m <sup>3</sup> /soat	90 m <sup>3</sup> /soat
Gabarit o‘lchamlari (LxWxH)	420x335x335	475x380x420mm	510x400x450mm	635x455x545mm
Og‘irligi (umumiy)	18 kg	24 kg	26 kg	42 kg

*Filtrlovchi stansiya (qurilma).* Tomchilatib sug‘orish tizimida suvning sifati alohida ahamiyatga ega. Tizimga olinayotgan suvni turli iflosliklardan tozalab berish uchun filrlash qurilmasi qo‘llaniladi. Filrlash qurilmasi tomchilatib sug‘orish tizimining asosiy elementi sanaladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimlarda qo‘llaniladigan filtrning turi manbadagi suvning sifatiga bog‘liq bo‘lib, odatda filrlarning *qisman tozalovchi* va *to‘liq tozalovchi* turlari qo‘llaniladi.

*Qisman tozalovchi filrlar (qumli filtr gidrotsiklon)* asosan, qumli filrlar ko‘rinishida bo‘ladi. Bu filrlar suvdagi yirik zarrachalarni ushlab qolish uchun xizmat qiladi.




94-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimida ishlataladigan bir kamyerali qumli filtr



95-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimida ishlatiladigan ikki kamyerali qumli filtrning umumiyo ko‘rinishi

Sug‘orishga ishlatilayotgan suvda qum kelayotgan hollarda, qum ajratuvchi – *gidrotsiklonlardan* foydalaniladi. Bunda qum markazdan qochma kuchlar va o‘z og‘irligi ta’sirida, gidrotsiklonning ostiga cho‘kib, u yerda to‘planadi va kuniga kamida bir marta jo‘mrakni ochib chiqarib yuboriladi.



96-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimida qo‘llaniladigan gidrotsiklonning umumiyo ko‘rinishi

*To‘liq tozalovchi filtrlar* to‘rli yoki diskli filtrlar ko‘rinishida bo‘ladi. Bu filtrlar suvdagi mayda zarrachalarni ushlab qolish uchun xizmat qiladi. Filtrlovchi

matyerial sifatida metall yoki plastik matyerialdan tayyorlangan disk yoki to‘rlar ishlatiladi.



97-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimida qo‘llaniladigan to‘rli yoki diskli filtrlarning tashqi ko‘rinishi

Tomchilatib sug‘orish tizimlarida u yoki bu filtr turini qo‘llash manbadagi suvning sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Sug‘orish uchun yer osti suvlari ishlatilganda, tomchilatib sug‘orish tizimlarida to‘rli yoki diskli filtrlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

To‘rli yoki diskli filtrlarni o‘rnatish vaqtida, ularning korpusidagi strelkaga e’tibor qaratish lozim. Filtrlarda suv kiruvchi va chiquvchi teshiklar turli tomonlarda joylashgan bo‘ladi. SHuning uchun, ulardan birinchi kartrijini, ikkinchisida ishlatib bo‘lmaydi.

Sug‘orish uchun ochiq suv manbalari suvi ishlatiladigan hollarda, faqat to‘rli yoki diskli filtrlarning o‘zini ishlatib bo‘lmaydi, ularni qum-shag‘alli filtrlardan keyin, nazorat filtri sifatida ishlatsa bo‘ladi.

Sug‘orish uchun yer yuzasidagi ochiq suv manbalari (daryo, soy, kanal, suv ombori, ko‘l) suvlari ishlatilganda, aksariyat tomchilatib sug‘orish tizimlarida qumli filtrlar qo‘llaniladi. Mazkur filtrlar, suvdagi organik va anorganik birikmalarini ushlab qolish uchun xizmat qiladi.

Qum-shag‘alli filtrlar yopiq idish ko‘rinishida tayyorlanadi. Ularda filtrlovchi element sifatida esa, 1,2-2,4 mm kattalikdagi qum ishlatiladi.

### 34-jadval. Filtr turini suv manbaiga bog‘liq ravishda tanlash

Suv manbai	Ifloslantiruvchi moddalar	Filtr turi
Ochiq suv manbalari		
daryo, soy, kanal	organik moddalar, suv o‘tlari	qumli va to‘rli filtrlar
suv ombori, ko‘l, hovuz	organik moddalar, suv o‘tlari	qumli va to‘rli filtrlar
Yer osti suv manbalari		
quduq	qum, kalsiy karbonati	to‘rli yoki diskli filtrlar
chuqur quduq	qum, kalsiy karbonati, temir	to‘rli filtr yoki qum separatori

Filtrlarni ishlatish va yuvish jarayonlarining boshqarilishiga qarab, ular qo‘lda boshqariluvchi yoki avtomatik tarzda yuviladigan bo‘lishi mumkin.

Qo‘lda boshqariladigan filtrlarni filtrlash, rejimidan yuvish rejimiga o‘tkazish, undan so‘ng yana ortga qaytarish, filtrga keladigan suv ventilini qo‘lda ochib yopish orqali bajariladi. Avtomatik tarzda yoki yarim avtomatik tarzda ishlaydigan filtrlarda, ish rejimini biridan boshqasiga o‘tkazish, avtomatik qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.


Qumli filtrlar, odatda ikki xil: bir kamyerali va ikki kamyerali (D/C tipidagi) ko‘rinishda bo‘ladi.

Ikki kamyerali (D/C tipidagi) filtr stansiyasi sug‘orishni to‘htatmagan holda, filtrni yuvish imkonini byeradi. SHuning uchun, ikki kamyerali filtrlar bir kamyerali filtdan afzal sanaladi.

*Qumli filtrlarni yuvish.* Filtrning qum qatlami suvni teskari oqizish yo‘li bilan yuvib turiladi. Filtrni yuvish muddatlari oralig‘i suvning tozaligi va suvning qancha ko‘p oqib o‘tayotganligiga bog‘liq ravishda belgilanadi. Suv iflos bo‘lsa, filtrni tez-tez (sutkasiga bir necha bor) yuvish talab etiladi. Odatda, filtrlarni sutkasiga kamida ikki marotaba yuvish tavsiya qilinadi.

Qumli filtrlarni yuvish uning turiga qarab, ikki ko‘rinishda amalga oshiriladi.


Bir kamyerali filtrlarni yuvish uchun, ular ishdan to‘htatiladi va keyin yuviladi. Bunda, filtrga kelayotgan suv jo‘mragi yopiladi va yuvish quvurining jo‘mragi ochiladi. Suv filtrning ichida teskari oqimda harakatlanadi. Filtrlovchi matyerial ustiga yig‘ilgan iflosliklar teskari oqayotgan suv bilan tashlamaga chiqarib tashlanadi. Filtrni yuvish bir sutkada kamida bir marta amalga oshiriladi.



**98-rasm.** Bir kamyerali qumli filtrning filtrlash va yuvish rejimlarini ko‘rinishi

Tomchilatib sug‘orish tizimida bir kamyerali filtr ishlatilganda, uning soni kamida ikkita bo‘lishi lozim.

Ikki kamyerali (D/C tipidagi) filtrlarni yuvish filtrni ishdan to‘htamagan tarzda amalga oshiriladi. Bunda filtrning bir kamyerasiga kelayotgan suv jo‘mragi yopiladi va yuvish quvurining jo‘mragi ochiladi. Suv filtrning ichida teskari oqimda harakatlanadi. Filtrlovchi matyerial ustiga yig‘ilgan iflosliklar teskari oqayotgan suv bilan tashlamaga chiqarib tashlanadi. Filtrlash uskunasining ikkinchi kamyerasi ishdan to‘htamagan holda, faoliyatini davom ettiradi. Keyinchalik, ikkinchi kamyera yuvilayotgan vaqtda, birinchi kamyera filtrlash faoliyatini davom ettiradi. Filtrni yuvish kamida bir sutkada bir marta amalga oshiriladi.



99-rasm. Ikki kamyerali qumli filtrning filtrlash va yuvish rejimlarida ishlatalishi

Tomchilatib sug‘orish tizimida ikki kamyerali (D/C tipidagi) filtr ishlatalgagnda esa, bitta filtr bilan kifoyalananish mumkin.

Filtrni yuvish muddatlari oralig‘i suvning tozaligi va suvning qancha ko‘p oqib o‘tayotganligiga bog‘liq. Suv iflos bulsa, filtrni tez-tez (sutkasiga bir necha bor) yuvib turish talab etiladi. Odatda, filtrlar sutkasiga kamida ikki marotaba yuviladi.

Filtrlashga yuborilayotgan suvning miqdori filtrning quvvatidan oshib ketmasligi lozim. Filtrning suv tozalash qobiliyati doimo nasosning suv sarfidan yuqori qilib belgilanadi. Aks holda, suv yaxshi tozalanmaydi va tizim tomizgichlarining tiqilib qolishi havfi ortadi.

Filtrlash stansiyasi doimo bir kishi tomonidan ishlatalishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **13.5. Tomchilatib sug‘orish tizimining quvurlari**

Tomchilatib sug‘orish tizimining quvurlari *bosh (magistral)* va *tarqatuvchi quvurlarga* bo‘linadi.

*Magistral quvur* suvni tarqatuvchi quvurlarga etkazib byersa, tarqatuvchi quvurlar suvni tomizgichli shlanglarga taqsimlab byeradi.

*Magistral quvur*. Magistral (bosh) quvur sug‘orishga byeriladigan suvni nasos stansiyasidan tarqatuvchi quvurgacha etkazib berish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlarida magistral quvur sifatida, asosan,

diametri 110 va 75 mm bo‘lgan quvurlardan foydalilanadi.



100-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining magistral quvuri polietilendan tayyorlanadi va yer ostiga yotqiziladi

Magistral quvur zanglamaydigan va yuqori bosimda ishlashga chidamli matyerialdan tayyorlanadi.

Magistral quvurning diametri zarur miqdordagi suvni minimal bosim isrofi bilan o‘tkaza oladigan qilib tanlanadi.

Magistral quvur, asosan, yer ostiga (0,5 m gacha chuqurlikka) yotqiziladi va tuproq bilan ko‘miladi.

*Tarqatuvchi quvurlar.* Tarqatuvchi quvurlar suvni magistral quvurdan tomizgichli shlanglarga etkazib berish uchun xizmat qiladi va odatda, polietilendan tayyorlanadi va ichki diametri kerakli miqdordagi suvni o‘tkaza oladigan kattalikda bo‘lishi lozim.

Tarqatuvchi quvurlarning diametri o‘tkaziladigan suvning sarfi va quvurdagi bosim isrofi asosida aniqlanadi. Tarqatuvchi quvurlarning diametri, odatda, 32 mm dan 75 mm gacha oraliqda tanlanadi.



101-rasm. Tarqatuvchi quvurlar bosh quvurga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki suvni boshqaruvchi gidrantlar yordamida ulanadi.

Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlarida tarqatuvchi tarqatuvchi quvur uchun “Layflat” (Leyflet) tipidagi egiluvchan quvurlardan foydalanish keng tarqalmoqda.

“Layflat” tipidagi quvurlar issiq va sovuqqa chidamli, 5 yildan ortiq xizmat qiladi va 4 atm. bosimga chidaydi.

“Layflat” tipidagi quvurlar mavsum boshida kerakli ekin dalasiga yer ustiga yotqiziladi va mavsum oxirida yig‘ib olinadi.

A) “*Layflat*” tipidagi egiluvchan quvurlarni yoyish



*B) Quvurlarning dalada yoyilishi*




*V) Quvurlarni mavsum oxirida yig‘ish*

102-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimida “Layflat” tipidagi egiluvchan quvurlardan foydalanish namunalari

### **13.6. O‘g‘it yeritmasini tayyorlash va suvga qo‘sish moslamasi**

O‘g‘itlarni tayyorlash va suvga qo‘sish moslamasi tomchilatib sug‘orish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda amaliyotda quyidagi moslamalar keng qo‘llaniladi: "Venturi" tipidagi injektor, o‘g‘itlovchi idish va Dozatron (miksrayt, agrorayt va boshqalar).

"Venturi" tipidagi injektor har ikki tomonidan konus ko‘rinishida toraytirilgan quvurchadan iborat. "Venturi" injektori bosim o‘zgarishi hisobiga ishlaydi va odatda, polimyer matyerialdan tayyorланади. Injektor tizimning o‘g‘it byeruvchi moslamasiga o‘rnataladi.



103-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimi tarkibidagi o‘git etkazib byeruvchi “Venturi” injektori

Bunda quvurdan o‘tayotgan suvning harakati tufayli quvurchada bo‘shliq yuzaga keladi. Bo‘shliq o‘ziga o‘g‘it yeritmasini tortib olib, o‘g‘it byeruvchi moslama orqali tizim quvuriga yuboradi. U yerda o‘g‘it yeritmasi suv bilan aralashib dalaga borib tushadi. Injektor o‘g‘it yeritmasini suvgaga bir tekisda qo‘shilishini ta’minlaydi.

*O‘g‘itlovchi idish* - yopiq tipdagisi idish bo‘lib, uning kiruvchi va chiquvchi jo‘mraklari idishga suv kirishi va undan o‘g‘it aralashmasining chiqarilishi uchun xizmat qiladi.

O‘g‘itlovchi idish, o‘g‘it va boshqa ximikatlarni sodda tarzda tomchilatib sug‘orish tizimi orqali etkazib berish qobiliyatiga ega. Uning chiquvchi jo‘mragida yuzaga kelayotgan bosim farqi, o‘g‘it yeritmasini tortib olib suvgaga qo‘sadi va sug‘orish tizimiga yuboradi.



104-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimi tarkibidagi o‘g‘it tayyorlovchi va

## etkazib byeruvchi idish

O‘g‘itlovchi idish - foydalanish eng oson bo‘lgan ishonchli qurilma sanaladi. Uning birgina kamchiligi bo‘lib, undan foydalanilganda, o‘g‘it yeritmasini etkazib berishida notejislikka yo‘l qo‘yiladi.

*Dozatron-* gidravlik dozator ko‘rinishida bo‘lib, u o‘g‘it va boshqa kimyoviy yeritmalarni aniq bir xil miqdorda uzatish uchun mo‘ljallangan. Qurilma tizimning o‘g‘it byeruvchi moslamasiga o‘rnataladi. Uning ishchi turbinasi tizim quvuridagi suvning bosimi yordamida harakatga keladi. Natijada, dozatron yeritmaning aniq miqdorini so‘rib olib suv bilan aralashtiradi va sug‘orish tizimi quvuriga uzatadi.



105-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimi tarkibidagi o‘g‘it etkazib byeruvchi dozatron-o‘g‘itlash moslamasi

Dozatron bir marta rostlab olinsa, keyin u doimo shunday holatda ishlayvyeradi.

*Tomchilatib sug‘orish tizimining yordamchi va to‘ldiruvchi elementlari.*

Tomchilatib sug‘orish tizimi, asosiy elementlarini bir-biri bildan birlashtirish uchun turli fittinglar va tizimdagи bosimni boshqarish uchun turli bosim rostlagichlar ishlatiladi.

*Birlashtiruvchi va yopuvchi qismlar.* Tomchilatib sug‘orish tizimining elementlarini bir-biri bilan birlashtirish (ulash) uchun turli ko‘rinishdagi birlashtiruvchi qismlar (burchak, uchlik, birlashtirgich, jo‘mrak, tiqin, qopqoq va boshqalar) ishlatiladi.

Birlashtiruvchi qism sifatida zanglamaydigan polimyer matyerialdan

tayyorlangan elementlardan foydalanish, maqsadga muvofiq sanaladi.

Birlashtiruvchi qismlarni tanlash paytida, ularning texnik tavsifnomalariga (qanday bosimga chidashi, sifati, ulashning osonligi) alohida e'tibor qaratiladi. Odatda, ularning 6-10 atm.bosimiga chidaydigan va rezbalari konus tipida bo'lgan turlarini ishlatish tavsiya qilinadi.



106-rasm. Tomchilatib sug'orish tizimida ishlatiladigan turli ko'rinishdagi birlashtiruvchi va rostlovchi qismlar

Tomchilatib sug'orish tizimida suv bosimining ortib ketishi, tizimda gidravlik zarbani yuzaga keltirishi mumkin. Buning oldini olish uchun, tizimdagi suv bosimini rostlash va uni bir xilda ushlab turish kerak bo'ladi.

Buning uchun turli ko'rinishdagi *bosim o'lchagich* va *rostlagichlardan* foydalilanadi.

*Bosim rostlagichlar* gidravlik ko'rinishda yoki prujina tipida bo'lishi mumkin. Bosim rostlagichlar, odatda, avtomatik tarzda ishlashadi. Ularni tarqatuvchi quvurdan oldingi nuqtaga o'rnatiladi. Bosim rostlagich o'rnatilgandan keyin, uning vinti sekinsta buralib, ma'lum bosimga moslashtiriladi. Bunda kerakli bosim manometr yordamida nazorat qilinadi.

*Manometrlar* nasos qurilmasidan va filtrdan keyin, magistral quvurga ham o'rnatiladi va ular tizimga byerilayotgan bosimni nazorat qilish uchun xizmat qiladi.



107-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining bosimni nazorat qiluvchi manometrlari

Bosim rostlagichning soddalashtirilgan ko‘rinishi sifatida, qo‘lda rostlanadigan jo‘mrakli va manometrli moslamadan foydalansa ham bo‘ladi. U tarqatuvchi quvurga o‘rnatalidi va jo‘mrak yordamida manometr ko‘rsatkichi asosida rostlab turiladi.



108-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimida ishlataladigan suv oqimini rostlovchi gidrantlar

Qo‘lda boshqariladigan bosim rostlagich doimiy kuzatuvni talab qiladi. Tizimdagi bosim o‘zgarishiga tez ta’sir ko‘rsata olmasligi, uning asosiy kamchiligi sanaladi. Natijada esa, uning tizim shlanglarini yorilib ketishidan himoyalash qobiliyati ham uncha yuqori emas.

*Havo chiqaruvchi klapan* tomchilatib sug‘orish tizimidagi havoni chiqarib yuborish va unga havo kiritish uchun xizmat qiladi. Tizim ishlamay turganda, uning barcha quvur va shlanglari havo bilan to‘lgan bo‘ladi. Tizim ishga tushirilganda,

tizim suvgaga to‘la boshlashi bilan bosim ortib ketadi va natijada, tizimda gidravlik zarba yuzaga kelishi mumkin. Tizim ishslashdan to‘xtagan paytda esa tizimda bo‘shliq paydo bo‘lib, tomizgichlar orqali tizimga havo kira boshlaydi. Bunda havo bilan birga tuproq va boshqa moddalar ham tizimga intiladi. Natijada, iflosliklar bilan tiqilib qolishi, shlanglar buralib yorilishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun tizimga havo chiqaruvchi yoki kirituvchi klapan o‘rnataladi. U, odatda, tizimning eng baland nuqtasiga yoki magistral va tarqatuvchi quvurlarning oxiriga o‘rnataladi.

### **13.7. Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlanglari va tomizgichlari**

*Tomizgichli shlang* suvni tarqatish quvuridan ekin ildizigacha (o‘simlik ehtiyojiga mos ravishda) etkazib berish uchun xizmat qiladi. Tomizgichli shlanglar, odatda, polietilen matyerialdan tayyorlanadi. SHlanglarning diametri suv sarfiga qarab tanlanadi. Amaliyotda diametri  $\varnothing 20$  mm,  $\varnothing 16$  mm va  $\varnothing 12$  mm va bo‘lgan shlanglar va tomizgichli lentalar keng keng qo‘llaniladi.

Tomizgichli shlang sug‘oriladigan ekinning turiga qarab tanlanadi. Tomizgichli shlanglarni to‘g‘ri tanlash sug‘orish samaradorligini ta’minlashning asosi hisoblanadi.



109-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlanglari

Hozirgi kunda amaliyotda tomizgichli shlanglarning:

- *sug‘orish shlangining tashqarisidan yoki uni qirqib o‘rnataladigan tomizgichli;*
- *sug‘orish shlangining ichiga o‘rnataladigan tomizgichli;*
- *tomizgichlar lentalar* kabi turlari keng qo‘llaniladi.

*Tomchilatib sug‘orish tizimining tomizgichlari.* Tomchilatib sug‘orish

tizimining tomizgichlari tizim quvurlaridagi suv bosimni pasaytirib, suvni shlangdan tomchi ko‘rinishida chiqarish uchun xizmat qiladi.

Tomizgichlar tomchilatib sug‘orish tizimining asosiy elementi hisoblanadi va sug‘oriladigan ekinding turiga qarab tanlanadi.


Hozirgi zamon tomchilatib sug‘orish tizimlarida tomizgichlarning shlangni teshib o‘rnatiladigan, shlangni qirqib o‘rnatiladigan, shlangni ichiga o‘rnatiladigan tomizgichlar, shlangni devori bo‘ylab ichiga yopishtirilgan plastinka ko‘rinishidagi turlari qo‘llaniladi.

*SHlangni teshib ustidan o‘rnatiladigan va shlangni qirqib o‘rnatiladigan tomizgichlar.* SHlangni teshib, ustidan yoki uni qirqib o‘rnatiladigan tomizgichlarning ishlash prinsipiga qariyb bir xil bo‘lib, ular asosan, ko‘p yillik daraxtlarni (bog‘lar va uzumzorlarni) sug‘orish uchun ishlatiladi.

Bu tomizgichlar, odatda, 1,5-2,0 kg/sm<sup>2</sup> bosim ostida ishlaydi va soatiga 2,0 litrdan 24 litrgacha suv berish imkoniyatiga ega. Tomizgichlarni sug‘oriladigan dalaga yaqin sharoitda sug‘orish shlangiga o‘rnatish mumkin. Bunday tomizgichlar shlangga daraxtlar orasidagi masofaga mos ravishdagi oraliq bilan o‘rnatiladi.



110-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlangini teshib o‘rnatiladigan tomizgichlari



111-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlangini qirqib o‘rnatiladigan tomizgichlari


Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlangini tashqarisidan teshib yoki

uni qirqib o‘rnatiladigan tomizgichilarining o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:


- tomizgichlar orasidagi oraliq 1 m dan kam bo‘lsa, tizimining narxi juda qimmat bo‘lib ketadi;
- bunday tomizgichli shlanglarni dalaga yoyish qiyin;
- tomizgichning konstruksiyasi uni tuproq ostidan ishlatishga imkon byermaydi;
- ishchi bosimi juda yuqori, ya’ni 1-2 atm. oralig‘ida;
- narxi boshqa turdagи tomizgichlarga nisbatan qimmatroq.

Bunday tomizgichlar bir yillik ekinlarni sug‘orishda ishlatish uchun tavsiya qilinmaydi.

*SHlangning ichiga o‘rnatiladigan tomizgichlar.* SHlangning ichiga o‘rnatiladigan tomizgichlar ham ko‘p yillik daraxtlarni, ham bir yillik ekinlarni sug‘orish uchun ishlatiladi. Bu tomizgichlar, odatda, zavodning o‘zida shlangning ichiga o‘rnatiladi va shlang bilan yaxlit holda ishlab chiqariladi. Bunda tomizgichlar orasidagi masofa, odatda, 20-50 sm, ba’zida 1 m gacha qilib tayyorlanadi.



112-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlangining ichiga o‘rnatiladigan tomizgichlari



113-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining sug‘orish shlangining ichiga

o‘rnatiladigan tomizgichining shlang ichida joylashishi

Tomchilatib sug‘orish tizimi sug‘orish shlangining ichiga o‘rnatiladigan tomizgichlarining o‘ziga hos jihatlari quyidagilardan iborat:

- tomizgichlar orasidagi eng kichik oraliq 50 sm ni tashkil qiladi;
- tomizgichlar faqat zavod sharoitida shlangning ichiga o‘rnatiladi, shuning uchun ko‘p yillik ekinlarni sug‘orishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi;
- eng past ishchi bosimi 0,8 dan 1 atm. gacha bo‘lgan oraliqda;
- tomizgichlarning suv sarfi bo‘yicha turlari 2-3 xildan ortmaydi;
- tomizgichning konstruksiyasi uni tuproq ostidan ishlatishga imkon byermaydi;
- devorining minimal qalinligi 150 mikron bo‘ladi.

*Tomizgichli lentalar.* Ma’lumki, odatdagi, tomchilatib sug‘orish tizimlari suvni ekinga bir tekisda etkazib berishi uchun tizimda katta bosim (2-3 atm) hosil qilishni talab qiladi. Bu xususiyat tomchilatib sug‘orish tizimlarining narxi qimmat bo‘lishiga olib keladi. Kapital harajatlarining yuqoriligi esa tomchilatib sug‘orish sug‘orish tizimlari keng joriy qilinishiga to‘sinqinlik qiladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimlarining ana shu kamchiligini bartaraf qilish maqsadida, tizimdagi bosimni kamaytirish yo‘lida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, hozirgi kunda past bosimda ishlaydigan tomizgichli lentalar yaratildi.

Hozirgi kunda jahonda tomizgichli lentalarning “*kvin gil*” (0,6-0,7 atm), “*gidrolayt*” (0,5 atm.), “*akvagol*” (0,1 atm.) kabi turlari keng qo‘llanilmoqda.


Tomizgichli lentaning o‘ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- tomizgichlar orasidagi masofa 10 sm dan 50 sm gacha oraliqda bo‘ladi;
- tomizgichlar tizimdagi bosim, atigi, 0,3 atm. bo‘lgandayoq, normal ishlay boshlaydi;
- tomizgichning tirqishli ko‘rinishda bo‘lganligi, uni tuproq ostidan ishlatishga ham imkon byeradi.


Bunday tomizgichlar tiqilib qolmasligi uchun, filtrdan so‘ng, tomizgichli lentaning bosh qismiga to‘r-payypoq (ayollar sintetik paypog‘i) kiydirib qo‘yishning o‘zi etarli bo‘ladi.



a) tomizgichli lentaning zavoddan chiqariladigan ko‘rinishi



b) tomizgichli lenta va uning tirqishlari ko‘rinishi



v) tomizgichli lentada suvning harakatlanishi

114-rasm. Tomizgichli lenta va unda suvning harakatlanishi

Tomizgichli lentalarning yaratilishi tomchilatib sug‘orishni bir yillik ekinlarda qo‘llash imkoniyatlarining yanada oshishiga olib keldi va ular hozirda, sabzavotlar, kartoshka va paxta kabi bir yillik ekinlarni sug‘orishda ham keng qo‘llanilmoqda.

### 13.8. Tomchilatib sug‘orish tizimini loyihalash

Tomchilatib sug‘orish tizimini qurish uchun avvalo uning loyihasini tuzib

chiqish talab qilinadi.

Loyihalash tizimning elementlarini to‘g‘ri tanlash va uning samarali ishlashi uchun zamin yaratadi. Bunda eng avval, tizimdagi tomizgich turini to‘g‘ri tanlash lozim.

*Tomizgich turini tanlash.* Tomchilatib sug‘orish tizimining tomizgich turi, odatda, sug‘oriladigan maydon tuprog‘ining suvni shimish qobiliyati va ekinning suvga bo‘lgan talabi asosida tanlanab olinadi.

Vegetatsiya mavsumining ma’lum davrida ekinning suvga bo‘lgan talabi:

$$SI = NZ + B_t + YO_t + F$$

tenglik asosida aniqlanadi.

bu yerda:

*NZ – hisob davri boshida tuproqdagagi nam zahirasi, mm;*

*B<sub>t</sub> – tomchilatib sug‘orishda suvning bug‘lanishi miqdori, mm;*

*YO<sub>t</sub> – tomchilatib sug‘orish maydonida yog‘in miqdori, mm;*

*F – ekin ildiz qismidan filtratsiyaga yo‘qotilgan suv (tomchilatib sug‘orishda F=0), mm.*

Suv iste’moli miqdori ma’lum vaqt oralig‘i uchun hisoblanadi. Odatda bu hisob oyning har o‘n kunligi uchun bajariladi. Hisoblar tuproqdagagi namlikning boshlang‘ich miqdorini aniqlashdan boshlanadi. Hisob davri boshida tuproqdagagi nam zahirasi tuproqning suv fizik xossalari ma’lumotlari asosida har bir hudud tuprog‘i uchun alohida aniqlanadi.

Qurg‘oqchil mintaqqa sharoitida bug‘lanish va transpiratsiyaga sarflanadigan suvlar miqdorini ularning sutkalik o‘rtacha haroratga bog‘liqligidan kelib chiqib aniqlash maqsadga muvofiq sanaladi.

$$B_m = K_t \cdot \sum t_i$$

bu yerda:  $K_t$  – ma’lum vaqt oralig‘ida namlikning sarflanishi (biofizik koeffitsient), har 1° S da m<sup>3</sup>/ga;

$T_i$  – huddi shu davrda o‘rtacha sutkalik haroratlarning yig‘indisi, °S.

**35-jadval. Uzumzor va bog‘larning suv iste’molini hisoblash uchun biofizik koeffitsientlar ( $K_t$ , har  $1^o S$  da  $m^3/ga$ )**

Ekin turi	Iyun			Iyul			Avgust			Sentabr		
	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
uzumzor	-	2,43	2,44	2,34	2,3	2,2	2,16	2,11	2,09	2,02	1,82	1,59
bog‘	1,57	1,82	1,88	1,91	1,92	1,93	1,95	1,96	1,81	1,76	1,1	1,05

O‘rtacha sutkalik haroratning yig‘indisini topish uchun eng yaqin masofada joylashgan meteorologik stansiyaning (25 km dan uzoq bo‘lmagan) ko‘p yillik ma’lumotlaridan foydalilanadi.

Bug‘lanish va transpiratsiyaga sarflangan suvlarning o‘rnini to‘ldirish uchun sug‘orish me’yorlari va sug‘orish olib borishning aniq muddatlari belgilanadi.

Yillik (vegetatsiya) sug‘orish me’yori dekadalar bo‘yicha suv iste’moli miqdorlarining yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

Ekinning sug‘orish me’yori (SM) quyidagi tenglik asosida aniqlanadi:

$$SM = 100 \cdot \gamma \cdot S \cdot h \cdot (H_{90} - H_{70}), \text{m}^3/\text{ga}$$

bu yerda:

h - namlanish chuqurligi (ildiz qatlami) (m);

$\gamma$  – tuproqning hajmiy og‘irligi ( $t/m^3$ );

S- dalaning namlanadigan qismi (ulushi);

$$S = \frac{n \cdot \omega}{a \cdot b}$$

n- bir daraxt yonidagi tomizgichlar soni, dona;

$\omega$ - bir tomizgich bilan namlanadigan maydon,  $m^2$ ;

a-ekin (daraxt) tuplari orasidagi masofa, m;

b-ekin (daraxt) qatorlari orasidagi masofa, m.

### 36-jadval. Bir tomizgich bilan namlanadigan maydonni aniqlash jadvali

Tuproq turi (mexanik tarkibi bo'yicha)	SHifri (turi)	Tomizgich suv sarfi, l/soat				
		2	4	6	8	10
qum	1	0,2	0,4	0,6	0,8	1,2
qumoq	2	0,60	0,8	1,0	1,4	1,9
soz tuproq (o'rtacha og'irlikdagi)	3	0,8	1,2	1,6	2,0	2,4
soz tuproq (og'ir)	4	1,0	1,5	2,0	2,4	3,2
loysimon tuproq	5	1,2	1,8	2,4	3,2	4,0

$N_{90}$  – tuproqning sug'orishdan keyingi hajmiy namligi (*dala chegaralangan namlik sig'imining 90 % iga teng deb olinadi*);

$N_{70}$  – tuproqning sug'orishdan oldingi hajmiy namligi (*dala chegaralangan namlik sig'imining 65-70 % iga teng deb olinadi*).

*Misol:*  $\gamma=1,37 \text{ t/m}^3$ ;  $h=1,0 \text{ m}$ ;  $N_{90}=19,26 \%$ ;  $N_{70}=14,98 \%$  ko'rsatkichlar asosida, (har bir daraxt yoniga 4 l/s tomizgich qo'yilgan 2X4 sxemadagi) 1 ga bog'ni bir marta sug'orish uchun:

$$SM = 100 \cdot 1,37 \cdot 0,15 \cdot 1,0 \cdot (19,6 - 14,98) = 88 \text{ m}^3$$

miqdorida suv etkazib berish lozim bo'ladi.

Sug'orishlar soni va ular orasidagi muddatlar muayyan ekinning suvga bo'lgan talabini hisoblash asosida aniqlanadi.

*Tomchilatib sug'orish tizimini to'g'ri loyihalash* uchun: quyidagi ma'lumotlar aniq bo'lishi lozim:

- uchastka xaritasi (o'lchamlari; suv manbaining joylashgan o'rni; ekin qatorlari va egatlarning yo'nalishi);
- suv manbai turi (ochiq havza, burg'u qudug'i, magistral quvur);
- tuproq xaraktyeristikasi (tuproq turi va kimyoviy tahlili).
- etishtiriladigan ekin turi bo'yicha ma'lumot yig'iladi.

Tomchilatib sug'orish tizimini loyihalashda quyidagi amallar ketma-ket bajariladi:

- uchastka xaritasiga tomchilatib sug‘orish tizimining sxemasi chizib chiqiladi. Tomchilatib sug‘orish tizimining suv berish inshootlari (hovuz, nasos, filtr, o‘g‘it yeritmasi tayyorlash) uchastkaning eng baland nuqtasida yoki uchastkaning o‘rtasida joylashtiriladi. Magistral quvurlar uzunligi eng kam bo‘ladigan tomchilatib sug‘orish tizimi sxemasi tanlab olinadi;

- tomchilatib sug‘orish tizimini qurish harajatlarini kamaytirish maqsadida, sektorlarga bo‘lib chiqiladi. Sektoring maydoni qancha kichik bo‘lsa, sug‘orishga sarflanadigan enyergiya sarfi ham shuncha kichik bo‘ladi;


- sug‘orish vaqtida suv butun uchastkaga emas, balki faqat bitta sektorga byeriladi, ya’ni sektorlar navbat bilan sug‘oriladi. Natijada, quvurlarning eng kichik diametrini hamda suv nasosi va filtrning kam quvvatli markasini tanlash imkoniyati yaratiladi;

- har bir sektorda etishtiriladigan ekinlarning joylashishiga qarab, tomchilatib sug‘orish tizimining tarqatuvchi quvurlari joylashtiriladi. Tarqatuvchi quvurlar sektoring cheti va o‘rtasidan o‘tkaziladi;

- tomizgichli shlanglar tarqatuvchi quvurga pyerpendikulyar ravishda egatlar yoki daraxt qatorlari bo‘ylab yotqiziladi. Bunda uchastkaning tomizgichli shlang yotgan qismi nishabligi 3 metrdan va shlangning uzunligi 150 metrdan oshmasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. SHlang qancha uzaysa, tizimning samaradorligi shuncha pasayadi.

Odatda, tomchilatib sug‘orish shlangining uzunligi dalaning o‘ziga xosligidan kelib chiqib quyidagi qoidalar asosida tanlanadi:

- uzun bo‘lgan tomchilatib sug‘orish shlanglarini mavsum boshida yoyish va mavsum oxirida yig‘ishtirish qiyin;
- bitta tarqatuvchi quvurga ulanadigan tomizgichli shlanglarning uzunligi va ulardagi tomizgichlar soni iloji boricha bir xil bo‘lishi lozim;
- yuqori bosimda ( $1,5\text{--}2,5 \text{ kg/sm}^2$ ) ishlovchi tomchilatib sug‘orish shlanglaridan soatiga eng ko‘pi bilan 600 litrgacha suv o‘tadi. SHuning uchun ularning uzunligi 100-150 metr oralig‘ida bo‘lgani ma’qul;



1-sug'orish sektori

2-sektori

3-sug'orish sektor

4-sug'orish sektori

115-rasm. Zamonaviy intensiv bog'da joriy qilish uchun loyihalangan tomchilatib sug'orish tizimi sxemasining sektorlarga bo'linishi

- tizimdag'i bosim qancha yuqori bo'lsa, tomizgichli shlangning uzunligi ham shuncha uzun bo'lishi va bir vaqtida sug'oriladigan maydon ham shuncha katta bo'lishi mumkin. Lekin, bunda sug'orishga sarflanadigan enyergiya miqdori kyeragidan ortib ketadi;

- tomizgichli shlang qanchalik uzun bo'lsa, suvning taqsimlanish notekisligi ham shuncha ortadi. Oqibatda, shlangning oxiridagi tomizgichlardan kerakli miqdordagi suv oqib chiqmay qolishi mumkin.

*Ma'lumot uchun:*

*Suv sarfi 1,5 l/soat ga teng tomizgichlar orasidagi masofa 30 sm bo'lgan shlangda (ishchi bosimi 1,4 kg/sm<sup>2</sup>) notekislik:*

*80 m masofada - 95%;*

*100 m masofada – 93%;*

*120 m masofada – 90%;*

*140 m masofada – 80% bo'ladi.*

*YA'ni, 140 metrli shlang ohiridagi tomizgich shlang boshidagi tomizgichga nisbatan suvni 20 % gacha kam byeradi.*

Yer yuzasi nishabli uchastkalarda tarqatuvchi quvurlarni nishablik bo'yab yotqizish mumkin. Bunda ular magistral quvurning tepe qismidagi nuqtaga ulanishi lozim.

Yer yuzasi tekis uchastkalarda esa tarqatuvchi quvurlarni magistral quvurning

yon qismiga ulash mumkin. Tarqatuvchi quvurlar, odatda, tuproq ostiga 0,15–0,25 m chuqurlikda yotqiziladi.

Magistral quvurlar filtrlash stansiyasidan sektorlargacha o‘tkaziladigan yo‘lga parallel ravishda yotqiziladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimining magistral quvurlari, odatda, 0,3–1,5 m, tarqatuvchi quvurlari 0,15–0,25 m chuqurlikka yotqiziladi, tomizgichli shlanglari esa yer betida yotadi.

Tomchilatib sug‘orish tizimining tarqatuvchi quvurlari magistral quvurlarga tugunlar yoki gidrantlar yordamida ulanadi.

Magistral quvur filtrlash qurilmasiga, undan keyin nasoslarga ulanadi. Nasoslar esa hovuz-tindirgichga yoki suv idishiga (bak) ulanadi.

Sektorlar va quvurlarning yotqizilish chiziqlari aniqlanib, qurish sxemasiga tushirilgandan so‘ng, har bir sektorga byeriladigan suv miqdori ( $Q$ ) aniqlanadi.

Bunda avvalo, tomizgichli shlangning butun uzunligidagi tomizgichlar va ularning yig‘indi suv sarfi aniqlanadi. Buning uchun shlangning uzunligi bir metrdagi tomizgichlar soniga ko‘paytiriladi. Olingan natija, bir tomizgichning suv sarfiga ko‘paytiriladi. Sug‘orish shlangiga byeriladigan suvning sarfi qurish sxemasiga yozib chiqiladi. YOzuvlar tarqatuvchi quvurning diametrini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Sug‘orish sektoridagi barcha tomizgichli shlanglarning suv sarflari yig‘indisi sektorning suv sarfi sifatida qabul qilinadi.

Eng katta sektorning suv sarfi ( $Q$ ), tomchilatib sug‘orish tizimining hisobiy suv sarfi ( $Q_h$ ) sifatida qabul qilinadi.

Tarqatuvchi quvurlarning diametri har bir sektorning hisobiy suv sarfi ( $Q$ ) ga mos ravishda 21-jadval asosida tanlanadi.

### 37-jadval. Quvurdagi bosim isrofini aniqlash jadvali

Quvur diametri va devori qalinligi	Suv sarfi (Q), m <sup>3</sup> /soat	Uzunligi 100 m quvurda bosim isrofi (h), m	Suv sarfi (Q), m <sup>3</sup> /soat	Uzunligi 100 m quvurda bosim isrofi (h), m	Suv sarfi (Q), m <sup>3</sup> /soat	Uzunligi 100 m quvurda bosim isrofi (h), m
Ø 32x3 mm	1,8	0,52	2,34	0,83	2,9	1,2
Ø 40x3,7 mm	3,24	0,58	4,32	0,87	5,4	1,29
Ø 50x4,5 mm	6,12	0,55	7,6	0,8	9,36	1,17
Ø 63x5,7 mm	11,2	0,54	14,4	0,84	16,9	1,1
Ø 75x6,8 mm	17,6	0,52	22,7	0,86	27,4	1,14

*Eslatma: hisobiy suv sarfi uchun quvurning boshidagi, hisobiy bosim isrofi uchun quvurning ohiridagi ko‘rsatkichlar qabul qilinadi.*

Magistral quvurning diametri shu jadval asosida loyihaviy suv sarfi ( $Q_1$ ) bo‘yicha tanlanadi. Tizimning loyihaviy suv sarfi ( $Q_1$ ) esa, hisobiy suv sarfi ( $Q$ ) ni 30 % ga oshirish orqali tayilanadi.

Tizimning loyihaviy suv sarfi magistral quvurning diametri hamda filrlash va nasos qurilmalarining quvvatlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimi magistral quvurining bosh qismidagi bosim tarqatuvchi quvurlarning ohirida 1,6-2,2 kg/sm<sup>2</sup> ga teng bosimni taminlanishi lozimligi asosiy talab sanaladi.

Buning uchun har bir quvur va inshootdagi bosim isroflari aniqlab chiqiladi:

tarqatuvchi quvurlarning hisobiy bosim isrofi ( $h_{th}$ )

$$h_{mx} = \frac{h \cdot \frac{L}{2}}{100} \pm \frac{H}{10}, \text{ kg/sm}^2$$

tenglik yordamida aniqlanadi.

bu yerda,  $h$  – 100 m uzunlikdagi quvur ohirida bosim isrofi, kg/sm<sup>2</sup>;

$L$  – quvurning uzunligi, m;

$N$  – dala nishabligi, metr

magistral quvurning hisobiy bosim isrofi ( $h_{mh}$ ) esa:

$$h_{mx} = \frac{h \cdot L}{100} \pm \frac{H}{10}, \text{ kg/sm}^2;$$

tenglik yordamida aniqlanadi.

Nasos qurilmasi bilan eng uzoqda joylashgan tarqatuvchi quvurning oxirgi nuqtasi oralig‘idagi bosim isroflari o‘zaro qo‘shilishib, ularning yig‘indisi topiladi. Keyin yig‘indiga sug‘orish shlangidagi tomizgichlarning ishlashi uchun zarur bo‘ladigan bosim ( $1,6-2,0 \text{ kg/sm}^2$ ) ham qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan yig‘indi bosim tizimning loyihaviy bosimi ( $B_1$ ) sifatida qabul qilinadi.

Dala nishabli bo‘lgan holatlarda, bosim isrofini oshirish (*suv tepaga oqsa*) yoki kamaytirish (*suv pastga oqsa*) tuzatmalarini kiritiladi.

*Misol:*

*Diametri-Ø 63mm, suv sarfi-Q=23 m³/soat, uzunligi-150 m bo‘lgan tarqatuvchi quvur:*

*7 m balandga qarab yotqizilgan bo‘lsa, uning bosim isrofiga 7/10 tuzatma kiritiladi va hisobiy bosim isrofi –*

$$h_{mh} = (0,84 * 150 / 100) + 7 / 10 = 1,96 \text{ kg/sm}^2 (19,6 \text{ metr}) \text{ deb belgilanadi.}$$

*4 m pastlikka qarab yotqizilgan bo‘lsa, uning bosim isrofiga - 4/10 tuzatma kiritiladi va hisobiy bosim isrofi -  $h_{th} = (0,84 * 150 / 2 / 100) - 4 / 10 = 0,23 \text{ kg/sm}^2 (2,3 \text{ metr}) \text{ deb belgilanadi.}$*

Tomchilatib sug‘orish tizimida 2 nasos agregati (biri asosiy, ikkinchisi – zahira) ko‘zda tutiladi.

Tanlangan nasoslarning quvvati (suv sarfi va bosimi) tizimning loyiha suv sarfi ( $Q_1$ ) va loyihaviy bosimidan ( $B_1$ ) kam bo‘lmasligi lozim.

Agar suv ochiq havzadan (kanal, daryo, ko‘l) olinadigan bo‘lsa, filtrlovchi qurilma qum-shag‘alli filtr va 2-pog‘onaga o‘rnatiladigan to‘rli yoki diskli filtdan iborat bo‘lishi lozim. Agar suv yer osti manbaidan (quduqdan) olinadigan bo‘lsa, to‘rli yoki diskli filtr bilan kifoyalanish mumkin. Bunda suv sifati alohida o‘rganilgan bo‘lishi shart. CHunki suv sifati byerilayotgan o‘g‘it miqdorini rostlash va tizimni kelgusida kimyoviy yo‘l bilan tozalash ishlarida muhim ahamiyatga ega. Filtrlovchi

qurilmaning quvvati loyihaviy suv sarfi ( $Q_1$ ) dan 2,5 martagacha ortiq bo‘lishi va hech qachon undan kam bo‘lmasligi lozim.

Loyihalashning oxirgi bosqichi tomizgichli shlanglarning kirish qismlaridagi bosimlarni kiruvchi shtutsyer-drossellar (3,0-7,0 mm li) yoki xomutlarga o‘rnatiladigan rezbali drosellar (2,0-6,5 mm li) yordamida rostlashdan iborat.

Bosim rostlash ishlari, odatda, sektorning maydoni 0,5 gadan katta bo‘lgan hollarda bajariladi.

1-sektor tarqatuvchi quvuridagi hisobiy bosim isrofi ( $h_{th}$ ):

- 0,1 dan 0,25 gacha oraliqda bo‘lsa, 0,045 ga bo‘linadi;
- 0,25 dan 0,45 gacha oraliqda bo‘lsa, 0,06 ga bo‘linadi;
- 0,45 dan 0,7 gacha oraliqda bo‘lsa, 0,09 ga bo‘linadi.

Aniqlangan qiymatlar yaxlitlanadi va ular drossellananadigan zonalar sonini bildiradi. Tarqatuvchi quvrning uzunligi ushbu songa bo‘linadi. Agar drossellananadigan zonalar soni 3 dan ortiq bo‘lsa, tarqatuvchi nuqta yaqinidagi birinchi zona uzunligi 20 % ga kamaytiriladi, oxirgi zona uzunligi esa 20 % ga uzaytiriladi. Drossellangan zonalar ( $Z_{dr}$ ) tizim sxemasida qayd etiladi.

Tarqatuvchi tugundan hisoblanganda, eng oxirgi drossellanuvchi zonada ( $Z_{dr}$ ) tomizgichli shlanglar tarqatuvchi quvurga ulanadigan nuqtalarda  $\varnothing 6,5$  mm li kiruvchi shtutsyer-drossellar yoki xomutlardagi rezbali drosellar o‘rnatiladi. Oxiridan oldingi drossellanuvchi zonada esa  $\varnothing 6,0$  mm li, ya’ni oxiridan 0,5 mm ga kichik drossellar o‘rnatiladi. Qolgan zonalar uchun ham xuddi shunday tahlitdagi ish bajariladi. Drossellarning aniqlangan diametrlari tizim sxemasida qayd etiladi va ularni o‘rnatish jadvali tuziladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimining tanlangan elementlarini qurish uchun smeta harajatlari amaldagi narxlar asosida hisoblab chiqiladi.

Tuzilgan loyiha tasdiqlash va moliyalashtirish uchun buyurtmachiga taqdim qilinadi. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha hujjatlari qurilish ishlarini olib borish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **13.9. Tomchilatib sug‘orish tizimini qurish, ishga tushirish va undan foydalanish**

Tomchilatib sug‘orish tizimlari tizimning loyihasi asosida quriladi.

Tizimni qurish inshootlar joylashadigan va quvurlar yotadigan joylarni uchastka maydonchasida belgilab chiqishdan boshlanadi. Belgilab chiqilgan joylarda, birinchi navbatda, tuproq ishlari bajariladi. Buning uchun inshootlar va quvurlar o‘rni mexanizmlar yordamida kovlanadi.

Xuddi shu davrda o‘ramlarda polietin quvurlarni to‘g‘rilab, tizim sxemasiga mos ravishda yoyib yerga yotqizib qo‘yiladi. Quvurlar bunday holatda to‘liq to‘g‘irlanguncha (kamida bir sutka) yotishi lozim.

Undan keyin, magistral quvurlarning tarqatuvchi quvurlar ulanadigan nuqtalarida tarqatish tuguni uchun teshik ochilib, u yerga uchlik, shtutsyer va suvni ochib-yopuvchi mexanizmlar (ventil, soqqali kran va boshqalar) ulanadi.

Tarqatish tugunining chiqish joyiga tarqatuvchi quvurlar ulanadi.

Magistral quvur va tarqatuvchi tugunlar yerni kavlab 0,25 m chuqurlikka joylashtiriladi. Tarqatuvchi tugunlar  $0,5 \times 0,5$  m kattalikdagи qopqoqli qutiga joylashtiriladi. Ulangan quvur va elementlar transheya (ariqlar) ga yotqizib chiqiladi.



**116-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining magistral quvurini qurish**


Tarqatuvchi quvurning tomizgichli shlanglar ulanadigan joylarida Ø 12 mm diametrli teshiklar ochiladi. Teshiklar qirindi hosil qilmaydigan maxsus teshikochkichlar yordamida ochiladi. Bu teshiklargashtutsyer-drosellar ulanadi.



117-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimining tarqatuvchi quvuriga shtutsyerlarni o‘rnatish

Tarqatuvchi quvurga shtutsyer-drossel o‘rnatilgandan so‘ng, unga egat bo‘ylab yotqizilgan tomizgichli shlang ulanadi va shtutsyerning gaykasi bilan qotirib qo‘yiladi.

Transheya (ariqlar) ga yotqizilgan quvurlar tuproq bilan ko‘mib chiqiladi.



118-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimi tarqatuvchi quvurini transheya (ariqlar) ga joylashtirish va ulash

Tomchilatib sug‘orish tizimining tomizgichli shlanglari bir yillik ekinlar etishtiriladigan dalalarda egat arig‘i ichiga yotqiziladi, bog‘ va uzumzorlarda esa darxtlar orasiga tortilgan eng pastdagi simga ilib qo‘yiladi. Bunda tomizgichli shlang tarang tortilib qolmasligi kerak. SHlangning bo‘sish turishi uni havo harorati o‘zgarishlariga bardoshliligini ta’minlaydi.

Tarqatuvchi quvur va tomizgichli shlanglarning oxiri tiqinlar bilan byerkitib qo‘yiladi yoki quvur orqaga qayrib bog‘lab qo‘yiladi.

Tomizgichli shlang ekinning ikkita qatori oralig‘ida joylashtirilganda, ekin qatorlari orasidagi masofa 0,5-0,6 metrni (eng yaxshi sanaladi) tashkil qilishi va hech qachon 1 metrdan oshmasligi lozim.



119-rasm. Tomchilatib sug‘orish tizimi tomizgichli shlanglarining olma bog‘i va paxta dasasida yotqizilishi

*Tomchilatib sug‘orish tizimini ishga tushirish.* Tomchilatib sug‘orish tizimlari ishga tushirilishidan oldin yuvib tashlanishi lozim. Buning uchun tizimga birinchi bor, suv byerilishidan avval, quvur va shlanglarning oxiridagi tiqinlar olinib, quvur va shlanglar ochib qo‘yiladi. Birinchi sektorning tarqatuvchi tuguni ochiladi, tarqatuvchi quvur bosim ostida yuvilgandan so‘ng, quvurning oxiriga tiqin (zaglushka) tiqilib yopiladi. Bunda, suv tomizgichli shlanglarga qarab oqadi va ulardan oqib chiqqa boshlaydi. Suv shlanglardan 3-5 daqiqa oqqandan so‘ng, ishlab turgan holatida ularning oxiri birma-bir yopib chiqiladi. SHundan keyin, suv oqib ketayotgan hamma joylar byerkitib chiqiladi.

Sektor to‘liq yuvilib, undan suv oqib ketmayotganligi tekshirib chiqilgandan so‘ng, tomchilatib sug‘orish tizimidagi bosim o‘lchab ko‘riladi. Buning uchun har bir

tomizgichli shlangning oxiridagi tiqin olinib, o‘rniga manometr (shkalasi oralig‘i  $0,05 \text{ kg/sm}^2$  bo‘lishi lozim) qo‘yib ko‘riladi. Manometrning ko‘rsatkichi daftarga qayd qilib boriladi. Bunda, sektorning shlanglaridagi bosimlar farqi 5 % dan oshmasligi kerak. Zarur hollarda, tomchilatib sug‘orish tizimining har bir shlangidagi bosim drossellarning diametrini o‘zgartirish orqali rostlanadi. Odatda, bosimini rostlash eng uzoqdagi shlangdan boshlanadi. Tizimining boshqa sektorlarida ham xuddi shunday tekshirish va rostlash ishlari o‘tkaziladi.

*Tomchilatib sug‘orish tizimini ishlatish*. Tomchilatib sug‘orish tizimlarini ishlatish o‘ziga xos yondoshuvni talab qiladi. Bunda tizimning gyermetikligiga asosiy e’tibor qaratilishi va uni doimo tekshirib turilishi lozim. Agar tizimning biron bir joyidan suv oqib chiqayotgan bo‘lsa, darhol uni bartaraf qilish chorasini ko‘rish kerak. Aks holda tizimning asosiy vazifasi, suvni dalaning hamma nuqtasiga bir xilda etkazib berish amalga oshmaydi va suv bilan birga byeriladigan o‘g‘itlar ham bir tekis etib bormaydi. Oqibatda, tizimning samaradorligi yo‘qoladi.

Tomchilatib sug‘orish tizimlarini bir oyda 2 marta yuvib turish tavsiya qilinadi. Buning uchun shlanglarning oxiridagi tiqinlar, navbat bilan 3-4 soniyaga ochib qo‘yiladi.

Tizimning shlanglarida qotgan tuzlarni yeritish va yopishgan suv o‘tlarini chiqarib yuborish uchun mavsum davomida, quvur va shlanglarga 1-2 marta azot kislotasining 0,5 % li yeritmasini yuborish tavsiya qilinadi. Undan 15-20 soat o‘tgandan keyin, har bir sektor toza suv bilan yuvib tashlanishi lozim. Mavsum oxirida esa tizimga azot kislotasining 2-3 % li yeritmasi bilan ishlov berish tavsiya qilinadi.

Mavsum ohirida tomizgichli shlanglar shtutsyer-drossellardan ajratiladi va ularning o‘rniga qopqoqlar kiydiriladi. Bu amal tizim quvurlarini ifloslanishdan saqlaydi. Tomizgichli shlanglar daladan yig‘ib olinib, omborlarga qo‘yilishi oldidan, shlanglarga xlorid kislotasining 1-3 % li yeritmasi bilan ishlov berish tavsiya qilinadi.

Qishki mavsumda tizimning barcha soqqali kranlari mavsum oralig‘ida ochiq holda qoldirilishi lozim. Navbatdagi mavsum oldidan (bahorda) esa, ularni yana bir bor yuvib tashlash tavsiya qilinadi.

### **13.10. Tomchilatib sug‘orishni joriy qilishdagi imtiyozlar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 iyundagi «Tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 176-sonli Qarori da Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish ustuvor tartibda:

- vegetatsiya davrida suv resurslari o‘rtacha ko‘p yil taqchil bo‘lgan sug‘oriladigan yer uchastkalarida, shuningdek sug‘orish suvini yuqoriga ko‘tarishda katta xarajatlar qilinadigan mashina bilan sug‘oriladigan yerlarda;
- bog‘lar, uzumzorlar, sabzavot-poliz mahsulotlari va boshqa yuqori rentabelli ekinlar uchun ajratilgan yer uchastkalarida;
- irrigatsiya yeroziyasiga uchragan katta nishabli yer uchastkalarida;
- sho‘rlanmagan va sho‘rlanishga moyil bo‘lmagan engil tuproqli tekis yer uchastkalarida amalga oshirilishi qayd etilgan.

Ushbu Qarorga binoan tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etganlar uchun quyidagi imtiyozlar byerilishi ta’kidlangan:

- tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga tejalgan suv resurslaridan boshqoli don ekinlaridan bo‘shagan maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘stirish uchun foydalanish huquqi byeriladi;
- Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tomchilatib sug‘orish tizimi va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalari uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga deklaratsiya qilingan narxlar bo‘yicha polietilen granula xarid qilish uchun har yillik kvotalar ajratiladi;
- tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari shu maydonlardan to‘lanadigan yagona yer solig‘idan 5 yilga ozod etiladilar;
- Jamg‘armaning kredit liniyasi mablag‘lari hisobiga kreditlardan foydalanganlik uchun imtiyozli foiz stavkasi yillik 6%, shu jumladan bank marjasи — 3% miqdorida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrdagi

“Paxta xom ashyosini etishtirishda tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4087-sonli Qarorida g‘o‘za etishtirishda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy qilishni yanada kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari etib:

- g‘o‘za etishtirishda tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirayotgan paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ta’sirchan tizimini joriy etish, tomchilatib sug‘orish tizimlari va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish;

- mayjud suv resurslaridan samarali foydalanish, tomchilatib sug‘orish yo‘li bilan g‘o‘za etishtirish sohasidagi innovatsion g‘oyalar, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni keng joriy etish;

- respublika hududlarining tuproq-iqlim va boshqa sharoitlarini hisobga olgan holda tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash uchun ilmiy-amaliy va uslubiy asoslarini shakllantirish;

- sug‘orishning suvni tejaydigan texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish belgilandi.

Ushbu Qarorga binoan tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilgan paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, tomchilatib sug‘orish tizimlari va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan quyidagicha qo‘llab-quvvatlanishi belgilangan:

a) O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilariga tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish uchun paxta xom ashyosi ekiladigan maydonning har bir gektariga 8 mln so‘m subsidiya taqdim etiladi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari

hisobidan paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilariga tomchilatib sug‘orish tizimlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ularning butlovchi qismlarini sotib olish uchun ajratiladigan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlari tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasidan bir gektarga 20 mln so‘mdan oshmaydigan qismining 10 foizli punkti miqdorida qoplanadi;

v) byudjet mablag‘larini oluvchilar bilan tuziladigan import shartnomalarini ekspertizadan o‘tkazish va ro‘yxatga olish talabi paxta xom ashyosi ishlab chiqaruvchilari tomonidan tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish bo‘yicha ishlar doirasida tuziladigan import shartnomalariga tatbiq etilmaydi;

g) paxta xom ashysining mahalliy ishlab chiqaruvchilari, shuningdek tomchilatib sug‘orish tizimi ishlab chiqaruvchilari tomonidan olib kiriladigan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish uchun zarur bo‘lgan butlovchi qismlar va xom ashyo 2021 yilning 1 yanvariga qadar bojxona bojini to‘lashdan ozod etiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Tomchilatib sug‘orish usulining moxiyati nima?
2. Tomchilatib sug‘orishdagi sug‘orish (tomchilatish) quvurlari va lentalari nima?
3. Tomchilatuvchi lentalarning turlari.
4. Kompensatsiyalashgan va kompensatsiyalashmagantomchilatgichlar nima?
5. Tomchilatib sug‘orishdagi fittinglarning vazifalari nima?
6. Tomchilatuvchi lentalarning asosiy parametrlari nimalar?
7. Tomchilatuvchi lentalarning diametrlari va devorlarining qalinligi qanday bo‘ladi?
8. Tomchilatgichlarning qanday turlari mavjud?
9. Tomchilatib sug‘orishning sug‘orish texnikasi elementlari nimalardan iborat?
10. Tomchilatgichlarning suv sarfi, oralaridagi masofa va ishchi bosimlari.
11. Tomchilatib sug‘orish jadalligi nima, qanday aniqlanadi?

12. Tomchilatib sug‘orish tizimining asosiy elementlari.
13. Tomchilatib sug‘orishni qo‘llash va yaratilgan imtiyozlar.
14. Tomchilatib sug‘orishning avzalliklari va kamchiliklari.

## **14. SUG‘ORISH TARMOQLARINING TASNIFI, ASOSIY ELEMENTLARI, KONSTRUKSIYASI. SUG‘ORISH TARMOQLARINI LOYIHALASH**

### **14.1. Sug‘orish tarmog‘ining vazifasi. Sug‘oriladigan hududni tashkil etish**

*Sug‘orish tarmog‘ining asosiy vazifasi* suvni bosh suv olish inshootidan olib, sug‘orish texnikasi elementlariga etkazib berishdir.

*Sug‘orish tarmog‘iga quyidagi talablar qo‘yiladi:*

- rejadagi suvni etkazib berish;
- hududni ma’muriy bo‘linishiga bog‘langan bo‘lishi;
- sug‘oriladigan xududni tashkil etilishiga mos bo‘lishi;
- qishloq va suv xo‘jaligi ishlarini mexanizatsiyalashga to‘sinqinlik qilmasligi;
- yuqori texnik darajada bo‘lishi;
- minimal uzunlik va arzon bo‘lishi;
- ekspluatatsiya xarajatlarini kam bo‘lishi;
- xalq xo‘jalinining boshqa soxalarini talablariga javob berishi.

*Sug‘orish tarmoqlari ochiq, yopiq va kombinatsiyalashgan* turlarga bo‘linadi.

Sug‘orish tarmoqlarini loyixalash, ularni planda joylashtirishdan boshlanadi va u sug‘oriladigan hududni tashkillashtirish, tarmoqning turi va sug‘orish texnikasiga bog‘liq bo‘ladi.

*Sug‘oriladigan xududni tashkillashtirish* deganda, xo‘jalik va uning bo‘limlari, odamlar yashaydigan hududlar, almashlab ekish massivlari, ekin maydonlarining doimiy chegaralarini belgilash tushuniladi.

Sug‘orish massivi chegarasi ichidagi maydon – uning yalpi maydoni deb ataladi.

Sug‘orishda ishlatalishi mumkin bo‘lgan maydon uning umumiy (brutto) maydonidir.

Sug‘orish massivining ekin ekiladigan va sug‘oriladigan maydoni uning sof (netto) maydonidir.

Yerdan foydalanish koeffitsienti (EFK):

$$EFK = \frac{\omega_{netto}}{\omega_{brutto}},$$

Sug‘orish tarmoqlarining tipiga qarab, EFK = 0,90-0,95 ga teng bo‘ladi.

**Sug‘oriladigan xududning chegaralarini** belgilashda odatda tabiiy chegaralardan foydalilanadi. Bular daryolar, jarliklar, ma’muriy chegaralar, aholi punktlari, avtomobil va temir yo‘llar, yirik kanallar bo‘lishi mumkin. Chegaralar iloji boricha to‘g‘ri chiziq va to‘rt burchak shaklida bo‘lishi kerak. Yangi aholi punktini hududning markazida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Haydaladigan yerlar almashlab ekish massivlariga bo‘linadi va ularning turiga qarab, maydonlari 150-1000 hektar bo‘ladi.

Almashlab ekish massivlari biri-biridan 10% dan ortiqqa farq qilmasligi kerak. Almashlab ekish massivi qanday ekinlar etishtirilishiga qarab, 3-10 ta sug‘orish dalalariga bo‘linadi. Sug‘orish dalalarining konfiguratsiyasi to‘g‘ri to‘rtburchak va maydonlarining farqi 10% dan ortiq bo‘lmashigi kerak. Dalaning tomonlarini uzunligi sug‘orish texnikasi elementlari bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi kerak: egat uzunliklari, yomg‘irlatish mashinalarini qamrash kengligi va b.


#### **14.2. Ochiq sug‘orish tarmoqlari. Bosh (magistral) kanal loyihasi**

Ochiq sug‘orish tarmoqlari *tuproq o‘zanli* yoki *qoplamali kanallar* va *nov (lotok)lardan* iboratdir

Bu tarmoqlarning asosiy xususiyati ularning relefga to‘liq bog‘liqligidir. Ularni planda loyihalashning asosiy shartlari kanallarga to‘g‘ri nishablik berish, katta kanallarning kichiklarini boshqara olishi va kanaldagi suv satxini sug‘oriladigan maydon sathidan baland bo‘lishidir.

Suv manbasidan har bir sug‘oriladigan maydonga suv *doimiy tarmoq* orqali va dalalarga *muvaqqat tarmoq* orqali etkaziladi. Doimiy tarmoqlar: *bosh kanal (BK)* yoki *MK*, *xo‘jaliklararo*, *xo‘jalik*, *xo‘jalik ichki tarmoqlar* va *shox ariqlardir*. *Muvaqqat ariq*, *o‘q ariq* va *egatlar* muvaqqat tarmoqlardir.

BK sug‘oriladigan maydonni suv bilan o‘zi oqar tizimda ta’minlashi, o‘zanining barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va yerlarning geomorfologik sharoitlariga mosligini inobatga olib, uning trassasi aniqlanadi. BK uchun optimal nishablik 0,0003-0,0005 ga teng. BK ikki xil bo‘lishi mumkin: *o‘zi oqar, to‘g‘onsiz suv oladigan*, agar daryoning (suv manbasining) suv satxi BK boshidagi suv sathidan baland bo‘lsa; *to‘g‘onli, mexanik ko‘tarib suv olinadigan*.



120-rasm. Bosh (magistral) kanal sxemasi

A nuqtadagi BK suvi sathining qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$H_A = \nabla H_A + h,$$

B nuqtadagi BK suvining sathi quyidagicha topiladi:

$$H_B = H_A + i_c \cdot L_c,$$

bu yerda:  $i_c$  - BK salt qismining nishabligi;

$L_c$  - BK salt qismining uzunligi, m.

Daryordan BK ga B nuqtadan suv olish uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$H_B^\partial \geq H_B + z + a,$$

bu yerda:  $H_B^\partial$  - B nuqtadagi daryo suvining sathi, m;

$z = (0,2-0,3)$  m -suv qabul qilish inshootidagi yuqori

va quyi beflar suv sathlarining farqi;

$a = (0,1-0,2)$  m -zahira sath qiymati, m.

Agar shart bajarilmasa, daryordan to‘g‘on qurmasdan suv olish mumkin emas va daryordan to‘g‘onsiz suv olish uchun BK ni daryo yoqalab yuqori tomonga

trassalash kerak bo‘ladi va shartni bajaradigan S nuqta aniqlanadi.

Bu nuqtagacha bo‘lgan BK qo‘sishimcha trassasining uzunligi aniqlanadi:

$$L'_c = \frac{H_B - H_B^\partial + z + a}{i_r - i_c},$$

BK ning bu holatdagi loyihasi variantli echimlarni talab qiladi va daryodan BK ga suv olishni quyidagi usullarda amalga oshirish mumkin:

- daryodan to‘g‘on qurmasdan suv olish;
- daryodan to‘g‘on qurib suv olish;
- nasos stansiyalari yordamida suv olish.

Biror bir variantni tanlash quyidagi omillarga bog‘liqdir:

- iqtisodiy hisob-kitoblar;
- suv qabul qilish joyining ishonchliligi;
- ish olib borish shart-sharoitlari;
- ekologik masalalar (daryoning gidrologik rejimi buzilmasligi)

#### **14.3. Xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlari**

Xo‘jalik ichki tarmoqlar va shoh ariqlarni planda loyihalaganda quyidagi talablar bajariishi kerak:

- o‘zlariga osilgan maydonlarning chegaralaridan o‘tishlari va ulardagi suv sathi maydonlarning (yer) sathidan baland bo‘lishi;
- to‘g‘ri nishablikka ega bo‘lishi;
- har bir dala mustaqil suv olishi;
- kam uzunlikka ega bo‘lishi.

#### **14.4. Muvaqqat sug‘orish tarmoqlarini loyihalash**


Sug‘oriladigan dalalarda sug‘orish tarmoqlari muvaqqat bo‘lib, har yili sug‘orish mavsumida va har bir sug‘orishdan oldin olinadi.

Yer ustidan sug‘orish usuli qo‘llanilganda, muvaqqat sug‘orish tarmoqlari hosil qilinadi.

Muvaqqat tarmoqlar suvni shoh ariqlardan qabul qilib, ***bo‘ylama*** yoki ***ko‘ndalang sug‘orish sxemasida*** dalaga byeradi.

**Bo‘ylama sug‘orish sxemasida** muvaqqat ariqlar orasidagi masofa o‘q ariqlarning uzunligiga teng qilinib (70–120 m), ularning uzunligi 1-3 egat uzunligi qiymatida (1000 m dan oshmagan holda) hosil qilinadi.

**Ko‘ndalang sug‘orish sxemasida**, muvaqqat ariqlar orasi 1 egat uzunligiga teng (400 m gacha) bo‘ladi.



**121-rasm.** Muvaqqat ariqlarning sug‘orish maydonida joylashish

(a-bo‘ylama, b-ko‘ndalang) sxemasi:

1-xo‘jalik ichki tarmog‘i; 2-shohariq; 3-muvaqqat ariq; 4-o‘qariq; 5-sug‘orish egati; 6-gorizontal; 7-tashlama

Muvaqqat ariqlarning bo‘ylama sug‘orish sxemasida sug‘oriladigan maydonlarning nishabligi 0,001-0,005 bo‘lganda qo‘llaniladi. Muvaqqat ariqlarning uzunligi 400-800 m qilib olinadi.

Muvaqqat ariqlarning bo‘ylama sug‘orish sxemasida joylashishining *kamchiliklari*:

- 5-6% foydali maydonni egallaydi;
- agrotexnika ishlarini mexanizatsiyalashga xalaqit beradi;
- 10% suv filtratsiyaga yo‘qoladi;
- mexnat unumdarligi past.

*Avzalligi* – sug‘orish tarmog‘ining oddiyligi.

Muvaqqat ariqlarning ko‘ndalang sug‘orish sxemasida sug‘oriladigan maydonlarning nishabligi 0,004-0,01 bo‘lganda qo‘llaniladi. Muvaqqat ariqlarning uzunligi 400-800 m qilib olinadi. Suv muvaqqat ariqlardan egatlarga sifonlar

yordamida byeriladi.

Mukammallashgan sug‘orish tarmoqlarida muvaqqat tarmoqlar doimiy yoki ko‘chma sug‘orish quvurlari bilan almashtiriladi.

Sug‘orish dalasida yomg‘irlatib sug‘orish agregatlari, mashinalari qo‘llanilsa, o‘q ariq va sug‘orish egatlari olinmaydi.


#### 14.5. Sug‘orish tarmoqlarining konstruksiyalari

##### Tuproq o‘zanli kanallar

Kanallarni qurish va ekspluatatsiya qilish qulay bo‘lishi uchun ular asosan trapetsiya shaklida bo‘ladi.


Yer yuzasiga nisbatan joylashishiga qarab kanallar yarim qazilma-yarim ko‘tarma, ko‘tarma, sayoz va chuqur qazilma va qiyaliklardagi ko‘ndalang qirqimga ega bo‘ladilar.

*Yarim qazilma-yarim ko‘tarma* qirqimlar kanallarning ishchi qismida ulardagi suv sathini sug‘oriladigan yerlarning satxidan baland bo‘lishini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi.



122-chizma. Yarim qazilma-yarim ko‘tarma kanalning ko‘ndalang qirqimi  
 $m$  - kanalning xo‘l qiyaligi (otkosi);  $x$ - o‘yilma chuqurligi;  $m_1$  - kanalning quruq qiyaligi;  $y$ - suvning dambaga bosimi; 3- damba;  $a$  – dambaning balandligi.

*Ko‘tarma qirqimlar* kanalni tabiiy pastliklardan o‘tishida, rezyerv (zahira) lardan olinadigan tuproqlar hisobiga quriladi.




123-chizma. Ko‘tarma kanalning ko‘ndalang qirqimi

*a* - kanalning tubi ko‘tarmali emas;  $h_{sr}$  - qirqiladigan qatlam qalinligi; *b*- kanalning tubi ko‘tarmali;  $h_{pods}$ - qo‘tariladigan qatlam balandligi; *v* - kanal tubining eni; *h* – kanaldagi suvning chuqurligi.

Sayoz qazilma qirqimlar kanallarning salt qismini qurishda, ulardagi suv sathi sug‘oriladigan yerlarning sathidan baland bo‘lishi talab qilinmaydigan hollarda qo‘llaniladi.


*Chuqur qazilma* qirqimlar bosh kanallarning boshlanish qismlarida qo‘llanilib, otkosi (qiyaligi) ning har 4-6 metrida eni 2-3 metrlik bermalar quriladi.



124-chizma. CHuqur qazilma kanalning ko‘ndalang qirqimi

*1* - byerma; *k*- byermaning eni; *z*-zaxira; *2*- kavyaler; *f* - kanalning chuqurligi; *v*- kanal tubining eni; *N* – byermaning balandligi.

*Qiyaliklardagi kanallarning* pastki dambalarini “tishlar” bilan mustaxkamlash va yuqori qismida qiyaliklardan tushayotgan suv oqimlarini ushlab qolish uchun yig‘uvchi “kanava”lar quriladi.



125-chizma. Qiyaliklardagi kanallarning kanalning ko‘ndalang qirqimi


*m* - kanalning xo‘l qiyaligi (otkosi); *4* - suv yig‘uvchi kanava; *m<sub>1</sub>*- kanalning quruq qiyaligi; *k* - dambaning eni; *1* - byerma; *v* – kanal tubining eni.

#### 14.6. Turli relef sharoitidagi sug‘orish tarmoqlarini loyihalash

Sug‘orish maydonlari geomorfologik tiplar bo‘yicha *tog‘li*, *tog‘oldi*, *vodiy*, *tekis* va *delta* tipidagi relef larga farqlanadi. Har bir tip uchun sug‘orish tarmoqlarini loyihalash tamoyillari mavjud.


*Tog‘rli yerlarning nishabligi  $i = 0,01$*  va bundan qam qiya buladi.

Bunday yerlar ko‘p katta bo‘lmaydi va bir tomonlama sug‘oriladi (126-rasm).




126-chizma. Tog‘li relef sharoitidagi sug‘orish tarmoqlarining sxemasi

*Tog‘oldi* tekisliklarining nishabligi  $i = 0,01-0,005$  oralirida bo‘lib, bu ko‘rinishdagi yer relef tiplari ikki kiqsmga: yuqori va qo‘yi qismlarga bo‘linishi mumkin (126-rasm). Yuqori qismda nishablik ancha katta bo‘lib, suv manbai - yirik va kichik daryolarning suvlari tog‘rdan olib chiqish konuslari orqali oqib keladi. qo‘yi qismda esa nishablik yuqori qismga nisbatan ancha kichik bo‘lib, suv manbai sifatida vodiydan oqayotgan daryoning yuqori qismi xizmat kiladi. Tog‘oldi tekisliklarning yuqori qismida BK nishablik bo‘yicha yoki nishablikka utkir burchak ostida loyihalashtiriladi. Quyi qismida esa BK eng kichik mumkin bo‘lgan nishablik bilan, dastlab, daryo yokalab, so‘ngra, vodiyga qarab, daryodan borgan sari o‘zoklashtirilgan holatda loyiqlashtiriladi.



127-chizma. Tog‘oldi relef sharoitidagi sug‘orish tarmoqlari sxemasi




128-rasm. Vodiy relefi sharoitidagi sug‘orish tarmoqlarining sxemasi

Vodiy tipidagi yerlarning nishabligi  $i = 0,0001-0,005$  oraligida bo‘lib, daryo oqimining o‘rtalik kismida uchraydi. Yerning umumiy nishabligi daryo oqimiga deyarli parallel bo‘ladi (128-rasm). Daryo ancha yoyilib oqadi. CHo‘l daryo sohilidan ancha balandda turadi.


Bu sharoitlarda BK gorizontlarga nisbatan o‘tkir burchak tashkil qilgan holatda loyihalashtiriladi. Kanallarning nishabligi qancha kichik bo‘lsa, uning suv tarqatmaydigan (salt) qismining uzunligi shuncha qisqa bo‘ladi, lekin ko‘ndalang kesim yuzasi ortadi va kanal o‘zanini loyqa bosishi kuchayadi.

*Tekis relief* - ko‘pincha, daryo vodiyalarining etagida uchraydi. Uning nishabligi 0,001 dan oshmaydi (129-rasm). Bunday yerlarda BK ning boshi daryoga nisbatan kichik burchak hosil kilib loyihalashtiriladi. BK yer belgililari eng baland joylardan o‘tkaziladi. Bu kanallardan yerlar ikki tomonlama sug‘rorilib, kanalning salt qismi juda qisqa bo‘ladi.



129-rasm. Tekislik relefi sharoitidagi sug‘orish tarmoqlarining sxemasi

*Delta tipidagi relyef* – daryolarning quyi qismlarida uchrab, ularning nishabligi  $i=0,0001–0,0003$  oralig‘ida bo‘ladi. Bu relyefda daryodagi suv sathi sug‘oriladigan yyerlardan baland turadi. Ekinzorlar va aholi yashaydigan joylarni suv bosishdan saqlash uchun daryoning qirg‘oqlari bo‘ylab himoya dambalari quriladi.



130-rasm. Delta relefi sharoitidagi sug‘orish tarmoqlarining sxemasi

BK ning bu holatdagi loyihasi variantli yechimlarni talab qiladi va daryodan BK ga suv olishni quyidagi usullarda amalga oshirish mumkin:

1. Daryodan to‘g‘on qurmasdan suv olish.
2. Daryodan to‘g‘on qurib suv olish.
3. Nasos stansiyalari yordamida suv olish.

Biror bir variantni tanlash quyidagi omillarga bog‘liqdir:

1. Iqtisodiy hisob-kitoblar.
2. Suv qabul qilish joyining ishonchliligi.
3. Ish olib borish shart-sharoitlari.
4. Ekologik masalalar (daryoning gidrologik rejimi buzilmasligi kerak).

### Nazorat savollari

- Sug‘orish tarmog‘ining asosiy vazifasi nima?
- Sug‘orish tarmog‘iga qanday talablar qo‘yiladi?
- Sug‘orish tarmoqlarining qanday turlari mavjud?
- Sug‘oriladigan hududni tashkillashtirish nima?

- Yerdan foydalanish koeffitsienti (EFK) nima?
- Sug‘oriladigan hududning chegaralari qanday belgilanadi?
- Qanday sug‘orish tarmoqlari mavjud?
- Bosh (magistral) kanalning turlari.
- Daryodan BK ga qanday usullarda suv olish amalga oshiriladi?
- Muvaqqat tarmoqlar planda qanday loyihalanadi?
- Yer yuzasiga nisbatan joylashishiga qarab kanallarning turlari.
- YArim qazilma-yarim ko‘tarma va ko‘tarma kanallar konstruksiyasi.
- Sayoz va chuqur qazilma, qiyaliklardagi kanallarning konstruksiyasi.
- Sug‘oriladigan maydonlarning nishabligi qanday bo‘lganda bo‘ylama va ko‘ndalang muvaqqat tarmoqlar loyihalanadi?
- Sug‘orish maydonlarining geomorfologik tiplar.
- Geomorfologik tiplar qanday nishabliklarga ega bo‘lishadi?

## **15. YOPIQ, NOV VA QURAMA SUG‘ORISH TARMOQLARI**

### **15.1. Nov sug‘orish tarmoqlari va ularni qo‘llash shartlari**

Novlar trapetsiya, to‘g‘ri to‘rburchak, yarim aylana va asosan, parabola shaklidagi ko‘ndalang kesim yuzasiga ega bo‘lib, parabola shakli quyidagi bog‘liqlik asosida hosil qilinadi:

$$x^2 = 2 \cdot P \cdot y,$$

bu yerda  $x$  va  $y$ - nov yuzasining koordinatalari;  $R$ -parabola ko‘rsatkichi.




131-rasm. Nov kanali

Nov kanallar quyidagi sharoitlarda qo‘llash tavsiya etiladi:

- qiyin topografik va geologik sharoitlarda;
- kanal trassasi to‘liq to‘kma holatda o‘tganda;
- tog‘li va ko‘p suv singdiradigan va cho‘kadigan tuproqlarda;
- yonbag‘ir va siljuvchi tuproqlarda.

Nov kanallarining *trapetsiya qirqimli beton*, *to‘g‘ri burchakli temir-beton*, *parabola qirqimli temir-beton*, *yarim aylana qirqimli* va *to‘g‘ri burchakli temir-beton* turlari mavjud (128-rasm).



132-rasm. Novlarning turlari


a-trapetsiya qirqimli beton; b- to‘g‘ri burchakli temir-beton (qiyalikdagi); c- parabola qirqimli temir-beton, yer yuziga o‘rnatilgan; d- parabola qirqimli temir-beton, ustunga o‘rnatilgan; e-yarim aylana qirqimli, taxta asosga o‘rnatilgan; f-to‘g‘ri burchakli temir-beton, yog‘och ramaga o‘rnatilgan.

*Novlar quyidagi holatlar uchun loyihalanadi:*

- suv sarfi - 0,05-5,0 m<sup>3</sup>/s;
- nishablik qiymati - 0,0005–0,003;
- suv tezligi 6 m/s gacha;

Nov kanallari tuproqqa qazilgan xandaqqa beton asos ustiga bevosita yoki turli balandliklardagi temir-beton ustunlar yoki qoziq oyoqlarga o‘rnatiladi. Ularning turi novlarning yer yuzasiga nisbatan past -baland joylashishi hamda gruntning holatiga qarab tanlanadi.

Novning o‘zi 5980 sm uzunlikda bir uchi kengaytirilgan shaklda 40, 60, 80, 100, 120 sm ichki chuqurlikda tayyorlanadi va oyoqlarga tayangan yoki yerga o‘rnatilgan holda quriladi.



133-rasm. Nov sug'orish tarmoqlari

Novlarda qo'shimcha bosim – enyergiya hosil bo'lishi hamda FIK qiymatining 0,95–0,96 gacha etishi ularning juda tez va keng qo'llanishining asosiy sabablaridan biridir.

### 38-jadval. Novlarning markalari va ularning asosiy razmyerlari.

Nov markasi	Asosiy razmyerlari										
	L	H	H <sub>1</sub>	H <sub>2</sub>	H <sub>3</sub>	b	b <sub>k</sub>	b <sub>r</sub>	b <sub>rk</sub>	δ	S
LR4											
LRG4											
LR6											
LRG6											
LR8											
LRG8											
LR10											
LRG10											

### 15.2. Nov tarmoqlaridagi inshootlar

Novdagi inshootlar sug'orish kanalidan novlarga SUV oluvchi, novlarda SUV bo'luvchi, tashlama, tutashtiruvchi, kesishuvchi, novlardan SUV chiqaruvchi-larga farqlanadi.

Bosh SUV oluvchi inshoot novda SUVni boshqarib berish vazifasini o'tab, nov tarmog'ining boshida joylashtiriladi va to'sqich bilan jihozlangan bo'ladi.

SUV bo'lgich - nov tarmoqlarini katta tartibdagilaridan kichigiga SUV bo'lishda ishlatilib, to'sqichlar bilan jihozlangan aylana yoki to'rtburchak shaklidagi quduqlar shaklida bo'ladi.

*Tashlamalar* novlarning qirg‘oqidan suv toshmasligini ta’minlash va ulardan suv tashlash vazifasini bajaradi


Novlarning yo‘llar bilan kesishish joylarida *dyukyerlar* o‘rnatiladi.

Novlardagi suvning tezligi ortganda (nishablik kritik qiymatdan katta bo‘lganda) *tutash inshootlar* o‘rnatiladi.

Sug‘orish suvini muvaqqat tarmoqlarga yoki yumshoq quvurlarga berish uchun *suv chiqaruvchi ko‘chma* yoki *qo‘zg‘almas* inshootlar o‘rnatiladi.




134-rasm. Plastikli nov LV 30 PP




135-rasm. Nov oxiridagi quvurli tashlama

1-nov; 2-doimiy suv sathini ta’min-lovchi avtomat-to‘siq; 3-quduq; 4-tashlama tarmoq; 5-quvur



136-chizma. Novdan quvurga suv chiqaruvchi inshoot  
1-nov; 2-po'lat uchlik; 3-zadvijka (muruvvat); 4-sug'orish quvuri



137-chizma. Novdan ko'chma sifonli suv chiqargich  
1-nov; 2-chiqish va 3-kirish uchligi; 4-tayanch; 5-havo muruvvati

*Nov sug'orish tarmoqlari quyidagi afzalliliklarga ega:*

- suv isrofgarchiligi keskin kamayadi, kanalning va sug'orish tizimining FIK (0,90–0,96) yuqori bo'ladi;
- EFK 0,90 dan yuqori bo'ladi;
- loyqa va begona o'tlar bosmaydi;
- ekspluatatsiya xarajatlari kam;
- sug'orishni mexanizatsiyalash imkoni yaratiladi;
- Suvchining mexnat unumdorligi yuqori bo'ladi.

*Bu tarmoqlarning kamchiliklari:*

- qishloq xo'jaligi ishlarini mexanizatsiyalashga to'sqinlik qiladi;
- tuproqning cho'kishi va tayanchlarning og'ishi avariya holatini keltirib chiqaradi;
- tuproq o'zanli tarmoqqa nisbatan qimmatligi.

### 15.3. Yopiq sug'orish tarmoqlari va ularning hisobi

Yopiq sug'orish tarmoqlari quvurlardan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagi afzalliliklarga ega:

- suv isrofgarchiligi, ya'ni yerga singish-filtratsiya va bug'lanish keskin kamayadi, kanalning va sug'orish tizimining FIK (0,94–0,99) oshadi, suv manbaining sug'orish qobiliyati yuqori bo'ladi;
- EFK 0,97 dan yuqori bo'lib, bu tipdag'i sug'orish tarmoqlari qishloq xo'jaligi mashinalariga va sug'orish texnikalarining ishlashiga xalaqt bermaydi;

- sug‘orish tarmoqlarida avtomatlashtirish ishlariga qulaylik yaratiladi;
- yerning qiya joylarida tabiiy bosimdan foydalanish imkoni yaratiladi (nishablik 0,003-0,015).

Bu tarmoqlarning *kamchiliklari*:

- ko‘p miqdorda quvurlarning kerak bo‘lishi va sug‘orish tizimining tannarxini yuqoriligi;
- tabiiy bosim etarli bo‘lmagan hollarda sun’iy bosim hosil qiluvchi inshootlarning (nasos stansiyalari) qurish zarurligi.

*Yopiq sug‘orish tarmoqlarining turlari.* Yopiq sug‘orish tarmoqlarida suvning quvurlaridagi harakatiga qarab, ular *bosimli* va *bosimsiz* bo‘lishi mumkin.

*Bosimli yopiq sug‘orish tarmoqlarida* ularning ko‘ndalang kesim yuzasi to‘liq ishlaydi, suv harakati esa bosim orqali bo‘ladi.

*Bosimsiz yopiq sug‘orish tarmoqlarida* ularning ko‘ndalang kesim yuzasi to‘liqsiz kesim yuza bilan ishlaydi. Suv harakati esa quvurlarning nishabligi orqali bo‘ladi.

Bosimli yopiq sug‘orish tarmoqlari keng tarqalgan bo‘lib, ularni qo‘llashda qo‘sishimcha nasos qurilmalari kerak bo‘ladi va bu xildagi sug‘orish tarmoqlarini qo‘llash iqtisodiy hisob-kitoblar asosida bo‘lishi kerak.

Tabiiy bosimli sug‘orish tizimlarida hosil bo‘lgan bosim quvurlardagi suv bosimining yo‘qolish qiymatidan yuqori bo‘lishi shart:

$$i \cdot L \succ \sum h,$$

bu yerda:  $i$ -yerning tabiiy nishabligi;  $L$ -quvurning hisobiy uzunligi, m;  
 $\sum h$  – quvurning L uzunligidagi yo‘qolgan bosim qiymati, m.

*Yopiq sug‘orish tarmoqlarining turlari.* Yopiq sug‘orish tarmoqlari rejada joylashishiga qarab: *qo‘zg‘almas*; *yarim qo‘zg‘aluvchan*; va *ko‘chma bo‘lishi* mumkin.

*Qo‘zg‘almas yopiq sug‘orish tarmoqlarida* quvurlar yer ostiga ko‘milgan bo‘lib, bunda sug‘orish ishlarini to‘liq avtomatlashtirish mumkin.


*Qo‘zg‘aluvchan yopiq sug‘orish tarmoqlarida* quvurlar katta maydonlarni

sug‘orishi mumkin, chunki bunda quvurlar va boshqa sug‘orish elementlari bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilib qo‘llaniladi.

*Yarim qo‘zg‘aluvchan yopiq sug‘orish tarmoqlarida* sug‘orish quvurlarining faqat bir qismi bir joydan ikkinchi joyga ko‘chiriladi.

Yopiq sug‘orish tarmog‘idagi quvurlar ularning ishlash sharoitiga va texnik-iqtisodiy hisoblarga asosan: *po‘lat, cho‘yan, har xil aralashmali, asbestsement, temir-beton, beton, plastmassa, sopol, polietilen* matyerialli bo‘lishi mumkin.

*Yopiq quvurlarni reja (plan)da loyixalash.* Quvurli sug‘orish tizimi quyidagi: bosh, tarqatuvchi va sug‘oruvchi quvurlardan iborat. Ularning rejada joylashishi bo‘yicha: *suvni bir tomonlama, ikki tomonlama, oxiri berk va aylanali* tarqatovchi sxemalar farqlanadi.



138-rasm. Quvurli sug‘orish tarmoqlarining joylashish sxemasi:

a-bir tomonli; b-ikki tomonli; v-boshi byerk; g-yopiq aylana; 1-nasos stansiyasi; 2-bosh quvur; 3-taqsimlovchi quvur

*Quvurli sug‘orish tizimining gidravlik hisobi.*

Hisobiy suv sarflar va quvurlardagi maqbul suv tezlik qiymatlari bo‘yicha quvurlarning diametri tanlanadi:

$$D = 1,13 \cdot \sqrt{\frac{Q}{v}}, \quad m$$

bu yerda: Q-quvurning suv sarfi,  $m^3/s$ ; v-quvurdagi suv tezligi,  $m/s$ .

Quvur boshidagi hisobiy bosim:

$$H = H_g + \sum h_l + \sum h_m + H_e, \quad m$$

Bu yerda:  $H_g$  – quvurning boshi va ohiridagi geodezik farq, m;

$\sum h_l - L$  – quvur hisobiy qismi uzunligida yo‘qolgan bosim, m;

$\sum h_m$  – quvur uzunligi bo‘yicha maxalliy qarshiliklarga yo‘qolgan bosim, m;

$H_e$  – yerkin bosim, m.

Quvur uzunligi bo‘yicha yo‘qolgan bosim:

$$h_l = \lambda \cdot \frac{v^2 \cdot L}{2 \cdot g \cdot d}, \quad m$$

bu yerda: L-hisobiy qismdagi quvur uzunligi, d-quvur diametri, m; v-quvurdagi suvning tezligi, m/s;  $\lambda$  – gidravlik qarshilik koeffitsienti.



139-rasm. Plastmassa quvurlar



140-rasm. Quvurlarni elektro muftali ularash

#### 15.4. Qurama sug‘orish tarmoqlari

Yirik ochiq kanallar, suv tarqatuvchi quvurlar, ochiq shoh ariq va muvaqqat ariqlardan tashkil topuvchi qurama sug‘orish tarmoqlari tabiiy-xo‘jalik sharoitlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy jihatdan yopiq sug‘orish tarmog‘ini to‘liq qo‘llash imkoniyati bo‘lmagan hollarda loyihalanadi.

Qurama sug‘orish tarmoqlarida katta uzunlikka ega bo‘lgan tarmoqlar joyining katta nishabligi bo‘ylab yopiq qilib loyihalanishi tavsiya etiladi. Bu tarmoqlarning yopiq yoki ochiq kanal ko‘rinishida bo‘lishi to‘g‘risidagi echim variantlarni texnik-

iqtisodiy taqqoslash asosida qabul qilinadi.

Qurama sug‘orish tarmoqlarini hisoblash va loyihalash ochiq va quvurli sug‘orish tarmoqlarini loyihalash tartibida amalga oshiriladi.

Ochiq va tabiiy bosimli quvur tarmoqlarining o‘zaro tutashuvi maxsus suv chiqaruvchi va tutash inshootlar yordamida amalga oshiriladi. Quvurlardan doimiy va muvaqqat ochiq sug‘orish tarmoqlariga suv chiqarish uchun maxsus gidrant va bosim so‘ndiruvchi quduqlar loyihalanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Nov kanallarning turlari.
2. Nov kanallarni qo‘llash shartlari.
3. Novlarning markalari va ularning asosiy razmyerlari.
4. Novlar qanday holatlar uchun loyihalanadi?
5. Nov kanallarini qurish.
6. Nov tarmoqlarida qanday inshootlar mavjud?
7. Nov sug‘orish kanalidan novlarga suv oluvchi, suv bo‘luvchi, tashlama inshootlarining vazifalari nima?
8. Nov sug‘orish kanalidagi tutashtiruvchi, kesishuvchi, suv chiqaruvchi inshootlarining vazifalari nima?
9. Yopiq sug‘orish tarmoqlarining afzalliklari.
10. Yopiq sug‘orish tarmoqlarining kamchiliklari.
11. Yopiq sug‘orish tarmoqlarining turlari.
12. Qo‘zg‘almas, yarim qo‘zg‘aluvchan va ko‘chma yopiq sug‘orish tarmoqlari.
13. Yopiq sug‘orish tarmog‘idagi quvurlarning matyeriallari qanday bo‘ladi?
14. Yopiq quvurlarni reja (plan)da qanday loyihalanadi?
15. Quvurli sug‘orish tizimining gidravlik hisobi.
16. Qurama sug‘orish tarmoqlari

## **16. SUG‘ORISH TARMOQLARINING ISH REJIMI VA HISOBIY SUV SARFLARI**

### **16.1. Sug‘orish tarmog‘ining netto va brutto suv sarflari**

Sug‘orish tarmoqlari o‘z yo‘nalishi bo‘yicha suv sarfini taqsimlab boradi, ya’ni tizimdagi suv kamayib boradi. Bunda tizim hisobiy qismlarga bo‘linadi.

Har bir hisobiy qismda ham suv sarf qiymati uning uzunligi bo‘ylab harakati davomida sizilish, bug‘lanish va texnik nosozliklar sababli kamayadi.

Har bir hisobiy qismning boshidagi suv sarfi «brutto», ohiridagisi esa «netto» deb atalishi qabul qilingan:

$$Q_{br} = Q_{nt} + Q_l,$$


Kanalning butun uzunligi uchun:

$$Q_{nt} = \sum Q_i,$$

bu yerda  $\sum Q_i$ -sug‘orish tarmog‘idan keyingi tartibli tarmoqlarga bir vaqtning o‘zida olinadigan brutto suv sarflari yig‘indisi, m<sup>3</sup>/s;  $Q_l$ -hisobiy qismdagi suv isrofi, m<sup>3</sup>/s.

### a. Sug‘orish tarmog‘ining sxemasi. Hisobiy qismlar.

**141-rasmda** keltirilgan kanalning chiziqli sxemasi uchun hisobiy qismlar bo‘yicha hisobiy suv sarflari quyidagicha aniqlanadi:



**141-rasm.** Sug‘orish tarmog‘ining chiziqli sxemasi

I-hisobiy qism uchun:

$$Q_{brI} = Q_{ntI} + Q_{lI}, \quad Q_{ntI} = Q_{brII} + Q_2;$$

II -hisobiy qism uchun:

$$Q_{brII} = Q_{ntII} + Q_{lII}, \quad Q_{ntII} = Q_{brIII} + Q_3;$$


III -hisobiy qism uchun:

$$Q_{brIII} = Q_{ntIII} + Q_{lIII}, \quad Q_{ntIII} = Q_4 + Q_5.$$

Sug‘orish tarmog‘ining hisobiy suv sarfi qiymatlari qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimi va suv manbasining sug‘orishlik qobiliyatidan aniqlanadi.

### b. Sug‘orish tarmog‘ining suv sarflari turlari.

Har bir hisobiy qismni hisoblashda ularning hisobiy suv sarflarini farqlash qabul qilingan (142-rasm).



142-rasm. Kanalning ko‘ndalang kesimi

*Normal brutto hisobiy suv sarfi* – asosiy hisobiy suv sarfi hisoblanib, u orqali kanal ko‘ndalang kesim yuzasi o‘lchamlari va hisobiy qismdagi suvning tezligi gidravlik hisob orqali aniqlanadi ( $b$ ,  $h$  yoki  $d$ ,  $v$ ):

$$Q_{n\ br} = Q_{n\ nt} + Q_{n\ l}, \text{ m}^3/\text{s} \quad \text{yoki} \quad Q_{n\ br} = \frac{Q_{n\ nt}}{\eta_n}, \text{ m}^3/\text{s};$$

$$Q_{n\ nt} = k_\omega \cdot \omega_{br} \cdot \bar{q}_{max}, \text{ m}^3/\text{s};$$

$$\bar{q}_{max} = \frac{q_1 \cdot \omega_1 + q_2 \cdot \omega_2 + \dots + q_n \cdot \omega_n}{\sum \omega}, \text{ l/s·ga},$$

bu yerda  $q_i$ -har bir gidromodul rayonning gidromodul ordinata qiymati, l/s·ga;  $\omega_i$  - gidromodul rayonlarga mos keladigan maydonlar, ga.

*Minimal brutto suv sarfi* – tekshiruvchi suv sarfi hisoblanib, agar bu suv sarfi sug‘orish tarmog‘idan oqqanda undagi suv sath yer sathiga nisbatan past bo‘lsa, unda hisobiy qismda suv sathini ko‘tarish uchun suv to‘sish inshootlarining o‘rni belgilanadi:

$$Q_{min\ br} = Q_{min\ nt} + Q_{min\ l}, \text{ m}^3/\text{s} \quad \text{yoki} \quad Q_{min\ br} = \frac{Q_{min\ nt}}{\eta_{min}}, \text{ m}^3/\text{s};$$

$$Q_{min\ nt} = \omega_{nt} \cdot q_{min}, \text{ m}^3/\text{s}; \quad q_{min} = 0,4 \cdot q_{max}, \text{ l/s} \cdot \text{ga}.$$

*Tezlashtirilgan (jadallahashgan)* suv sarfi – bu suv sarfi normal brutto suv sarfidan katta bo‘lib, bu bo‘yicha kanal dambasining belgisi aniqlanadi:

$$Q_{for} = k_{for} \cdot Q_{n\ br}, \text{ m}^3/\text{s},$$

bu yerda:  $k_{for}$ -tezlashtirish koeffitsienti, ( $k_{for} = 1,05 - 1,20$ ).

Bu suv sarfi: a) qurg‘oqchilik davrlari yoki yillarida; b) avariya holatlarida; d) kelajakda sug‘orish maydonlarini kengaytirish holatlarida namoyon bo‘ladi.

### c. Sug‘orish tarmog‘ining foydali ish koeffitsienti.

Har bir hisobiy qismning boshidagi suv sarfi - brutto suv sarfi, ohiridagisi - netto suv sarfi hisoblanib, ularning nisbati hisobiy qismning FIK deb yuritiladi:

$$\eta_c = \frac{Q_{nt}}{Q_{br}}$$

Agar sug‘orish tizimini bosh kanal, xo‘jaliklararo tarmoq, xo‘jalik tarmog‘i, xo‘jalik ichki tarmoq, shohariq va muvaqqat ariqlardan tarkib topishini hisobga oladigan bo‘lsak, ularning har birining FIK:

$$\eta^{BK} = \frac{Q_{nt}^{BK}}{Q_{br}^{BK}}; \quad \eta^{XAT} = \frac{Q_{nt}^{XAT}}{Q_{br}^{XAT}}; \quad \eta^{XT} = \frac{Q_{nt}^{XT}}{Q_{br}^{XT}}; \quad \eta^{XHT} = \frac{Q_{nt}^{XHT}}{Q_{br}^{XHT}};$$

$$\eta^{IIA} = \frac{Q_{nt}^{IIA}}{Q_{br}^{IIA}}; \quad \eta^{MA} = \frac{Q_{nt}^{MA}}{Q_{br}^{MA}} \quad \text{formulalardan aniqlanadi.}$$

Sug‘orish tizimining FIK quyidagicha bo‘ladi:

$$\eta = \eta^{BK} \cdot \eta^{XAT} \cdot \eta^{XT} \cdot \eta^{XHT} \cdot \eta^{IIA} \cdot \eta^{MA}.$$

### Nazorat savollari

1. Sug‘orish tarmog‘ining netto va brutto suv sarflari nima?
2. Sug‘orish tarmog‘ining sxemasi nima uchun tuziladi?
3. Hisobiy qismlar bo‘yicha suv sarflari qanday hisoblanadi?

4. Sug‘orish tarmog‘ining suv sarflarining qanday turlari mavjud?
5. Normal suv sarfi nima uchun aniqlanadi?
6. Minimal suv sarfi nima uchun aniqlanadi?
7. Tezlashtirilgan (jadallahsgan) suv sarfi nima uchun aniqlanadi?
8. Sug‘orish tarmog‘ining foydali ish koeffitsienti qanday hisoblanadi?
9. Sug‘orish tizimining foydali ish koeffitsienti qanday hisoblanadi?

## **17. KANALLARNING GIDRAVLIK HISOBLARI**

### **17.1. Gidravlik hisobning mohiyati**

Sug‘orish tarmoqlarining gidravlik hisobi ularning har bir hisobiy qismi uchun bajariladi. Gidravlik hisob natijasida sug‘orish tarmog‘ining ko‘ndalang kesim o‘lchamlari, hisobiy qismdagi hisobiy tezlik qiymati aniqlanib, bu qiymatlar ko‘ndalang kesim yuza uchun qo‘yilgan talablarga javob berish – bermasligi aniqlanadi.

Sug‘orish tarmoqlarining hisobiy qismlari bo‘yicha gidravlik hisob qilinganda, ulardagи suvning harakati bir tekis deb qaraladi.

Magistral va taqsimlovchi kanallar bitta g‘adir-budirlik koeffitsienti bilan:

*-normal suv sarfi bo‘yicha* – kanalning gidravlik elementlarini aniqlash uchun;

*-tezlashtirilgan (forsirovanniy) suv sarfi bo‘yicha* – kanalning dambasi va bermasini undagi suv sathidan balandligini va kanalning yuvilmasligini aniqlash uchun;

*-minimal suv sarfi bo‘yicha* – kanalni undan suv oluvchi tarmoqlarni boshqara olishi, suv to‘suvchi inshootlarning o‘rnini belgilash va kanalni loyqa bosmasligini aniqlash uchun hisob qilinadi. Agar suv manbasidagi maksimal loyqa kelishi muddati kanalni normal suv sarfi bilan ishlash muddatiga to‘g‘ri kelsa, loyqa cho‘kmaslik normal suv sarfi bilan hisoblanadi.

Kanallarni loyihalashda: trapetsiya shaklidagi qirqimli kanallarning razmyerlari *normal suv sarfi bo‘yicha tekis harakat formulalariga asosan hisoblanadi*.

Har qanday sug‘orish tarmog‘ining gidravlik hisobini bajarish uchun quyidagi

ma'lumotlar kerak bo'ladi:

- hisobiy qismning hisobiy suv sarflari qiymati (normal, minimal va tezlashtirilgan);
- hisobiy qismning hisobiy nishabligi qiymati;
- o'zan matyeriali va shakli bo'yicha uning g'adir-budirlilik koeffitsienti (n) va yon devorining qiyalik koeffitsienti (m).

### **39-jadval. Kanallar yon devorining qiyalik (m) koeffitsienti qiymatlari**

Kanal o'zanining grunti	Qiyalik koeffitsienti	
	suv ostida	suv ustida
toshli	0-0,5	0-0,25
tosh-shag'al	0,5	0,5
shag'al-qum	1,0	1,0
gil	0,5-1,0	0,5-1,0
qumoq	1,0-1,5	1,0-1,5

### **40-jadval. Kanallar uchun g'adir-budirlilik (n) koeffitsienti**

Grunt va o'zan haraktyeri	G'adir-budirlilik koeffitsienti
Zich grunt (loy,qumoq) to'g'ri va toza o'zan	0,020 – 0,025
Shuning o'zi, ammo: o'zan egri-bugri	0,025 – 0,0275
o'zan toza emas, o'simliklar o'sgan	0,0275 – 0,030
Qumli-shag'al	0,025 – 0,0275
Shag'al	0,0275 – 0,030
Juda tekis, beton qoplama	0,010 – 0,013

### **17.2. Gidravlik hisob usullari**

Sug'orish tarmoqlarining gidravlik hisoblash *grafoanalitik, nomogrammalar orqali* va *injenyer Poyarkov lineykasi yordamidagi usullarda amalga oshiriladi.*

Aniqlangan qiymatlar ko'ndalang kesim yuzaga qo'yiladigan loyqa cho'kmaslik, yuvilmaslik, kam yuza bilan ko'p suv o'tkazuvchanlik, kam suv

isrofgarchiligiga yerishish va barqarorlik shartlarini bajarmagan taqdirda gidravlik hisob qaytadan bajariladi.

*Grafoanalitik* yoki *tanlash uslubida* sug‘orish tarmoqlarining gidravlik hisobi kanallarning suv sarfi:  $K = C \cdot \omega \cdot \sqrt{R}$  va tezlik  $S = C \cdot \sqrt{R}$  xaraktyeristikalarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bunda, kanalning tubi bo‘yicha eni ( $b$ ) ni qabul qilib, undagi suv sathi ( $h$ ) ko‘rsatgichini 3-4 ta qiymatlari byerib,  $K = f(h)$  va  $S = f(h)$  grafiklari chiziladi. Bu grafiklarni chizish uchun hisoblar jadval asosida suvning tekis harakati qonuniyatlarini ko‘rsatuvchi formulalar yordamida amalga oshiriladi.

#### **41-jadval. Sug‘orish tarmog‘ining gidravlik hisobi.**

$b$ , m	$h$ , m	m	n	$\omega$ , $m^2$	$\chi$ , m	R, m	$\sqrt{R}$	S	$S = C \cdot \sqrt{R}$	$K = C \cdot \omega \cdot \sqrt{R}$	$S_0$ , m/s	$K_0$ , $m^3/s$

Kanal tubining eni ( $b$ ) kanal qurish mexanizmiga va suv sarfiga bog‘liq qabul qilinadi:

Muvaqqat ariq uchun:  $b=0,3; 0,4; 0,5$  m.

Shoh ariq uchun:  $b=0,8; 1,0; 1,25; 1,50$  m.

XT va XAK uchun:  $b=1,0; 1,25; 1,50; 2,0; 2,5; 3,0; 4,0; 5,0; 6,0; 7,0; 8,0; 9,0; 10,0$  m.

Kanalning jonli kesim yuzasi:  $\omega = (b + m \cdot h) \cdot h$ ,  $m^2$

Kanalning ho‘llangan pyermetri:  $\chi = b + 2 \cdot h \sqrt{1 + m^2}$ , m

Gdravlik radius:  $R = \frac{\omega}{\chi}$ , m

S-shezi koeffitsienti:  $C = \frac{1}{m} \cdot R^y$ ,


$R < 1$  m bo‘lsa,  $y = 1,5 \cdot \sqrt{n}$ ;  $1 < R < 3$  m bo‘lsa  $y = 1,3 \cdot \sqrt{n}$ ;

Suv sarfi xaraktyeristikasi  $K = C \cdot \omega \cdot \sqrt{R} = \omega \cdot S$ ,  $m^3/s$

Suv tezligi xaraktyeristikasi:  $S = C \cdot \sqrt{R}$ , m/s

Haqiqiy suv sarfi xaraktyeristikasi:  $K_0 = \frac{Q}{\sqrt{i}}$

Kanaldagi suvning haqiqiy tezligi  $V_{haq} = S_0 \cdot \sqrt{i}$ , m/s



143-rasm. Kanallarning suv sarfi va tezligi xaraktyeristikalarini grafigi

Kanalning xaqiqiy suv sarfi ( $K_0$ ) va tezligi ( $S_0$ ) xaraktyeristikalarini

$$\text{Haqiqiy suv sarfi xaraktyeristikasi: } K_0 = \frac{Q}{\sqrt{i}}$$

Kanaldagi suvning haqiqiy tezligi  $V_{haq} = S_0 \cdot \sqrt{i}$ , m/s

formulalardan aniqlanadi.

Kanaldagi suvning yuvilishga yo'l qo'yilgan chegaraviy tuzligi:

$$v_y = 0,95 \cdot v_{ypm} \cdot R_0^{\frac{1}{3}}, \text{ m/c}$$

$v_{ypm}$  – gidravlik radius  $R=1$  bo'lganda yuvilishga yo'l qo'yilgan o'rtacha tezlik,

QMva Q P.52.74 bo'yicha qo'yidagicha qabul qilinadi:

- engil qumoq tuproqlar uchun  $v_{or} = 0,7 - 0,9 \text{ m/c}$

- o'rta qumoq tuproqlar uchun  $v_{or} = 0,75 - 1,0 \text{ m/c}$

- og'ir qumoq tuproqlar uchun  $v_{or} = 0,85 - 1,2 \text{ m/c}$

- gil tuproqlar uchun  $v_{or} = 0,9 - 1,25 \text{ m/c}$

$v_{xak} < v_y, \text{ m/c}$  bo'lishi shart, aks holda kanal nishabligi chegaraviy yo'l

qo'yilgan nishablik bo'yicha loyihalanadi:

$$i = \frac{v^2}{C^2 \cdot R_0}$$

Sug‘orish tarmoqlarini *injenyer Poyarkov* lineykasi yordamida gidravlik hisoblash maxsus injenyer Poyarkovning gidravlik lineykasida, opyeratsiyalarni keltirilgan ketma-ketlikdagi amalga oshirish orqali bajariladi:

- kanal ko‘ndalang kesimini hisoblash;
- kanaldagi suv tezligini aniqlash;
- kanal suv sarfi yoki nishabligini aniqlash;
- kanalni byerilgan tezligi asosida hisoblash.

Injenyer Poyarkovning gidravlik lineykasida undan foydalanish tartibi keltirilgan va u:  $Q, i, n, A, b$  ketma-ketligida amalga oshiriladi.

### **17.3. Bosimli yopiq sug‘orish tarmoqlarining gidravlik hisobi**

*Egiluvchan sug‘orish quvurning gidravlik hisobi.*

$$\text{Egiluvchan sug‘orish quvurning diametri: } d = 1,13 \cdot \sqrt{\frac{Q}{v}}, \text{ m}$$

bu yerda: Q-egiluvchan sug‘orish quvurining suv sarfi,  $\text{m}^3/\text{s}$ ; v-quvur boshidagi suv tezligi, egiluvchan quvur uchun  $v=1,5 \text{ m/s}$ ;

Agar suvning loyqaligi  $1,5 \text{ l/s}$  dan katta bo‘lsa,  $v=2,0 \text{ m/s}$  deb qabul qilish mumkin.

*Egiluchan sug‘orish quvurlaridagi teshiklarning diametri:*


$$d = \sqrt{\frac{q_e}{3,48 \cdot \mu \cdot \sqrt{h}}}, \text{ m}$$

bu yerda:  $q_e$  – har bir egatga byeriladigan suv sarfi,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;

$\mu$  – suv sarfi koeffitsienti, polietilen quvurlar uchun  $\mu = 0,6$ ;

$h$ -teshikdagi pezometrik bosim,  $h = 2,8 \cdot D_{e,q}$ ,  $\text{m}$

*Yopiq sug‘orish tarmoqlarining gidravlik hisobi* nomogrammalar orqali ham hisoblash mumkin. Bunda quvurning suv sarfi shkalasidagi qiymati bilan quvurning nishabligi shkalasidagi qiymatini chizg‘ich orqali birlashtirib, uning diametri va undagi suv tezligi aniqlanadi.




144-rasm. Nomogrammalar orqali hisoblash usuli

#### 17.4. Sug‘orish tarmoqlarida suv sath balandligini belgilash

Har bir suv bo‘lish nuqtasida yuqori tartibdagi kanalining suv sath qiymati quyi tartibnikidan baland bo‘ladi. Bu farq qiymatining katta bo‘lishi suv chiqaruvchi inshoot o‘lchamining kichik bo‘lishiga, lekin shu bilan birga katta tartibli kanal dambasi o‘lchamining katta bo‘lishligiga olib keladi.

Kanallarda suv sathining yer yuzasiga nisbatan ma’lum miqdorda baland bo‘lishligi **boshqarish balandligi** deb yuritiladi. Kanal tartibi ortib borgan sari bu qiymat ham ortib boradi.




145-rasm. Sug‘orish tarmoqlarida suv sath balandligini belgilash

### 17.5. Kanallarning bo‘ylama va ko‘ndalang qirqimlari

Muvaqqat ariqning bo‘ylama qirqimini loyihalashda uning uzunligi bo‘yicha piketlar qo‘yib chiqiladi va ular bo‘yicha kanal trassasidagi yer sathi chizig‘i chiziladi. Nol piket qilib shox ariqdan suv olayotgan muvaqqat ariqning boshi olinadi. Piketlardagi yer balandliklari (otmetkalari) gorizontallar asosida intyerpolyasiya usulida aniqlanadi. Muvaqqat ariqlar kanal qazgichlarda qurilishi munosabati bilan uning trassasi bo‘ylab, balandligi 0,3 metr bo‘lgan tuproq yostiq (podushka) – o‘simglik qatlami olingan va qattiq zichlangan ko‘tarma quriladi (36-chizma). Ularning eni traktorning g‘ildiraklari orasidagi masofa (2,40 sm) dan katta, ya’ni kamida 2,50 sm bo‘lishi kerak.

Muvaqqat ariqning suv sathini sug‘oriladigan maydon sathidan 10-15 sm baland qilib olib (boshqarish balandligi), tekislangan dalaning nishabligi bo‘yicha kanalning suv sathi chizig‘i chiziladi va har bir piketdagি uning qiymati aniqlab chiqiladi. Muvaqqat ariqning suv sathi tuproq yostiq (podushka) balandligi bilan teng qilib olinadi. Shu munosabat bilan, yostiq balandligini aniqlash uchun uning sathidan yerning sathi ayiriladi.



146-chizma. Muvaqqat ariqning bo‘ylama qirqimi

Shox ariqlarning bo‘ylama qirqimini loyihalashda, uning uzunligi bo‘yicha piketlar qo‘yib chiqiladi va ular bo‘yicha kanal trassasidagi yer sathi chizig‘i chiziladi hamda undan suv oluvchi muvaqqat ariqlarning nuqtalari belgilanganadi. Hisoblangan muvaqqat ariq suv oladigan nuqtasida shox ariqning suv sathi aniqlanadi. Bunda shoh ariqning suv sathi muvaqqat ariqning suv sathidan 10 sm yuqori bo‘lishi lozim. Shunga o‘xhash ravishda barcha muvaqqat ariqlar suv oladigan nuqtalardagi shox ariqning suv sathi aniqlanadi. Loyihalangan shoh ariqdagi suv sathining nishabligi quyidag formuladan aniqlanadi:

$$i_{sh.a} = (N_1 - N_2)/L_{sha}$$

bu yerda:  $N_1$  va  $N_2$  shoh ariqning boshi va ohiridagi suv sathi balandligi;


$L_{sha}$  - shox ariqning uzunligi.

Shox ariqlarni loyixalashda, muvaqqat ariqlarning suv olishi munosabati bilan, undagi suv sarfini katta o‘zgarishi mayjudligini e’tiborga olish kerak. Shox ariqning muvaqqat ariqlarni boshqarish balandligini ta’minlash uchun ularda suv dimlovchi inshootlar (podporoqe soorujenie) ko‘zda tutiladi. Ularning o‘rni va soni shoh ariqning nishabligi va suv olish nuqtasidagi zarur bo‘lgan dimlash balandligiga bog‘liq bo‘ladi. Agar, dimlash balandligini  $\Delta h$  deb belgilasak, suv dimlovchi (to‘suvchi) inshootlar orasidagi masofa dimlash uzunligiga teng bo‘ladi:

$$L_0 = \Delta h / 0,5 L_{suv}$$

bu yerda:  $L_{suv}$  – shoh ariqdagi suvning nishabligi.

Shox ariqlarda dambadagi zahira 0,2 m, dambaning tepasini eni 0,5 m dan kichik bo‘lmasligi kerak (140-rasm).




147-rasm. SHoh ariqning bo‘ylama qirqimi

Xo‘jalik ichki kanalining bo‘ylama qirqimini loyihalashda, uning uzunligi bo‘yicha piketlar qo‘yib chiqiladi va ular bo‘yicha kanal trassasidagi yer sathi chizig‘i chiziladi hamda undan suv oluvchi shoh ariqlarning nuqtalari belgilanadi. Hisoblangan shoh ariqning suv oladigan nuqtasida, shoh ariqni bo‘ylama qirqimini loyihalashda aniqlangan suv sath asosida xo‘jalik ichki kanalining suv sathi aniqlanadi. Shunga o‘xshash ravishda barcha shoh ariqlar suv oladigan nuqtalardagi xo‘jalik ichki kanalining suv sathi aniqlanadi.

Xo‘jalik ichki kanalida suv sarflarining shoh ariqlar suv olishi munosabati bilan keskin o‘zgarishi munosabati bilan, ular uchastkalarga ajratilib, loyihalanadi. Kanalning boshqarish balandligi shartini bajarish uchun ulardagi suv sathi shoh ariqdagi maksimal suv sathidan 10-15 sm baland bo‘lishi kerak.

Xo‘jalik ichki kanalining gidravlik hisobida aniqlangan normal suv sarfidagi kanaldagi suvning chuqurligi ( $h_{nor}$ ) asosida kanal tubining sathi aniqlanadi.



148-rasm. Xo‘jalik ichki kanalining bo‘ylama qirqimi

Kanal tubining sathiga minimal suv sarfidagi ( $h_{min}$ ) va tezlashgan (jadallahsgan) suv sarfidagi ( $h_{tez}$ ) kanaldagi suvning chuqurliklarini qo'shish orqali kanaldagi minimal va tezlashgan suv sarflaridagi suv satxlarining chiziqlari chiziladi. Piketlardagi qazish chuqurligi yer va kanal tubining sathlari, to'kma balandligi esa, damba balandligi va yer sathlari farqi orqali aniqlanadi.

Barcha kanallarning gidravlik hisoblashda aniqlangan gidravlik elementlari bo'ylama qirqimning "Gidravlik elementlar" grafasiga jadval holda har bir uchastka bo'yicha kiritiladi. Shu grafada kanalning ko'ndalang kesimi parametrlari ko'rsatilgan holda byeriladi. Kanalning ko'ndalang kesimi ham kanalning har bir hisobiy uchastkasi bo'yicha loyihalanadi.

### **Nazorat savollar**

1. Kanallarni gidravlik hisobining mohiyati nimadan iborat?
2. Kanallarni qanday gidravlik hisoblash usullari mavjud?
3. Kanallarni grafoanalitik usulda gidravlik hisobini tushuntiring.
4. Kanallarni nomogrammalar orqali gidravlik hisobini tushuntiring.
5. Kanallarni inj. Poyarkov lineykasi yordamida gidravlik hisobini tushuntiring.
6. Kanallar tubining eni qanday aniqlanadi?
7. Kanallarning suv sarfi xaraktyeristikasi qanday aniqlanadi?
8. Kanallarning suv tezligi xaraktyeristikasi qanday aniqlanadi?
9. Kanallarning xaqiqiy suv sarfi xaraktyeristikasi qanday aniqlanadi?
10. Kanaldagi xaqiqiy suv tezligi qanday aniqlanadi?
11. Kanal yuvilishi bo'yicha chegaraviy suv tezligi qanday aniqlanadi?
12. Kanalning yuvilishi bo'yicha chegaraviy nishabligi qanday aniqlanadi?
13. Sug'orish tarmoqlarida suv sath balandligi qanday belgilanadi?
14. Kanallarning bo'ylama va ko'ndalang qirqimlari qanday loyihalanadi?

## **18. KANALLARDAGI SUV ISROFGARCHILIGI VA UNING OQIBATLARI**

### **18.1. Suv isrofgarchiligining turlari**

Sug'orish tarmoqlari orqali suv manbasidan sug'orish dalasigacha « $Q$ » suv

sarfini yetkazib berish jarayonida, tizimda ma'lum bir suv isrofarchiligi kuzatiladi, ya'ni tizimning bosh qismidagi suv  $Q_{up}$  ma'lum bir  $L$  masofadan keyindagi  $Q_{inf}$  suv sarfiga nisbatan katta bo'ladi.

Bu isrof  $Q_l$ , uning tahliliga asosan (13-rasm), quyidagilardan tashkil topadi:


$$Q_l = Q_f + Q_E + Q_T, \text{ m}^3/\text{s},$$

bu yerda  $Q_f$ -o'zan tubiga sizilib yo'qolgan suv miqdori,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $Q_E$ -suv yuzasidan havoga bug'langan suv miqdori,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $Q_T$  -texnik sabablarga ko'ra yo'qolgan suv miqdori  $\text{m}^3/\text{s}$ .

Amaliyotda aniqlanilishicha, suv isrofining turlari bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

Umumiy suv isrofidan: sizilishga - 90-95%; bug'lanishga - 2-4%; texnik sabablarga ko'ra - 3-6% suv yo'qotiladi.

Agar  $Q_l$  ni 100% deb qarasak, unda uning sug'orish tarmoqlaridagi taqrifiy taqsimotini  $100=95+2+3$  deb belgilash mumkin.



149-rasm. Kanalda suvning isrof bo'lishi sxemasi

Bundan,  $Q_l = Q_f$  deb qabul qilish mumkin bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, suv omborlaridan isrof bo'ladigan suv miqdorida  $Q_E = 20\%$  gacha borishini, texnik avariyalarda  $Q_T = (15 - 20)\%$  gacha borishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Sug'orish tarmoqlarida suv isrofarchiligi qiymati hozirgi kunda respublikamiz sug'orish tizimlarida suv manbasidan sug'orish uchun olinadigan suvning 50% ga yaqinini tashkil etmoqda.

Sizilishga bo‘lgan suv isrof qiymati kanal o‘zani tuprog‘ining suv o‘tkazuvchanligi, kanalning uzunligi va undagi suv sarflari miqdoriga bog‘liq bo‘lib, uning miqdori sug‘orish tarmog‘ining ish rejimiga, kanal tubining holatiga, ish mavsumiga, tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liqdir.

Tuproq o‘zanli sug‘orish tarmoqlarida, sizilishga bo‘lgan suv isrofi kanalning dastlabki ish davrida (qurilishdan keyingi) katta qiymatga ega bo‘ladi. Keyinchalik kanal tubi va yon devorlarining shibbalanishi hamda loyqa cho‘kishi natijasida, bu qiymat keskin kamayadi. Bu holat yarim qazma va yarim to‘kma hamda qazma kanallar uchun o‘rinlidir.

Agar kanal to‘liq to‘kmada o‘tgan bo‘lsa, teskari holat namoyon bo‘ladi. Ba’zida, kanallarda suv isrof bo‘lishining keskin ortishi ularda ildiz poyali o‘simpliklarning o‘sishi yer kovlovchi jonivorlar hosil qilgan teshiklar sababli ham vujudga keladi. Kanal o‘zani loyqalardan tozalanganda suv isrofi ortadi, so‘ngra loyqa cho‘kishi bilan yana kamayadi. Yilning issiq davrida isrof miqdori ortib kuz va qishda bu qiymat kamayadi.

Kanal bir xil rejimda ishlaganda suv isrofi nisbatan kam bo‘ladi. Kanal ish rejimining tez-tez o‘zgarib turishi va ayniqsa, kanalda suv sarfining kam bo‘lishi, suv isrofi qiymatining nisbatan ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Suv sizilishiga quyidagi omillar ta’sir etadi:

- kanal o‘zani tuprog‘ining suv o‘tkazuvchanligi;
- kanalning uzunligi;
- kanaldagi suv sarflari miqdori;
- sug‘orish tarmog‘ining ish rejimi;
- kanal o‘zanining holati;
- ish mavsumi;
- tabiiy shart-sharoitlar.

### **18.2. Suv isrofgarchiligining absolyut va nisbiy qiymatlari**

Sug‘orish tarmog‘ining butun uzunligi bo‘yicha yo‘qotilgan suv sarfi miqdori *absolyut (mutlaq) suv isrofi* deyiladi, quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_l = Q_{up} - Q_{inf}, \text{ M}^3/\text{c}$$

*Nisbiy suv isrofi* bu sug‘orish tarmog‘ining 1 km uzunligida yo‘qotilgan suv miqdori-ning netto suv sarfiga nisbatan foizi bilan ifodalanuvchi ko‘rsatkichdir.

$$\sigma = \frac{Q_{spl}}{Q_{nt}}, \% / \text{km}$$

$$\sigma = \frac{A}{Q_{nt}^m}, \% / \text{km}$$

bu yerda:  $A$  -tuproqning suv-fizik xossalariiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsient;  $m$  - daraja ko‘rsatkich koeffitsienti.

#### **42-jadval. A va m ko‘rsatkichlari jadvali.**

Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi	A.N.Kostyakov tavsiyasiga asosan		ISMITU tavsiyasiga asosan	
	$A$	$m$	$A$	$m$
yuqori va kuchaygan (qum, qumoq, soz tuproq)	3,4	0,5	2,85...3,5	0,5
o‘rtacha (engil va o‘rtacha soz tuproq)	1,9	0,4	1,87...2,3	0,5
sust (og‘ir soz tuproq, gil)	0,7	0,3	1,0...1,3	0,5

### **18.3. Suv isrofgarchiliginin oqibatlari va suv isrofgarchiligiga qarshi kurash tadbirlari**

Sug‘orish tarmog‘idagi suv isrofi, avvalo, suv manbasining sug‘orishlik qobiliyatini kamaytiradi, sug‘orish tarmog‘i ko‘ndalang kesimi o‘lchamlarining katta bo‘lishiga olib keladi, sug‘orish maydonlari gidrogeologik shart-sharoitlarining yomon tomonga o‘zgarishiga, maydonlarining botqoqlanishi va sho‘rlanishiga sabab bo‘ladi.

Suv isrofgarchiligi qiymati sug‘orish tarmog‘ining ish rejimi (doimiy va vaqtinchalik ishlashi, suv sathlarining o‘zgarishi), tuproq va gidrogeologik sharoitlarga ko‘ra turlicha bo‘ladi.

Ba’zi holatlarda  $Q_l = const$  (doimiy) – yerkin sizib o‘tish, ba’zi hollarda

$Q_l \neq const$  (o‘zgaruvchan) – tiralgan sizib o‘tish va to‘yingan tuproqqa yoki to‘yinmagan tuproqqa sizib o‘tish holatlari uchraydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, suv isrofgarchilagini aniqlash juda mushkul ishlardan biridir.

Hozirda sug‘orish tarmoqlarining FIK qiymatini oshirishda texnikaviy va ekspluatatsion chora-tadbirlar qo‘llanilmoqda.

Bu tadbirlar asosan, ularni qurish jarayonida, aksariyat hollarda esa ulardan foydalanish jarayonida amalga oshiriladi.

**Texnikaviy chora-tadbirlar** asosan, sug‘orish tarmog‘i o‘zanidan suvning sizib yo‘qolishiga qarshi qo‘llaniladigan ishlar majmuasi hisoblanib, ular orqali kanal o‘zani tuprog‘ining suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati kamaytirilishi yoki maxsus o‘zidan suvni juda kam suv o‘tkazadigan qoplamlar hosil qilinishi ko‘zda tutiladi va mexanik, kimyoviy, qurilish tadbirlari ko‘rinishida amalga oshiriladi.

**Mexanik tadbirlar.** Kanallarning ko‘ndalang o‘zanlarini undan suvning sizib o‘tish miqdori ( $Q_l$ )ni minimal qiymatga javob byeradigan qilib hosil qilish.

Bu holat har qanday kanal hisobiy qismining ko‘ndalang kesim yuzasi ushbuga javob byersa, unda bu yuza eng ko‘p suv o‘tkazuvchan va eng kam suv sizilish isrofiga ega bo‘ladi.

*Kanal o‘zanini shibbalash.* Bu uslubda suv isrofi 50-60% ga kamayadi. Uni amalga oshirish yo‘llari turlichadir. Tuproq maqbul namlikka yerishganda (og‘ir sog‘ tuproqlarda 22-25%, o‘rta sog‘ tuproqlarda 21-23%, yengil sog‘ tuproqlarda 15-18%, qumoq tuproqlarda 12-15%) ekskavator xartumiga osilgan og‘irligi 3-5 t li yuk (temir-beton plita) 3-5 m balandlikka ko‘tarilib bir joyga 3-9 marotabagacha tashlanadi. Zichlangan tuproq qalinligi 40-50 sm bo‘lganda bu tadbir 3-5 yil xizmat qilishi mumkinligi Mirzacho‘lda o‘tkazilgan tajribalardan ma’lumdir.

Kichik kanallarda g‘altakli matin (kotok) lar ham qo‘llaniladi.

*Davriy ishlaydigan kanallarning o‘zanini yumshatish.* Bu usulda davriy ishlaydigan sug‘orish tarmoqlarining o‘zani ularga suv berishdan oldin va so‘ngra 10-15 sm chuqurlikdagi kultivatorlar bilan yumshatilishiga asoslangandir. Bu usulda ushbu kanallarda suv isrofgarchiligi 40% gacha kamayishi kuzatilgan.

*Kolmatatsiya qilish (loyqa cho'ktirish).* Bu usul kanal o'zanidagi tuproq g'ovakliklari (yirik zarrachalar orasidagi bo'shliqlar)ni suvdagi loyqa zarrachalari bilan to'ldirishga asoslangandir. Suvdagi loyqa zarralarining kanal o'zaniga cho'kishi natijasida o'zanning sizilish koeffitsienti qiymatining keskin kamayib ketishi (20-30 marotaba) sug'orish amaliyotidan ma'lum va hozirda ham u ayniqsa, Markaziy Osiyo loyqa suv manbalaridan (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon) sug'orish tizimlariga suv olinganda namoyon bo'lib turadi. Bu holat, ayniqsa, qayta qurilgan Amu-Buxoro va Qoraqum kanallarida juda qo'l kelgan.

*Kimyoviy tadbirlar.* Bentonit gil tuproqlarini qo'llash. Bu tuproqlar tarkibida «mont-morillonit» minyerallar mavjud bo'lib, tuproq namlanganda ular juda kuchli darajada shishib, o'zidan suv o'tkazmaydigan xususiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo (Xorazm, Angren, Buxoro, Dalvarzin va h.k.) da katta miqdorda bentonit zaxiralari mavjudligini, ularni qum va shag'alli kanal o'zanlarida qo'llash yaxshi natijalar berishi tajribalarda tasdiqlanganligini hisobga olsak, bu tadbirning qanchalik hayotiy ekanligini ko'rish mumkin.

Jumladan, filtratsiya koeffitsienti 20,8 m/kun bo'lgan qumning 15-17% bentonit va 85-83% qum aralashmasidan hosil qilingan 10 sm li ekranning filtratsiya koeffitsienti 0,0017 m/kun bo'lganligi tajribada aniqlangan.

*Gruntni bitumlash* qumoq tuproqni bitum emulsiyasi bilan aralashtirib yoki issiq bitum emulsiyasini to'g'ridan-to'g'ri berish orqali amalga oshiriladi.

Birinchi holatda 50 °C gacha qizdirilgan bitum emulsiyasi 16-24% hajmida qumoq tuproq bilan aralashtirilib, kanal o'zaniga yotqiziladi va zichlanadi.

Ikkinci uslubda esa 150 °C gacha qizdirilgan bitum emulsiyasi 1 m<sup>2</sup> yuzaga 4-9 kg miqdorida sepilish orqali amalga oshiriladi. Emulsiya tarkibida bitum 40-50% bo'lishi va bitum rusumi yuqori bo'lishi kerak.

Bu tadbir 3-4 yilgacha o'z ta'sirini o'tkazib, suv isrofini 2-4 marotabagacha kamaytiradi.

*Gruntlarni tuzlash* natijasida gruntning suv o'tkazuvchanligi keskin kamayadi. Ular 2 xil ko'rinishda - ochiq yuzaga va himoyalangan yuzaga qizdirilgan osh tuzining yuqori konsentratsiyali yeritmasini (1 m<sup>2</sup> ochiq yuzaga 5 kg,

himoyalangan yuzaga 3 kg tuz yeritmasi) sepish orqali amalga oshiriladi. Bunday yuzalarda o‘tlar o‘smanydi va 5-8 yil xizmat qilib, unda suv isrofi 2 marotabaga kamayadi. Ammo karbonatli gruntlar uchun bu uslub qo‘l kelmaydi.

*Gruntlarni silikatlash* gruntga suyuq shishani bosim ostida berishga asoslangan. Bu holda natriy kremneftorid yoki kalsiy xlorid yeritmasi bilan silikat kislota ajralib tuproq kovakchalarida mahkam o‘rnashib qoladi.

Bu tadbir sho‘r tuproqlarda va yog‘ingarchilikda yaxshi natija byermaydi, lekin sovuqqa chidamli va plastikdir.

***Qurilish tadbirlari.*** *Beton yoki temir-beton qoplamlar.* Kanal o‘zanini bunday qoplamlar bilan qoplash asosan, suv juda tanqis, suv tezligini boshqarish zaruriyati bo‘lgan tizim qismlari va inshootlarda, kanal o‘zani ko‘p suv o‘tkazuvchan tuproqlarda qo‘llanilib, ular suv isrofgarchilagini 90-95% gacha kamaytirish imkonini byeradi va uzoq yillar (25-30 yil) xizmat qiladi.

Beton qoplalmalarning qalinligi mexanik tarkibi o‘rtta tuproqlarda 7-15 sm, mexanik tarkibi yengil tuproqlarda 18-20 sm bo‘lsa, temir-beton qoplamlar va plitalar 5-8 sm qalinlikda yotqiziladi. Kanal yon devorining qiyaligi  $m = 1-1,5$ . Ulardagi konstruktiv (har 3-4 m dagi) va harorat (har 10-12 m dagi) choklar, aksariyat hollarda, umumlashtirilib, mastika, qorasaqichlar bilan to‘ldiriladi.

*Nov (lotok) va quvurlar.* Hozirgi vaqtida, asosan, xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlari nov (lotok) va quvurlar bilan jihozlanmoqda. Bu holatda suv isrofgarchiligi 96-98% gacha kamayibgina qolmasdan, bu tizimlarda hosil qilinadigan bosimdan qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda foydalanish mumkin. Novlardan to‘g‘ri foydalanylганда ular uzoq muddat xizmat qilishi muqarrar.

*Asfalt (bitum minyeral moddalar aralashmasi) matyeriali qoplamlar.* Bu qoplalmalarning qalinligi 5-8 sm bo‘lib, ular zichlangan yoki 10-15 sm qalinlikdagi shag‘al yotqizilgan to‘sham ustiga yotqiziladi.

Bu qoplamlarni o‘t o‘lan teshishi mumkinligini hisobga olib, asfalt yotqiziladigan asosga suyuq beton qoplamasini to‘shalishi yoki asosga gyerbitsidlar bilan ishlov byerilishi kerak. Bu qoplama matyerial ochiq ko‘rinishda: a) armaturalangan yoki armaturalanmagan asfalt-beton; b) yig‘ma asfalt-beton plitalar

va yopiq armaturalangan yoki armaturalanmagan asfalt «bo‘yra» ko‘rinishdagi to‘shamlar shaklida bo‘ladi. Yopiq holatda bo‘lgan asfalt «bo‘yra» lar ustidan 20 sm qalinlikdagi tuproq to‘shami to‘shaladi.

Bu qoplamar suv isrofini 80-90% kamaytirib, uzoq xizmat qilishi aniqlangan.

*Plastik (egiluvchan) matyerialli qoplamar.* Qalinligi 0,1-0,2 mm bo‘lgan plastmassa plyonkalari (polietilen, polivenilxlorid va h.k.) suv isrofini 90-95% ga kamaytirsa-da, 2-3 mavsumdan so‘ng (ayniqsa, ularning ustida himoya to‘shami bo‘lmasa) o‘z xususiyatlarini yo‘qtishi kuzatilgan. Bu qoplamar beton qoplama to‘shamlari qatlamlari orasida ham qo‘llaniladi. Bu qoplamalarning ustiga himoya qatlam (tuproq yoki beton) to‘shalganda ularning xizmat muddati uzayadi.

*Gil tuproqli qoplamar yoki gil ekranlar.* Bu ekran yoki qoplama gil va og‘ir soz tuproqlar o‘zlarining yoki bentonit bilan aralashmasining 30 sm li to‘shami ko‘rinishida yoki ustida 30-40 sm li tuproq to‘shami bo‘lgan 5-8 sm li to‘sham ko‘rinishida bo‘ladi. Bunday qoplamar suv isrofini 60-80% ga kamaytiradi. Shu o‘rinda tarkibi 60-65% gil, 35-40% qum-shag‘al bo‘lgan, qalinligi 10-15 sm li glinobeton to‘shami ham suv isrofini kamaytiradi. Bunday ekranli kanaldagi suvning tezligi 0,7-0,8 m/s dan oshmasligi kerak.

*Tosh va g‘isht qoplamar,* asosan, tog‘li va tog‘oldi sug‘orish tizimlarida qo‘llanilib, suv isrofini 50-60% ga kamaytirishi va 20-30 yil xizmat qilishi kuzatilgan. Bu tadbir, asosan, qo‘l kuchi bilan bajarilishini hisobga oladigan bo‘lsak, juda qimmat va kam unumli tadbirlar tarkibiga kiradi.

**Ekspluatatsion chora tadbirlar.** *Suvdan foydalanish rejasi asosida sug‘orish.* Bu rejadan chetlanish (suvni kam yoki kyeragidan ortiq olish, belgilangan muddatlarda olmaslik, sug‘orish rejalarini bajarmaslik), xo‘jasizlik va suvdan samarasiz foydalanish natijasi, ortiqcha suv isrofgarchiligiga sabab bo‘ladi. Bunda sug‘orish dalalari sug‘orish uchun oldindan tayyorlangan bo‘lib, sug‘orish kun-tun amalga oshirilishi natijasida suvning (chuqur qatlamlarga, tashlamaga) foydasiz isrofi 10-20% qisqaradi.

*Sug‘orish tarmoqlarining umumiy uzunligini qisqartirish.* Suv isrof qiymati

tizim uzunligiga to‘g‘ri proporsional, ya’ni kanal qancha uzun bo‘lsa, suv isrofi shuncha ko‘p bo‘ladi. Sug‘orish kanallarining uzunligini kamaytirish uchun sug‘orish maydonlari qayta qurilishi (sug‘orish dalalarining maydonini kengaytirish (15-30 ga), yyerlarning tekislanishi, zamonaviy sug‘orish texnikalari qo‘llanilishi va h.k.) kerak.

*Suvdan navbat bilan foydalanishni joriy etish.* Suv isrofining solishtirma qiymatini aniqlashda kanaldagi suv sarfi qancha katta bo‘lsa, solishtirma qiymat shunchalik kichik bo‘ladi, demak, suv isrofi ham kam bo‘ladi. Sug‘orish suvi taqchil davrlarda suv sarfini suv iste’molchilari o‘rtasida taqsimlashda navbatni joriy etish, sug‘orish suvini bir sug‘orish maydoniga to‘plash ish unumi va tizimning FIK qiymatining oshishiga olib keladi.

*Sug‘orish tarmoqlarini o‘z vaqtida ta’mirlash, o‘t bosgan kanallarni o‘z vaqtida tozalash.* Sug‘orish tarmoqlarini o‘z vaqtida, ya’ni sug‘orish mavsumidan oldin ta’mirlamaslik yoki avariya bo‘lgan joylarda tezda chora tadbirlar belgilamaslik katta miqdordagi suv isrofiga sabab bo‘ladi. Buning uchun tizimdagи texnik xizmat tashkilotlari o‘z ishini reja asosida amalga oshirishlari va ular kerakli texnika, matyerial va jihozlar bilan ta’minlangan bo‘lishlari kerak. Sug‘orish tarmoqlarida begona o‘tlarga qarshi kurashishda kanalga suv ochishdan 3-4 hafta oldin kanal o‘zani gyerbitsidlar bilan ishlov byerilishi kerak. O‘t bilan qoplangan meliorativ tarmoqlar mavsum oldidan tozalanishi kerak, chunki tozalanmagan kanal tozalangan kanalga nisbatan 25-30% ko‘p suv isrof qiladi.

$$Q = \omega \cdot v, \quad v = C \cdot \sqrt{R \cdot i}, \quad C = \frac{I}{n} \cdot R^y \quad \text{larning tahlili quyidagicha:}$$

$n=0,5\dots 1$  - tozalanguncha,  $n=0,02\dots 0,03$  - tozalangach, demak suv tezligi ortadi,  $Q$  ko‘payadi,  $\sigma$  kamayadi,  $Q_l$  kamayadi (5-10%).

*Davriy ishlaydigan kanallarning yorilgan o‘zan yuzasini yumshatish.* Sug‘orish tarmoqlaridan to‘g‘ri foydalanish, ya’ni ularning damlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, kyeragidan ortiq suv olmaslik.

Suv tugunlaridagi inshootlardan suvning sizilishini bartaraf etish, ularni ta’mirlash suv isrofini 5-10% ga kamaytiradi.

Sug‘orish suvini mayda bo‘laklarga bo‘lmay sug‘orishni amalga oshirish.

*Suv sathi ustida (ayniqsa, suv omborlarida) monomolekular plyonka hosil qilish, ya’ni suv bilan aralashmaydigan va bug‘lanmaydigan yog‘li spirt (ortadekanol, geksadekanol va h.k.) ni 1 m<sup>2</sup> suv sathi yuzasiga 0,05 g miqdorda yoyish. Bu holda, suv yuzasidan bo‘ladigan bug‘lanish (kuniga) 77% gacha kamayishi qayd etilgan.*

Hayotda u yoki bu suv isrofgarchiligidagi qarshi kurashish tadbirlarini qo‘llash quyidagilarga bog‘liqdir:

- qo‘llaniladigan matyeriallarning mustahkamligi va chidamligigi;
  - mahalliy tabiiy shart-sharoitlarda tadbirni qo‘llash imkoniyatining mavjudligi;
  - qo‘llaniladigan tadbirlarni amalga oshirish ishining mexanizatsiyalashganligi;
- ekologik va iqtisodiy hisob-kitoblar.

### **Nazorat savollari**

1. Suv isrofgarchiligining qanday turlari mavjud?
2. Suv isrofgarchiligining turlarining miqdorlari.
3. Suv sizilishiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
4. Absolyut (mutlaq) suv isrofi nima va qanday aniqlanadi?
5. Nisbiy suv isrofi nima va qanday aniqlanadi?
6. Suv isrofgarchilagini aniqlash usullari
7. Suv isrofgarchilagini aniqlashning o‘xshatish (qiylash) usuli
8. Suv isrofgarchilagini aniqlashning empirik bog‘liqliklar usuli
9. Suv isrofgarchilagini aniqlashning nazariy usuli.
10. Sug‘orish tarmog‘idagi suv isrofi oqibatlari
11. Suv isrofgarchiligining nisbiy qiymati qanday aniqlanadi?
12. Suv isrofgarchiligining absolyut qiymati qanday aniqlanadi?

## **19. SUV MANBALARI, ULARNING HUSUSIYATLARI. DARYO VA YER OSTI SUV MANBALARI**

### **19.1. Suv manbasining turlari**


**Suv resurslari** – gidrosfyeradagi doimiy va tabiatda aylanish jarayonida

qaytadan tiklanib turuvchi suv zahirasi bo‘lib, unga okeanlar, dengizlar, daryolardagi suvlar, muzliklar, yer osti va tuproqdagi suvlar, atmosfyeradagi suvlar kiradi.

Suv zahiralarini miqdorini baholashda uning *doimiy (statistik)* va *qaytadan tiklanib turuvchi* suv resurslari tushunchasi mavjud.

*Doimiy (statistik)* suv zahiralari statistik hisoblashlarda foydalaniladigan mavjud barcha suv miqdoridir.

*Qaytadan tiklanib turuvchi* suv resurslari zamonda (vaqtida) o‘zgaruvchi, ya’ni bir turdan boshqa turga o‘zgarib turuvchi suvlar bo‘lib, yer sharida suvning aylanishi hamda quruqlik va okeanlar o‘rtasida suv almashinushi natijasida har yili tiklanib turadi. U asosan daryolarning yillik oqimiga tengdir.



150-rasm. Yer sharida suvning aylanishi

Sug‘orma dehqonchilikda suv manbalar bo‘lib:

- yer usti suvlar: tabiiy daryolar va ko‘llar, sun’iy suv omborlari;
- maxalliy oqim: tabiiy va sun’iy havuzlarda yig‘ilgan atmosfyera yog‘inlari suvlar;
- yer osti suvlar;
- chiqindi suvlar;
- tashlama va zovur suvlar;
- dengiz suvlar (qayta ishlangan) hisoblanadi.

Bir marta sug‘orish uchun suv manbasi bo‘lib, *limanlarda* ushlab qolinadigan maxalliy oqimlar xizmat qiladi.

Sug‘oriladigan maydonlarda bir nechta suv manbalari mavjud bo‘lsa, ularni

tanlash texnik-iqtisodiy hisoblar orqali amalga oshiriladi.

Suv manbalaridan foydalanishda albatta ulardan kompleks foydalanish, ya’ni qishloq xo‘jaligi, kommunal xo‘jalik, sanoat, gidroenyergetika, baliqchilik, suv transporti va boshqalarni suv bilan ta’minlash masalalari ko‘riladi.

*Suv manbalarining ko‘rsatgichlari.* Sug‘orish uchun suv manbalari quyidagi ko‘rsatgichlari bilan baholanadi: suvining sifati, yillik va vegetatsiya davridagi suv oqimi miqdori, suv oqimining yillar bo‘yicha o‘zgarib turishi, suv sarfi rejimi, sathi va bosimining rejimi, sug‘oriladigan maydonga nisbatan joylashganligi.

Suvining sifati uning *harorati*, *mekanik oqiziqlar miqdori*, *mineralizatsiyasi* va *kimyoviy tarkibi*, *baktyeriologik tarkibi* bilan xaraktyerланади.

*Suv manbasining sug‘orish qobiliyati.* Manbadagi suv hajmi uning sug‘orish qobiliyatini belgilaydi. Manbaning *sug‘orish qobiliyati* - hisobiy suv bilan ta’minlanganlik yilida uning suvi bilan qancha maydonni sug‘orish mumkinligidir.

$$F_{\text{net}} = \frac{V_s \cdot \eta}{M_{\text{sol}}^{\text{net}}},$$

$V_s$  – manbadan bir yilda olinadigan suv hajmi,  $\eta$  – sug‘orish tizimining FIK,  $M_{\text{sol}}^{\text{HT}}$  – solishtirma mavsumiy sug‘orish me’yori.

Manbadagi suv xajmi uning sug‘orish qobiliyatini belgilaydi.

Manbaning *sug‘orish qobiliyati* deb, hisobiy suv bilan ta’minlanganlik yilida sug‘orilishi mumkin bo‘lgan maydonga aytildi.

*Suv resurslarini boshqarish.*

Agar,  $V_{\text{talab}} = F_{\text{nt}} \cdot M^{\text{veg}} \cdot \eta$  /  $\eta < V_{\text{manba veg}}$ . bo‘lsa, rejadagi maydonni sug‘orish mumkin,

Agar,  $V_{\text{manba veg}} < V_{\text{talab}} < V_{\text{manba yil}}$ . bo‘lsa, manbaning suv resurslarini

mavsumiy (vegetatsiya davri) boshqarish lozim bo‘ladi, ya’ni sun’iy hosil qilinadigan suv omborining hajmi  $V_{s.o.} = (0,2-0,7) \cdot V_{\text{manba yil}}$ . hajmida loyihalanadi.


Agar,  $V_{\text{manba yil}} < V_{\text{talab}} < V_{\text{ko‘p yillik}}$  bo‘lsa, manbaning suv resurslarini ko‘p yillik boshqarish lozim bo‘ladi. Bunda sun’iy hosil qilinadigan suv omborining hajmi  $V_{s.o.} = (1,2-1,5) \cdot V_{\text{manba yil}}$  qilib loyihalanadi.

Bu yerda: *Vtalab* - sug‘orishga talab qilinadigan suv hajmi;

*Vmanba veg.* - manbadan vegetatsiya davrida sug‘orishga ajratiladigan suv xajmi;

*Vmanba yil* – manbadan yil davomida sug‘orishga ajratiladigan suv hajmi;


*Vko‘p yillik* - manbadan o‘rtacha ko‘p yillik sug‘orishga ajratiladigan suv hajmi.



**151-rasm.** Daryoning rejimini suv omborlari yordamida boshqarish

*Suv manbasining sug‘orishlik qobiliyatini boshqarish.* Suv manbasining sug‘orishlik qobiliyati uning suv rejimini boshqarish orqali, ya’ni suv sarfini va hajmini zarur vaqtida ko‘paytirish orqali amalga oshiriladi. Bu qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimini o‘zgartirish, ya’ni kam suv iste’molli ekinlarni etishtirishni rejalashtirish, sug‘orish tizimining FIK qiymatini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Suv manbasining haqiqiy va hisobiy rejimini bilgan holda uni sug‘orish rejimi bilan solishtiriladi. Buning uchun daryoning gidrograf grafigi va ekinlarning suv iste’moli grafiklarini ustma-ust qo‘yish orqali sug‘orish uchun kerak suv miqdorini va suv manbasining sug‘orishlik qobiliyatini aniqlash mumkin.



152-rasm. Suv manbasi (daryo) rejimining tahlili grafigi

## 19.2. Daryo suv manbalari

Yer kurrasida juda ko‘p katta-kichik daryolar bo‘lib, ulardan eng yiriklari Amazonka, Yanszi, Kongo, Nil, Enisey, Misisipi va boshqalardir.

### 43-jadval. Yirik daryolar tavsifi

Daryolar	Yillik o‘rt. suv sarfi, ming m <sup>3</sup> /s	Suv yig‘ish maydoni, ming km <sup>2</sup>	Uzunligi, km
Amazonka	120	7000	5500
Kongo	40	3690	4320
Ganga	39	2000	2900
YAnszi	31	1808	5800
Enisey	19.9	258/0	5950
Misisipi	19	3220	3220
Lena	16.8	2490	4270
Ob	12.8	2990	5570

Markaziy Osiyoda uzunligi 10 km dan ortiq bo‘lgan 6000 dan ortiq daryo va soylar mavjud. Ularning 3700 tasi Amudaryo va Sirdaryo havzalarida joylashgan.

*Amudaryoning* uzunligi 1415 km, suv yig‘ish maydoni 309 ming km<sup>2</sup>, yillik o‘rtacha suv sarfi 2.0 ming m<sup>3</sup>/s


*Sirdaryoning* uzunligi 2212 km, suv yig‘ish maydoni 219 ming km<sup>2</sup>, yillik o‘rtacha suv sarfi 0,54 ming m<sup>3</sup>/s (Bekobod sh.).


### 19.3. Yer osti suv manbalari

Yer osti suv manbalari sug‘orish maydoniga yaqin bo‘lganida juda arzon va qulay manbalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham chet davlatlarda bunday manbadan keng foydalanishadi. Jumladan, AQSH da 40% sug‘orish maydoni yer osti suv manbasidan sug‘orilsa, XXR da 33%, Hindistonda 30%, O‘zbekistonda esa, rasmiy ma’lumotlar bo‘yicha 5-6% ni tashkil etadi.

Suv manbalarining ko‘rinishiga qarab (buloq, sizot va artezian suv manbalari), suv yer ustiga turli moslamalar yordamida chiqariladi.

#### Yer ostidan suv olish moslamalari





155-rasm. Yer osti suvidan korizlar yordamida foydalanish.

*Yer osti suvlari bilan sug‘orish quyidagi xususiyatlarga ega:* manba debitining kichikligi; suvda loyqa miqdorining yo‘qligi; suv haroratining  $12^{\circ}\text{S}$  dan past bo‘lishi; suv manbasining sug‘orish dalasiga juda yaqin bo‘lishligi; sug‘orish maydonining kichikligi (odatda 15-100 ga).

Tajribalarning ko‘rsatishicha yer osti suvlari bilan 100-600 ga dan kam bo‘limgan maydonlarning sug‘orilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun esa bir guruh suv olish inshootlarining sonini, joylashuv o‘rnini mujassamlash kerak bo‘ladi.

Bu manbaning xususiyatlaridan biri suvning toza ekanligidadir. Bu sug‘orish texnikasi sifatida yomg‘irlatib sug‘orish (yomg‘irlatish mashina yoki qurilmalari) yoki tomchilatib sug‘orish usullarini qo‘llash orqali sug‘orish suvining samaradorligini oshiradi. Yopiq sug‘orish tizimidan foydalanish esa, harajatlarni keskin kamaytiradi, chunki ularda loyqa cho‘kmaydi.

#### 19.4. Mahalliy oqim


**Mahalliy oqim** suv manbalari – yer yuzasiga atmosfyeradan tushgan yomg‘ir, qor suvlaridan hosil bo‘lgan oqovadir.

**Maxalliy oqim** – bahorgi qorlarni yerishi, yomg‘ir suvlari hamda vaqtinchalik suv oqadigan kichik ariq, soy va b., va doimiy suv yig‘ish maydoni kichik bo‘lgan mayda daryolar larning suvoqimi mahalliy oqim deyiladi. Ularning xususiyati – katta suv sarflarining qisqa muddatli va oqim hajmini yillar bo‘yicha o‘zgaruvchanlidir.

Mahalliy oqimda doimiy sug‘orish uchun uni **mavsumiy** yoki **ko‘p yillik** boshqarish lozim. Bu – maxalliy oqimni hovuzlarda va suv omborlarida yig‘ish orqali

amalga oshiriladi.

Ularni joyini tanlashda tabiiy pastliklar, jarliklar, qayirlar va kichik daryolardan foydalilanadi. Tabiiy joylar bo‘lmasa, sun’iy hovuzlar quriladi. *Joy tanlashda:* hajmi maksimal oqimni ushlab qolishi, suv yuzasining maydoninin minimal bo‘lishi, hosildor yerkarni suv bosmasligi, to‘g‘on hajmining kichikligi, o‘zanning suv o‘tkazuvchanligining past bo‘lishiga ahamiyat beriladi.



156-rasm. Mahalliy oqova suvlarning hosil bo‘lishi

$\mu \cdot P$  – tuproqqa shimalgan miqdor

$(1 - \mu) \cdot P = S \cdot P$ , - oqova,

$S = 1 - \mu$ , - oqova moduli.

10-60 mm qalinlikda yoqqan yomg‘ir ba’zida 500-600 ming m<sup>3</sup> suv hajmlarini (katta maydonlarda) tashkil etishi mumkin. Bu suvlarning oqimini to‘xtatmaslik tuproq eroziyasiga, suv toshqinlariga sabab bo‘lib, katta zararli oqibatlarga olib keladi (qishloq xo‘jalik ekinzorlarini suv bosishi, sug‘orish tarmoqlariga loyqa cho‘kishi, tuproq eroziyasidan hosildor qatlamning yuvilishi va h.k.).

Bu suvlar sel omborlarida (O‘zbekiston hududida bunday suv omborlar soni 25 ta) va limanlarda ushlab qolinishi ham ularning zararini bartaraf etadi hamda limanlarda tuproqning bir marotaba namlanishini ta’minlaydi.


*Mahalliy oqova suvlarni to‘plashda quyidagi uslulardan foydalilanadi:* konturli tuproq uyumi (yaylov, daraxt, poliz), kichik chuqurchalar (yaylov), kichik suv to‘plash maydonchalari (yaylov, daraxt), oqim yo‘laklari (yaylov, daraxt), suv to‘plash havza (maskat) lar va yarim aylana yoki trapetsiya ko‘rinishdagi sayoz limanlar (daraxt, yaylov) (150-155-rasmlar).



157-rasm. Konturli tuproq uyumi



158-rasm. Kichik suv to‘plash maydonchalari



159-rasm. Suv to‘plash havzasi  
(Maskat)



160-rasm. Kichik chuqurchalar



161-rasm. Oqim yo‘laklari



162-rasm. Yarim aylana yoki trapetsiya ko‘rinishdagi sayoz limanlar

### 19.5. Limanlab sug‘orish va uning hisobi

Tuproqning faol qatlami ustida ma’lum qalinlikda suv to‘plamini hosil qilib, tuproqni bir marta namlantirish limanlab sug‘orish deb ataladi.

Limanlab sug‘orishning netto me’yori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$M = 100 \cdot H \cdot A \cdot (\beta_{THS} - \beta_{MMNS}), \text{m}^3 / \text{sa}$$

bu yerda:

*N*- namlanish qatlaming o‘rtacha qalinligi va o‘simliklarning turiga bog‘liq bo‘lib, 0,6...1,5 metrga teng;

*A*- tuproqning g‘ovakligi, hajmga nisbatan % hisobida; (40-jadvaldan

tuproqning mexanik tarkibiga qarab olinadi)

$\beta_{THS}$  – tuproqning to‘la nam sig‘imi, hajmga nisbatan % hisobida; (41-jadvaldan tuproqning mexanik tarkibiga qarab olinadi)

$\beta_{MMNS}$  – tuproqning minimal molkulyar nam sig‘imi, hajmga nisbatan % hisobida; (40-jadvaldan tuproqning mexanik tarkibiga qarab olinadi)

#### 44-jadval. Tuproqning g‘ovakligi

Tuproq turlari	G‘ovaklik, hajimga nisbatan % hisobida
og‘ir gilli	50-60
gil	40-60
og‘ir, o‘rta qumoq	40-55
o‘rta qumoq	40-52
engil qumoq	38-50
qumloq	35-45
gilli qum	32-40
qum	30-38

#### 45-jadval. Tuproq nam sig‘imlari, % hisobida.

Tuproq turlari	MGNS og‘irligiga nisbatan %	MMNS og‘irligiga nisbatan %	CHDNS			TNS hajmga nisbatan
			hajmga nisbatan	g‘ovaklikka nisbatan	og‘irligiga nisbatan	
gil	8-12	21-24	45-55	78-85	21-26	45-65
og‘ir qumoq	6-8	18-21	45-55	66-75	21-26	40-55
o‘rta qumoq	5-6	14-18	35-45	55-65	19-21	40-52
engil qumoq	3-5	7-14	30-35	50-60	13-19	38-50
qumloq	1,5-3	3-7	20-30	40-60	13-19	35-45
qum	0,5-1,5	2-3	10-20	35-40	13-19	30-38

Ilmiy tadqiqot institutlari olimlari tomoni olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra sug‘orish me’ yori miqdori quyidagicha qabul qilish mumkin:

Dukkakli, g‘alla ekinlari uchun – 3000 m<sup>3</sup>/ga

Ko‘p yillik o‘tlar uchun – 4000 m<sup>3</sup>/ga

Makkajo‘xori uchun – 3500 m<sup>3</sup>/ga

O‘t va bug‘doy ekiladigan dala uchun – 3000 m<sup>3</sup>/ga

Limanlab sug‘orishning brutto me’ yori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$M^{br} = \frac{M^{net}}{\eta^l}, m^3 / ga$$

bu yerda  $\eta^l$  – limanda suvdan foydalanish koeffitsienti.

Limanni suv bosish davomiyligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$T_n = \frac{M_o}{K_{o'r}}, \text{ kun}$$

bu yerda  $M_o = \frac{M_{br}}{10000}, m$  mavsumiy solishtirma suv me'yori.

$K_{o'r}$  - 0,05 m/sutka, tuproqqa suvning o'rtacha shimalish tezligi.

Sayoz limanlarda suvning o'rtacha chuqurligi

bir pog'onali liman uchun:  $h_{o'r} = \frac{h_{e.katta}}{2}, m$ ,

ko'p pog'onali liman uchun:  $h_{o'r} = \frac{h_{e.katta} - h_{e.kichik}}{2}, m$



formuladan aniqlanadi.

Ko'pincha  $h_{e.kichik} = 0,05 - 0,1 m$


Limanlarning eni 100 m 800 m gacha qabul qilinadi, limanlarning uzunligi esa, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$L = \frac{2 \cdot (h_{o'r} - h_{e.kichik})}{i}, m$$

bu yerda  $i$  – limanning uzunligi bo'yicha nishabligi.



163-rasm. Bir pog'onali liman sug'orish sxemasi.



164-rasm. Ko'p pog'onali liman sug'orish sxemasi.

Limanlar nishabligi 0,005 gacha bo'lgan, sho'rланмаган yerlarda qo'llanadi.

Suvning chuqurligiga qarab limanlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- *sayoz*  $h = 15 \dots 40 \text{ cm.}$
- *o'rta*  $h = 40 \dots 70 \text{ cm.}$
- *chuqur*  $h = 70 \text{ cm.}$

Yer nishabligi 0,002 gacha bo‘lgan yerlarda *sayoz* limanlar qo‘llanladi. Yer nishabligi 0,001 gacha bo‘lgan yerlarda 1 pog‘onali limanlar, yer nishabligi 0,001 dan yuqori bo‘lgan esa ko‘p pog‘onali limanlar loyihalaniladi.

### **Liman marzasining balandligi.**


$$H_{\pi} = 1,1 \cdot (h_{\vartheta, \text{kamma}} + a), \text{ m}$$

bu yerda  $h_{e, \text{katta}} = 1,8 \cdot h_{o, r}, \text{ m}$      $a = 0,15 \dots 0,50 \text{ m}$  (kichik qiymat *sayoz* limanlar uchun).

Bir marotaba sug‘orishda suv:

dasht o‘simliklari uchun 15-25 kun, ekilgan o‘tlar uchun 5-10 kun, don ekinlari, himoya daraxtlari uchun 2-5 kun limanda saqlanishi mumkin.


1 ga limanli sug‘orish maydoniga 6-20 hektar suv to‘plash maydoni kerak. Shu hisoblardan limanlarning soni, ulardagi suv qatlami qiymatidan suv to‘sqichlarining balandligi qiymati aniqlanadi.



165-rasm. Limanning hisob sxemasi

Limanning qirqimdagи ko‘rinishi:

A-tuproqli to‘sqich; B-yumshоq matoli to‘sqich.




166-rasm. Limanli sug‘orish sxemalari


Limanlar sxemasi:

a- yarusli, daryodan toshqin suvlaridan to‘ldiriladi; b – yarusli, daryo poymasida; v – oqib o‘tuvchi; g – oddiy liman; d – o‘ra (kotlovan) dagi yarusli; e – yarusli, suv omboridan to‘ldiriladi; j – yarusli, kanaldan to‘ldiriladi; z – liman-chekli sug‘orish tizimi; i – sayoz yarusli liman.

1, 2 – suv boshqaruvchi, taqsimlovchi va oqimni yo‘naltiruvchi chel (devor) lar; 3- to‘g‘onlar; 4 – nasos stansiyasi; 5 – tabiiy suv aylanib o‘tguvchilar; 6, 7 – suv chiqargichlar.



167-rasm. Daryo limanlari



168-rasm. Yarusli limanlar

### 19.6. Chiqindi suvlar

Chiqindi suvlar deganda foydalanish joyidan gidravlik uslubda kanalizatsiya yordamida uzoqlashtirilgan, insonlarning kundalik hayotida, ishlab chiqarish korxonalarida, chorvachilik komplekslarida foydalanilgan suvlar tushuniladi. Chiqindi suvlar yordamida ekinlarni sug‘orish ko‘plab chet el davlatlarida, jumladan, Avstraliyada (42%), Angliyada (35%), Isroilda (50%) qo‘llanilmoqda. Chiqindi suvlar bilan sug‘orish muhim hisoblanadigan xo‘jalik masalalarni, jumladan, tuproqlarni suv va ozuqa elementlari bilan boyitish, dalaga kiritiladigan o‘g‘itlar qiymatini kamaytirish, chiqindi suvlarni tozalash, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olish kabi masalalarini yechish imkonini byeradi.

Chiqindi suvlar kelib chiqishi bo‘yicha xo‘jalik, ishlab chiqarish, aralash, chorvachilik va toshqin suvlariga farqlanadi.

Chiqindi suvlar tarkibi kimyoviy, baktyeriologik va mexanik chiqindilar, ishlab chiqarish xususiyatlari, foydalanish me’yorlari, yog‘in miqdori va boshqa omillarga bog‘liqdir.

Ular tarkib jihatidan tashqi muhitga ta’siri, tarkibidagi yerigan modda va o‘g‘itlar bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Ishlab chiqarish chiqindi suvlaridan tashqari barcha chiqindi suvlar sug‘orish uchun yaroqli hisoblanadi.

Chiqindi suvlar tarkibida o‘simlik rivoji uchun xavfli moddalar bo‘lishi

mumkin. Bu holda ular maxsusuv tozalash stansiyalarida zararlilik miqdori ruxsat etilgan miqdordan ortmasligi sharti bajarilguncha tozalanadi.

Chiqindi suvlarning har qanday turi ham ma'lum bir texnologiya asosida mexanik va biologik tozalagichlarda tozalanadi.

Mexanik tozalashda chiqindi suvlar to'rlardan, yog‘ ushlagichlardan va dastlabki tindirgichlardan o'tkaziladi. Chiqindi suvlar mexanik tindirgich tizimiga kiritilishidan oldin havo kislorodi bilan boyitsa, mexanik tozalagichning unumдорлиги 70% ga ortadi.

Mexanik tozalangan chiqindi suvlar sug‘orish uchun qo‘yilgan talablarga javob byermasa, ular biologik tozalagichlardan o'tkaziladi.

Biologik tozalash tabiiy va sun’iy usullarda amalga oshiriladi. Tabiiy biologik tozalagichlar turkumiga biologik hovuzlar, sizilish va sug‘orish dalalari kiradi.


Chiqindi suvlar bilan sug‘orishda maxsus sug‘orish tizimi barpo etiladi. Bu tizimning asosiy elementi bo‘lib dehqonchilik sug‘orish maydoni (DSM) hisoblanadi. Bu maydonda chiqindi suvlar tabiiy tuproq-biologik tozalanadi va zararsizlantiriladi.

DSM lar 3 xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: yil davomida chiqindi suvlarni qabul qiluvchi va sug‘oruvchi (mexanik tarkibi yengil va yaxshi suv siziluvchi tuproqlarda); chiqindi suvlarni yil davomida qabul qiluvchi va sug‘orishni faqat vegetatsiya davridagina amalga oshiruvchi; chiqindi suvlarni vegetatsiya davrida qabul qiluvchi va sug‘oruvchi.

DSM ning maydoni 10 ga dan kam bo‘lmasligi, maydon nishabligi 0,0005-0,01, sizot suvlarining sathi chuqur ( $> 5$  m), tuprog‘i kam unumdor va foydanilmayotgan hamda suv sizilish qiymatining yuqori bo‘lishligi talab qilinadi.

DSM dagi inshootlar tizimi (169-rasm) tindirgich yoki tozalash inshootlaridan,

nasos stansiyasidan, quvurlardan, biologik tozalash havzalaridan, sug‘orish va tashlama tarmoqlardan, yo‘llar, himoya daraxtlari va binolardan tashkil topadi.



169-rasm. DSM da chiqindi suvlar bilan sug‘orish sxemasi:

1-aholi punkti; 2-kollektor; 3-mexanik tozalash inshooti; 4-nasos stansiyasi; 5-quvur; 6-havza; 7-biologik tozalash havzasi; 8-taqsimlovchi quduq; 9-sug‘orish tarmog‘i; 10-ko‘chma sug‘orish quvuri; 11-suv chiqarish inshooti; 12-tashlama inshoot

shart-sharoitlardan va qishloq xo‘jalik ekinlarining turidan kelib chiqqan holda 40-700 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etadi.

Tekislangan va yyer nishabi 0,001-0,02 bo‘lgan maydonlarda yoppasiga ekiladigan ekinlar yyer ustidan pollab va bostirib sug‘oriladi.

Kuzgi va sovuq tushgan davrlarda DSM larda tirkishli egatlar yordamida sug‘orishni qo‘llash mumkin.

Sanitariya nuqtayi nazaridan chiqindi suvlar bilan sug‘orishda tuproq ichidan sug‘orish usulini qo‘llash tavsiya etiladi.

**Chiqindi suvlar sifatiga qo‘yiladigan agromeliorativ talablar.** Chiqindi suvlar bilan qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda tuproq unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish uchun chiqindi suvlar ma’lum bir agromeliorativ talablarga javob berish kerak.

Chiqindi suvlarni sug‘orishga yaroqliligi ularni kimyoviy tahlili asosida amalga oshiriladi.

Sug‘orish uchun qo‘llaniladigan chiqindi suvlar tarkibidagi moddalar miqdori kerakli miqdordan ortmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda ular nafaqat o‘simlikning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki ushbu mahsulotni iste’mol qilgan tirik organizm ham turli kasalliklarga chalinishi mumkin.

Jumladan, chiqindi suvlar tarkibida azot moddasining ko‘pligi yem-xashakning ko‘payishiga olib kelishi bilan birga ular tarkibidagi nitrat miqdorini oshiradi. Bu holat bunday yem-xashakni iste’mol qilgan jonivorlarning tanasi zaharlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham chiqindi suvlar bilan sug‘orishda tuproqqa byeriladigan azotning miqdori 250-280 kg/ga dan oshmasligi kerak. Yana bir misol, chiqindi suvlar tarkibida temir moddalarining ko‘p bo‘lganligi ham jonivorlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyidagi 2-jadvalda sug‘orish uchun qo‘llaniladigan chiqindi suvlar tarkibidagi ba’zi bir ingrediyentlarning yo‘l qo‘yilgan miqdori qiymatlari keltirilgan bo‘lib, bu qiymatlarga rioya qilish orqali chiqindi suvlar bilan sug‘orilgandan so‘nggi aks ta’sirlarni bartaraf etishga yerishiladi.

Bu borada to‘plangan tajribalar asosida chiqindi suvlarni sug‘orishda qo‘llash uchun ularga quyidagi agromeliorativ talablar qo‘yiladi.

*pH* -5,5 dan 8,5 gacha, eng yaxshisi 6,5-8; quruq qoldiq - 4,5 g/l gacha, *Ca* va *Na* qiymatlari - 500 mg/l gacha, *HCO*<sub>3</sub><sup>I</sup> va *SO*<sub>4</sub><sup>II</sup> anionlar -500, *Cl*<sup>I</sup> anioni 200 mg/l gacha; *CO*<sub>3</sub><sup>II</sup> anioni 100 mg/l dan ortmasligi kerak.

## 46-jadval. Chiqindi sug‘orish suvlari tarkibiga qo‘yiladigan me’yorlar, mg/l

Ingrediyentlar	Tavsiya etilgan me’yoriy qiymatlar		
	IHD kelishivi bo‘yicha	N.I.Xlebnikov bo‘yicha	M.F.Budanov bo‘yicha
1	2	3	4
Moddalarning umumiy konsentratsiyasi	Mexanik tarkibi yengil tuproqlarda – 5000; o‘rta tuproqlarda – 3000; og‘ir tuproqlarda – 1500		
Azot miqdori	vegetatsiya davri uchun – 250 kg/ga		
Atseton	40,0	40,4	-
Bariy	4,0	-	-
Bor	0,5	-	-
Volfram	10,0	10,0	10,0
Detyergentlar	30,0	-	-
DDT	0,5	-	-
Temir	20,0	-	-
Kaprolaktam	200,0	-	-
Kobalt	1,0	-	-
Magniy	300,0	-	-
Marganes	1,0	-	-
Mis	2,0	2,0	2,0
Metanol	200,0	200,0	200,0
Metil efiri	50,0	-	-
Margimush	0,2	-	-
Natriy karbonat (soda)	Sho‘rlanmagan tuproqlarda – 200,0	-	-
Natriy karbonat	Sho‘rlanmagan tuproqlarda – 100,0		
Neft mahsulotlari	-	50 – 100	-
Nikel	0,5		
Nitritlar	0,5	-	-
Nitril akrilovol kislotasi	100,0	100,0	-
Rodanidlar	2,0	-	-
Qo‘rg‘oshin	-	-	-
o‘simlik yog‘i	5,0	-	-
Sulfatlar	500,0	-	-
shu jumladan: sulfat kobalti mis sulfati	2,0 7,0	-	-
Fenol	40,0	-	-
Formaldegid	50,0	58,0	-
Xloridlar	300,0	-	-
Xrom	-	1,0	1,0
Sianist birikmalari, sianid kaliyadan tashqari	10,0	-	-
Sianid kaliya	0,2	-	-
Rux	2,0	0,2	2,1

Umumiyl azotning miqdori 150 mg/l, ammiakniki – 100 mg/l, kaliy 250 mg/l, maxsus organik moddalarning umumiy miqdori esa 100-150 mg/l dan ko‘p bo‘lmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Chorvachilik chiqindi suvlaridan foydalanish.** Chorva komplekslaridan chiqadigan chiqindi suvlar fizik-kimyoviy va sanitar-gigiyenik xususiyatlari bilan boshqa chiqindi suvlardan farq qiladi. Ular tarkibi bo‘yicha qariyb bir xil hisoblanib, tarkibida o‘simplikni zaharlovchi moddalar bo‘lmaydi.

Chorvachilik chiqindi suvlarining tarkibi chorva mollarining turi, ularning yoshi, ularga byeriladigan ozuqaga bog‘liq bo‘lib, qora mollar kompleksidan chiqadigan chiqindi suvning minyeralizatsiyasi 1,2-4,3 g/l, cho‘chqachilik komplekslaridan chiqayotgan suvlarda esa 2,3 g/l gacha bo‘ladi (3-jadval).

Chorvachilik chiqindi suvlarini sug‘orish uchun qo‘llashda ularning minyerallashganligi 1,5 g/l dan kam, ular tarkibidagi umumiylazot 100-120 mg/l gacha bo‘lishi kerak. Bu qiymatlar ruxsat etilgan qiymatdan katta bo‘lsa, chorvachilik chiqindi suvlari oddiy toza sug‘orish suvlari bilan aralashtirilib, 1 g/l konsentratsiyaga keltirib sug‘orishga byerilish nisbat darjasini quyidagicha aniqlanadi:

$$k = S_a + S_a \cdot S,$$

bu yerda  $S_a$ -chorvachilik chiqindi suvlaridagi tuz miqdori, g/l;  $S$ -aralashtiriladigan toza sug‘orish suvlaridagi tuz miqdori, g/l.

#### **47-jadval. Chorvachilik chiqindi suvlarining kimyoviy tarkibi, mg/l**

Ingrediyyentlar	Qoramol kompleksida		Cho‘chqachilik kompleksida	
	eng kam	eng ko‘p	eng kam	eng ko‘p
$CO^{2-}$	yo‘q	yo‘q	yo‘q	yo‘q
$HCO_3^-$	1067,0	3551,0	579,5	1891,0
$Cl^-$	52,3	623,0	23,0	340,8
$SO_4^{2-}$	10,0	96,0	67,8	161,0
$NO_3^-$	izi mavjud	4,8	izi mavjud	4,0
$P_2O_5^-$	110,2	342,0	43,9	138,0
$K^+$	132,0	680,0	70,6	282,0
$Na^+$	70,0	510,0	97,0	340,0
$Ca^{2+}$	50,0	440,0	40,0	160,0
$Mg^{2+}$	33,6	204,0	37,2	72,0
$NH_4^+$	270,0	725,0	112,0	306,0

<i>pH</i>	6,4	8,6	7,4	8,3
Umumiy azot	160,0	1120,0	164,0	560,0
Quruq qoldiq	1748,0	6918,0	1226,0	3142,0
Minyeralizatsiya	1260,0	4298,0	764,0	2326,0


Ushbu sug‘orish suvlari tarkibida natriy va magniy miqdorining ko‘p bo‘lishi yyerlarning sho‘rlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu suvlarning sug‘orish uchun yaroqli ekanligini tekshirmsandan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘orishga berib bo‘lmaydi. Tekshirishni quyidagi formuladan foydalanib amalga oshirish mumkin:

$$k = \frac{0,23 \cdot Na \cdot S}{Ca + Mg} < 1$$

bu yyerda *S*-tuzlarning miqdori,g/l; *Na*, *Mg*, *Ca*-shu elementlarning miqdori, mg ekv.

*k* < 1 bo‘lsa, bu suv to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘orishga byerilishi mumkin, aks holda bu suvlar toza sug‘orish suviga aralashtirilib sug‘orishga byerilishi kerak bo‘ladi.

Shu bilan birga, bu chiqindi suvlarda kasallik tarqatuvchi baktyeriyalar va gjija urug‘lari bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bunday suvlar sug‘orishga uzatilishdan oldin 6-7 oy maxsus havzalarda karantin muddatini o‘tashi kerak.



170-rasm. Chorvachilik chiqindi suvlarini sug‘orishga tayyorlash sxemasi:

**1**-chorvachilik kompleksi; **2**-to‘plash inshooti: **3**, **6**, **8**-nasos stansiyalari; **4**-tindirgich; **5**-tindirilgan oqova hovuzi; **7**-toza suv bilan aralashtirgich; **9**-sug‘orish maydoni

Hozirda chorvachilik chiqindi suvlarini sug‘orishga tayyorlash komplekslari mavjud (170-rasm). Bu komplekslarda chiqindi suvlar tozalanmaydi, balki zararsizlan-tiriladi.

Bu suvlar (sharbat suvi) yyer ustidan egatlab sug‘orish usulida ekin dalalariga uzatiladi.

Har qanday chiqindi suv tarkibida og‘ir metallar, pestitsidlar, neft mahsulotlari, kir yuvish vositalari mavjudligi aniqlanganda, ularning konsentratsiyasi **47-jadvalda** keltirilgan yo‘l qo‘yilgan miqdorlar bilan solishtiriladi. Agar bu elementlarning suvdagi miqdori jadvalda keltirilgan yo‘l qo‘yilgan miqdorlardan ko‘p bo‘lsa, bu suvlar toza sug‘orish suvlari bilan aralashtiriladi yoki ular turli uslublar yordamida suvdan yo‘qotiladi.

**Zovur-tashlama suvlari bilan sug‘orish.** Sug‘orish maydonlarining tobora oshib borishi bilan chuchuk suvlarga bo‘lgan talab ham tobora ortmoqda. Yangi sug‘orish manbalarini izlab topish hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu muammoni yechish yo‘llaridan biri minyerallashgan zovur-tashlama suvlaridan foydalanishdir.

Hozirda kollektor-zovur tarmoqlariga kelib tushadigan zax va tashlama suvlar o‘n millionlab metr kubni tashkil etib, ularning minyeralizatsiyasi (2-7 g/l) unchalik yuqori emas va shu bilan birga ularning tarkibidagi suvda yerigan o‘g‘itlar miqdori daryo suvlarinikiga nisbatan 2-5 barobar ortiqdir.

#### **48-jadval. Sug‘orish suvidagi ba’zi elementlarning yo‘l qo‘yilgan miqdorlari,**

**mg/l**

Ko‘rsatkichlar	Miqdori	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Azot birikmalari	10	Nitrilakril	50
Aluminiy	132	Natriy karbonat	200
Aluminiy sulfat	10	Nitratlar	200
Aluminiy ioni	10-100	Nitridlar	0,5
Ammiak	150	Natriy	300
Atseton	40	Natriy xlorid	500
Bariy	4	Rodanidlar	2-5
Benzin	0,1	Rux	1
Bor	1,0	Sulfatlar	600

Vodorod oltingugurt	30	Temir	15-17
Volfram	10	Uran	0,6
Kalsiy	300	Fenol	50
Kobalt sulfat	2-5	Formaldegid	100
Kaprolaktam	200	III valentli xlor	0,5
Kadmiy	0,2	Sian	1
Marganes	1,0	Sianidlar	50
Magniy	300	Efir	30
Mis	3-10	Qalay	0,1
Margimush	0,5	Qorasaqich	5-10
Nikel sulfat	2,5	Qo'rg'oshin	0,1
Neft mahsulotlari	50-100		

Minyerallashganlik darajasi yuqori bo'lgan suvlar bilan sug'orishda, albatta, sug'orish maydonlari zovurlangan va sug'orish me'yorining odatdagidan (20-30%) ko'p bo'lishligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq bunday suvlar bilan uzoq muddatda sug'orish tuproqlarning sho'rlanishiga olib keladi.

Minyerallashgan zax va tashlama suvlar bilan sug'orishda, muntazam ravishda ularning minyerallashganligi va sifati nazorat qilinishi muhim hisoblanadi.

Zovur-tashlama suvlarining sifatini tezkorlik bilan nazorat qilish - umumiyl minyeralizatsiya sho'r o'lchagich yordamida, kimyoviy tarkib esa har bir sug'orish tizimida ma'lum holatlar uchun tuziladigan maxsus grafiklar asosida amalga oshiriladi.

Minyerallashgan suvlarning sifatini yaxshilash maqsadida ularga qo'shiladigan chuchuk suv miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$V_1 = \frac{V_2 \cdot (S_1 - S)}{S_d - S_1},$$

bu yerda  $V_2$ -minyerallashgan suv hajmi, l;  $S_1$ -hosil qilinishi kerak bo'lgan suvlardagi tuz miqdori, g/l;  $S_d$ -zovur-tashlama suvlaridagi tuz miqdori, g/l;  $S$ -chuchuk suvlardagi tuz miqdori, g/l.

Minyerallashgan zovur-tashlama suvlar bilan yer ustidan (egatlab, botirib) sug'orish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, ular sholi yetishtirish orqali sho'rlangan yerlarning sho'rini yuvishda samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda har yili 1.5 km<sup>3</sup> chiqindi suvlar shakllanmoqda. Ularning 50%

kommunal-xo‘jalik, 14% sanoatga to‘g‘ri keladi. Bu suvlar bilan 200 ming hektar yer sug‘orilishi mumkin. Hozirgi kunda bu suvlarining 50% i suv xo‘jalik balansida ishtirok etmoqda.

Yaqin kelajakda O‘zbekistonda chiqindi suvlar hajmi – 5 km<sup>3</sup>/yil (Sirdaryo havzasida -3 km<sup>3</sup> va Amudaryo havzasida – 2 km<sup>3</sup> ) ga etishi ko‘tilmoqda. Bu suvlar bilan 600 ming hektar yer sug‘orilishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Suv resurslari nima va uning turlari?
2. Doimiy (statistik) va qaytadan tiklanib turuvchi suv resurslarining farqi nimada?
3. Yer sharida suvning aylanishini tushuntiring.
4. Sug‘orma dehqonchilikdagi suv manbalari.
5. Suv manbalaridan kompleks foydalanish nima degani?
6. Suv manbalarining ko‘rsatgichlari nima bilan baxolanadi?
7. Manbaning sug‘orish qobiliyati nima va qanday aniqlanadi?
8. Markaziy Osiyodagi daryolar va ularning xaraktyeristikalarini.
9. Ko‘llar va soylar. ularning turlari.
10. Suv omborlari va ularning ko‘rsatgichlari.
11. Yer osti suv manbalari va ulardan suv olish moslamalari.
12. Yer osti suvida sug‘orish tizimining xususiyatlari.
13. Mahalliy oqim suv manbalari va ularni boshqarish.
14. Maxalliy oqim turlari
15. Limanlar, turlari va limanli sug‘orish sxemalari.
16. Limanlarning hisobi.
17. Chiqindi suvlar bilan sug‘orish.
18. Chiqindi suvlarning turlari.

## **20. SUVNI MEXANIK KO‘TARIB SUG‘ORISH**

### **20.1. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orish to‘g‘risida ma’lumotlar**

Sug‘orish manbasidagi suvning sathi sug‘orish maydonining yer sathiga

nisbatan past bo‘lganda suvni mexanik ko‘tarib sug‘orish qo‘llaniladi.

Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda asosiy inshoot nasos stansiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi sug‘oriladigan 4,3 mln. ga ekin maydonlarining 53 % ga 1588 dona nasos stansiyalari va qurilmalari suv ko‘tarib byeradilar.

Bundan tashqari Suv iste’molchilari uyushmalari va fermyer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatadigan qishloq xo‘jalik yerlarining yana 25 % ga ham 30 000 donadan ortiq kichik nasos stansiyalari va qurilmalari yordamida suv etkazib byeriladi.

Yer osti suvlari sathini tartibga solish, ichimlik va sug‘orish suvi bilan ta’minlash maqsadida respublikada 9800 donadan ortiq vyertikal quduqlarga o‘rnatilgan nasos qurilmalari ekspluatatsiya qilinadi. Jumladan, 4100 dan ortiq vyertikal tik quduqlar va 3451 dona vyertikal zovurlarda ham nasos agregatlari qo‘llaniladi. 153 dona meliorativ nasos stansiyalari mavjud.

Qishloq xo‘jaligida yiliga o‘rtacha iste’mol qilinadigan 11,0 mlrd.kVt/soatdan ortiq elektr energiyaning 8,2 mlrd.kVt/soati nasos stansiyalari tomonidan iste’mol qilinadi yoki yiliga suv xo‘jaligi kompleksini ekspluatatsiya qilish uchun ajratiladigan mablag‘ning 75 % davlat nasos stansiyalarini ekspluatatsiya qilishga sarflanadi. Shuning uchun mamlakatimiz mashinali sug‘orish bo‘yicha dunyoda etakchi o‘rnlarni egallab turibdi.

Sug‘oriladigan yerlarni mexanik suv ko‘tarib sug‘orish: barcha maydonni yoki ayrim baland joylarni (o‘zi oqar sug‘orish tizimidagi) sug‘orish mumkin. Ikkinchchi holatda baland joylarni sug‘orish uchun zarur bo‘lgan energiyani sug‘orish tizimining o‘zidan, ya’ni tarmoqda mavjud bo‘lgan sharsharalardagi gidravlik energiyadan olish mumkin.

Suv oluvchi mexanik qurilmalar ikki xil: ochiq manbalardan va yopiq – tik quduqlardan oluvchi bo‘lishi mumkin. Birinchisi odatda ko‘p suv olinishi munosabati bilan katta bo‘ladi.

Sug‘oriladigan yerlarni mexanik suv ko‘tarib sug‘orish qimmatligini hisobga olib:


a – sug‘orishga imkon boricha kam suv olish, kanallardan suv yo‘qotilishini bartaraf etish, sug‘orish tizimining FIK ni oshirish;

b – kanallarda jadallashtirish koefitsientini kamaytirish;


v - sug‘orish tartibi grafigini optimallashtirish (suv manbasi suv sathi bilin muvofiqlashtirish) – suv ko‘tarish balandligini pasaytirish lozim.

## 19.2. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orish sxemalari


Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda bosh sug‘orish tarmog‘ining planda joylashuvi va nasos stansiyalarining joylashuv o‘rnini to‘rtta sxema ko‘rinishida bo‘ladi.




**171-rasm. 1-sxema.** Sug‘orish maydoni to‘liq nasos stansiyasiga ulangan bosimli quvurdan suv oladigan yakka bosh kanal orqali sug‘oriladi.



**172-rasm. 2-sxema.** Sug‘orish maydoni bir nechta suv ko‘tarish zonalariga bo‘lingan bo‘lib, har bir zona o‘ziga tegishli mustaqil bosimli quvurlardan suv oladigan bosh kanallar orqali sug‘oriladi.



**173-chizma. 3-sxema.** Sug‘orish maydoni bir necha suv ko‘tarish zonalariga bo‘lingan bo‘lib, suv zona bosh kanallariga quyidan yuqoriga qarab ketma-ketlikda ko‘tarilib byeriladi.



**174-rasm. 4-sxema.** Har bir zona mustaqil suv ta’motiga ega.

*Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orish sxemalarini qabul qilish.* Sug‘oriladigan yerkarni mexanik suv ko‘tarib sug‘orish sxemalarini qabul qilishda texnik-iqtisodiy hisoblar amalga oshiriladi. Barcha maydonga bitta NS suv byerilganda, uchta zonaga bo‘lib, alohida-aloxida NS lar bilan suv ko‘tarilganga qaraganda katta quvvatli NS, katta suv sarfni katta balandlikka ko‘tarish va katta bosh kanal loyihalanishi kerak bo‘ladi.

$$\frac{Q \cdot \gamma \cdot H}{75 \cdot \eta} > \sum \frac{Q_1 \cdot \gamma \cdot H_1}{75 \cdot \eta_1}, M$$

Alovida NS lar kam suvni kam balandlikka ko‘tarishadi. Ammo, alovida-aloxida bosh kanallar bo‘lishi esa, ekspluatatsiya harajatlarini oshiradi. Shuning uchun texnik-iqtisodiy hisoblar amalga oshiriladi.

### 19.3. Nasos stansiyalari

Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda suv ko‘tarish zonalarining soni, ularning joylashish balandligini belgilash sug‘orish massivining relef shart-sharoitlariga, qurilish va ulardan foydalanish sarf-harajatlarga bog‘liq holda qabul qilinadi.

Nasos stansiyasining turi va ish rejimini aniqlashda sug‘orish rejimi yoki suv berish grafigi, sug‘orish suvini ko‘tarish balandligi, sug‘orish manbasining rejimlarini belgilash kerak bo‘ladi.

Meliorativ tizimlarda *quzg‘almas*, *ko‘chma* va *suzuvchi* nasos stansiyalaridan foydalilanadi. Nasos stansiyasining turi sug‘orish maydonining ko‘lami, suv sarfi va bosim qiymati suv manbasining rejim xususiyatlari va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.



175-rasm. Qo‘zg‘almas va suzuvchi nasos stansiyalari



176-rasm. “K” va “D” tipidagi nasoslar.

Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda boshqariladigan havza yoki suv

omborlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘zi oqar sug‘orish tizimida boshqariladigan havza yoki suv ombori sug‘orish maydonining eng baland nuqtasiga o‘rnataladi.

Suv oluvchi mexanik qurilmalar ikki xil: *ochiq manbalardan va yopiq – tik quduqlardan* oluvchi bo‘lishi mumkin. Birinchisi odatda ko‘p suv olinishi munosabati bilan katta bo‘ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orish qachon qo‘llaniladi?
2. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishdagi asosiy inshoot.
3. O‘zbekiston Respublikasidagi qancha maydonlar nasos stansiyalari va qurilmalaridan suv ko‘tarib sug‘oriladi?
4. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishga qancha elektr energiya sarflanadi?
5. Suv oluvchi mexanik qurilmalarning turlari.
6. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda bosh sug‘orish tarmog‘ining planda va nasos stansiyalarining joylashuv sxemalari.
7. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda bosh sug‘orish tarmog‘ining planda va nasos stansiyalarining joylashuvining 1- sxemasi.
8. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda bosh sug‘orish tarmog‘ining planda va nasos stansiyalarining joylashuvining 2- sxemasi.
9. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda bosh sug‘orish tarmog‘ining planda va nasos stansiyalarining joylashuvining 3- sxemasi
10. Suvni mexanik ko‘tarib sug‘orishda bosh sug‘orish tarmog‘ining planda va nasos stansiyalarining joylashuvining 4- sxemasi.
11. Sug‘oriladigan yerlarni mexanik suv ko‘tarib sug‘orish sxemalarini qabul qilish shartlari.

## **21. EROZIYA VA UNGA QARSHI KURASH**

### **21.1. Eroziya va uning turlari**

Tog‘ jinslarining, tuproqning yoki boshqa yuzalar butunligining va ularning fizik-kimyoviy hususiyatlarini parchalanib, buzilishi *eroziya* deb ataladi.

